MAKTAB TA'LIMI
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/.5
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

2026-yil, 4-son

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o‘quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA’LIMI:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,
4-son

Toshkent – 2026

Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi

ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

Bosh muharrir
ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari
RAJABOV Sherzod Umurzoqovich

Tahrir hay'ati:
YULDASHEV Maksudjon Abdullayevich
RADJABOV Sardor Baxtiyorovich
IBRAIMOV Xolboy Ibragimovich
PIOTR Fokich Borovski
GUNDA Tire
KOVALEVA Galina Sergeyevna
IBRAGIMOV A'lamjon Amrilloyevich
ERGASHEVA Malohat Tursunovna
XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna
JUMANAZAROV Sirojiddin Salaydinovich
URINBAYEVA Dilbar Bazarovna
IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich
ALKAROV Elyor Maxmudovich
BADALOVA Maqsuda Umarovna
BOTIROV Hamid Hakimovich
OTAMURODOV G'olibjon Ro'zimurodovich
XURRAMOV Isroil Abdurashidovich
BABAYEVA Nargiza Muzaffarovna

Masul kotib:
DAMINOVA Shoxista Kabulovna

Adabiy muharrir:
MIRZOXIDOVA Laylo Baxtiyorovna

Tarjimon:
ABDULLAYEVA Maxprat Nurmatovna

MAKTAB TA'LIMI:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and
educational-methodical journal
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

UO'K 373.3/.5
ISSN: 3060-4788

Muassis:
Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti



"Har bir muallimning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir".

MUNDARIJA CONTENTS

Ta'lim menejmenti va boshqaruv

5 Ismailov Abduvali Abdumalikovich.
Raqamli ta'lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish

14 Islamova Dilfuza Dilshodovna.
Maktab direktorining nutq madaniyati orqali ota-onalar bilan samarali muloqot

20 Turikova Lazokat Mashrabovna.
Umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion rekruting, pedagoglarni saralashda raqamli va psixometrik yondashuvlar

31 Otamurodov G'olibjon Ro'zimurodovich.
Ta'lim menejmentida samaradorlikni aniqlash mezonlari va ularni joriy etishning pedagogik imkoniyatlari

43 Sharipov Ilyosbek Ilxomovich.
Ta'lim tashkiloti rahbari faoliyatini takomillashtirishda kompetentli yondashuvning ahamiyati

49 Mirmamatova Ziyoda Shavkat qizi.
Maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar

Ta'lim uzluksizligi va islohotlar

59 Turg'unov Axror Yodgor o'g'li.
Ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

68 Rajabov Ulug'bek Tuychiyevich, Omonova Jumagul G'affor qizi.
Uchburchakning yuzi mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar integratsiyasi

76 Xamdamova Shoxista Yusup qizi.
Hamkorlikda o'qitish (co-teaching) metodikasining prezident maktablari ingliz tili darslarida kognitiv-analitik fikrlashni shakllantirishdagi o'rni

81 Yusufjonova Nazokat Nig'madjon qizi.
Adabiyot ta'limida ai-prompting: o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi

90 Nurmetova Muhayyo Matlatibovna.
Kattalar ta'limida innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari

95 Nuradilova Aselxan Dilshodxo‘ja qizi, Jumayeva Feruza Avlonazar qizi.
Boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlashga qo‘yiladigan metodik talablar

103 Muxtorov Sultonali Mamadaliyevich, Ma’rufxonova Muslimaxon Ikromxon qizi.
Boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘qitishning ilmiy metodik asoslari

112 Rustamova Rushona Baxramjonovna.
Andijon shahridagi prezident maktabida o‘quv tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish tajribasi

Xalqaro tadqiqotlar

121 Ismailov Abduvali Abdumalikovich, Odilova Madinabonu Orifjon qizi.
Maktab boshqaruvida markazlashuv va desentralizatsiya sharoitida o‘qituvchilar ishtiroki (TALIS 2024 natijalari asosida)

130 Turg‘inova Yoqutxon Doniyor qizi.
7-sinfdan boshlab PISA yondoshuvi asosida o‘qish savodxonligini rivojlantirish samaradorligi

Malaka oshirish va qayta tayyorlash

136 Daminova Shoxista Kabulovna.
Umumta’lim maktablari rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida mustaqil ta’lim shaklini joriy etishning zarurati

145 Malikova Xurshida Ikramovna, Turatova Shahnoza Xolmumin qizi.
Qo‘shimcha ta’lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning o‘ziga xosligi

Maktab ta’limini tashkil etish

152 Dehqonboyev Muhammad To‘lqin o‘g‘li.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan xorijiy tajribalar tahlili va ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari

158 Ataxonova Manzura Xusanjon qizi.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining korreksion-pedagogik faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari

Psixologik xizmat

171 Xolikova Xilola Gulamovna.
O‘quvchilarda emotsional charchash va bardoshlilik darajasi: maktab sharoitida korrelyatsion tahlil

Umumiy pedagogika, pedagogika tarixi va ta’lim

179 Mattiyev Murod Shamsiyevich.
Kompetensiyaviy pedagogik paradigma: umumta’lim maktablarida joriy etish amaliyoti va muammolar

186 Axmedov Ijod Narziqul o‘g‘li, Axmedov Ali Usmonovich.
“Z” va “ALFA” avlod o‘quvchilari uchun an’anaviy ta’limning cheklovlari va pedagogik g‘oyalarning zaruriy transformatsiyasi

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTAB DIREKTORLARI FAOLIYATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
abduvaliismailov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan raqamli o'zgarishlar, ularning maktab boshqaruviga ta'siri va direktorlardan talab etilayotgan yangi kompetensiyalar yoritib berilgan. Shuningdek, boshqaruv samaradorligini pasaytiruvchi omillar – axborot texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanmaslik, raqamli savodxonlikning pastligi, boshqaruv jarayonlarining an'anaviy usullarga tayanib qolishi kabi muammolar aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish, direktorlarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish hamda ta'lim muassasalarida samarali axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola maktab boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, raqamli transformatsiya, maktab direktori, boshqaruv samaradorligi, ta'lim boshqaruvi, raqamli kompetensiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayonini raqamlashtirish.*

Совершенствование деятельности директоров школ в условиях цифровой образовательной среды на основе цифровой трансформации и повышение эффективности управления

Исмаилов Абдували Абдумаликович,
ректор Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони,
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования деятельности директоров школ в условиях цифровой образовательной среды на основе цифровой трансформации, а также повышения эффективности управления. Освещаются происходящие цифровые изменения в современной системе образования, их влияние на управление школой и новые компетенции, предъявляемые к директорам. Также выявлены факторы, снижающие эффективность управления, такие как недостаточное использование информационных технологий, низкий уровень цифровой грамотности*

и сохранение традиционных подходов к управлению. В целях устранения данных проблем разработаны научно-практические рекомендации по внедрению цифровых инструментов управления, развитию профессиональных и цифровых компетенций директоров, оптимизации процессов принятия решений, а также формированию эффективной информационно-коммуникационной среды в образовательных учреждениях. Результаты исследования имеют важное значение для модернизации системы школьного управления, ускорения цифровой трансформации и повышения качества образования.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, цифровая трансформация, директор школы, эффективность управления, управление образованием, цифровые компетенции, информационно-коммуникационные технологии, современные технологии, цифровизация образовательного процесса.*

Improving the activities of school principals in a digital educational environment based on digital transformation and enhancing management efficiency

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
Rector of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Abstract: *This article analyzes the issues of improving the activities of school principals in a digital educational environment based on digital transformation, as well as increasing management efficiency. The study highlights ongoing digital changes in the modern education system, their impact on school management, and the new required competencies of school principals. It also identifies factors that reduce management efficiency, such as insufficient use of information technologies, low levels of digital literacy, and the persistence of traditional management approaches. The article proposes scientific and practical recommendations for implementing digital management tools, developing professional and digital competencies of school principals, the optimization of decision-making processes, and creating an effective information and communication environment in educational institutions. The findings of the study are significant for modernizing the school management system, accelerating digital transformation, and improving the quality of education.*

Keywords: *digital educational environment, digital transformation, school principal, management efficiency, educational management, digital competencies, information and communication technologies, modern technologies, digitalization of the educational process.*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli ta'lim muhitining shakllanishi umumta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Bunday sharoitda maktab direktorlari nafaqat an'anaviy boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi rahbar, balki raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etuvchi lider sifatida faoliyat yuritishi zarur. Shu bois, maktab boshqaruvini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi maktab boshqaruviga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Raqamli

O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, ta’lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda boshqaruv jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur me’yoriy hujjatlar ta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga raqamli kompetensiyalarni egallash, boshqaruv faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kabi muhim vazifalarni yuklaydi [1,2,3].

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini pasaytiruvchi bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmasligi, rahbarlarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi, boshqaruv jarayonlarining eskicha, an’anaviy usullarga asoslanib qolayotgani hamda qaror qabul qilish jarayonlarida ma’lumotlardan samarali foydalanilmasligi shular jumlasidandir. Ushbu holatlar ta’lim sifati va boshqaruv natijadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Raqamli ta’lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda direktorlarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, boshqaruvda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali integratsiya qilish hamda monitoring va tahlil tizimlarini takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta’lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, boshqaruv samaradorligini pasaytiruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli ta’lim muhitida maktab boshqaruvini takomillashtirish masalasi so‘nggi yillarda mahalliy va xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta’lim tizimini raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarini modernizatsiya qilish, rahbarlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlarini joriy etish masalalari asosiy o‘rinni egallaydi.

Xorijiy olimlar, jumladan, M.Fullan [12], H.Katz [13] va A.Hargreaves [14] kabi tadqiqotchilar ta’limda yetakchilik va boshqaruv samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning rolini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, zamonaviy maktab rahbari faqat ma’muriy boshqaruvchi emas, balki innovatsion jarayonlarni boshqaruvchi lider sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. Shuningdek, raqamli transformatsiya ta’lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishi va shaffoflikni oshirishi ta’kidlangan.

Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda (OECD hisobotlari, UNESCO tahlillari) raqamli ta’lim muhitida boshqaruv samaradorligi ko‘pincha rahbarlarning raqamli savodxonligi va axborot tizimlaridan foydalanish darajasiga bog‘liqligi qayd etiladi. Xususan, OECD tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven decision making) ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatilgan [8].

MDH davlatlari olimlari, jumladan, Rossiya va Qozog‘iston tadqiqotchilari ham maktab boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolarini o‘rgangan. Ularning ishlarida elektron jurnal, elektron kundalik va yago-

na ta'lim platformalarining boshqaruv jarayonlariga ta'siri, shuningdek, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammo sifatida qayd etiladi [9].

O'zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham ushbu yo'nalishda bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. U.A. Yuldashev [5], Sh.S. Sharipov [6], B.X. Xodjayeva [7] kabi pedagog olimlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etgan. Ularning ishlarida maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirishning ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [1], "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [2] hamda ta'lim tizimini rivojlantirishga oid Prezident farmon va qarorlari [3] da maktab boshqaruvini modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida maktab boshqaruvi samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda texnologik, tashkiliy va inson omillari uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish masalasi hali ham yetarli darajada chuqur o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

Raqamli ta'lim muhitida umumta'lim maktablarini samarali boshqarish masalasi bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi maktab boshqaruv tizimining mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirib, rahbarlik faoliyatiga yangi talablarni qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya tushunchasi nafaqat texnologik vositalarni joriy etish, balki boshqaruv jarayonlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni optimallashtirish va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida raqamli transformatsiya maktab boshqaruvini avtomatlashtirish, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, ta'lim jarayonini monitoring qilish hamda barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida maktab direktorlari zimmasiga strategik fikrlash, raqamli kompetensiyalarga ega bo'lish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish kabi vazifalarni yuklaydi.

Maktab boshqaruvida samaradorlikni pasaytiruvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muammolar asosan bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, ko'plab ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi boshqaruv jarayonlarining to'liq raqamlashtirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Internet tarmog'ining barqaror emasligi, zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi yoki eskirganligi natijasida boshqaruv jarayonlari qisman yoki umuman raqamlashtirilmayapti. Bu esa vaqt va resurslarning samarasiz sarflanishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, maktab direktorlari va pedagogik jamoaning raqamli kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim

muammo hisoblanadi. Raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarining pastligi boshqaruvda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni sekinlashtiradi. Natijada ko‘plab rahbarlar an’anaviy boshqaruv usullariga tayanib qolmoqda, bu esa tezkor va samarali qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Uchinchidan, boshqaruv jarayonlarida ma’lumotlardan samarali foydalanilmasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Raqamli ta’lim muhitida katta hajmdagi ma’lumotlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni tahlil qilish va ular asosida strategik qarorlar qabul qilish tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa boshqaruv faoliyatining ilmiy asoslanganligini pasaytiradi.

To‘rtinchidan, boshqaruv jarayonlarining ortiqcha byurokratikligi va hujjat aylanishining ko‘pligi ham samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab hujjatlarning qog‘oz shaklida yuritilishi vaqtni tejash va tezkorlikni ta’minlash imkonini bermaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayonlarni optimallashtirish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun bir qator samarali choralarni amalga oshirish zarur.

1. Ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish. Zamonaviy kompyuter texnikasi, yuqori tezlikdagi internet va raqamli platformalar bilan ta’minlash boshqaruv jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali hujjat aylanishini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va saqlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

2. Maktab direktorlari va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish. Bu borada muntazam malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish muhim hisoblanadi. Raqamli savodxonlikni oshirish orqali rahbarlar boshqaruv jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Boshqaruvda ma’lumotlarga asoslangan yondashuvni joriy etish. Bu esa turli elektron platformalar orqali yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish hamda natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Masalan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, o‘qituvchilarning faoliyati, ta’lim sifati kabi ko‘rsatkichlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorlikni oshiradi.

4. Boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirish. Elektron hujjat aylanish tizimlarini joriy etish orqali vaqtni tejash, shaffoflikni ta’minlash va boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish mumkin. Bu esa direktorlarning asosiy e’tiborini ta’lim sifatini oshirishga qaratish imkonini beradi.

Maktab boshqaruvida samarali kommunikatsiya tizimini yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli platformalar orqali o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida tezkor va samarali aloqa o‘rnatish mumkin. Bu esa ta’lim jarayonining shaffofligini oshiradi va barcha ishtirokchilarning faolligini ta’minlaydi. Raqamli transformatsiya jarayonida liderlik masalasi ham alohida e’tiborni talab etadi. Maktab direktori raqamli o‘zgarishlarni boshqaruvchi, jamoani birlashtiruvchi va yangiliklarni joriy etishda tashabbuskor bo‘lishi zarur. Zamonaviy rahbar nafaqat boshqaruvchi, balki innovator, motivator va strateg sifatida faoliyat yuritishi kerak.

Raqamli ta’lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini takomillashtirish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformat-

Maktab boshqaruvida mavjud muammolar va taklf etilayotgan yechimlar

№	Muammo	Tavsif	Taklif etilayotgan yechim
1	Raqamli infratuzilma yetishmasligi	Internet tezligi past, texnik vositalar eskirgan	Zamonaviy texnika bilan ta'minlash, yuqori tezlikdagi internet joriy etish
2	Raqamli kompetensiya pastligi	Direktor va pedagoglar AKTdan samarali foydalana olmaydi	Malaka oshirish kurslari, treninglar tashkil etish
3	Ma'lumotlardan foydalanish sustligi	Qarorlar intuitiv qabul qilinadi	Data-driven (ma'lumotlarga asoslangan) boshqaruvni joriy etish
4	Byurokratiya va qog'ozbozlik	Hujjatlar ko'p va qog'oz shaklida	Elektron hujjat aylanish tizimini joriy etish
5	Kommunikatsiya sustligi	Ota-ona, o'qituvchi va rahbariyat o'rtasida aloqa zaif	Raqamli platformalar orqali tezkor aloqa tizimini yaratish

siya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mavjud muammolarni bartaraf etish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitida boshqaruv samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktab boshqaruvida raqamli platformalardan kompleks foydalanish, sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlarini joriy etish hamda "data-driven management" (ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv) yondashuvi ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, ayrim davlatlarda maktablar faoliyati real vaqt rejimida monitoring qilinib, o'quvchilar natijalari, o'qituvchilar faoliyati va resurslardan foydalanish darajasi avtomatik tahlil qilinadi. Bu esa rahbarlarga tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari jadal rivojlanib bormoqda. Elektron kundalik, elektron jurnal, yagona ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish tizimlarining joriy etilishi maktab boshqaruvida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq ushbu tizimlarning samarali ishlashi ko'p jihatdan maktab direktorlari va pedagogik jamoaning ulardan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liq. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonini faqat texnik yangilik sifatida emas, balki boshqaruv madaniyatini o'zgartiruvchi kompleks jarayon sifatida qarash lozim. Bunga misol sifatida "Raqamli transformatsiya asosida boshqaruv modeli" ni keltirishimiz mumkin (1-rasm).

Bundan tashqari, maktab boshqaruvida motivatsion mexanizmlarni takomillashtirish ham muhim o'rin tutadi. Raqamli muhitda pedagoglar va boshqaruv xodimlarining mehnatini baholash tizimi shaffof, aniq mezonlarga asoslangan va avtomatlashtirilgan bo'lishi lozim. Bu esa xodimlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali rag'batlantirish tizimini joriy etish, erishilgan natijalarni ochiq monitoring qilish ham ijobiy raqobat muhitini shakllantiradi.

Maktab direktori faoliyatida strategik rejalashtirish masalasi ham alohida ahami-



1-rasm. Raqamli transformatsiya asosida boshqaruv modeli

yatga ega. Raqamli transformatsiya sharoitida rahbar qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli maqsadlarni belgilashi, resurslarni samarali taqsimlashi va innovatsion loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi zarur. Ta'lim muassasasida raqamli xavfsizlik masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Axborot tizimlarining himoyasi, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish maktab boshqaruvining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bu esa nafaqat texnik, balki tashkiliy va huquqiy choralarni ham talab etadi. Raqamli ta'lim muhitida maktab boshqaruvini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda texnologik yangiliklar bilan bir qatorda inson omili, ya'ni rahbar va pedagoglarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktab direktorlari doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishi va zamonaviy boshqaruv tendensiyalarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi lozim. Raqamli transformatsiya sharoitida maktab direktorlari faoliyatini takomillashtirish nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki butun ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va inson resurslarini samarali boshqarish orqali ta'lim tizimida yangi sifat bosqichiga erishish mumkin [4].

Mazkur tadqiqotda raqamli ta'lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari kompleks ilmiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini ta'lim menejmenti, raqamli transformatsiya nazariyalari, tizimli yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar maktab boshqaruvi jarayonlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish, ularning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan keng foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya,

qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Tahlil va sintez metodlari orqali raqamli transformatsiyaning maktab boshqaruviga ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy manbalar o'rganildi va umumlashtirildi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy boshqaruv tizimi va raqamli boshqaruv tizimi o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning samaradorlik darajasi solishtirildi.

Shuningdek, induktiv yondashuv asosida amaliy tajribalar va kuzatuvlar natijalari umumlashtirildi, deduktiv yondashuv orqali esa umumiy nazariy xulosalardan aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tizimli yondashuv maktab boshqaruvini o'zaro bog'liq elementlardan iborat murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi, bunda raqamli texnologiyalar, inson resurslari va tashkiliy jarayonlar bir butun tizim sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda empirik metodlardan ham foydalanildi, jumladan, kuzatuv, suhbat va so'rovnoma usullari orqali maktab direktorlari va pedagogik xodimlarning raqamli kompetensiyalari, raqamli vositalardan foydalanish darajasi hamda boshqaruv jarayonlaridagi mavjud muammolar o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida statistik umumlashtirish amalga oshirilib, asosiy tendensiyalar aniqlab olindi.

Raqamli ta'lim muhitida maktab direktorlari faoliyatini takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Raqamli transformatsiya jarayoni maktab boshqaruvining mazmuni, shakli va usullarini tubdan o'zgartirib, rahbarlardan yangi bilim, ko'nikma va raqamli kompetensiyalarni talab etmoqda. Shu bois, maktab direktori zamonaviy sharoitda nafaqat ma'muriy boshqaruvchi, balki innovatsion jarayonlarni boshqaruvchi strategik lider sifatida faoliyat yuritishi zarur. Boshqaruv samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, rahbar va pedagoglarning raqamli savodxonligi pastligi, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimining to'liq shakllanmaganligi hamda an'anaviy boshqaruv usullarining ustunligi ta'lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarining sekinlashishiga va boshqaruv sifati pasayishiga olib kelmoqda. Raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish, elektron platformalardan keng foydalanish, ma'lumotlar tahliliga asoslangan qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish hamda maktab direktorlari va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish ta'lim muassasalarida shaffoflikni oshiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida maktab boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Maktab direktorlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar va pedagog kadrlar uchun raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish, zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha amaliy treninglarni tashkil etish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish zarur.

Maktab boshqaruvida ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki raqamli tizimlar-

ning keng joriy etilishi bilan birga axborotlarni himoya qilish, ularning maxfiyligini ta'minlash va texnik xavflarni kamaytirish dolzarb vazifaga aylanadi. Bu esa o'z navbatida boshqaruv tizimining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida maktab boshqaruvini takomillashtirish uzluksiz va kompleks jarayon bo'lib, u texnologik, tashkiliy va inson omillarining uyg'unligini talab etadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan islohotlar ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash va global ta'lim maydonida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun*. – Normativ-huquqiy hujjat. – Toshkent, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi*. – Farmon. – Toshkent, 2020.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2021. – 150 b.

4. Абдрахманова Г. И. *Цифровизация образования: направления и перспективы*. – Монография. – Алматы: Қазақ университети, 2020. – 210 с.

5. Юлдашев У. А. *Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish nazariyasi va amaliyoti*. – Monografiya. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.

6. Sharipov Sh. S. *Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim sifati*. – O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 220 b.

7. Xodjayeva B. X. *Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash*. – Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 180 b.

8. Anderson T., Dron J. *Three Generations of Distance Education Pedagogy*. – Article. – International Review of Research in Open and Distributed Learning, 2011. – Vol. 12(3). – pp. 80–97.

9. Кузьминов Я. И., Фрумин И. Д. *Образование в России: что мы можем изменить*. – Монография. – Москва: НИУ ВШЭ, 2018. – 320 с.

10. Полат Е. С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. – Учебное пособие. – Москва: Академия, 2010. – 272 с.

11. Роберт И. В. *Современные информационные технологии в образовании*. – Монография. – Москва: ИИО РАО, 2014. – 312 с.

12. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change*. – Book. – New York: Teachers College Press, 2007. – 352 p.

13. Hargreaves A., Fullan M. *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School*. – Book. – New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p.

14. Katz H., Dack L. A. *Intentional Interruption: Breaking Down Learning Barriers to Transform Professional Practice*. – Book. – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2013. – 176 p.

MAKTAB DIREKTORINING
NUTQ MADANIYATI ORQALI OTA-ONALAR BILAN SAMARALI MULOQOT

Islamova Dilfuza Dilshodovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi
dilfuza.islamova712@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab direktorining nutq madaniyati orqali ota-onalar bilan samarali muloqotni tashkil etish masalalari yoritilgan. Rahbarning kommunikativ kompetensiyasi, nutq etiketi, psixologik yondashuvlari hamda ularning ta'lim sifati va jamoatchilik ishonchiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, direktor nutq madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, maktab direktori, ota-onalar bilan muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutq etiketi, ta'lim menejmenti, pedagogik muloqot.*

Эффективное взаимодействие директора школы с родителями через культуру речи

Исламова Дильфуза Дильшодовна,
Самостоятельный соискатель Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы организации эффективного взаимодействия директора школы с родителями через культуру речи. Анализируются коммуникативная компетентность руководителя, этикет речи, психологические подходы, а также их влияние на качество образования и доверие общества. Кроме того, разрабатываются современные механизмы развития речевой культуры директора и практические рекомендации.*

Ключевые слова: *культура речи, директор школы, взаимодействие с родителями, коммуникативная компетентность, речевой этикет, управление образованием, педагогическое общение.*

Effective communication of school principals with parents through speech culture

Islamova Dilfuza Dilshodovna,
Independent Researcher at the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloniy

Abstract: *This article explores the role and importance of speech etiquette of a school princple for establishing effective communication with parents. The study analyzes principal's communicative competence, speech etiquette, psychological approaches, and their impact on the quality of education and public trust. In addition, the article proposes modern mechanisms and practical recommendations for developing the principal's speech culture.*

Keywords: *speech culture, school principal, communication with parents, communicative competence, speech etiquette, educational management, pedagogical communication.*

Bugungi kunda ta'lim tizimida samarali boshqaruvni yo'lga qo'yishda rahbarning professional kompetensiyasi, xususan, uning kommunikativ salohiyati muhim o'rin tutadi. Maktab direktori nafaqat tashkilot boshqaruvchisi, balki pedagogik jamoa, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasidagi asosiy kommunikator sifatida faoliyat yuritadi. Shu jihatdan, uning nutq madaniyati ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi" [2]. Mazkur yondashuv ta'lim muassasalari rahbarlaridan nafaqat boshqaruv samaradorligini ta'minlashni, balki jamoa va jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, maktab direktorining nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyasi ota-onalar bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada Joyce Epstein o'z tadqiqotlarida maktab, oila va jamoatchilik hamkorligining samaradorligi bevosita muloqot sifati bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Ota-onalar bilan muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish hamda maktab va oila hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rahbarning kommunikativ kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan ta'lim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Jumladan, Michael Fullan ta'lim boshqaruvida samaradorlikni ta'minlashda kommunikativ yetakchilikning muhim o'rin tutishini alohida qayd etadi.

Bundan tashqari, B. Bassning tadqiqotlariga ko'ra, rahbar nutqining madaniy darajasi uning professional imidjini shakllantirish hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi [5]. Rahbarning nutqiy kompetensiyasi nafaqat axborotni aniq va ravon yetkazish, balki tinglovchilarga psixologik ta'sir ko'rsatish, ularda ijobiy munosabat va ishonch uyg'otish imkonini ham beradi. Ayniqsa, ota-onalar bilan muloqot jarayonida nutq etiketi, empatik yondashuv va konstruktiv fikr almashinuvi samarali kommunikatsiyaning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv ta'lim muassasasi va oila o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda maktab rahbarlarining ota-onalar bilan muloqotida nutq etiketi, kommunikativ yondashuv hamda psixologik ta'sir mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, samarasiz muloqot ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi va o'zaro ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi – maktab direktorining nutq madaniyati asosida ota-onalar bilan samarali muloqotni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- nutq madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish;
- maktab direktorining kommunikativ kompetensiyasini tahlil qilish;
- ota-onalar bilan muloqot jarayonida nutq etiketi va psixologik omillarning o'rnini aniqlash;
- samarali muloqotni tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqotda "muloqot", "kommunikatsiya" va "kommunikativ faoliyat" tushunchalari quyidagicha talqin etiladi:

muloqot – subyektlar o'rtasidagi bevosita o'zaro ta'sir jarayoni;

kommunikatsiya – axborot almashinuvi jarayoni;

kommunikativ faoliyat – maqsadga yo'naltirilgan muloqot asosida amalga oshiriladigan tizimli faoliyat.

1. Maktab direktorining nutq madaniyati tushunchasi va mohiyati

Nutq madaniyati - bu rahbarning fikrni aniq, ravon, mantiqan izchil va ta'sirchan tarzda ifodalash qobiliyatini ifodalovchi muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan qaralganda, nutq madaniyati rahbarning boshqaruv faoliyatida samarali kommunikatsiyani ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi [1].

Maktab direktori nutq madaniyati ko'p komponentli tizim bo'lib, u nafaqat til me'yorlariga rioya qilishni, balki muloqot jarayonida ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Shu jihatdan direktor nutqi boshqaruvning muhim instrumenti sifatida jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktab direktori nutqi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

aniqlik va tushunarlilik – fikrning sodda, ravshan va barcha ishtirokchilar uchun bir xil talqin qilinadigan shaklda ifodalanishi;

mantiqiylik – nutqning izchil, asoslangan va ichki bog'liqlikka ega bo'lishi;

etik me'yorlarga moslik – muloqot jarayonida hurmat, odob va kasbiy axloq qoidalariga amal qilinishi;

pedagogik mahorat bilan uyg'unlik – nutqning tarbiyaviy va ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lishi.

Mazkur sifatlar rahbarning kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi muhim mezonlar hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rahbar nutqining aniqligi va mantiqiyligi axborotning to'g'ri qabul qilinishini ta'minlaydi hamda muloqot samaradorligini oshiradi [3]. Shu bilan birga, nutq madaniyati yuqori darajada shakllangan direktor faoliyatida jamoa a'zolari va ota-onalar bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlar qaror topadi.

Daniel Golemanning hissiy intellekt nazariyasiga ko'ra, samarali rahbarlik faoliyatida empatiya, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalar muhim o'rin tutadi. Bu esa rahbar nutqida nafaqat mazmuniy aniqlik, balki tinglovchining hissiy holatini inobatga olgan holda muloqotni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, rahbarning nutq madaniyati va hissiy intellekti uyg'unligi samarali kommunikatsiyani ta'minlab, ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, direktor nutqi orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki ijtimoiy-psixologik muhit shakllantiriladi. Rahbarning muloyim, asosli va ta'sirchan nutqi jamoada ijobiy kayfiyatni yuzaga keltiradi, hamkorlikni mustahkamlaydi va konfliktli vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan muloqotda nutq madaniyatining o'rni

Ota-onalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish ta'lim muassasasi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda maktab direktorining nutq madaniyati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki aynan rahbar nutqi orqali maktab va oila o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhiti shakllanadi [7].

Ota-onalar bilan samarali muloqot quyidagi muhim jihatlarni talab qiladi:

hurmatga asoslangan muomala – har bir ota-onaga individual shaxs sifatida e'tibor qaratish va uning fikrini qadrlash;

tinglash madaniyati – ota-onalarning fikr-mulohazalarini diqqat bilan eshitish va ularga munosib javob qaytarish;

empatiya (hamdardlik) – ota-onalarning hissiy holatini tushunish va unga mos ravishda muloqot olib borish;

muammolarni konstruktiv hal etish – yuzaga kelgan vaziyatlarni ijobiy va yechimga yo‘naltirilgan tarzda muhokama qilish.

Mazkur omillar direktorning kommunikativ kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, ta’lim muassasalarida rahbar va ota-onalar o‘rtasidagi ochiq va samarali muloqot o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari hamda tarbiyaviy jarayon sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Direktorning nutqi ota-onalarda maktabga nisbatan ishonchni shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Agar rahbar o‘z fikrini muloyim, asosli va aniq tarzda ifodalasa, ota-onalar bilan hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yiladi, o‘zaro tushunmovchiliklar kamayadi va ijtimoiy sheriklik mustahkamlanadi [5]. Aksincha, noaniq yoki keskin nutq muloqot jarayonida ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bois, maktab direktorining nutq madaniyatini rivojlantirish ota-onalar bilan samarali muloqotni ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi va bu jarayon tizimli yondashuvni talab etadi [4].

Rahbar nutqining kommunikativ va psixologik jihatlari

Maktab direktorining nutqi psixologik ta’sir vositasi sifatida ham ahamiyatga ega. Nutq orqali rahbar nafaqat axborot yetkazadi, balki ota-onalarning hissiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy omillar:

- nutq ohangi (intonatsiya);
- tana tili;
- muloqot uslubi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, kommunikativ va psixologik kompetensiya rivojlangan rahbarlar faoliyatida hamkorlik samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Rahbar nutqining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar quyidagilar:

Nutq ohangi (intonatsiya) – ovozning balandligi, ritmi va urg‘ulari muloqotning hissiy kayfiyatini belgilaydi. Masalan, tanqidiy vaziyatlarda keskin va buyruq ohangidagi nutq ota-onalarda qarshilik uyg‘otishi mumkin, muloyim va asosli izohlar esa ijobiy natija beradi.

Tana tili (mimika, jestlar) – yuz ifodalari, qo‘l harakatlari va tana pozitsiyasi muloqotning mazmunini mustahkamlaydi. Samimiy mimika va ochiq tana tili ishonch va hurmat muhitini shakllantiradi.

Muloqot uslubi (rasmiy, norasmiy, do‘stona) – nutqning shakli va rasmiyligi rahbar-ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Do‘stona va konstruktiv uslub ota-onalarni faol hamkorlikka jalb qiladi, rasmiy va keskin uslub esa ba’zan qarshilikka sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, direktor nutqining psixologik jihatlari muloqot jarayonida konfliktlarning oldini olishga, qarorlarni samarali qabul qilishga va ota-onalarda ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqning kommunikativ va psixologik xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan rahbarlar faoliyatida maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligi sezilarli darajada oshadi [3].

Maktab direktorining nutq etiketi

Nutq etiketi – bu muloqot jarayonida amal qilinadigan axloqiy va kasbiy me’yorlar majmui bo‘lib, rahbarning kommunikativ va ijtimoiy-professional imidjini belgilaydi. Nutq etiketi maktab direktorining jamoatchilik, ota-onalar va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishi, shuningdek, ijobiy muhit yaratishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Nutq etiketi quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Salomlashish va murojaat qilish madaniyati – har bir muloqot boshlanishida to‘g‘ri va

samimiy salomlashish, suhbatdoshlarga munosib tarzda murojaat qilish.

Hurmat ifodalovchi iboralar – nutqda "iltimos", "rahmat", "kechirasiz" kabi so'zlardan foydalanish, qarama-qarshi tomonning fikrini qadrlash.

Muloyimlik va sabr-toqat – muloqot davomida hissiyotlarni nazorat qilish, keskin vaziyatlarda tinch va asosli javob qaytarish.

Bahsli vaziyatlarda muvozanatni saqlash – nizoli vaziyatlarda keskinlikni kamaytirish, konstruktiv yechimga yo'naltirish.

Nutq etiketi yuqori darajada bo'lgan direktor nafaqat maktab jamoasi, balki jamoatchilik oldida ham ijobiy imidjga ega bo'ladi, bu esa ota-onalar bilan samarali hamkorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq etiketi va muloqot madaniyati yuqori darajada rivojlangan rahbarlar faoliyatida konfliktlar soni kamayadi, ota-onalar bilan uchrashuvlar samaradorligi oshadi va maktab muhitida ijobiy psixologik atmosfera yuzaga keladi.

Samarali muloqotni tashkil etish mexanizmlari

Maktab direktorining ota-onalar bilan samarali muloqoti nafaqat nutq madaniyati va etikaga, balki tizimli mexanizmlarga ham bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali muloqot quyidagi yo'llar orqali rivojlantiriladi:

Muntazam uchrashuvlar tashkil etish – ota-onalar bilan davriy yig'ilishlar, maslahatlar va individual suhbatlar o'quvchilarning ta'lim va tarbiyaviy jarayonidagi holatini muhokama qilish imkonini yaratadi [7].

Ochiq muloqot muhitini yaratish – barcha tomonlar fikrini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishi, shikoyat yoki takliflarni konstruktiv tarzda muhokama qilish.

Raqamli platformalar orqali aloqani yo'lga qo'yish – elektron pochta, mobil ilovalar va onlayn portal orqali maktab yangiliklari, dars jadvali va vazifalarni tezkor yetkazish. Bu ota-onalar bilan muntazam va tezkor aloqani ta'minlaydi.

Individual yondashuvni qo'llash – har bir ota-onaning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda maslahat va tavsiyalar berish, muammolarni shaxsiy suhbat orqali hal etish.

Shuningdek, direktor nutq madaniyatini rivojlantirish va muloqotni yanada samarali qilish maqsadida treninglar, seminarlar va o'z ustida doimiy ishlash muhim ahamiyatga ega. Rahbarning kommunikativ salohiyati muntazam o'qitish va amaliy mashg'ulotlar orqali – oshirilishi natijasida ota-onalar bilan ishonchli va konstruktiv muloqot yuzaga keladi [4].

Maktab direktorining nutq madaniyati ota-onalar bilan samarali muloqotni tashkil etishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Rahbarning aniq, ravon, mantiqan izchil va etik me'yorlarga asoslangan nutqi nafaqat axborot uzatadi, balki maktabda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiradi. Natijada, bu holat o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi, ota-onalar bilan hamkorlik darajasi va ta'lim sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida direktorlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib, quyidagi tavsiyalar samarali hisoblanadi:

Doimiy professional rivojlanish – rahbarlar nutq madaniyati va kommunikativ ko'nikmalarini oshirish uchun treninglar, seminarlar va kurslarda muntazam ishtirok etishi lozim.

Innovatsion metodlardan foydalanish – raqamli platformalar, interaktiv yig'ilishlar va onlayn konsultatsiyalar orqali ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash.

Shaxsiy yondashuvni rivojlantirish – har bir ota-onaning ehtiyoj va muammolarini inobatga olgan holda individual suhbat va maslahatlar tashkil etish.

Etik va psixologik jihatlarga e'tibor – nutq etiketi, intonatsiya, tana tili va muloyimlik orqali ishonch va hurmat muhitini yaratish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish maktab direktorlarining kommunikativ salohiyatini oshiradi, ota-onalar bilan samarali muloqot mexanizmini rivojlantiradi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktab direktorining nutq madaniyati ta'lim menejmentida samarali boshqaruvni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Rahbarning kommunikativ kompetensiyasi, nutq etiketi va psixologik yondashuvlari ota-onalar bilan o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi hamda ta'lim jarayonining umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, nutqning aniqligi, mantiqiyligi, etik me'yorlarga mosligi va pedagogik ta'sirchanligi muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, samarali muloqotni tashkil etish tizimli yondashuvni talab etib, muntazam uchrashuvlar tashkil etish, ochiq va shaffof muloqot muhitini yaratish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda individual yondashuvni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, rahbar nutqining psixologik jihatlari – intonatsiya, tana tili va muloqot uslubi – ota-onalarning munosabati, ishonchi va hamkorlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa nutq madaniyatini faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu asosda, maktab direktorlarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun ularning nutq madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, innovatsion kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorining nutq madaniyatini rivojlantirish ta'lim muassasasida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tizimli ishlar ta'lim menejmenti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: Voris, 2006.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York, 1995.
4. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston, 1961.
5. Mehrabian A. Silent Messages. – Belmont, CA, 1971.
6. Fullan M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco, 2001.
7. Bass B. Transformational Leadership. – New York, 2006.
8. Burns J. Leadership. – New York, 1978.
9. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – OECD, 2018.
10. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships. – New York, 2011.
11. Gordon T. Parent Effectiveness Training. – New York, 2000.
12. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York, 2016.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TIZIMIDA
INNOVATSION REKRUTING, PEDAGOGLARNI SARALASHDA RAQAMLI VA PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR

Turikova Lazokat Mashrabovna,
Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD, dotsent
lazokat-turikova@mail.ru
+998974488513

Annotatsiya: *Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagog kadrlarni tanlab olishning innovatsion rekruting modellarini tadqiq etadi. An’anaviy ishga qabul qilish usullarining zamonaviy maktab ehtiyojlariga mos kelmasligi tahlil qilinib, raqamli va psixometrik yondashuvlarning afzalliklari asoslab berilgan. Tadqiqotda kadrlar salohiyatini baholashda “0.8, 1.0 va 1.2 konsepsiyasi” hamda “144% samaradorlik” formulasi taklif etilgan. Shuningdek, Prezident maktablari tajribasi asosida pedagoglarni saralashning to‘rt bosqichli modeli (skrining, monitoring, namuna darsi va intervyu) ishlab chiqilgan. Psixometrik testlar va HR-intervyu savollari orqali nomzodning nafaqat bilimini, balki stressga chidamliligi va emotsional intellektini aniqlash imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Maqola ta’lim sifatini oshirish va kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion rekruting, raqamli transformatsiya, psixometrik yondashuv, pedagoglar seleksiyasi, HR-menejment.*

Инновационный рекрутинг в системе общего среднего образования, цифровые и психометрические подходы к отбору педагогов

Турикова Лазокат Машрабовна,
независимый исследователь университета Oriental, PhD, доцент

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию инновационных моделей рекрутинга педагогов в системе общего среднего образования. В работе анализируется неэффективность традиционных методов найма и обосновывается необходимость внедрения цифровых и психометрических подходов. Предложена авторская концепция коэффициентов эффективности сотрудников “0.8, 1.0 и 1.2”, а также формула “144% эффективности” для формирования сильных педагогических команд. На основе опыта Президентских школ разработана четырехэтапная модель отбора, включающая скрининг, мониторинг, пробный урок и интервью. Особое внимание уделяется использованию психометрических тестов и структурированных HR-интервью для оценки эмоционального интеллекта и стрессоустойчивости кандидатов. Практические рекомендации статьи направлены на повышение качества образования и снижение текучести кадров в школах.*

Ключевые слова: *инновационный рекрутинг, цифровая трансформация, психометрический подход, селекция педагогов, HR-менеджмент.*

Innovative recruiting in the general secondary education system: digital and psychometric approaches to teacher selection

Turikova Lazokat Mashrabovna,
Independent Researcher at Oriental University, PhD, Associate Professor

Abstract: *This article explores innovative recruiting models for selecting teaching staff in the general secondary education system. It analyzes the limitations of traditional hiring methods and justifies the transition to digital and psychometric approaches. The study introduces and proposes the "0.8, 1.0, and 1.2 efficiency concept" and the "144% efficiency formula" for assessing the performance of school staff. Moreover, the article proposes a four-stage selection model (screening, monitoring, demo lessons, and HR interviews) of selecting teachers based on the experience of Presidential Schools. It highlights the role of psychometric testing and specialized interview techniques in assessing candidates' professional competencies, stress resilience, and emotional intelligence. The article proposes practical recommendations for improving quality of education and staff stability.*

Keywords: *innovative recruiting, digital transformation, psychometric approach, teacher selection, HR management.*

Raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimining sifati bevosita pedagog kadrlarning salohiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda an'anaviy rekruting (ishga qabul qilish) usullari – faqat hujjatlar to'plami va yuzma-yuz suhbatga asoslangan yondashuvlar – zamonaviy maktabning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim tizimida innovatsion rekruting, ya'ni yuqori texnologiyalar va ilmiy asoslangan metodlar yordamida kadrlarni tanlab olish zarurati yuzaga kelmoqda [1].

Innovatsion rekrutingning asosini raqamli yondashuvlar tashkil etadi. Bu nafaqat jarayonni avtomatlashtirish, balki sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bazasi yordamida nomzodning professional profilini shakllantirish demakdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan saralash jarayoni vaqt va mablag'ni tejash bilan birga, inson omili bilan bog'liq subektiv xatolarni 25-30% ga kamaytiradi [2].

Yana bir muhim jihat – psixometrik yondashuvdir. O'qituvchilik kasbi yuqori darajadagi emotsional intellekt, stressga chidamlilik va kommunikativ mahoratni talab etadi. Psixometrik testlar nomzodning nafaqat bilim darajasini, balki uning bolalar bilan ishlashga bo'lgan ruhiy moyilligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ta'lim muassasalarida kadrlar qo'nimsizligini kamaytirishning eng samarali yo'lidir [3].

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xizmatiga, xususan, ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilangan [4].

Pedagogik rekruting va raqamli kompetensiyalar masalalari xorijiy olimlardan S.Bennett, L.Mizell va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Biroq, aynan psixometrik va raqamli yondashuvlarning integratsiyalashgan modelini o'zbek ta'lim muhitiga moslashtirish masalasi hali hamon maxsus ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun eng munosib pedagoglarni saralashda innovatsion rekruting modellarini ishlab chiqish va psixometrik vositalardan foydalanish samaradorligini asoslash bizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bugungi davrda umumiy o'rta ta'lim tizimida ayniqsa davlat maktablarida pedagoglarni ishga qabul qilish tartibi quyidagicha:

Ish beruvchi nomzod pedagog bilan suhbat o'tkazadi, nomzodlar tomonidan hujjatlar taq-

dim etiladi va mehnat shartnomasi imzolanib, buyruq rasmiylashtiriladi.

Turli platformalar orqali e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlariga hujjat topshirish amaliyoti ham deyarli ishlamayapti. Ish beruvchi vakolatida bo'lgan ushbu holatda saralash jarayoni juda oddiy amalga oshirilmoqda. Eng achinarlisi ushbu eski model an'anaga aylanib qolgan.

Ishga qabul qilingach, malaka toifasiga ega bo'lmagan, maktabga ilk bor ishga qabul qilinayotgan pedagoglar bir yil davomida stajor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadilar. Bu vaqt ichida ular kasbiy sertifikat olish uchun zarur bo'lgan malaka sinovlaridan o'tishlari shart.

Fikrimizcha, an'anaviy ishga qabul qilish usullaridan voz kechgan holda, umumiy o'rta ta'lim tizimiga innovatsion rekruting modellarini tatbiq etish va o'qituvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning emotsional intellekti va kasbiy mosligini psixometrik baholash tizimini yo'lga qo'yish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida, ayniqsa, davlat maktablarida ham kadrlarni saralash jarayoni an'anaviy suhbatlardan raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimlarga o'tishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Yurtimizda ko'plab sohalarda HR rekrutingni zamonaviy ususllari joriy qilingan.

Jumladan Prezident maktablari tizimida ham Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi – PIMA tomonidan innovatsion rekruting va kadrlarni saralash modellari eng yuqori xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilgan. Quyida ushbu tizimda qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar va ularning huquqiy-uslubiy asoslari keltirib o'tamiz.

Prezident maktablarida pedagoglarni ishga qabul qilish jarayoni an'anaviy kadrlar bo'limi yondashuvidan voz kechib, to'liq raqamlashtirilgan va ko'p bosqichli kompetensiyaviy quyidagi modelga o'tgan:

1. Raqamli avtomatizatsiya: Nomzodlarni ro'yxatga olish va dastlabki saralash maxsus portal (job.piima.uz) orqali amalga oshiriladi. Bu inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Xalqaro ekspertlar ishtiroki: Prezident maktablariga mahalliy pedagoglarni saralash jarayoniga xorijiy mutaxassislar va xalqaro ta'lim tashkilotlari jalb etiladi. Bu esa nomzodlarning nafaqat bilim darajasini, balki xalqaro ta'lim standartlariga mosligini baholash imkonini beradi [5].

3. Ko'p bosqichli sinovlar:

Birinchi bosqich: Mutaxassislik fani va ingliz tili (C1/B2 darajasi) bo'yicha test sinovlari.

Ikkinchi bosqich: Nomzodning pedagogik mahoratini amalda ko'rish uchun "namunaviy dars" o'tib berish jarayoni. Bu yerda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyati baholanadi.

Uchinchi bosqich: Shaxslararo muloqot va psixologik tayyorgarlikni aniqlovchi suhbat.

4. Baholash va KPI tizimi: Ishga qabul qilingan pedagoglarning faoliyati keyinchalik individual samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va ruhiy barqarorlik testlari asosida monitoring qilib boriladi. Bu pedagogning kasbiy "kuyish" (burnout) holatini oldindan aniqlash va jamoaviy muhitni sog'lom saqlashga yordam beradi [6].

Umumiy o'rta ta'lim tizimining davomchisi sifatida kasbiy ta'lim tashkilotlarida ham pedagoglarni ishga qabul qilish tizimini qiyoslab ko'ramiz.

Adliya vazirligidan 2005-yil 28-martda 1461-sonli raqam bilan ro'yxatdan o'tgan "Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari va muhandis-pedagog kadrlarining bo'sh lavozimlarni egallash uchun ularni tanlov asosida tanlab olish to'g'risida"gi Nizom kasbiy ta'lim tashkilotlarining bo'sh o'qituvchi va ishlab chiqarish



1-rasm. O‘zbekistondagi ta’lim tizimida pedagoglarni ishga qabul qilish tartibi[1]

ta’limi ustalari lavozimlariga tanlov o‘tkazish tartibini belgilaydi [7]. Unga ko‘ra bugungi kunda texnikumlarga pedagog xodimlarni ishga qabul qilishning asosiy tartibi va talablari quyidagicha:

1. Texnikumlardagi vakant lavozimlar haqidagi ma’lumotlar vazirlikning rasmiy saytlarida yoki davlat bo‘sh ish o‘rinlari portalida e’lon qilinadi.

2. Hujjat topshirish: Nomzodlar o‘zlarining ma’lumoti, ish staji va erishgan yutuqlari aks etgan hujjatlarni (rezyume, diplom nusxasi, sertifikatlar) taqdim etadilar.

3. Suhbat: Nomzodlar texnikum ma’muriyati yoki ekspertlar guruhi tomonidan o‘tkaziladigan suhbatdan o‘tadilar.

4. Mehnat shartnoma tuzish: Saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzod bilan Mehnat kodeksi asosida mehnat shartnomasi rasmiylashtiriladi.

Texnikumlarda dual ta’lim shakli rivojlangan bo‘lib, bunda ishlab chiqarish korxonalarining malakali mutaxassislari texnikumlarga amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish uchun o‘rindoshlik asosida ishga jalb qilinishi mumkin.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab texnikumlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida ish beruvchilar bilan hamkorlik kuchaytirilib, pedagoglarning elektron portfolio tizimidan foydalanish kengaymoqda.

1-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari va kasbiy ta’lim tashkilotlariga nisbatan Prezident maktablarida ishga qabul qilish tizimi ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan hamda bugungi kunda ta’lim tizimining ilg‘or namunasi hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida ish beruvchilar uchun 100 dan ziyod seminar-treninglar tashkil qilindi. Ushbu seminarlarda umumiy o‘rta ta’lim tizimi ish beruvchilari tomonidan bildiriladigan asosiy e’tiroz: “Maktabdagi pedagoglar dars o‘ta olmayapti.....” yoki “pedagoglar intizom talablariga rioya qilmayaptilar...”. Ikkala holat ham ish beruvchi tomonidan mehnat qonunchiligini etarlicha bilmaslik va zamonaviy xodimlarni boshqarish uslubi etishmasligini ko‘rsatadi. Ushbu masalani tadqiq qilishimiz natijasiga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “0,8, 1,0 va 1,2 konsepsiyasi”ni joriy qilish g‘oyasini ilgari surmoqchimiz (2-rasm).

[1] Mualliflik ishlanmasi



2-rasm. O'zbekistondagi ta'lim tizimida pedagoglarni ishga qabul qilish tartibi[2]

Ushbu konsepsiya ko'proq zamonaviy HR-menejment va biznes-treninglar jarayonida shakllangan "praktik model" hisoblanadi. Mazkur yondashuvning ommalashishiga va ilmiy asoslanishiga bir nechta manbalarni bog'lash mumkin:

1. Konsepsiyaning mazmuni va kelib chiqishi

Ushbu model xodimning shaxsiy samaradorlik koeffitsentini uch toifaga ajratadi:

0.8 – "xodimlar" (belgilangan vazifani chala yoki nazorat ostida bajaruvchilar).

1.0 – "ijrochilar" (belgilangan vazifani aniq va o'z vaqtida bajaruvchilar, lekin tashabbus ko'rsatmaydiganlar).

1.2 – "taraqqiyot dvigatellari" (kutilganidan ko'proq natija beradigan va muammoga echim taklif qiladiganlar).

2. Aniq manbalar va "144% samaradorlik" formulasi

Bu konsepsiya ko'pincha "1.2 x 1.2 = 1.44" formulasi bilan birga keladi, ya'ni ikkita "1.2" tipidagi xodim birga ishlasa, natija 144% bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Jamoadagi muvaffaqiyat formulasi[3]

[2] Mualliflik ishlanmasi
[3] Mualliflik ishlanmasi

Bu yondashuv asosan Biznes – konsalting va HR-platformalarda MDH davlatlarida va xalqaro boshqaruv tizimida, masalan, HH.ru, TenChat kabi professional tarmoqlardagi HR-ekspertlar tomonidan "Jamoani shakllantirish modeli" sifatida keng targʻib qilinadi [8].

Shuningdek, korporativ madaniyat: Koʻpgina zamonaviy kompaniyalar oʻz ichki KPI nizomlarini aynan shu koeffitsientlar asosida tuzishadi [9].

Shuning uchun ham bu konsepsiya – jamoaviy ijod mahsuli boʻlib, uni ma'lum bir shaxsga emas, balki zamonaviy natijaga yoʻnaltirilgan boshqaruv maktabiga mansub deb hisoblash toʻgʻriroq boʻladi. Shu bilan birga ushbu modeldan asosan xususiy sektorda va biznes subyektlarida foydalaniladi.

Fikrimizcha, 2-rasmda keltirilgan 0.8, 1.0 va 1.2 konsepsiyasi hamda 3-rasmda keltirilgan muvaffaqiyat formulasi maktab jamoasi va oʻqituvchilarning ish faoliyatini baholash uchun juda mos keladi. Maktab sharoitida bu toifalarni quyidagicha talqin qilish mumkin:

A). 0.8 Koeffitsientli oʻqituvchi (xodim)

Bunday xodim maktabning umumiy reytingi va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir koʻrsatadi.

Darslarga tayyorgarlik: Konspektlar yuzaki, yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllamaydi.

Nazorat: direktor yoki oʻrinbosarlar tomonidan doimiy nazoratni talab qiladi, aks holda darslar oʻz vaqtida oʻtilmasligi yoki sifatsiz boʻlishi mumkin.

Natija: Oʻquvchilarning oʻzlashtirish koʻrsatkichi past boʻladi, ota-onalardan shikoyatlar tushadi, navbatdagi mehnat nizosiga sabab boʻladi.

V). 1.0 Koeffitsientli oʻqituvchi (Ishonchli ijrochi)

Bu maktabning "oʻzagi" hisoblangan, oʻz vazifasini bajaruvchi oʻqituvchilar.

Darslarga tayyorgarlik: Davlat ta'lim standartlari (DTS) asosida darslarni toʻliq oʻtadi, hujjatlari joyida.

Nazorat: Ularni tekshirish shart emas, ishiga mas'uliyatli.

Chegara: Biroq ular faqat "berilgan dastur" bilan cheklanishadi. Qoʻshimcha toʻgaraklar, olimpiadaga tayyorlash yoki maktabning innovatsion loyihalarida faollik koʻrsatishmaydi. Tashabbuslar koʻrsatishni hohlashmaydi va maktabdagi faoliyatini "dars oʻtish" bilan chegaralaydi.

S). 1.2 Koeffitsientli oʻqituvchi (Taraqqiyot dvigateli)

Bunday oʻqituvchilar maktabni oldinga boshlaydigan "yulduzlar"dir.

Izlanish: Doimiy ravishda yangi metodlarni (masalan, STEM, loyihaviy ta'lim) qidiradi va darsda qoʻllaydi.

Natija: Uning oʻquvchilari olimpiadalarda gʻolib boʻladi, OTMlarga kirish koʻrsatkichi yuqori boʻladi. Oʻquvchilar uchun juda qiziqarli, natijador mashgʻulot tashkil qila oladi.

Tashabbus: Maktabning obroʻsini oshirish uchun ijtimoiy loyihalar, ochiq darslar va master-klasslar tashkil qiladi. Jamoadagi boshqa oʻqituvchilarga ham motivatsiya beradi.

Maktab ma'muriyati uchun xulosa:

0.8 toifasidagilar bilan individual ishlash yoki ularning metodik mahoratini oshirish choralarini koʻrish kerak.

1.0 toifasidagilarni ragʻbatlantirib, ularni 1.2 darajasiga oʻtishiga sharoit yaratish lozim.

1.2 toifasidagi oʻqituvchilarni esa maktabning asosiy tayanchi sifatida qadrlash va ularga moddiy/ma'naviy imtiyozlar berish kerak.

Eng yaxshisi ishga qabul qilish jarayonida nomzodlarni ushbu 3 ta toifaga ajrata olish uchun harakat qilishimiz kerak. Dars oʻta olmaydigan, muammoli xodimni ishga oldikmi, demak bu xodim bilan bogʻliq sarguzashtlarga va u uchun ishlashgan tayyor boʻlishimiz kerak. Ammo ish beruvchilarda bunday instrument, ya'ni "iqtidorlarni kashf qilish" uslubi etarli emas.

Tadqiqotlarimiz davomida Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik maxorat milliy institutidagi "Menejerlik kurslari" tinglovchilari uchun "Inson resurslarini boshqarish (HR)" mavzusida o'quv qo'llanma ishlab chiqdik va bir qator taklif va tavsiyalari o'quv modellarida aks ettirdik [10].

Bu bosqichda o'qituvchining avvalgi ish joyidagi faoliyati va pedagogik obro'si o'rganiladi.

Maktab uchun ahamiyati: Nomzodning imiji, ahloqi, jamoa bilan ishlash qobiliyati, o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqot madaniyati haqida fikrlar to'planadi.



4-rasm. Umumiy o'rta ta'lim tizimida pedagoglarni ishga qabul qilish bosqichlari[4]

Ushbu konsepsiyani umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy qilish va buning asosida pedagoglarni ishga qabul qilishda yangi yondoshuvlarni taklif qilamiz.

4-rasmga qaraydigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim tizimida, ayniqsa, maktablarda to'rt bosqichdan iborat ishga qabul qilish tartibi taklif etilmoqda.

1. Hujjatlarni ko'rish (Skrining)

Maktab ma'muriyati nomzodning pedagogik mutaxassisligi va malaka toifasini tekshiradi.

Maktab uchun ahamiyati: Diplom, malaka oshirish sertifikatlari, til bilish darajasi va sudlanmaganlik haqidagi ma'lumotnomalar ko'zdan kechiriladi.

2. Ma'lumot yig'ish (Monitoring)

Asosiy maqsad: Nomzodning qonuniy ravishda dars berish huquqiga egaligini tasdiqlash.

Asosiy maqsad: O'qituvchining axloqiy va kasbiy portretini shakllantirish.

3. Namuna darsi o'tib berish

Bu maktab uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Nomzod o'z fani bo'yicha bitta akademik soat davomida ochiq dars o'tadi. Darsni o'quvchilarga emas aynan o'qituvchilarga o'tib beradi. Birinchidan ishga qabul qilish vaqti deyarli avgust oyiga to'g'ri keladi, bu paytda o'quvchilar maktabda bo'lmaydilar. Ikkinchi sababi, yosh bolalarni aldash mumkin, ammo yoshi katta insonlarni aldab bo'lmaydi.

Maktab uchun ahamiyati: Metod birlashma a'zolari o'qituvchining metodikasi, o'quvchilarni darsga jalb qila olishi, vaqtni to'g'ri taqsimlashi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishini baholaydilar.

Asosiy maqsad: Nazariy bilimning amaliyotda qo'llanilishini ko'rish.

[4] Mualliflik ishlanmasi

4. Intervyu

Yakuniy bosqichda maktab direktori va psixolog ishtirokida suhbat o‘tkaziladi.

Maktab uchun ahamiyati: O‘qituvchining qadriyatlari, maktab ichki tartib-qoidalariga mosligi va psixologik barqarorligi aniqlanadi. Kelajakdagi rejalari va o‘quvchilar natijalarini oshirishga bo‘lgan motivatsiyasi so‘raladi. Shuningdek, nomzodning kasbiy jihatlari bilan birga shaxsiy sifatlari ham o‘rganiladi, ya’ni uni 1,2 koeffitsientli xodim shabloniga tushish tushmasligini aniqlanishga harakat qilish lozim. Chunki ish beruvchi ishga “xodim (0,8)” emas “natija (1,2)” olishi zarur. Shundagina ishyoqmas xodimga ketkazgan vaqtini boshqa foydaliroq ishga, balki o‘z ustida ishlash, shaxsiy rivojlanishga sarflashi mumkin.

Asosiy maqsad: Nomzodning maktab jamoasiga to‘liq mos kelishini aniqlash va 1,2 koeffitsient bilan ishlovchi xodimlar salmog‘ini ko‘paytirish. Chunki 0,8 koeffitsientli xodimlar bilan xech qachon natijaga erishib bo‘lmaydi. Aksincha fidoiy, mehnatsevar, pedagogik mahoratli, mas’uliyatli pedagoglar bilangina ta’lim sifatiga erishish mumkin.

Maktabga pedagoglarni ishga qabul qilishda ushbu savollar shunchaki ma’lumot to‘plash emas, balki nomzodning psixologik portretini va pedagogik kompetensiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu savollar dunyo tajribasida ham HR intervyuda foydalaniladi (5-rasm). Endi mazkur savollarni tahlil qilib, bundan qanday natija olishimiz mumki, degan savolga javob beramiz:

1. Shaxsiy samaradorlik va SWOT-tahlil

“Nima uchun aynan sizni tanlashim kerak?”: Nomzodning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va maktabning missiyasiga (masalan, sifatli ta’lim, tarbiya) qanchalik mos kelishini ko‘rsatadi.

“3 ta yutuq va 3 ta kamchilik”: Bu savol pedagogning refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) qobiliyatini tekshiradi. Yaxshi o‘qituvchi o‘zining metodik yutuqlarini, masalan, “innovatsion dars o‘tish” va o‘z ustida ishlashi kerak bo‘lgan jihatlarini bilishi shart.

2. Stressga chidamlilik va Emotsional intellekt

“Stressni qanday engasiz?”, degan savol juda o‘rinli, chunki maktab – yuqori emotsional muhit (shovqinli sinflar, imtihonlar, ota-o-



5-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida pedagoglarni ishga qabul qilishda qo‘llash uchun HR intervyu savollari[5]

[5] Mualliflik ishlanmasi

nalar bilan muloqot)ga ega tashkilot hisoblanadi. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu savol nomzodning krizis holatlarida o'zini boshqara olish va "kasbiy charchash" sindromiga moyilligini aniqlaydi.

"Ilgari ishlagan joyingizdagi muammolar": Bu pedagogning nizolarni hal qilish strategiyasini (konstruktiv yoki destruktiv) ko'rsatadi. Shuningdek, nomzod uchun asosiy "muammo" nima ekanligini ochib berishga xizmat qiladi.

3. Strategik rejalashtirish va motivatsiya

"5 yildan keyingi portretingiz": Pedagogning kasbiy rivojlanishga intilishi (masalan, oliy toifaga chiqish, darslik yozish). Bu uning maktabda vaqtinchalik emas, balki barqaror ishlash niyatini tasdiqlaydi.

"Siz qancha ish haqiga munosibsiz?": Nomzodning o'z mehnatini adolatli baholashi va maktab byudjeti bilan mosligini aniqlash uchun kerak.

4. Jamoaviy muloqot va adaptatsiya (moslashuv)

"Jamoa sizni qabul qilishi uchun qanday yo'l tutasiz?": Pedagogik jamoa – bu yagona organizm. Bu savol pedagogning korporativ madaniyatga va pedagogik muhitga qanchalik tez moslasha olishini o'lchaydi.

Pedagog va jamoa o'rtasidagi rapport – bu "bitta to'lqinga tushish" demakdir. Kayfiyat va hurmat muloqotdagi "shovqinlarni" yo'qotadi. Agar o'qituvchi hamkasblari va o'quvchilari bilan bunday aloqa o'rnata olsa, ta'lim jarayonida "qarshilik" yo'qoladi va energiya faqat rivojlanishga sarflanadi. Bu xuddi radio sozlagandek gap: to'lqin to'g'ri bo'lsa, ovoz tiniq chiqadi.

Shuningdek bu jumla – o'qituvchining shaxslararo ta'sir o'tkazish quvvatini ifodalaydi. Bilim berishdan oldin, o'sha bilim kiradigan muhitni tayyorlash kerak.

Zamonaviy ta'limda o'qituvchining dars berish mahoratidan ko'ra, uning bolalar va jamoa bilan til topisha olish qobiliyati ko'proq qadrlanadi. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida quyidagi matritsada nomzodni baholaymiz. Yakuniy xulosa:

1. Ishga qabul qilish tavsiya etiladi.
2. Kadrlar zaxirasiga olinsin.
3. Rad etilsin.

Bunday tuzilmadan foydalanish "galo-effekt"ni (nomzodning tashqi ko'rinishi yoki yoqimtoyligi sababli kasbiy kamchiliklarini payqamaslik) kamaytiradi va pedagogning shaxsiyatini har tomonlama baholash imkonini beradi.

1-jadval

Baholash matritsasi (0–5 ball)

Mezon	Ball	Izoh
Fan bo'yicha bilimlar (Hard Skills)		
Emotsional intellekt (Soft Skills)		
Stressga chidamlilik		
Motivatsiya va o'sish salohiyati		

1-jadvalda pedagoglar bilan suhbat jarayonida beriladigan savollarga to'g'ri (ijobiy) va noto'g'ri (salbiy) javoblarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Bu maktab ma'muriyatiga nomzodning haqiqiy salohiyatini aniqlashda yordam beradi.

Tahlil jarayonida intervyu oluvchi rahbarlar uchun kerakli bo'ladigan ushbu "Oltin qoidalar"ni ham tavsiya qilamiz:

1. "Nima uchun?" savoli: Nomzod biror yutug'ini aytsa, albatta, "Bunga qanday erishdingiz?" deb so'rang. Javob aniq bo'lsa, demak, u haqiqiy mutaxassis.

2. Emotsiyalarga e'tibor bering: Agar nomzod avvalgi ish joyidagi muammolarni aytganda faqat boshqalarni ayblasa, demak unda konfliktlik darajasi yuqori.

[5] Mualliflik ishlanmasi

3. Kuzatuv: Suhbat so‘ngida nomzodga savol berish imkonini bering. Agar u faqat oylik haqida so‘rasa – bu moddiy motivatsiya, agar maktabning ichki dasturi, o‘quvchilarning darajasi haqida so‘rasa, bu kasbiy motivatsiyadir.

Zamonaviy maktab ta’limida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga mas’ul bo‘lgan asosiy figuradir. Shu bosqichda an’anaviy, faqatgina hujjatlarga asoslangan saralash usullari o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Taklif etilayotgan modelning mazmun-mohiyati quyidagi muhim jihatlarga tayanadi:

1. Inson omilini kamaytirish va shaffoflik (Raqamli yondashuv)

Raqamli rekruting va AI-skrining tizimi ishga qabul qilish jarayonidan “tanish-bilishchilik” va subyektiv yondashuvni chiqarib tashlaydi. Bu nomzodlarni faqatgina ularning kasbiy kompetensiyalari, tajribasi va erishgan real natijalari (Digital Profile) asosida baholash imkonini beradi. Bu esa jamiyatda maktab ma’muriyatiga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

2. Psixologik xavfsizlik va emotsional barqarorlik (Psixometrik yondashuv)

Maktab – yuqori stress muhiti hisoblanadi. Pedagoglarni psixometrik testlar orqali saralash, maktabga ruhiy jihatdan sog‘lom va bolalar bilan ishlashga chidamli kadrlar kelishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida maktablardagi nizolarning kamayishiga va o‘qituvchilar orasida kasbiy “yonish” (burnout) sindromining oldini olishga xizmat qiladi.

3. Metodik mahorat va kommunikatsiya sinergiyasi

Innovatsion model o‘qituvchining faqat nazariy bilimini emas, balki uning muloqot san’ati (“Rapport” o‘rnatish qobiliyati) va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mahoratini yaxlit holda baholaydi. Video-demo darslar va “keys-stadi”lar orqali nomzodning amaliy ko‘nikmalari intervyu bosqichigacha aniqlanadi.

4. Strategik natija: Ta’lim sifatining barqarorligi Bunday tizimli saralash modelini joriy etish maktab kadrlar zaxirasini sifat jihatidan yangilaydi. Saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan pedagog maktabning qadriyatlarini tezroq qabul qiladi va jamoaga tez moslashadi. Natijada, kadrlar qo‘nimsizligi kamayadi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida barqaror o‘sish kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli va psixometrik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish – bu shunchaki texnika emas, balki ta’lim tizimining inson kapitalini boshqarishdagi yangi falsafasidir. Ushbu model maktab ma’muriyatiga eng munosib nomzodlarni xatosiz tanlashda, pedagoglarga esa o‘z kasbiy mahoratlarini xolis namoyish etishda imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.10.2020-yildagi PF-6079-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori. "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". [Lex.uz]

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2025-yil 24-martdagi 04/QQ-son, 01-76-son, 01/1184-son Qo'shma qarori.

4. Armstrong, M., & Taylor, S. (2020). *Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice.* Kogan Page Publishers.

5. Global Education Monitoring Report (2023). *Technology in education: A tool on whose terms?* UNESCO.

6. Senploy Editorial (2024). *The role of psychometric testing in teacher recruitment.* [Elektron resurs].

7. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi (PIIMA) hisoboti. "Pedagog kadrlarni saralash va xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi". [portal.piima.uz]

8. HR-аналитика: "Концепция 0.8 – 1 – 1.2: Как понять эффективность команды" – Setka (hh.ru ижтимоий тармоғи)

9. Бошқарув методикаси: "144% эффективности сотрудников или концепция 0.8-1.0-1.2" – TenChat экспертлар мақоласи

10. Inson resurslarini boshqarish (HR): Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari va direktor lavozimiga nomzodlar uchun o'quv qo'llanma/M. Xalimov, Yu. Jabborova, L. Turikova va boshq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 128 b.

TA'LIM MENEJMENTIDA
SAMARADORLIKNI ANIQLASH MEZONLARI VA ULARNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Otamurodov G'olibjon Ro'zimurodovich,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsa doktori (PhD) dotsent,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
foniy_02_03@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha va maktab ta'limi tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ta'lim muassasalari rahbarlari faoliyatini baholashning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy menejment yondashuvlari, strategik rejalashtirish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Xorijiy va MDH davlatlari olimlarining ilmiy qarashlari hamda TALIS, VAL-ED va WMS kabi xalqaro baholash dasturlari tahlil qilinib, ularning asosiy mezonlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rahbarlar faoliyatini kompleks baholash tizimini joriy etish ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini yuksaltirishning muhim omili ekanligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv samaradorligi, ta'lim muassasasi, maktab rahbari, faoliyatni baholash, pedagogik yetakchilik, strategik boshqaruv, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba.*

Критерии определения эффективности в образовательном менеджменте и педагогические возможности их внедрения

Отамуродов Голибжон Рузимуродович,
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент, Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы повышения эффективности управления в системе дошкольного и школьного образования, а также вопросы оценки деятельности руководителей образовательных учреждений. Обоснована значимость внедрения современных управленческих подходов, стратегического планирования и эффективного использования цифровых технологий в условиях модернизации образовательной системы. Проанализированы научные подходы зарубежных и ученых стран СНГ, а также международные программы оценки, такие как TALIS, VAL-ED и WMS. Рассмотрены их основные критерии и возможности применения в практике управления образовательными учреждениями. По результатам исследования установлено, что внедрение комплексной системы оценки деятельности руководителей способствует повышению качества образования и эффективности управления образовательными организациями.*

Ключевые слова: *эффективность управления, образовательное учреждение, руководитель школы, оценка деятельности, педагогическое лидерство, стратегическое управление, цифровые технологии, международный опыт.*

Criteria for determining efficiency in educational management and pedagogical opportunities for their implementation

Otamurodov Golibjon Rozimurodovich,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor,
National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations for improving management efficiency in preschool and school education system, as well as issues related to evaluating the performance of heads of educational institutions. The study substantiates the importance of implementing modern management approaches, strategic planning, and effective use of digital technologies in the context of modernization of education system. The article also analyzes scientific approaches of foreign and CIS researchers, along with international evaluation programs such as TALIS, VAL-ED, and WMS, their key criteria and potential applications in educational management practices. The study findings indicate that the introduction of a comprehensive system for evaluating leadership performance contributes to improve the quality of education and enhancing effecacy of management in educational institutions.*

Keywords: *management efficiency, educational institution, school leader, performance evaluation, instructional leadership, strategic management, digital technologies, international experience.*

So'nggi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayon ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda ta'lim muassasalari faoliyatida samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan kompleks islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy etish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda strategik rejalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida rahbarlarning faoliyat samaradorligini baholash muhim rol o'ynaydi. Yevropalik olim D.Hargreavesning fikriga ko'ra, baholash istalgan faoliyatni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanib, direktorlarning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1] .

Baholash funksiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash shaxsni o'rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta'sirini rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan obyektiv baholash ta'siri ostida maktab direktorlarida o'z-o'zini baholash, o'z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi [2]. Shu sababli baholash jarayonining muhimligi hamda uning funksiyalarining ko'p qirraliligi maktab rahbarlarining faoliyatini har tomonlama yoritib beradigan va ularning boshqaruv faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi mezonlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon miqyosida bir qator olimlar o'z yondashuvlari asosida maktab rahbarlarining boshqaruv samaradorligini baholashda turli mezon va ko'rsatkichlarni tavsiya etishgan.

AQSh olimi James H.Stronge o'z tadqiqotlarida umumta'lim maktab rahbarlarini baholashda yetakchilik, maktabdagi shart-sharoitlar, inson resurslarini boshqarish, tashkillashtirishni boshqarish, aloqa va ijtimoiy munosabatlar, kasbiy mahurat kabi standartlarni keltirib o'tgan [3].

Nigeriyalik olim Mercy Obianuju Nvogbo "direktorlarning nazoratchilik va menejerlik sifatidagi roli maktabni samarali boshqarishda

markaziy o‘rinni egallaydi” [4], degan fikrni ilgari suradi.

Tadqiqotchilar R.Khaliq va A.Iram direktorning boshqaruv faoliyatiga quyidagilarni kiritadi: o‘qitish, o‘rganish va kasbiy rivojlanish; shaxslararo va kasblararo munosabatlar; o‘qituvchi va ota-onalar bilan qaror qabul qilish; qarashlar va qadriyatlar; yetakchilikni takomillashtirish [5].

Robert Marzano Maktab rahbarlarini baholashning maqsadli modeli (Focused School Leader Evaluation Model)ni ishlab chiqqan bo‘lib, u 6 ta domen va 21 ta elementdan iborat hamda ta’lim boshqaruvi sohasida dunyodagi eng tizimlashtirilgan va ilmiy asoslangan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu model maktab rahbarini shunchaki ma’muriy xodim emas, balki pedagogik o‘zgarishlar agenti sifatida ko‘radi [6]. Model quyidagi 6 ta domendan tashkil topgan:

1. Maktabni yaxshilash (School Improvement). Rahbarning maktab rivojlanishi uchun aniq maqsadlar qo‘yishi va ularga erishish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqishi.

2. Dars berish va o‘quv jarayoni (Instruction and Learning). Rahbar o‘qituvchilarning dars berish sifatini oshirishga bevosita masuldir.

3. Doimiy rivojlanish (Continuous Improvement). Tizimni doimiy ravishda tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va yangi metodikalarni joriy etish.

4. Hamkorlik (Collaboration). O‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash muhiti.

5. Qadriyatlar va e’tiqodlar (Values and Beliefs). Rahbarning o‘ziga xos axloqiy va kasbiy pozitsiyasi, maktab madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni.

6. Resurslarni boshqarish (Managing Resources). Moliya, vaqt va texnologiyalardan samarali foydalanish.

L.Lashway o‘zining “Measuring Leadership: A Guide to Assessment for Development of School Executives” asarida rahbar faoliyatini baholash tizimi bo‘yicha fundamental qarashlarni ilgari surib, rahbarlik kompetensiyalarini o‘lchashning “Educational Leadership Assessment (ELA)” modelini taklif etdi. Lashway yondashuvining asosiy mohiyati shundaki, baholash jarayoni rahbarning “ko‘r nuqtalarini” (blind spots) aniqlash va ularni tizimli rivojlantirish uchun zamin yaratishga qaratilgan [7].

L.Lashway baholash vositalarini funksional jihatdan ikki asosiy toifaga tasniflaydi: rahbarning mavjud kompetensiya darajasini aniqlovchi diagnostik hamda ularning kasbiy o‘sish traektoriyasini shakllantiruvchi formativ instrumentlar. Tadqiqotchi rahbarlik faoliyatini uchta o‘zaro bog‘liq o‘lcham kesishmasida tahlil qilishni taklif etadi:

• Bilim. Rahbarning ta’lim qonunchiligi, nazariy asoslar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bo‘yicha fundamental tayyorgarligi;

• Ko‘nikma. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, nizoli holatlarni konstruktiv hal etish va jamoani maqsadlar sari safarbar etish bo‘yicha amaliy qobiliyatlar;

• Xulq-atvor. Rahbarning kasbiy qadriyatlari, axloqiy pozitsiyasi va maktab muhitini barqarorlashtirishga qaratilgan shaxsiy ta’siri.

Ushbu modelning o‘ziga xosligi shundaki, u yagona o‘lchovli baholash yondashuvini rad etib, 360 darajali baholash, o‘zini-o‘zi baholash va ish samaradorligini tahlil qilish usullarini integratsiyalashni talab qiladi. Bunday kompleks yondashuv rahbarga o‘z faoliyatini turli subyektlar nigohi bilan tahlil qilish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida, individual rivojlanish rejalarining aniq ma’lumotlarga tayangan holda tuzilishini ta’minlaydi.

MDH davlatlari olimlari ham bu borada o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, V.Zvereva “ta’lim muassasasining boshqaruv samaradorligi – boshqaruv faoliyati maqsadiga erishganlik ko‘rsatkichi, ya’ni ta’lim muassasasida har bir ta’lim oluvchining shaxsini rivojlantiruvchi

shart-sharoitlarning yaratilganligi", – deb aytib o'tgan bo'lsa [8], G.Abdrahmanov "boshqaruv faoliyati samaradorligi belgilangan me'yorlar asosida yuqori sifatlarga erishish darajasi hamda ta'lim tizimi faoliyatining sifat va miqdoriy xususiyatlarining zaruriy ko'rsatkichlarini ifodalovchi maqsadga erishish darajasi bo'yicha aniqlashni maqsadga muvofiq", deb hisoblaydi [9].

E.Yu. Malevanov o'z ilmiy izlanishlarida maktab rahbarining faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi asosida tahlil qiladi va direktorning samaradorligini uning pedagogik jamoani metodik boshqarish ko'nikmalari orqali o'lchashni taklif etadi. Uning yondashuviga muvofiq, maktab rahbari shunchaki ma'muriy boshqaruvchi emas, balki maktab ichidagi barcha pedagogik jarayonlarning bosh metodisti hisoblanadi. Shu bois, rahbarning asosiy vazifasi o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, dars sifatini doimiy monitoring qilish hamda maktabdagi metodik ishlar samaradorligini tizimli diagnostika qilishdan iboratdir.

E.Malevanov direktor faoliyatini baholash uchun maxsus diagnostik xaritalar tizimini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv rahbarning o'z xodimlarining kasbiy mahorati, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda bevosita ishtirok etishini va ularning uzluksiz o'sishini ta'minlashga qaratilgan individual rivojlanish traektoriyalarini belgilashini taqozo etadi. Mazkur metodologiya direktorga pedagogik jamoaning salohiyatini oqilona baholash va maktabdagi ta'lim sifatini boshqarishda ma'lumotlarga tayangan holda aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

T.I.Pudenko o'z tadqiqotlarida maktabni izolyatsiya qilingan tizim emas, balki ijtimoiy-munitsipal muhitning uzviy qismi sifatida tahlil qiladi. Uning yondashuvi direktor faoliyatini baholashda maktabning tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorligi va resurslarni strategik boshqarish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratadi. Olim modelida maktab rahbari shunchaki ichki xo'jalik ishlariga masul shaxs bo'lmay, balki ta'lim muassasasining tashqi resurslarini jalb qiluvchi hamda uning ijtimoiy imidjini shakllantiruvchi strategik menejer sifatida namoyon bo'ladi [11].

T.I. Pudenko rahbar samaradorligini muassasa faoliyat ko'rsatayotgan aniq ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Baholash mezonlarini belgilashda o'quvchilar kontingentining tarkibi, maktabning joylashuvi, resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda mahalliy aholi ehtiyojlari kabi omillar hisobga olinishi shart deb topiladi. Mazkur metodologiyaning asosiy g'oyasi o'quv natijalaridagi ijobiy dinamikani aynan shu ijtimoiy-iqtisodiy sharoit nuqtayi nazaridan o'lchashdan iborat. Natijada, rahbarning samaradorligi munitsipalitet bilan o'rnatilgan samarali muloqot, ta'lim sifatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni safarbar etish va maktabning jamoatchilik orasidagi nufuzini yuksaltirish ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

I. Gorbunova tomonidan olib borilgan tizimli tahlil maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini strukturaviy-funktsional yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Uning yondashuvi direktor faoliyatini statik baholashdan voz kechib, boshqaruv uslublari va shaxsiy kompetensiyalarning maktab natijadorligiga ta'sirini tabaqalashtirilgan (guruhlar bo'yicha) tahlil qilishni taqozo etadi [12].

Olimaning fikricha, samaradorlik darajasi quyidagi uch omil kesishmasida o'zgaradi:

Analitik kompetensiya. Rahbarning o'z maktabidagi ma'lumotlarni (o'quv natijalari, pedagogik kadrlar salohiyati) tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish qobiliyati.

Kommunikativ ochiqlik. Rahbarning tashqi muhit (munitsipalitet, ota-onalar, jamoatchilik) bilan o'zaro aloqa o'rnatish madaniyati.

Innovatsion yo‘nalganlik. Rahbarning pedagogik texnologiyalarni maktab amaliyotiga joriy etishdagi tashabbuskorligi.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta’lim muassasalari rahbarlarining samaradorligini baholashda bir nechta nufuzli dasturlar mavjud bo‘lib, ular nafaqat akademik natijalarga, balki rahbarning boshqaruv sifati va maktabdagi ijtimoiy muhitga ta’siriga ham e’tibor qaratadi.

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan o‘tkaziladigan TALIS (Teaching and Learning International Survey) dasturi doirasida ta’lim muassasasi rahbarlarining samaradorligini baholashda ta’limiy yetakchilik tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu yondashuv rahbarning shunchaki ma’muriy boshqaruvchi yoki xo‘jalik ishlari bo‘yicha masul shaxs emas, balki bevosita o‘quv jarayoni va ta’lim sifatini harakatga keltiruvchi “pedagogik yetakchi” ekanligiga asoslanadi. Dastur metodologiyasiga ko‘ra, rahbarning faoliyati o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish, darslarni kuzatish va ularga konstruktiv qayta aloqa berish darajasi bilan o‘lchanadi [13].

Ta’limiy yetakchilikning asosiy indikatorlari sifatida rahbarning o‘quv rejasini takomillashtirishdagi ishtiroki, o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish muhitini shakllantirganligi va dars jarayonidagi muammolarni tizimli tahlil qilishi ko‘rib chiqiladi. TALIS tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, rahbar o‘qituvchilar bilan metodik hamkorlikni kuchaytirgan taqdirdagina maktabda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari barqaror o‘sishga erishadi. Bunda rahbarning o‘zi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar bilan ishlash bo‘yicha o‘qituvchilarga yo‘nalish bera olishi muhim mezon hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu dastur rahbarning maktabdagi umumiy intizom va o‘quv muhitini qanchalik nazorat qilayotganini ham baholaydi. Samarali rahbar o‘qituvchilarning dars berish uslublarini doimiy monitoring qilib, ularning kuchli va zaif jihatlarini aniqlaydi hamda individual rivojlanish traektoriyalarini belgilashga ko‘maklashadi. Bu jarayonda rahbarning asosiy vazifasi xatolarni jazolash emas, balki pedagogik xatolarni bartaraf etish uchun zarur resurslar va metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlashdan iboratdir. Shu tariqa, TALIS tizimi rahbarning boshqaruv samaradorligini bevosita o‘qituvchilarning dars sifati va jamoaning umumiy akademik salohiyati orqali aniqlab beradi.

VAL-ED (Vanderbilt Assessment of Leadership in Education) tizimi ta’lim muassasasi rahbarlarining samaradorligini o‘lchashda dunyodagi eng kompleks va ilmiy asoslangan vositalardan biri hisoblanadi. U rahbarning nafaqat shaxsiy fazilatlarini, balki uning maktab muhiti va o‘quv jarayoniga bo‘lgan ta’sirini 360 darajali baholash usuli orqali tahlil qiladi [14]. Mazkur yondashuv shundan iboratki, rahbar faoliyati haqidagi ma’lumotlar yagona manbadan emas, balki maktabdagi turli ijtimoiy qatlamlar – o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va bevosita rahbarning o‘zi hamda yuqori turuvchi boshqaruv organlari vakillari tomonidan taqdim etilgan fikrlar asosida shakllantiriladi. Bunday ko‘p tomonlama yondashuv rahbarning boshqaruvidagi subyektivlikni kamaytirib, uning haqiqiy pedagogik va ma’muriy ta’sirini obyektiv baholash imkonini beradi.

Ushbu tizimning markazida rahbarning oltita asosiy boshqaruv funksiyasi yotadi: yuqori akademik standartlarni belgilash, o‘quvchilar uchun qulay muhit yaratish, o‘qituvchilar salohiyatini rivojlantirish, resurslarni taqsimlash, ta’lim tizimidagi jarayonlarni muvofiqlashtirish va maktabning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash. VAL-ED vositasi rahbarning ushbu funksiyalarni qanchalik samarali bajaryotganini aniq indikatorlar orqali o‘lchaydi. O‘qituvchilar o‘zlariga berilgan metodik yordam va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bo‘yicha baho bersalar, ota-onalar maktabdagi tarbiyaviy

muhit va rahbarning ochiqligi haqida ma'lumot beradi. Bu esa rahbar uchun o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashda juda muhim teskari aloqa (feedback) vazifasini o'taydi.

VAL-ED vositasining muhim jihati shundaki, u shunchaki nazorat vositasi emas, balki rahbarlarni rivojlantirish dasturidir. Tizim orqali olingan tahliliy natijalar rahbarlarga o'z boshqaruv uslublarini xalqaro standartlarga moslashtirish, pedagogik xatolarni tuzatish va maktab rivojlanish strategiyasini ma'lumotlarga tayangan holda qayta ko'rib chiqishga yordam beradi. Uning natijalari asosida rahbarlar uchun individual kasbiy o'sish rejalari tuziladi, bu esa ta'lim sifatini oshirishning tizimli yo'li hisoblanadi.

World Management Survey (WMS) ta'lim tizimida boshqaruv amaliyotlarini baholash uchun qo'llaniladigan eng nufuzli va empirik asoslangan vositalardan biri bo'lib, u maktab boshqaruvini quruq baholardan emas, balki aniq raqamli ko'rsatkichlar – Management Score orqali tahlil qiladi [15]. Mazkur survey metodologiyasi maktablardagi boshqaruv jarayonlarini to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha tizimlashtiradi: faoliyatni monitoring qilish, maqsadlarni belgilash, xodimlarni rag'batlantirish va iste'dodlarni boshqarish. Har bir yo'nalish rahbarning maktab resurslaridan qanchalik unumli foydalanayotganini va pedagogik jamoaning salohiyatini o'zaro uyg'unlashtira olayotganini aniqlashga xizmat qiladi.

WMS tizimining eng muhim xususiyati shundaki, u boshqaruv amaliyotlarini juda past ko'rsatkichdan (1 ball) yuqori, tizimli boshqaruv darajasigacha (5 ball) bo'lgan shkala bo'yicha baholaydi. Masalan, past ball olgan maktablarda boshqaruv tartibsiz va rejasiz bo'lsa, yuqori ball olgan muassasalarda barcha jarayonlar aniq ma'lumotlarga asoslangan, xodimlar mehnatiga yarasha rag'batlantiriladigan va doimiy rivojlanishga yo'naltirilgan bo'ladi. Survey doirasida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu boshqaruv sifati ko'rsatkichi maktablardagi ta'lim sifatiga va o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Rahbarlar uchun bu tizim o'z boshqaruv uslublaridagi bo'shliqlarni aniqlash va qaysi yo'nalishda investitsiya yoki o'zgarish qilish kerakligini ko'rsatuvchi xarita vazifasini o'taydi.

Tizimning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u boshqaruvdagi "subyektiv qarashlar"ni istisno etishga intiladi. WMS orqali olingan ma'lumotlar xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi, bu esa maktab rahbarlariga o'z muassasalarini jahon standartlaridagi eng yaxshi amaliyotlar bilan solishtirishga yordam beradi. Natijada, rahbar shunchaki buyruq beruvchi emas, balki maktabdagi barcha jarayonlarni optimallashtiruvchi va xodimlar samaradorligini oshiruvchi strategik menejer darajasiga ko'tariladi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida maktab direktorlarining faoliyatini zamonaviylashtirish va ularni korporativ boshqaruv tamoyillari bilan boyitishda juda samarali qo'llanma bo'lishi mumkin.

Ushbu xalqaro tajribalar – TALIS dasturining pedagogik yetakchilikka urg'u berishi, Vanderbilt universiteti tomonidan ishlab chiqilgan VAL-ED tizimining 360 darajali obyektiv yondashuvi va Buyuk Britaniya va AQSHning eng nufuzli akademik markazlari hamkorligida yaratilgan WMS dasturining raqamlashgan strategik menejment tamoyillari – bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va maktab rahbarlari faoliyatini baholashning milliy mexanizmi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, mamlakatimizda joriy etilgan direktorlarni menejerlik sertifikatsiyasidan o'tkazish va maktab rahbarlarining faoliyatini KPI (muhim samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholash tizimi yuqoridagi xalqaro standartlar bilan quyidagi jihatlarda uzviy bog'lanadi:

- TALIS dasturida ta'kidlanganidek, rahbarning asosiy vazifasi faqat xo'jalik ishlari emas, balki "pedagogik yetakchilik"dir. O'zbekistonda ham direktorlarning nafaqat boshqaruv, balki o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha kompetensiyalarini baholashga o'tilmoqda. Endilikda rahbarning o'qituvchilar bilan metodik hamkorligi va dars sifatini monitoring qilishi uning kasbiy muvofiqligini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda.

- VAL-ED tizimidagi kabi ko'p tomonlama baholash tamoyili bizning tizimda maktablarning milliy reytingini aniqlashda o'z aksini topmoqda. Bunda nafaqat rahbarning hisoboti, balki o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomalar, maktabdagi "psixologik iqlim" va ta'lim muhitidan qoniqish darajasi rahbar faoliyatiga berilgan xolis baho sifatida qaralmoqda.

- WMS tizimidagi "Management Score" tushunchasi mamlakatimizdagi ERP (ta'limni boshqarish axborot tizimi) va kundalik.com kabi platformalar orqali olinadigan real ma'lumotlar bilan hamohangdir. Rahbarning samaradorligi endi qog'ozdagi hisobotlar bilan emas, balki o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, bitiruvchilarning OTMga kirish darajasi va o'qituvchilarning toifalar bo'yicha o'sish dinamikasi kabi aniq raqamli ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarini tahlil qilish asosida xalqaro baholash dasturlarining o'ziga xos jihatlari va ularning O'zbekiston milliy baholash tizimidagi muqobillari yoki moslashtirilishi lozim bo'lgan tomonlari qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).

Xalqaro baholash dasturlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktab rahbari faoliyati endilikda faqatgina ma'muriy buyruqbozlik emas, balki pedagogik yetakchilik, jamoaviy feedback va strategik resurslarni boshqarishning o'zaro sintezi orqali o'lchanmoqda. TALIS, VAL-ED va WMS tizimlarida rahbarning muvaffaqiyati uning o'quv jarayoniga bevosita ta'siri va raqamli boshqaruv ko'nikmalari bilan asoslanishi, O'zbekiston ta'lim tizimida ham baholash mezonlarini tubdan isloh qilish zaruratini tasdiqlaydi. Aynan ushbu global tendensiyalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash mexanizmi joriy etilmoqda, bu esa boshqaruv sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishning huquqiy va metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim menejmenti samaradoligini oshirishda nafaqat ta'lim muassasalari rahbarlari, balki maktabgacha va maktab ta'limi hududiy bo'limlari xodimlarining ham o'ziga xos o'rni mavjud. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi "Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholashni takomillashtirish hamda ularni qo'shimcha rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 187-sonli buyrug'i tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari mudirlari va metodistlarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari (KPI) tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgani tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarini ta'lim sifatiga xizmat qiluvchi metodik ko'makchi markazga aylantirishga zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF–51-sonli Farmoni mazkur sohada olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim huquqiy asos hisoblanadi. Mazkur farmonda maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruv jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni joriy

1-jadval

Xalqaro va milliy ta'lim boshqaruvini baholash tizimlari qiyosiy tahlili

Baholash tizimi	Asosiy konsepsiya	Baholash usuli	Rahbarning roliga urg'u	O'zbekiston milliy tizimi bilan bog'liqligi
TALIS (OECD)	Pedagogik yetakchilik (Instructional Leadership)	O'qituvchilar va rahbarlar o'rtasidagi so'rovnomalar	O'quv jarayoni va metodik hamkorlikni tashkil etuvchi	Direktorlarning dars kuzatishi va pedagogik jamoani rivojlantirish talabi bilan hamohang
VAL-ED (AQSH)	360 darajali feedback (Ko'p tomonlama aloqa)	Ota-onalar, o'quvchilar, o'qituvchilar va rahbarning o'zini so'rovdan o'tkazish	Akademik standartlarni o'rnatuvchi va ijtimoiy iqlimni boshqaruvchi	Maktablarning milliy reytingidagi ijtimoiy so'rovnomalar va "maktab-mahalla-oila" zanjiri bilan bog'liq
WMS (Britaniya / AQSH)	Strategik menejment (Management Score)	Strukturaviy intervyu va aniq raqamli ko'rsatkichlar (1-5 ball)	Resurslarni optimallashtiruvchi va natijadorlikni nazorat qiluvchi menejer	Direktorlarning KPI ko'rsatkichlari va menejerlik sertifikatsiyasi tizimi bilan o'xshash
Milliy tizim (O'zbekiston)	Integratsiyalashgan boshqaruv	KPI, attestatsiya, reyting va sertifikatsiya	Ham ma'muriy boshqaruvchi, ham ma'naviy-tarbiyaviy masul	Xalqaro tajribalarni raqamli texnologiyalar (ERP) orqali tizimlashtirish bosqichida

etish, ta'lim muassasalari rahbarlarining masuliyati hamda boshqaruv kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, ushbu normativ-huquqiy hujjatda ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, hududiy boshqaruv organlari vakolatlarini optimallashtirish, boshqaruvda shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [16].

Qolaversa, 2026-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan direktor va uning o'rinbosarlariga faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) natijasiga ko'ra bazaviy tarif stavkalariga nisbatan har oylik ustamalar belgilanishi maktab rahbarlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy sohadagi vazirlik va idoralar faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 29-apreldagi 282-xdfu-son qarori bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi tashkilot va muassasalar rahbarlari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilandi. Bu o'z navbatida vazirlik tizimidagi boshqarma va bo'limlar, ta'lim muassasalari rahbarlari tegish-

li yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va natijador erishilishi uchun masulliklarini hamda aniq maqsad va reja asosida ish olib borishlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 30-dekabrdagi 478-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining (KPI) baholash metodikasiga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyati samaradorligini baholashning kompleks tizimi joriy etilgan. Unga ko‘ra, rahbarlar faoliyatini baholash beshta asosiy yo‘nalish bo‘yicha jami 100 ballik tizimda amalga oshiriladi.

Mazkur tizimda eng yuqori ulush akademik natijalarga ajratilgan bo‘lib, u umumiy ko‘rsatkichning 40 foizini tashkil etadi. Ushbu yo‘nalish doirasida o‘quvchilarning fan olimpiadalaridagi yutuqlari, bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi o‘rtacha ballari hamda 5-11-sinf o‘quvchilarining yillik o‘zlashtirish sifatiga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, bitiruvchilarning xorijiy tillarni bilish bo‘yicha milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishi hamda “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” kabi nufuzli tanlovlardagi ishtiroki rahbar faoliyatini baholashda muhim mezon hisoblanadi.

Ta’lim muassasasining kadrlar salohiyati baholash tizimining ikkinchi muhim ustuni bo‘lib, u 30 ballik ulushga ega. Bunda asosiy e’tibor oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagoglar salmog‘iga hamda o‘qituvchilarning xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha sertifikatlar bilan ta’minlanganlik darajasiga qaratiladi. Shu bilan birga, maktabdagi tarbiyaviy ishlar samaradorligi, xususan, o‘quvchilar davomati, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va turli ijodiy tanlovlardagi g‘olibliklar uchun 15 ball ajratilgan.

Menejmentning zamonaviy talablaridan kelib chiqib, maktab rahbariyatining axborot makonidagi faolligi, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishi kabi noakademik natijalar hamda budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish orqali moliyaviy samaradorlikka erishish ko‘rsatkichlari mos ravishda 10 va 5 ball bilan baholanadi.

Ushbu KPI tizimi nafaqat nazorat, balki differensiallashgan rag‘batlantirish mexanizmini ham nazarda tutadi. To‘plangan ballar miqdoriga qarab direktorlar uchun lavozim maoshining 5 foizidan 20 foizigacha, o‘rinbosarlar uchun esa 2,5 foizdan 10 foizigacha bo‘lgan miqdorda qo‘shimcha ustamalar belgilanishi ko‘zda tutilgan. Xususan, 91 balldan yuqori natija ko‘rsatgan direktorlar maksimal 20 foizlik ustamaga ega bo‘lishi belgilangan bo‘lsa, 60 balldan past ko‘rsatkich qayd etgan rahbar xodimlarga rag‘batlantirish mablag‘lari ajratilmaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida maktab rahbarlarining faoliyat samaradorligini baholash (KPI) andozasi tubdan o‘zgarib, ma’muriy boshqaruvdan strategik yetakchilikka o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xalqaro amaliyot, xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a’zo davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali rahbar faoliyati ta’lim sifatini transformatsiya qiluvchi to‘rtta asosiy ustunga tayanadi. Bular maktabning strategik vazifasi va maqsadlarini belgilash, o‘qitish jarayoniga bevosita rahbarlik qilish, hamkorlikka asoslangan professional jamoalarni rivojlantirish hamda kadrlar salohiyatini oshirishdan iboratdir. Ushbu o‘lchovlar rahbarning nafaqat tashkiliy, balki pedagogik jarayonlarga ta’sirini baholash imkonini beradi [17].

Turli davlatlar tajribasida ushbu indikatorlar turlicha tabaqalashtirilgan. Singapur va Estoniya modellari rahbarlikka tayinlashda malaka sertifikatlarining mavjudligiga hamda kadrlar zaxirasini tizimli shakllantirishga alohida urg‘u beradi [18, 19]. AQSHning ayrim shtatlarida

esa rahbarlar faoliyati aniq foizli nisbatda baholanib, unda o'qituvchilar faoliyatini kuzatish va baholash 57 foizlik, o'quvchilarning yil davomidagi shaxsiy o'sish dinamikasi 33 foizlik, jamoatchilik so'rovnomalari natijalari esa 10 foizlik ulushni tashkil etadi [20]. Bu tizim rahbar faoliyatini o'qituvchilar va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik sifatiga bog'lab qo'yadi.

OECD va UNESCO tashkilotlarining 2026-yilga mo'ljallangan strategik tavsiyalariga ko'ra, maktab rahbarlari faoliyatini baholashda innovatsion indikatorlar majmuasi shakllanmoqda. Kelgusida rahbarlarning sun'iy intellekt vositalarini ta'lim jarayoniga pedagogik maqsadlarda integratsiya qilish ko'rsatkichi, o'quvchilarning ruhiy farovonligi va inklyuziv muhitni yaratish qobiliyati hamda maktab resurslaridan ekologik barqaror foydalanish darajasi asosiy mezonlardan biri bo'ladi [21, 22].

Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, global miqyosda maktab rahbarligi faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki maktabdagi ijtimoiy-hissiy muhit va raqamli innovatsiyalarni joriy etish samaradorligi bilan o'lchanmoqda. Bu esa ta'lim menejmentida rahbarning an'anaviy vazifalari kengayib, gumanistik yondashuv hamda raqamli kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi (2-jadvalga qarang).

O'zbekiston maktablarida KPI (Key Performance Indicators) tizimining joriy etilishi ta'lim boshqaruvida sifatga asoslangan yangi bosqichni belgilab berdi. Ushbu tizimning pedagogik imkoniyatlari shunchaki ma'muriy nazorat emas, balki ta'lim jarayonini tizimli rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bu jarayon rahbarlik faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda tizimlashtiradi:

O'qituvchilarning kasbiy o'sishini boshqarishda rahbarlar uchun KPI aniq indikator vazifasini o'taydi. Rahbar o'z jamoasidagi pedagoglarning xalqaro sertifikatlar olishi, fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishishi va zamonaviy metodikalarni o'zlashtirishi uchun sharoit yaratishi shart. Bu rahbarning "pedagogik yetakchi" sifatida o'qituvchilar salohiyatini o'stirishdagi masuliyatini oshiradi va maktabda kuchli pedagogik jamoani shakllantirishga turtki beradi.

Ta'lim sifatini monitoring qilishda rahbarlar va ularning o'rinbosarlari raqamli ma'lumotlarga tayanib ishlaydi. Akademik ko'rsatkichlar, bitiruvchilarning OTMga kirish natijalari va o'zlashtirish sifatini tizimli tahlil qilish orqali maktab rahbariyati ta'lim jarayonidagi zaif nuqtalarni tezkor aniqlaydi. Bu rahbarlarga subyektiv qarorlardan voz kechib, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni yo'lga qo'yish va ta'lim sifatini boshqarishda proaktiv yondashish imkonini beradi.

Jamoaviy hamkorlikni tashkil etishda rahbarlar uchun "ilg'or ish tajribasini ommalashtirish" mezoni markaziy ahamiyat kasb etadi. Maktab rahbarlari o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashinuvini, "ustoz-shogird" tizimini va professional o'rganish jamoalarini yaratishni KPI doirasida rag'batlantiradilar. Natijada, rahbar nafaqat ma'muriy topshiriqlar beruvchi shaxs, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun mentorlik muhitini barpo etuvchi strategik liderga aylanadi.

Ta'lim resurslarini optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlashda maktab rahbariyatining moliyaviy savodxonligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash mezonlari rahbarlardan maktabning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qaratilgan strategik loyihalarni ishlab chiqishni talab etadi. Bu rahbarlarning tadbirkorlik va resurslarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ishlar va ijtimoiy muhitni nazorat qilishda rahbarlar va ularning o'rinbosarlari o'quvchilarning maktabga bog'liqligi, davomati va ijodiy tanlovlardagi faolligi uchun bevosita masuldirlar. KPI tizimi tarbiyaviy ishlar sifatini

2-jadval

Maktab rahbarlari KPI tizimlarining qiyosiy-tahliliy jadvali

Baholash mezonlari	O‘zbekiston	Singapur Modeli (EPMS tizimi)	Estoniya Modeli (Society 5.0)	AQSH (Arizona/PSEL Modeli)	OECD va UNESCOning 2026-yilga mo‘ljallangan strategik tavsiyalari
Akademik natijalar	OTMga kirish ballari, olimpiadalar va o‘zlashtirish sifati (40 ball)	Yaxlit rivojlanish (Holistic development) va qadriyatlarga asoslangan ta’lim	PISA natijalari va o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi	Standartlashtirilgan testlardagi yillik “o‘sish ko‘rsatkichi” (33%).	Kreativ fikrlash va muammolarni jamoaviy hal qilish darajasi.
Ilg‘or tajribani ommalashtirish	O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi ulushi (5 ball)	Mentorlik tizimi (Master teacher) va tarmoqli hamkorlik	Raqamli platformalar orqali tajriba almashish (e-Teacher)	Professional Learning Communities (PLC)dagi yetakchilik	Global ta’lim hamjamiyatida (Open Education) ishtirok.
Raqamli boshqaruv	OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi faollik (5 ball)	Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (Data-driven)	To‘liq raqamlashgan boshqaruv (e-School) va kibernetik xavfsizlik	Ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi	GenAI orqali boshqaruv samaradorligini avtomatlashtirish.
Tarbiyaviy ishlar samaradorligi	O‘quvchilar davomati va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar (15 ball)	Karakter shakllanishi va o‘quvchining ijtimoiy moslashuvi	Inklyuzivlik va maktabdagi psixologik xavfsizlik darajasi	Ota-onalar va xodimlarning so‘rovnomalaridagi qoniqish darajasi (10%)	Psixologik xavfsizlik (Psychological Safety) va ruhiy salomatlik.
Moliyaviy samaradorlik	Budjetdan tashqari mablag‘ jalb etish (5 ball)	Strategik resurs boshqaruvi va budjet avtonomiyasi	Davlat-xususiy sheriklik va innovatsion loyiha grantlari	Fundraising va tashqi grantlarni jalb etish (5-10%)	Barqaror rivojlanish uchun resurslarni optimallashtirish (ESG).
Pedagogik yetakchilik	Malaka toifalari va sertifikatlar ulushi (30 ball)	O‘qituvchilarga mentorlik (coaching) va jamoaviy o‘rganish (PLC)	O‘qituvchilarning raqamli pedagogika bo‘yicha kompetensiyasi	Dars jarayonlarini kuzatish va professional fikr-mulohaza (57%)	Pedagogik jarayonda Sun’iy intellekt (AI) integratsiyasi.
Rag‘batlantirish mexanizmi	Lavozim maoshiga 5% dan 20% gacha bo‘lgan oylik ustamalar	Yillik yirik bonuslar va “Karyera zinapoyasi” bo‘ylab ko‘tarilish	Professional rivojlanish uchun grantlar va innovatsion loyihalarni qo‘llash	Ish haqining natijaga bog‘liqligi va “Performance-based” shartnomalar	Shaxsiy brend va xalqaro pedagogik hamjamiyatdagi nufuz.

statistik raqamlar bilan baholash imkonini berib, rahbarlarni maktabda ma'naviy-ma'rifiy va xavfsiz muhitni shakllantirishga, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun keng sharoit yaratishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, KPI tizimi maktab rahbariyati uchun nazorat vositasi bo'lishi bilan bir qatorda, ularning boshqaruv samaradorligini oshiruvchi, shaffoflikni ta'minlovchi va maktabni innovatsion taraqqiyotga boshlovchi muhim professional instrumentdir. Bu tizim rahbarlardan nafaqat buyruq berishni, balki ta'lim sifatini boshqarish va jamoani umumiy maqsad yo'lida birlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hargreaves D. School Culture, School Effectiveness and School Improvement. Journal of School Effectiveness and School Improvement. Volume 6. 1995/03/01.

2. Sultonova L.S. "Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mexanizmini takomillashtirish (Ragbarning boshqaruv kompetentligi ko'rsatkichlari asosida)". Ped.fan.fals.dok (PhD) dissertatsiyasi. T.2025.,149 b.

3. Stronge, J.H. Principal Evaluation: Standarts, Rubrics, and Tools fot Effective Performance (E-Book). ISBN:9781416615279. 2013-03-01.-160 p.

4. Mercy O.N. Effectiveness of principal's role performance in curriculum and instructional development in public secondary schools in Abambra State. Unizik Journal of Educational Research and Policy Studies. Vol.3, 2021. IF: 5.641.

5. Khaliq R.Ch., Iram A. "Evaluation of Principal Performance in Public and Private Sector Schools". Journal of Leadership&Organizational Studies. September, 2013.

6. Marzano, R. J., Waters, T., & McNulty, B. A. (2005). School Leadership that Works: From Research to Results. ASCD (Association for Supervision and Curriculum Development).

7. Lashway, L. (2003). Measuring Leadership: A Guide to Assessment for Development of School Executives. Corwin Press.

8. Зверева В.И. Как оценить эффективность и действенность управления школой // Менеджмент в управлении школой. – М., 1996. – 145 с.

9. Абдрахманова Г.С. Диагностический подход и оценка эффективности управления современной школой. Автореферат дисс. канд.пед. наук. – Казань, 1988.- 19 с.

10. Малеванов, Э. Ю. Методическая поддержка управленческой деятельности руководителя образовательного учреждения: монография / Э. Ю. Малеванов. – М.: АПКиППРО, 2010. – 164 с.

11. Пуденко, Т. И. Управление развитием образовательной системы муниципалитета: опыт и проблемы / Т. И. Пуденко. – М.: Институт управления образованием РАО, 2007. – 212 с.

12. Горбунова И. В. Системный анализ деятельности руководителей общеобразовательных организаций // Системная психология и социология. 2020. № 4 (36). С. 84–92. DOI: 10.25688/2223- 6872.2020.36.4.7

13. https://www.oecd.org/en/about/programmes/talis.html

14. https://news.vanderbilt.edu/2008/10/16/a-val-ed-discovery/

15. https://worldmanagementsurvey.org/

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF–51-sonli Farmoni.

17. https://www.oecd.org/en/about/directorates/directorate-for-education-and-skills.html.

18. https://www.nie.edu.sg/teacher-education/leadership-programmes

19. https://harno.ee/en.

20. National Policy Board for Educational Administration (2015). Professional Standards for Educational Leaders 2015. Reston.

21. https://www.oecd.org/en/about/projects/future-of-education-and-skills-2030.html.

22. https://www.unesco.org/en/sustainable-development/education.

TA'LIM TASHKILOTI RAHBARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA
KOMPETENTLI YONDASHUVNING AHAMIYATI

Sharipov Ilyosbek Ilxomovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyati mazmuni, tuzilmasi va zamonaviy talablar asosida shakllanish jarayonlari kompleks tarzda tahlil etilgan. Boshqaruv va menejment tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Jahon tajribasi misolida yapon va Amerika menejment modellari qiyosiy tahlil qilinib, ularning ta'lim tizimi uchun ahamiyatli jihatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, rahbar faoliyatini kompetentlik yondashuv asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari yoritilib, mualliflik takliflari ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Boshqaruv, menejment, boshqaruv faoliyati, boshqaruv funksiyalari, menejment komponentlari, kompetentli yondashuv, menejment modellari, menejment funksiyalari.*

Значение компетентностного подхода в совершенствовании деятельности руководителя образовательной организации

Шарипов Ильёсбек Ильхомович,
Независимый исследователь Национального института педагогических навыков имени А.Авлони

Аннотация: *В данной статье комплексно проанализированы содержание, структура и процессы формирования управленческой деятельности руководителей образовательных организаций в соответствии с современными требованиями. С научной точки зрения обоснованы взаимосвязь и различия понятий "управление" и "менеджмент". На основе мирового опыта проведён сравнительный анализ японской и американской моделей менеджмента, раскрыты их значимые аспекты для системы образования. Вместе с тем освещены теоретические и практические основы организации деятельности руководителя на основе компетентностного подхода, а также разработаны авторские предложения.*

Ключевые слова: *управление, менеджмент, управленческая деятельность, функции управления, компоненты менеджмента, компетентностный подход, модели менеджмента, функции менеджмента.*

The importance of a competency-based approach in improving the activities of an educational organization leader

Sharipov Ilyosbek Ilhomovich,
Independent researcher at the A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the content, structure, and formation processes of the managerial activities of educational organization leaders in accordance with modern requirements. The interrelationship and differen-*

ces between the concepts of "management" and "administration" are substantiated from a scientific perspective. Based on international experience, a comparative analysis of Japanese and American management models is conducted, and their significant aspects for the education system are revealed. At the same time, the theoretical and practical foundations for organizing the activities of a leader based on a competency-based approach are discussed, and the author's proposals are developed.

Keywords: *management, administration, managerial activity, management functions, management components, competency-based approach, management models, management functions.*

Hozirgi davrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar rahbar kadrlar faoliyatiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni shakllantirmoqda. Zamonaviy rahbar endi faqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi sub'ekt emas, balki ta'lim jarayonini strategik boshqaruvchi, inson resurslarini rivojlantiruvchi va innovatsion g'oyalarni amalga tatbiq etuvchi yetakchi hisoblanadi.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "boshqaruv faoliyati" tushunchasi turlicha talqin qilinadi va uning yagona universal ta'rifi mavjud emas. Bu holat ushbu kategoriyaning murakkab, ko'p qirrali va integrativ xarakterga ega ekanligini anglatadi.

Akademik S.S.G'ulomovning qarashlariga ko'ra, boshqaruv – bu tashkilotning strategik va joriy maqsadlariga erishishga qaratilgan, o'zaro bog'liq harakatlar tizimidan iborat jarayon hisoblanadi. Ushbu yondashuvda boshqaruv ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalarni hal etishga xizmat qiluvchi, aniq rejalashtirilgan va izchil amalga oshiriladigan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi [1].

Shuningdek, Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlar boshqaruv faoliyatini o'zaro bog'liq va uzluksiz amalga oshiriladigan funksiyalar majmuasi sifatida tavsiflaydilar [2]. Ular tomonidan taklif etilgan modelda rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish kabi funksiyalar boshqaruvning asosiy tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv boshqaruv jarayonining tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlaydi.

V.Zigert qarashlariga ko'ra, boshqaruv inson resurslarini samarali boshqarish hamda mavjud vositalardan oqilona foydalanish orqali belgilangan vazifalarga erishishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu ta'rifda boshqaruvning insonparvarlik, iqtisodiylik va ratsionallik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanadi [3].

Boshqaruv faoliyatini tushunish uning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda boshqaruv:

- maqsadga yo'naltirilgan jarayon
- tizimli harakatlar majmuasi
- qaror qabul qilish va uni amalga oshirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini integrativ tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq. Chunki bu sohada qarorlar ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar ta'sirida shakllanadi.

Boshqaruv va menejment tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ular mazmun jihatdan farq qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "boshqaruv" tushunchasi universal xarakterga ega bo'lib, u turli xil tizimlarga – ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, texnik va boshqa sohalarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Masalan, transport harakatini, texnik qurilmalarni yoki ijtimoiy guruhlarni boshqarish kabi jarayonlar ushbu tushunchaning keng qamrovliligini namoyon etadi.

“Menejment” esa, mazmunan torroq tushuncha bo‘lib, asosan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, xususan, tadbirkorlik va bozor munosabatlari doirasida kechadigan faoliyatni boshqarish bilan bog‘liq. U zamonaviy jamiyatda shakllangan yangi falsafiy qarashlar, qadriyatlar tizimi va ustuvor yo‘nalishlar bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, menejmentning iqtisodiy asosi bozor xo‘jaligi munosabatlari bilan belgilanadi.

Boshqaruv universal kategoriya bo‘lsa, menejment insonga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, ta’lim tizimida menejment uchta o‘zaro bog‘liq komponentning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi: inson, jarayon va natija. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim menejmenti, avvalo, inson omiliga – ya’ni rahbar, pedagog va o‘quvchining faol ishtirokiga tayanadi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Natija esa mazkur ikki omilning mantiqiy yakuni sifatida ta’lim sifati, o‘quvchilarning bilim darajasi va tarbiyaviy samaradorlikda o‘z aksini topadi.

Mazkur formula ta’lim menejmentini faqat boshqaruv jarayoni sifatida emas, balki inson resurslari, tashkiliy mexanizmlar va yakuniy natijalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Boshqaruv nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtga qadar jahon miqyosida umume’tirof etilgan yagona boshqaruv nazariyasi shakllanmagan. Turli olimlar tomonidan menejment funksiyalariga nisbatan turlicha yondashuvlar ilgari suriladi. Bu holat, avvalo, ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarning maqsad va vazifalari, mehnatni tashkil etish tamoyillari hamda boshqaruvga nisbatan qo‘llanilayotgan konseptual yondashuvlar farqlanishi bilan izohlanadi.

Menejment nazariyasi va amaliyotida shakllangan asosiy yondashuvlardan biri sifatida yapon va amerika modellari alohida ajratib ko‘rsatiladi. Ushbu modellar boshqaruvning mazmuni, tamoyillari va amaliy mexanizmlari jihatidan o‘zaro farqlanib, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda samarali qo‘llanilishi bilan ahamiyat kasb etadi.

AQSh va Yaponiya menejment maktablari o‘rtasida muayyan o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, har ikkisida ham inson omili ustuvor qadriyat sifatida qaraladi va unga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, mazkur modellar innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, tashkilotlarni ortiqcha yiriklashtirmasdan optimal qayta tuzish hamda strategik rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga yo‘naltirilganligi bilan ham umumiylik kasb etadi.

Yapon va Amerika menejment modellarini qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur ikki yondashuv mazmun va boshqaruv tamoyillari jihatidan sezilarli darajada farq qiladi. Jumladan, yapon menejmentida qaror qabul qilish jarayoni jamoaviy konsensusga tayanishi bilan xarakterlanadi, masuliyat guruh doirasida taqsimlanadi va nazorat ko‘proq norasmiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvda asosiy e’tibor jamoaviy manfaat va hamkorlik muhitiga qaratiladi.

Amerika modelida esa aksincha, qaror qabul qilish individual xarakterga ega bo‘lib, javobgarlik shaxsiy tarzda belgilanadi. Nazorat tizimi qat’iy va reglamentlashgan bo‘lib, natijaga yo‘naltirilganlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa boshqaruvda aniqlik, tezkorlik va shaxsiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Bizning xulosamizga ko‘ra, ta’lim tizimida ushbu ikki modelning ustun jihatlarini uyg‘unlashtirgan gibrid yondashuvni qo‘llash eng maqbul hisoblanadi. Ya’ni, jamoaviy qaror qabul qilish orqali ijtimoiy-pedagogik muhitni mustahkamlash bilan birga, shaxsiy javobgar-

lik va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ta'lim sifatini oshirishda yuqori samara beradi.

Tadqiqot doirasida boshqaruv faoliyatining nazariy modeli sifatida Peter F.Drucker hamda H. Fayol (1916) qarashlari asosida asoslab berilgan zamonaviy rahbar (menedjer)ning klassik konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq, rahbar faoliyati muayyan o'zaro bog'liq funksional vazifalar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jumladan, rejalashtirish funksiyasi tashkilotning strategik va joriy maqsadlarini belgilash, ularga erishish yo'llarini aniqlash hamda resurslar va ijrochilarni samarali taqsimlashni qamrab oladi. Tashkil etish funksiyasi esa xodimlar faoliyatini maqsadga muvofiq tuzilmalashtirish orqali mehnat samaradorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Buyruq berish rahbar tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijrochilarga aniq va tushunarli tarzda yetkazish hamda ularning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, muvofiqlashtirish funksiyasi turli bo'linmalar va ijrochilar faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, ularning harakatlarini uyg'unlashtirish orqali umumiy maqsadlarga erishishga qaratilgan. Motivatsiya funksiyasi xodimlarning faoliyatini rag'batlantirish, ularda yuqori masuliyat va natijaga yo'naltirilganlikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy, ijtimoiy va psixologik sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Nazorat funksiyasi esa belgilangan maqsadlarga erishish jarayonini muntazam kuzatish, yuzaga kelgan og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish orqali boshqaruv samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot nuqtai nazaridan, rahbarning mazkur boshqaruv funksiyalarini kompetentli yondashuv asosida talqin qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, rahbar faoliyatida namoyon bo'ladigan kompetensiyalar uning amalga oshirayotgan funksional vazifalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro ta'minlovchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa rahbarning kasbiy samaradorligini baholash va rivojlantirishda integrativ yondashuvni qo'llash zarurligini asoslab beradi.

Kompetentli yondashuv zamonaviy ta'lim menejmentida rahbar faoliyatini yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi konseptual asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv rahbarning faqat bilimga egaligi bilan cheklanmasdan, ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo'llash, to'g'ri qarorlar qabul qilish va barqaror natijalarga erishish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Muallif tomonidan taklif etilgan kompetentli yondashuv modeliga ko'ra, rahbar faoliyati uzluksiz va dinamik sikl asosida rivojlanadi:

bilim → kompetensiya → qaror → natija → tahlil → takomillashuv

Bilim – rahbar faoliyatining fundamental asosi hisoblanadi. U nazariy bilimlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, sohaviy axborot va ilg'or tajribalarni o'z ichiga oladi. Biroq zamonaviy menejmentda bilimning o'zi yetarli emas, balki uni to'g'ri anglash va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiya – bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashgan holatidir. Rahbardagi kompetensiyalar (strategik fikrlash, kommunikatsiya, qaror qabul qilish, liderlik) uning real vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini belgilaydi. Aynan shu bosqichda bilim "faol resurs"ga aylanadi.

Qaror – kompetensiyalarning amaliyotda namoyon bo'lish shaklidir. Rahbar turli ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, maqbul va asoslangan qarorlar qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida tahlil, prognoz va masuliyat muhim o'rin tutadi.

Natija – qabul qilingan qarorlarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ta'lim tizimida bu ta'lim sifati, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, jamoadagi samaradorlik va tashkilot faoliyati ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Natija rahbar faoliyatining real samaradorligini ko'rsatadi.

Tahlil – erishilgan natijalarni tanqidiy baholash bosqichidir. Ushbu jarayonda kuchli va zaif tomonlar, xatolar va yutuqlar aniqlanadi. Tahlil orqali rahbar o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Takomillashuv – tahlil natijalari asosida amalga oshiriladigan rivojlanish bosqichidir. Bu yerda rahbar o'z bilim va kompetensiyalarini boyitadi, yangi yondashuvlarni joriy etadi va keyingi faoliyatini yanada samarali tashkil etadi. Shu tariqa sikl qaytadan "bilim" bosqichiga qaytib, uzluksiz rivojlanishni ta'minlaydi.

Ushbu modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u rahbar faoliyatini chiziqli emas, balki aylanma (siklik) va doimiy rivojlanuvchi tizim sifatida asoslab beradi. Bu esa kompetentli yondashuvning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlab, ta'lim menejmenti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan kompetentli yondashuvga asoslangan "bilim → kompetensiya → qaror → natija → tahlil → takomillashuv" modeli rahbar faoliyatini uzluksiz rivojlanuvchi tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi. Mazkur model tahlili shuni ko'rsatadiki, rahbarning samaradorligi nafaqat uning bilim darajasiga, balki ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, asoslangan qarorlar qabul qilish va faoliyat natijalarini tanqidiy baholay olish qobiliyatiga ham bevosita bog'liq.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirish faqat nazariy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, ularni amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. Ya'ni, ishlab chiqilgan nazariy model va konseptual yondashuvlar asosida aniq amaliy chora-tadbirlarni belgilash zarurati yuzaga keladi.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, tadqiqot natijalariga tayanib, ta'lim tizimi rahbarlarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Rahbarlarni kompetentlik asosida tayyorlash tizimini joriy etish.

Rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini kompetensiyalar modeli asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda strategik fikrlash, liderlik, kommunikatsiya va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

2. Qaror qabul qilish jarayonida analitik yondashuvni kuchaytirish.

Boshqaruv qarorlari ma'lumotlarga asoslangan tahlil natijalariga tayanishi lozim. Bu maqsadda raqamli tahlil vositalari va monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Inson omilini ustuvor yo'nalish sifatida belgilash.

Ta'lim tizimida inson kapitali asosiy resurs sifatida qaralib, xodimlar va talabalarning motivatsiyasi hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvini shakllantirish talab etiladi.

4. Xalqaro ilg'or tajribalarni milliy shart-sharoitlarga moslashtirish. Yapon va Amerika modellarining samarali jihatlarini uyg'unlashtirgan gibrid yondashuvni joriy etish ta'lim boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. KPI asosida baholash tizimini joriy etish. Rahbarlar faoliyatini baholashda aniq, o'lchanadigan va natijaga yo'naltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.

Yuqoridagi nazariy tahlillar va amaliy takliflar asosida xulosa qilish mumkinki, zamonaviy ta'lim tashkiloti rahbari ko'p qirrali kompetensiyalarga ega, dinamik fikrlaydigan va

o'z faoliyatini uzluksiz rivojlantirib boruvchi mutaxassis bo'lishi lozim. Xususan, u strategik fikrlay oladigan, inson omilini samarali boshqara oladigan, asoslangan qarorlar qabul qiladigan va o'z ustida muntazam ishlaydigan rahbar sifatida shakllanishi zarur.

Bu esa rahbar faoliyatida kompetentli yondashuvni amaliyotga tatbiq etish, uning samaradorligini oshirish va ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. – T., 2002.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov Ye. Ta'lim sifatini boshqarish. – T., 2006.
3. Siebert W., Lang L. Rukovodit bez konfliktov. – Moscow: Ekonomika, 1990.
4. Yuldashev M.A. Ta'lim sifati menejmenti. – T., 2016.
5. Pedagogik atamalar lug'ati. – T., 2008.
6. Drucker P.F. The Practice of Management. – New York: Harper & Row, 1954.
7. Drucker P.F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York, 1973.
8. Fayol H. General and Industrial Management. – London, 1949 (original 1916).6).

MAKTAB BOSHQARUVIDA
ZAMONAVIY TA'LIM MENEJMENTI TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Mirmamatova Ziyoda Shavkat qizi,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti magistranti
+998 90 989 38 03
Shavkatooovnaaa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Unda ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va samarali o'quv muhitini yaratishda ushbu texnologiyalarning roli ko'rib chiqiladi. Maqola raqamli vositalar, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali maktab faoliyatini takomillashtirish yo'llarini o'rganadi. Shuningdek, u zamonaviy boshqaruv amaliyotlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilishdagi muammolar va imkoniyatlarga e'tibor qaratadi. Tadqiqot maktab rahbarlari va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun qimmatli tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *Maktab boshqaruvi, ta'lim menejmenti, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish, ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar.*

Современные технологии управления образованием и инновационные подходы в управлении школой

Мирмаматова Зиёда Шавкат кизи,
магистрант Национального института педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони

Аннотация: *Данная статья анализирует значение современных технологий управления образованием и инновационных подходов в школьной администрации. В ней рассматривается роль этих технологий в повышении качества образования, оптимизации административных процессов и создании эффективной учебной среды. Статья исследует пути улучшения работы школы посредством внедрения цифровых инструментов, принятия решений на основе данных и педагогических инноваций. Кроме того, она затрагивает проблемы и возможности интеграции современных управленческих практик в систему образования Узбекистана. Исследование предлагает ценные рекомендации для руководителей школ и специалистов в области образования.*

Ключевые слова: *Школьное администрирование, управление образованием, современные технологии, инновационные подходы, цифровизация, качество образования, эффективность управления, педагогические инновации.*

Modern educational management technologies and innovative approaches in school management

Ziyoda Shavkat qizi Mirmamatova,
Master's student of the A. Avloni National Institute of Pedagogical Mastery

Abstract: *This article analyzes the significance of modern educational management technologies and innovative approaches in school management. It examines the role of these technologies in enhancing the quality of education, optimizing management processes, and fostering an effective learning environment. The paper explores ways to improve school operations through the implementation of digital tools, data-driven decision-making, and pedagogical innovations. Furthermore, it draws attention to the challenges and opportunities in integrating modern management practices into the Uzbekistan's education system. The research proposes valuable recommendations for school leaders and education professionals to enhance management in school leadership.*

Keywords: *School leadership, education management, modern technologies, innovative approaches, digitalization, education quality, management efficiency, pedagogical innovations.*

Bugungi globallashuv sharoitida va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlari ta'lim muassasalaridan doimiy ravishda yangilanib turishni, moslashuvchanlikni va samaradorlikni talab qiladi. An'anaviy maktab boshqaruvi modellari endilikda ushbu yangi chaqiriqlarga to'liq javob bera olmayapti, bu esa ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalarini va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yana bir muhim jihati shundaki, ko'plab ta'lim muasasalarida ya'ni maktablarda texnologiyalar mavjudligiga qaramay ulardan samarali foydalanish darajasi past. Ta'lim muassasasining rivoji va istiqbolini belgilashda texnologiyalardan strategik boshqaruv hamda qaror qabul qilish vositasi sifatida foydalanish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini egallashlari uchun qulay muhit yaratishning asosiy omilidir.

Zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari tushunchasi boshqaruv nazariyasida muhim kategoriyalardan biri hisoblanib, u ta'lim muassasalarini samarali boshqarish jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar va mexanizmlar tizimini anglatadi. "Texnologiya" atamasi umumiy ma'noda ma'lum bir faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va natijaga qaratilgan holda amalga oshirish usullari majmui sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim menejmenti texnologiyalari boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uni optimallashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar tizimini o'z ichiga oladi [3].

Shu bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim menejmenti ta'lim muassasalarini samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va o'quv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi. Uning asosiy maqsadi – maktablarni o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiladigan va har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini inobatga oladigan tizimga aylantirishdir [6]. Bu yondashuv ta'lim tizimining barcha ishtirokchilari o'quvchilar, o'qituvchilar, ma'muriyat va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga, shaffoflikni ta'minlashga va innovatsion pedagogik amaliyotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar va innovatsion boshqaruv strategiyalarini integratsiya qilish ta'lim natijadorligini sezilarli darajada oshiradi [11].

Ushbu maqola maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va

innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari, amaliy tatbiqi hamda ularni joriy etishdagi muammolar va yechimlarni atroflicha tahlil qilishni maqsad qilgan. Unda raqamli platformalar, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt elementlari va boshqa ilg‘or vositalarning maktab boshqaruvidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotda maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodlari qo‘llanildi.

Adabiyotlar tahlili orqali mavzuga oid xorijiy va milliy ilmiy manbalar o‘rganilib, zamonaviy ta'lim menejmentining nazariy asoslari yoritildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida turli mamlakatlar va ta'lim tizimlarida qo‘llanilayotgan innovatsion boshqaruv yondashuvlari o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida maktab boshqaruvi o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida tahlil qilindi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonining ichki va tashqi omillar bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.

Maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish chuqur nazariy asoslarga tayanadi. Innovatsiya tushunchasi ta'lim sohasida yangi g‘oyalar, jarayonlar, mahsulotlar yoki xizmatlarni joriy etish orqali mavjud tizimni takomillashtirish yoki tubdan o‘zgartirishni anglatadi. Ta'limdagi innovatsiyalar nafaqat texnologik yangiliklarni, balki pedagogik amaliyotlar, o‘quv dasturlari, tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv usullaridagi o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Bu jarayonning nazariy asosi sifatida bir qancha kontseptual yondashuvlarni ko‘rib chiqish mumkin. Zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalarining muhim xususiyatlaridan biri ularning tizimlilik va natijaviylikka yo‘naltirilganligidir. Bunda boshqaruv jarayoni aniq rejalashtirilgan bosqichlar asosida tashkil etilib, har bir bosqichda erishilishi lozim bo‘lgan natijalar oldindan belgilanadi. Natijada boshqaruv faoliyati izchil, nazorat qilinadigan va samarali tizimga aylanadi. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari axborot-kommunikatsiya vositalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular boshqaruv jarayoning tezkorligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi [9].

Tizimli yondashuv ta'lim muassasasini o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Innovatsiyalar tizimning bir qismida joriy etilganda, bu boshqa qismlarga ham ta'sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, innovatsiyalarni rejalashtirishda butun tizimning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta'siri inobatga olinishi zarur. Tizimli yondashuv maktabni ochiq tizim sifatida tushunishni talab qiladi, ya'ni u tashqi muhit (jamiyat, iqtisodiyot, texnologik rivojlanish) bilan doimiy aloqada bo‘ladi va uning ta'sirida o‘zgarib turadi [2]. Bu yondashuv innovatsiyalarni nafaqat ichki samaradorlikni oshirish, balki tashqi chaqiriqlarga moslashish vositasi sifatida ham ko‘rishga imkon beradi.

Tashkiliy o‘rganish nazariyasi innovatsiyalarni joriy etishda markaziy o‘rin tutadi. Bu nazariya tashkilotlarning o‘z tajribalaridan saboq chiqarish, yangi bilimlarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o‘rganadi. Maktablar o‘rganuvchi tashkilotlarga aylanishi kerak, bu yerda o‘qituvchilar, ma'muriyat va boshqa xodimlar doimiy ravishda yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish, muvaffaqiyatsizliklardan o‘rganish va eng yaxshi amaliyotlarni almashish orqali rivojlanadilar [10]. Tashkiliy o‘rganish innovatsion madaniyatni shakllantirish uchun muhim bo‘lib, xodimlarning o‘zgarishlarga ochiqligini va yangiliklarni qabul qilishga tayyorligini oshiradi.

O'zgarishlarni boshqarish nazariyalari innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish mexanizmlarini tushuntiradi. Kurt Levinning uch bosqichli modeli (muzlatish, o'zgartirish, qayta muzlatish) yoki Kotterning sakkiz bosqichli modeli kabi yondashuvlar innovatsion jarayonni rejalashtirish, amalga oshirish va barqarorlashtirish uchun amaliy ko'rsatmalar beradi. Bu nazariyalar o'zgarishlarga qarshilikni yengish, xodimlarni jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish, shuningdek, innovatsiyalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi [13].

Inson kapitali nazariyasi esa, ta'limdagi innovatsiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, ta'limga kiritilgan investitsiyalar, jumladan, innovatsion texnologiyalar va yondashuvlar orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish jamiyatning umumiy iqtisodiy o'sishi va farovonligiga hissa qo'shadi. Zamonaviy ta'lim menejmenti inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni XXI asr ko'nikmalari (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikatsiya) bilan qurollantirishni maqsad qiladi [5].

Kontseptual yondashuvlar nuqtayi nazaridan, strategik menejment ta'lim muassasalariga o'z maqsadlarini aniq belgilash, resurslarni samarali taqsimlash va innovatsiyalarni strategik rejalarga integratsiya qilish imkonini beradi. Sifat menejmenti (masalan, TQM – Total Quality Management) prinsiplari ta'lim jarayonlarining doimiy takomillashtirilishini, natijalarni o'lchashni va barcha ishtirokchilarning sifatga bo'lgan mas'uliyatini oshirishni taqozo etadi. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish (Evidence-Based Management) esa innovatsiyalarning samaradorligini ilmiy dalillar asosida baholash va ularni optimallashtirish uchun muhimdir [12]. Bu yondashuvlar maktab boshqaruvini byurokratik va an'anaviy usullardan voz kechib, yanada moslashuvchan, shaffof va natijaga yo'naltirilgan tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar maktab boshqaruvining har bir jabhasini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega bo'lib, samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va o'quv jarayonini optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kirish qismida ta'kidlanganidek, raqamli vositalarning integratsiyasi ta'lim natijadorligini sezilarli darajada oshiradi [6].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va maktab boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va rahbar kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda, xususan, umumta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy menejment tamoyillarini joriy etish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash hamda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash zarurligi alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktab ta'limi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlarida maktab direktorlarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularning faoliyatini baholashning zamonaviy mezonlarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining pedagog va rahbar kadrlarning malakasini oshirish tizimini rivojlantirishga oid qarorlarida ta'lim muassasalari rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish zarurligi qayd etilgan.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, maktab boshqaruviga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Bu esa boshqaruvning ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [1].

Bunda, ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems – LMS) va maktab axborot tizimlari (School Information Systems – SIS) maktab boshqaruvining asosiy raqamli ustunlaridir. LMS platformalari (masalan, Google Classroom, Moodle, Canvas) o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlarni boshqarish, o‘quvchilarning faoliyatini kuzatish va o‘qituvchilar bilan muloqot qilish uchun yagona muhitni ta’minlaydi. SIS tizimlari esa o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, davomati, baholari, o‘quv dasturlari va boshqa ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Bu tizimlar ma’lumotlarni markazlashtirish orqali ma’muriy yukni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi [7]. Ma’lumotlar tahlili va ta’lim analitikasi (Learning Analytics) maktab boshqaruvida strategik ahamiyat kasb etadi. Ta’lim analitikasi o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi xatti-harakatlari, natijalari va boshqa tegishli ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va hisobot berish orqali o‘quv jarayonini tushunish va optimallashtirishga qaratilgan. Bu yondashuv maktab rahbarlariga o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi tendensiyalarni aniqlash, xavf ostida bo‘lgan o‘quvchilarni erta aniqlash, o‘quv dasturlarining samaradorligini baholash va o‘qituvchilarning pedagogik amaliyotlarini takomillashtirish bo‘yicha ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi [12]. Masalan, ma’lumotlar tahlili orqali qaysi fanlar yoki mavzular o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirayotganini aniqlash va o‘quv jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish mumkin.

Sun’iy intellekt (SI) elementlari maktab boshqaruvida tobora keng qo‘llanilmoqda. SI asosidagi adaptiv o‘quv platformalari har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va o‘rganish sur’atiga moslashgan holda individual o‘quv yo‘llarini taklif etadi. SI, shuningdek, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, o‘quvchilarning savollariga javob beruvchi chatbotlar va o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini tahlil qilishda yordam beruvchi vositalar orqali o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishi mumkin. Ma’muriy sohada SI resurslarni taqsimlash, dars jadvallarini optimallashtirish va xavfsizlik tizimlarini boshqarishda yordam beradi [7]. Biroq, SI ni joriy etishda axloqiy masalalar, xususan, ma’lumotlar maxfiyligi va algoritmik tarafkashlikka alohida e’tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) ta’lim muassasalariga o‘z infratuzilmasini modernizatsiya qilishda katta yordam beradi. Bulutli xizmatlar orqali maktablar o‘quv materiallarini, dasturiy ta’minotni va ma’lumotlarni xavfsiz saqlashi, ularga istalgan joydan va istalgan qurilmadan kirish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi va ma’lumotlarning xavfsizligini oshiradi [3]. Bundan tashqari, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari o‘quv jarayonini yanada interaktiv va immersiv qilish imkonini beradi. VR orqali o‘quvchilar tarixiy joylarga virtual sayohatlar qilishi, murakkab ilmiy eksperimentlarni xavfsiz muhitda amalga oshirishi yoki turli kasblarni simulyatsiya qilishlari mumkin. AR esa real dunyo obyektlariga raqamli ma’lumotlarni qo‘shish orqali o‘quv materiallarini boyitadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va mavhum tushunchalarni tushunishga yordam beradi [6].

Kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi raqamli texnologiyalarni joriy etishda ustuvor ahamiyatga ega. Maktablar o‘quvchilar va xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun kuchli kiberxavfsizlik choralarini ko‘rishi, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash

bo'yicha qat'iy protokollarni joriy etishi shart. Bu nafaqat qonuniy talab, balki ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonchni saqlashning ham muhim omilidir.

Raqamli texnologiyalardan tashqari, ta'lim menejmentida bir qator innovatsion yondashuvlar mavjud bo'lib, ular maktablarning tashkiliy tuzilmasini, pedagogik amaliyotlarini va umumiy madaniyatini o'zgartirishga qaratilgan. Bu yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va maktabni jamiyatning faol a'zosiga aylantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi markazli boshqaruv (Learner-Centered Management) konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv an'anaviy ma'muriy boshqaruvdan farqli ravishda barcha qarorlarni o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari va o'quv natijalariga yo'naltirishni nazarda tutadi. Tadqiqotchi Michael Fullan fikriga ko'ra, samarali ta'lim tizimi o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali shakllanadi [8]. Shuningdek, Tony Bush ta'kidlaganidek, zamonaviy maktab boshqaruvi o'quvchi manfaatlarini ustuvor qo'ygan holda tashkil etilishi lozim. O'zbekiston ta'lim tizimida ham mazkur yondashuv bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, taqsimlangan yetakchilik (Distributed Leadership) va umumiy boshqaruv (Shared Governance) modellari maktab boshqaruvida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu yondashuvlar qaror qabul qilish jarayonini markazlashtirishdan voz kechib, uni o'qituvchilar, ota-onalar hamda boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida taqsimlashni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taqsimlangan yetakchilik o'qituvchilarning kasbiy avtonomiyasini oshiradi va innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi [3]. Natijada maktablarda hamkorlik muhitini shakllantirish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyati kengayadi.

Uchinchidan, strategik rejalashtirish va uzoqni ko'ra bilish (foresight) zamonaviy maktab boshqaruvining muhim komponenti hisoblanadi. Strategik yondashuv maktablarga o'z rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, tashqi muhitdagi o'zgarishlarni tahlil qilish hamda uzoq muddatli maqsadlarga erishish imkonini beradi. Andreas Schleicher ta'kidlashicha, ta'lim tizimining barqaror rivoji strategik fikrlash va kelajak tendensiyalarini oldindan ko'ra bilishga bog'liq. Bu esa maktablarni raqamli transformatsiya sharoitida moslashuvchan boshqaruv tizimlarini joriy etishga undaydi.

To'rtinchidan, samaradorlikni boshqarish va hisobdorlik (Performance Management and Accountability) tizimlari innovatsion boshqaruvning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tizimlar orqali maktab faoliyati, o'qituvchilar samaradorligi hamda o'quvchilar natijalari muntazam baholanadi. Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvi ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, shaffof hisobdorlik mexanizmlari manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, jamoatchilikni jalb etish va hamkorlik (Community Engagement and Partnerships) zamonaviy maktab boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion maktablar ota-onalar, mahalliy tashkilotlar va biznes subyektlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ta'lim jarayonini boyitadi. Bunday hamkorlik o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Oltinchidan, pedagogik innovatsiyalar, jumladan, loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning), tadqiqotga asoslangan ta'lim (Inquiry-Based Learning), aralash ta'lim (Blended Learning) va teskari sinf (Flipped Classroom) modellari zamonaviy ta'lim menej-

menti bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli maktab boshqaruvi pedagogik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi zarur.

Maktab boshqaruvida zamonaviy ta’lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi bevosita maktab rahbarlari va o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatiga bog‘liq. O‘zgaruvchan ta’lim muhitida ularning doimiy kasbiy rivojlanishi (CPD) va yangi ko‘nikmalarni egallashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bunda, eng avvalo, maktab rahbarlari uchun yetakchilikni rivojlantirish dasturlari muhimdir. An’anaviy ma’muriy ko‘nikmalardan tashqari, zamonaviy maktab direktorlari strategik fikrlash, o‘zgarishlarni boshqarish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va jamoani ilhomlantirish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari kerak. Bu dasturlar yetakchilarga raqamli texnologiyalarni samarali integratsiya qilish, o‘qituvchilarni yangi pedagogik amaliyotlarga o‘rgatish va maktabda innovatsion madaniyatni shakllantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni berishi lozim [4]. Masalan, “transformatsion yetakchilik” modelini o‘zlashtirish maktab rahbarlariga o‘z jamoasini umumiy maqsadlar sari yo‘naltirishda yordam beradi. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va innovatsion pedagogik amaliyotlarni qo‘llashga qaratilishi kerak. Bu nafaqat texnik ko‘nikmalarni (masalan, LMS dan foydalanish, raqamli resurslarni yaratish) o‘z ichiga oladi, balki raqamli pedagogika, ya’ni texnologiyalar yordamida samarali o‘qitish metodologiyalarini ham qamrab oladi. O‘qituvchilar adaptiv o‘quv platformalari, SI vositalari va VR/AR ilovalaridan qanday foydalanishni, shuningdek, ma’lumotlar tahlili asosida o‘quvchilarning ehtiyojlarini qanday aniqlashni o‘rganishlari kerak. Shu o‘rinda, kasbiy rivojlanishning innovatsion modellari joriy etilishi lozim. An’anaviy qisqa muddatli kurslar o‘rniga, o‘qituvchilar uchun uzluksiz, amaliyotga yo‘naltirilgan va hamkorlikka asoslangan rivojlanish imkoniyatlari yaratilishi kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

Onlayn kurslar va MOOClar (Massive Open Online Courses) orqali o‘qituvchilar o‘zlariga qulay vaqtda va joyda yangi bilimlarni egallashlari mumkin.

Professional o‘rganish jamoalari (Professional Learning Communities – PLCs) o‘qituvchilarga o‘z tajribalarini almashish, birgalikda muammolarni hal qilish va eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish imkonini beradi.

Mentorlik va kouching dasturlari tajribali o‘qituvchilarning yosh hamkasblariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Amaliy tadqiqotlar (Action Research) o‘qituvchilarga o‘z sinflarida innovatsion g‘oyalarni sinab ko‘rish va ularning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Maktabda doimiy o‘rganish va eksperiment qilish madaniyatini shakllantirish muhimdir. Rahbariyat o‘qituvchilarni yangi g‘oyalarni sinab ko‘rishga, xatolardan o‘rganishga va o‘zaro hamkorlik qilishga rag‘batlantirishi kerak. Bu xavfsiz muhitda innovatsiyalarni joriy etishga bo‘lgan qo‘rquvni kamaytiradi va ijodkorlikni oshiradi. O‘qituvchilarning o‘z kasbiy rivojlanish yo‘llarini belgilashda faol ishtirok etishlari ham ularning motivatsiyasini oshiradi [2]. Raqamli savodxonlikni oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu nafaqat texnologiyalardan foydalanishni, balki raqamli axborotni tanqidiy baholash, onlayn xavfsizlikni ta’minlash va raqamli fuqarolik qoidalariga rioya qilishni ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari o‘quvchilarga XXI asr ko‘nikmalarini singdirishda namuna bo‘ladi.

Maktab boshqaruvida zamonaviy ta’lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bir qator muammo-

lar, murakkabliklar va axloqiy masalalar bilan bog'liq. Ularni tushunish va samarali yechimlar topish innovatsion jarayonning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunda resurs cheklovlari innovatsiyalarni joriy etishdagi eng katta to'siqlardan biridir. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi zamonaviy texnologiyalarni sotib olish, infratuzilmani yangilash va o'qituvchilarni o'qitish uchun imkoniyatlarni cheklaydi. Shuningdek, malakali texnik xodimlarning yetishmasligi ham texnologiyalarni samarali qo'llashga to'sqinlik qiladi. O'qituvchilar va ma'muriyatning texnologik savodxonligi darajasi va o'zgarishlarga qarshilik. Ko'plab o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga yoki innovatsion pedagogik amaliyotlarga o'tishga tayyor bo'lmasligi mumkin. Bu texnologik savodsizlik, vaqt yetishmasligi, qo'shimcha ish yukidan qo'rqish yoki an'anaviy usullarga bog'lanib qolish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'zgarishlarga qarshilik innovatsiyalarning muvaffaqiyatli tatbiqiga jiddiy to'siq bo'ladi [11].

Innovatsiyalarning samaradorligini baholash va o'lchashdagi qiyinchiliklar mavjud. Yangi texnologiyalar yoki yondashuvlarning o'quv natijalariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniq o'lchash murakkab jarayon bo'lib, buning uchun aniq mezonlar va baholash vositalari talab etiladi. Natijalarning aniq ko'rinmasligi innovatsiyalarga bo'lgan ishonchni kamaytirishi mumkin .

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Bunda avvalo, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali moliyaviy va texnik resurslarni jalb qilish mumkin. Davlat investitsiyalari bilan bir qatorda, xususiy kompaniyalarning homiyligi yoki ijtimoiy mas'uliyat doirasidagi loyihalar orqali maktablarning texnologik bazasini mustahkamlash mumkin. O'qituvchilar va ma'muriyat uchun doimiy va maqsadli kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etish zarur. Bu dasturlar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki innovatsiyalarning pedagogik va boshqaruv afzalliklarini tushuntirishga ham qaratilishi kerak. Mentorlik tizimlari va o'zaro yordam guruhlari o'zgarishlarga qarshilikni yengishda yordam beradi.

Innovatsiyalarni bosqichma-bosqich va pilot loyihalar orqali joriy etish tavsiya etiladi. Kichik miqyosda boshlash, muvaffaqiyatli tajribalarni o'rganish va ularni kengaytirish orqali xavflarni kamaytirish va ishtirokchilarning ishonchini oshirish mumkin. Innovatsiyalarni joriy etishda ochiq muloqot va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini ta'minlash muhim. O'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olish innovatsiyalarning muvaffaqiyatli qabul qilinishiga yordam beradi. Ma'lumotlar xavfsizligi protokollarini kuchaytirish va axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish orqali texnologiyalarga bo'lgan ishonchni oshirish mumkin. Bu borada tegishli qonunchilik bazasini yaratish va unga rioya etilishini ta'minlash muhimdir.

Innovatsiyalarni joriy etishda bir qator axloqiy masalalar yuzaga keladi. Ma'lumotlar maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish. Raqamli platformalar va analitika tizimlari o'quvchilar va o'qituvchilar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi. Bu ma'lumotlarning xavfsizligi, ulardan qanday maqsadlarda foydalanilishi va kimlarga taqdim etilishi axloqiy jihatdan muhimdir. Shaxsiy ma'lumotlarning noto'g'ri ishlatilishi yoki sizib chiqishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Algoritmik tarafkashlik (algorithmic bias) va adolatli qarorlar qabul qilish. Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili tizimlari ma'lumotlardagi mavjud tarafkashliklarni aks ettirishi va hatto kuchaytirishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning baholanishi, resurslarning taqsimlanishi yoki o'quv yo'llarini belgilashda adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Algoritmlarning shaffofligi va adolatliligini ta'minlash muhim axloqiy vazifadir.

Raqamli tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash. Texnologiyalarni joriy etish raqamli tafovutni kuchaytirmasligi kerak. Barcha o'quvchilar, ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, zamonaviy ta'lim imkoniyatlaridan teng foydalana olishlari kerak. Inklyuzivlik nafaqat texnologiyaga kirishni, balki nogironligi bor o'quvchilar uchun moslashtirilgan texnologik yechimlarni ham o'z ichiga oladi. Texnologiyaga haddan tashqari bog'liqlik va insoniy muloqotning kamayishi. Raqamli vositalarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi shaxsiy muloqotni, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni cheklashi mumkin. Texnologiyalar insoniy o'zaro aloqani to'ldirishi, ammo uning o'rnini bosmasligi kerak.

Shu o'rinda o'qituvchilarning kasbiy erkinligi va pedagogik avtonomiyasini ta'minlash masalasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Raqamli texnologiyalar ayrim hollarda o'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash vositasi sifatida qo'llanishi mumkin. Biroq bunday yondashuv ularning ijodiy tashabbusini cheklamasligi, kasbiy erkinligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Aksincha, innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini yengillashtirish va ijodkorligini rag'batlantirishga xizmat qilishi kerak.

Ushbu muammolar va axloqiy masalalarni hal qilish uchun ta'lim sohasidagi barcha manfaatdor tomonlar – hukumat, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, ota-onalar va texnologiya ishlab chiquvchilari o'rtasida ochiq muloqot va hamkorlik zarur. Faqatgina shunday kompleks yondashuv orqali maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli va axloqiy jihatdan mas'uliyatli tarzda joriy etish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab boshqaruvida zamonaviy ta'lim menejmenti texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar maktabni an'anaviy byurokratik tizimdan natijaga yo'naltirilgan, moslashuvchan va raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar, shuningdek, o'quvchi markazli boshqaruv, taqsimlangan yetakchilik va strategik rejalashtirish kabi innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Maktab rahbarlari va o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, raqamli savodxonlikni oshirish bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardandir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Maktab boshqaruvida qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish maqsadida raqamli ma'lumotlar paneli (dashboard) tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu tizim real vaqt rejimida o'quvchilar natijalari va boshqaruv ko'rsatkichlarini monitoring qilish imkonini beradi.

- Maktab direktorlarining samarali boshqaruvini ta'minlash uchun ularning raqamli boshqaruv kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va standartlashtirish zarur. Bu rahbar kadrlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

- Ta'lim jarayonini boshqarishda LMS (Learning Management System) va SIS (Student Information System) tizimlarini yagona integratsiyalashgan boshqaruv indikatorlari bilan bog'lash orqali ma'lumotlar uzluksizligi va aniqligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

- Maktablarda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun raqamli xavfsizlik va ma'lumotlar etikasi bo'yicha ichki reglamentlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

- Maktab rahbarlari va pedagoglar uchun uzluksiz raqamli transformatsiya va innovatsion menejment bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

2. Bobojonov F.X. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning menejerlik aspektlari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 2024. №1/2. 112-119 b.

3. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – London: Sage, 2020.

4. Ergashev D.A. Raqamli ta'lim platformalarining maktab boshqaruvidagi samaradorligi // Pedagogik mahorat. 2023. №3. 45-52 b.

5. Ismoilov R.T. Markaziy Osiyo ta'lim tizimlarida raqamli transformatsiya jarayonlari // Zamonaviy ta'lim. 2023. №4. 23-30 b.

6. Karimova A.B. Maktab boshqaruvida innovatsion menejment: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: Fan nashriyoti, 2021. 280 b.

7. Mirzayev J.K. O'quvchi markazli boshqaruv konsepsiyasining maktab amaliyotidagi ahamiyati // Ta'lim va rivojlanish. 2021. №2. 88-95 b.

8. Michael Fullan The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2020.

9. Pulatov Sh.Sh. Ta'lim menejmenti yohud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. – Toshkent: Yosh kuch, 2022. 63-65 b.

10. Qodirov Z.M. Ta'lim tizimida strategik rejalashtirish va innovatsion rivojlanish. Monografiya. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020. 310 b.

11. Saidov Sh.R., Olimova G.N. Ta'lim menejmenti: zamonaviy yondashuvlar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2022. 356 b.

12. O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish yo'nalishlari. Ilmiy maqolalar to'plami. Mas'ul muharrir: A.A. Rustamov. Toshkent: O'zbekiston "Fan" nashriyoti, 2023. 412 b.

13. G'aniyeva N.S. Maktabda taqsimlangan yetakchilik modelini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari // Xalq ta'limi. 2022. №5. 67-74 b.

INGLIZ TILI FANIDAN KASBIY RIVOJLANISH KUNLARINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Turg'unov Axror Yodgor o'g'li,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
ahrorturgunov70@gmail.com,
+998944047797

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini (KRK) samarali tashkil etish masalasi yoritilgan. Unda KRKning o'qituvchi kasbiy o'sishidagi o'rni, uni tashkil etishga ta'sir qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda bu jarayonning amaliy holati tahlil qilingan. Maqolada nazariy manbalar asosida samarali kasbiy rivojlanish mazmunan aniq, amaliyotga yaqin, hamkorlikka asoslangan va uzluksiz bo'lishi zarurligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari KRKlar muntazam tashkil etilayotganini, biroq ularning mazmunini o'qituvchilarning real ehtiyojlariga yanada moslashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish va monitoringni kuchaytirish zarurligini ko'rsatgan. Maqolada KRKni ehtiyojga asoslangan, faol o'rganish, refleksiya va professional hamkorlik asosida takomillashtirish zarurligi asoslangan. Natijada KRKni rasmiy tadbir emas, balki o'qituvchining dars amaliyotiga real ta'sir ko'rsatadigan kasbiy rivojlanish muhiti sifatida tashkil etish muhim degan xulosaga kelingan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy rivojlanish kuni, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), ingliz tili ta'limi, pedagogik shart-sharoitlar, professional hamjamiyat, refleksiv amaliyot, mikroo'qitish, dars tahlili, hamkorlikda o'rganish, o'qituvchilar malakasini oshirish.*

Педагогические условия совершенствования организации дней профессионального развития по английскому языку

Тургунов Ахрор Ёдгор угли,
докторант Национального института педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос эффективной организации дней профессионального развития по английскому языку. Проанализированы роль таких дней в профессиональном росте учителя, педагогические условия, влияющие на их организацию, а также практическое состояние данного процесса. На основе теоретических источников показано, что эффективное профессиональное развитие должно быть содержательно конкретным, приближённым к практике, основанным на сотрудничестве и носить непрерывный характер. Кроме того, результаты опроса, проведённого среди учителей английского языка, показали, что дни профессионального развития проводятся регулярно, однако существует необходимость в более точном согласовании их содержания с реальными профессиональными потребностями учителей, увеличении доли практических занятий и усилении мониторинга. В статье обосно-*

вана необходимость совершенствования дней профессионального развития на основе потребностей, активного обучения, рефлексии и профессионального сотрудничества. В результате сделан вывод о том, что такие дни следует рассматривать не как формальное мероприятие, а как среду профессионального развития, реально влияющую на педагогическую практику учителя.

Ключевые слова: *день профессионального развития, непрерывное профессиональное развитие (CPD), обучение английскому языку, педагогические условия, профессиональное сообщество, рефлексивная практика, микрообучение, анализ урока, совместное обучение, повышение квалификации учителей.*

Pedagogical conditions for improving the organization of professional development days in englıs language teaching

Turg'unov Axror Yodgor o'g'li,
Basic doctorate student at National institute of pedagogical skills named after Abdulla Avloni

Abstract: *This article examines the issue of effectively organizing Professional Development Days (PDD) in English language teaching. It analyzes the role of PDD in teachers professional growth, the pedagogical conditions influencing its organization, and the current practical state of this process. Based on theoretical sources, the article shows that effective professional development should be content-specific, practice-oriented, collaborative, and continuous. In addition, the results of a survey conducted among English language teachers indicate that PDDs are organized regularly; however, there is still a need to align their content more closely with teachers actual professional needs, increase the share of practical activities, and strengthen monitoring. The article substantiates the importance of improving PDD on the basis of needs-oriented planning, active learning, reflection, and professional collaboration. As a result, it concludes that PDD should be regarded not as a formal event, but as a professional development environment that has a real impact on teachers classroom practice.*

Keywords: *professional development day, continuous professional development (CPD), English language education, pedagogical conditions, professional community, reflective practice, microteaching, lesson analysis, collaborative learning, teacher professional development.*

Bugungi kundagi ro'y berayotgan jadal globallashuv muhitida ta'lim tizimini isloh etish shuningdek, uning sifat samaradorligini oshirish butun dunyoda ustuvor vazifaga aylangan. Jumladan, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish ta'lim sifatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etish xalqaro va milliy darajada dolzarb mavzuga aylangan.

2015-yilda YUNESKO (UNESCO) shafeligida va xalqaro tashkilotlar hamda turli davlatlarning hukumat vakillari ishtirokida "Ta'lim-2030: Inklyuziv va adolatli sifatli ta'lim hamda hamma uchun umr davomida ta'lim olishni ta'minlash"deb nomlangan Incheon deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyada ta'limning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash muhimligi ta'kidlab o'tilgan [12].

Ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashda turli metodik tadbirlar, seminar-treninglar, malaka oshirish kurslari hamda kasbiy rivojlanish kunlari muhim o'ringa ega. Shu jumladan hozirgi kunda tayanch maktabalarda tashkil etilayotgan kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, zamonaviy metodik yondashuvlarni o'rganishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tahlil qilishi hamda o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish imkonini beradigan samarali platforma sifatida xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishni takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar, metodik yondashuvlar hamda samarali tashkiliy mexanizmlari ingliz tili fani o‘qituvchilari uchun tashkil etilayotgan KRK jarayonlari misolida tahlil qilinadi.

Kasbiy rivojlanish kunlarini samarali tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili fanini o‘rgatishda o‘qituvchining puxta metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan muntazam foydalanishi hamda kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borishi bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, hozirda ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishni takomillashtirishda unga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy tadqiq etish va o‘rganish zaruriy jarayonga aylangan.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda, muayyan ta’limiy jarayonni samarali amalga oshirish, uning sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiladigan tashkiliy-pedagogik, metodik, didaktik hamda motivatsion omillar yig‘indisi tushuniladi.

Ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari – bu o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qulay tashkiliy muhit, ilmiy-metodik ta’minot, hamkorlikka asoslangan faoliyat, refleksiya va amaliy yo‘naltirilgan yondashuvlar majmuasidir.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik shart-sharoitlar ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar majmui sifatida talqin etiladi. Xususan, L. Darling-Hammond va boshqalar samarali kasbiy rivojlanish o‘qituvchi faoliyati bilan bevosita bog‘liq, mazmunan aniq, hamkorlikka asoslangan va uzluksiz bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘qituvchining amaliy faoliyatiga singdirilgan kasbiy rivojlanish shakllari eng yuqori natija beradi [3].

Kasbiy rivojlanish – bu kasbiy faoliyat talablariga mos keladigan shaxsning shakllanishidir [6].

Kasbiy rivojlanish bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarda eng muhim qarashlardan biri shundan iboratki, samarali professional rivojlanish tadbiri qisqa muddatli axborot uzatish shakli emas, balki o‘qituvchining amaliyotini o‘zgartiruvchi strukturali o‘rganish jarayonidir. Darling-Hammondт va boshqalar samarali professional rivojlanishning bir necha belgilarini ajratadi: mazmuniy yo‘naltirilganlik, faol o‘rganish, hamkorlik, samarali amaliyot modellaridan foydalanish, ekspert qo‘llovi va qayta aloqa, shuningdek yetarli davomiylik [3]. Bizningcha, bu komponentlar KRK uchun ayniqsa muhim, chunki bir kunlik yoki qisqa vaqtli formatning o‘zi samara bermaydi; samara aynan mazkur elementlar umumlashganda yuzaga keladi.

Guskey professional rivojlanishning ta’siri haqida gapirar ekan, o‘qituvchining munosabati ko‘pincha dastlabki treningdan emas, balki yangi amaliyotni sinab ko‘rib, o‘quvchi natijasidagi ijobiy o‘zgarishni ko‘rgandan keyin o‘zgarishini ko‘rsatadi [7;8]. Bu fikr KRK uchun juda muhim. Chunki amaliyotda ko‘p hollarda seminar tugashi bilan tadbir ham yakunlangan deb hisoblanadi. Aslida esa professional rivojlanishning haqiqiy boshlanishi KRKdan keyin, ya’ni o‘qituvchi sinfga qaytib, yangi metodni qo‘llagan paytda boshlanadi.

Bizningcha, KRK samaradorligini baholashda “ishtirok etdi – etmadi” yoki “yoqdi – yoqmadi” kabi baholash yetarli emas. Guskey modeli asosida KRK natijadorligini kamida besh hil ko‘rsatkichda ko‘rish zarur: ishtirokchining reaksiyasi, o‘rganilgan bilim, institutsional qo‘llab-quvvatlash, sinf amaliyotidagi o‘zgarish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘r-

satkichlarining oshishi.Faqatgina shunda KRK ma'ruzaviy tadbirdan pedagogik ta'sir mexanizmiga aylanadi.

A.Ibragimov ilmiy izlanishlarida esa ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarning innovatsion faoliyati, metodik tayyorgarligi va ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash muhimligi asoslangan [9]. Mazkur fikr KRK jarayonlarida o'qituvchilarni faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, tajriba almashuvchi va yangilik yaratuvchi subyekt sifatida jalb etish lozimligini tasdiqlaydi.

M.Yuldashev tadqiqotlarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uzluksizlik, refleksiv yondashuv hamda amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan malaka oshirish muhim omil sifatida talqin etiladi [13]. Bu yondashuv KRKni tashkil etishda har bir sessiyani o'qituvchining kundalik dars amaliyoti bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Avalos professional rivojlanish tadqiqotlarini umumlashtirar ekan, o'qituvchining o'rganishi individual emas, ijtimoiy-madaniy va hamkorlikdagi jarayon sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi [2]. U professional rivojlanishda hamkorlik, o'qituvchi va kontekst omillarining o'zaro bog'liqligiga alohida urg'u beradi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi faqat tayyor material oluvchi emas, balki tajribasi va savoli bilan jarayonni boyituvchi subyektdir.

Desimone professional rivojlanish bo'yicha ta'sir tadqiqotlarini kuchaytirish uchun konseptual aniqlik va aniq o'lchovlar zarurligini ta'kidlaydi [4]. Uning yondashuvi KRKni rejalashtirishda uchta muhim talabni qo'yadi: mazmuniy fokus, faol o'rganish va izchillik. Muallif sifatida biz aynan "izchillik" komponentini O'zbekiston sharoitida eng muhim shartlardan biri deb bilamiz. Chunki KRK mazmuni maktab metodik birlashmasi, taqvim-mavzu reja, baholash talablari va kundalik dars amaliyoti bilan uzviy bog'lanmasa, bunday tadbirlarning ta'siri kamayib ketadi.

Timperley va hammualliflar o'qituvchilarning o'rganishi o'quvchi ehtiyojlaridan boshlanishi kerakligini, professional rivojlanish sikli esa dalil, tahlil va qayta sinov asosida qurilishi lozimligini ko'rsatadilar [11]. Bu fikrga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, o'qituvchi avval o'quvchining qaysi ko'nikmada qiynalayotganini aniqlashi, so'ng shu muammoni hal etishga qaratilgan metodik moduldan foydalanishi, keyin esa o'z darsida sinab ko'rib, natijani dalil asosida tahlil qilishi lozim. Demakki, ehtiyoj diagnostikasi o'qituvchining subyektiv xohishi emas, o'quvchi natijasiga bog'langan tahliliy jarayon bo'lishi kerak.

Refleksivlikni muallif ikki bosqichga ajratadi. Birinchi bosqich – individual refleksiya: o'qituvchi dars maqsadi, qo'llagan metod, o'quvchi javobi va o'z pedagogik qarorining kuchli hamda zaif tomonlarini tahlil qiladi. Ikkinchi bosqichda – kollegial refleksiya: hamkasblar mikrodars, kuzatuv varaqasi, videoparcha yoki o'quvchi ishlari asosida dalillarga tayangan holda fikr bildiradi. Bizning fikrimizcha, KRKning haqiqiy pedagogik kuchi aynan individual va kollegial refleksiyaning uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi.

DuFour professional o'rganish hamjamiyati g'oyasida maktabni o'qituvchilar birgalikda o'rganadigan institut sifatida ko'radi [5]. Uning fikricha, kuchli professional hamjamiyat asosga ega ega: o'rganishga yo'naltirilganlik, hamkorlik madaniyati va natijaga masullik. Biz ham KRKni professional hamjamiyatdan ajratib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Agar KRK bir martalik tadbir bo'lib qolsa, u professional hamjamiyat yaratmaydi; agar u metodik birlashma, mentorlik va dars tahlili bilan bo'glansa, u holda maktabda uzluksiz o'rganish madaniyatini shakllantiradi.

D.Alixanova tadqiqotida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida o'quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda loyiha asosida va hamkorlikda o'qitish, muam-

moga asoslangan o‘qitish, diagnostika va baholash mexanizmlarining uyg‘unligi muhim natija berishi ko‘rsatilgan [1]. Mazkur xulosa KRKni tashkil etishda ham bevosita ahamiyatlidir. Chunki kasbiy rivojlanish kunlari mazmunida amaliy topshiriqlar, fan doirasidagi muammoli vaziyatlar, hamkorlikdagi tahlil hamda natijani kuzatishga qaratilgan monitoring mexanizmlari mavjud bo‘lsa, u o‘qituvchining real dars amaliyotiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, olimlar talqinida pedagogik shart-sharoitlar – bu ta’lim jarayonining maqsadga muvofiq, tizimli va samarali kechishini ta’minlaydigan tashkiliy, metodik, mazmuniy hamda refleksiv omillar yig‘indisidir. Mazkur yondashuv ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini tashkil etishda ham dolzarb bo‘lib, amaliy yo‘naltirilganlik, hamkorlik, uzluksizlik va metodik qo‘llab-quvvatlashni ustuvor shartlar sifatida belgilash imkonini beradi.

OECD TALIS materiallari o‘qituvchilar eng ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan professional rivojlanish shakllari sifatida faol va hamkorlikka asoslangan formatlarni, shuningdek o‘z faniga bevosita bog‘liq faoliyatlarni yuqori baholashini ko‘rsatadi [10]. Bu xalqaro xulosaning O‘zbekiston sharoitidagi qiymati katta: ingliz tili o‘qituvchisi uchun umumiy mavzudan ko‘ra til ko‘nikmalari, baholash, kommunikativ faoliyat, raqamli platformalar va sinf ichki interaksiya bilan bog‘liq modul ko‘proq foydali.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar asosida O‘zbekistondagi kasbiy rivojlanish kunlaridagi (KRK) pedagogik-shart sharoitlarni aniqlash bo‘yicha amaldagi holatni baholash maqsadida turli hududlara faoliyat yurituvchi 300 nafar o‘qituvchilar orasida intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnoma ma’lumotlari KRKning amaldagi holati ikki tomonlama manzarani ko‘rsatdi. Bir tomondan, respondentlarning 98,7 foizi KRK tadbirlari muntazam o‘tkazilishini qayd etgan. Bu ko‘rsatkich tizimning tashkiliy jihatdan shakllanayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, 88,6 foiz respondent KRK oldindan rejalashtirilishini, 46,2 foizi esa unda olingan bilimlarni darsda qo‘llash imkoniyatiga ega ekanini bildirgan. (1-rasm) Bular tizimda muayyan ijobiy institutsional baza mavjudligini ko‘rsatadi.



Izoh: Respondentlar ulushi (%) 300 ga yaqin o‘qituvchilar o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga asoslanadi.

1-rasm. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

Biroq ijobiy jihatlar bilan birgalikda bir qator kamchiliklar ham namoyon bo'ldi. Faqat 38,5 foiz respondent KRK mazmuni professional ehtiyojlariga mos kelishini qayd etgan. Xuddi shu ulush amaliy mashg'ulotlarga yetarli e'tibor berilishini bildirgan. Monitoring esa atigi 30,8 foiz holatda qayd etilgan. Demak, KRKning mavjud tizimi tashkiliy ravishda yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ehtiyojga moslashtirish, amaliyotga yaqinlik va natijani kuzatish komponentlari yetarli darajada kuchli emas.

Dasturning ehtiyojga mos emasligi, hamkorlik va tajriba almashishning kamligi ham 12,8 foizdan qayd etilgan. Bu nisbatan pastdek ko'rinsa-da, mazmuniy jihatdan juda muhim. Chunki KRKning asosiy maqsadi o'qituvchini hamkorlikda o'rganish muhitiga olib kirishdir. Agar ushbu muhit sezilmasa, tadbir tashkiliy bo'lsa-da, pedagogik kuchini yo'qotadi.

Afzal ko'riladigan formatlar haqidagi javoblar KRKni jarayonlarini qanday tashkil qilish kerakligini aniq ko'rsatadi. Respondentlarning 59 foizi aniq bir fanga yo'naltirilgan KRKni, 46,2 foizi seminar va amaliy mashg'ulot kombinatsiyasini, 20,5 dars tahlilini ma'qul ko'rgan. (2-rasm). Bu natija xorijiy olimlar qarashlari bilan to'liq hamohang: o'qituvchi o'z predmetiga aloqador, amaliyotga yaqin va refleksiv tahlilga asoslangan formatni afzal ko'radi.



2-rasm. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari

KRKga qatnashishga undovchi omillar orasida kasbiy rivojlanish imkoniyati 82,1 foiz va amaliy natija hamda tajriba almashish 66,7 foiz bilan yetakchi. Rasmiy talab va ish vaqti muvofiqligi esa ancha past ulushni egallaydi. Bu juda qimmatli natija: demak, ingliz tili o'qituvchilari KRKga majburiyat sifatida emas, rivojlanish manbai sifatida qarashga tayyor. Tizimning vazifasi – ana shu ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydigan mazmun va format yaratish.

Nazariy va empirik natijalarni qiyoslaganda uchta asosiy tafovut ko'zga tashlanadi. Birinchidan, xorijiy tadqiqotlar professional rivojlanishda faol o'rganish va hamkorlikni markazga qo'ysa, amaldagi holatda bu komponentlar cheklangan ulushda namoyon bo'lmoqda. Ikkinchidan, xalqaro adabiyotlar ta'sirni sinf amaliyoti va o'quvchi natijasi bilan bog'lashni tavsiya etsa, mahalliy amaliyotda monitoring

hanuz yetarli darajada tizimlashmagan. Uchinchidan, o‘qituvchilar ichki motivatsiyaga ega bo‘lsa-da, institutsional qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, vaqt, rag‘bat va resurs – yetarli emas.

Shu bilan birga, so‘rovnoma ma’lumotlari optimistik xulosaga kelishga ham zamin yaratmoqda. Sababi o‘qituvchilar KRKdan voz kechishni emas, uni kuchaytirishni xohlamoqda.

Ular kasbiy rivojlanish, amaliy natija va tajriba almashishni qadrlaydi; yangi metodlarni darsga jarayonlariga ta’tdbiq qilishmoqda; o‘quvchi natijasidagi ijobiy siljishni sezmoqda. Demak, muammo tizimning o‘zida emas, uning pedagogik dizaynini chuqurlashtirish zaruratida.

Fikrimizcha, har bir KRK sessiyasidan keyin o‘qituvchining darsida nimadir o‘zgarishi kerak. Agar bunday o‘zgarish kuzatilmasa, tadbirning tashkiliy jihatadan mavjudligi uning pedagogik samaradorligini anglatmaydi. Shu sababli KRK sifati uning soni bilan emas, transfer, refleksiya va professional hamjamiyatga qo‘shgan hissasi bilan baholanishi lozim.

Maqolada olingan natijalardan kelib chiqib, KRK quyidagi sikl asosida tashkil etishni taklif etamiz: 1) ehtiyoj diagnostikasi; 2) fan modulni loyihalash; 3) faol o‘rganish asosidagi KRK sessiyasi; 4) dars jarayonlarida qo‘llash; 5) refleksiv monitoring; 6) professional hamjamiyatda muhokama; 7) keyingi modulni aniqlash. Ushbu sikl KRKni alohida tadbir emas, uzluksiz kasbiy rivojlanishning takrorlanuvchi mexanizmiga aylantiradi.

Ikkinchi tavsiya – mikroo‘qitish va dars tahlilini muntazam elementga aylantirish. So‘rovnoma natijalarida mikroo‘qitishga ehtiyoj qayd etilgani bejiz emas. Ingliz tili o‘qituvchisi 7-10 daqiqalik dars jarayonini namoyish etib, hamkasblardan konkret indikatorlar asosida fikr va mulohazalar (feedback) olsa, KRKning o‘rganish sifati keskin oshadi. Bizning fikrimizcha, aynan mikroo‘qitish o‘qituvchining nazariy bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantirishidagi eng samarali ko‘priklardan biridir.

Uchinchi tavsiya – KRKni professional hamjamiyat bilan uzviy bog‘lash. Har bir sessiya yakunida ishtirokchilar kichik professional guruhlarga bo‘linib, o‘zaro kuzatuv va qo‘llab-quvvatlash rejasini tuzsa, KRKning

ta'siri ancha uzayadi. Bu DuFour talqin qilgan hamkorlik madaniyatini maktab ichki darajada real institutga aylantiradi [9].

Bizningcha KRKni faqat metodistlar uchun tashkiliy topshiriq emas, balki maktabning o'qitish sifatini boshqarish instrumentiga aylanishi lozim. Agar har bir KRK moduli o'quvchi natijasidagi aniq indikator bilan bog'lansa, rahbariyat, metodik birlashma va o'qituvchi o'rtasida yagona professional til paydo bo'ladi. Bu esa kasbiy rivojlanish, ichki monitoring va ta'lim sifati boshqaruvi o'rtasidagi uzilishni kamaytiradi. Ayniqsa ingliz tili bo'yicha xalqaro sertifikatlar, milliy baholash, kommunikativ metodika va raqamli ta'lim resurslari kengayib borayotgan davrda bunday yaxlit yondashuv dolzarbdir.

Shuningdek, KRKni takomillashtirishda hududiy va maktab kontekstini e'tiborga olish lozim. Shahar maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab, qishloq maktabi yoki resursi cheklangan maktab uchun bir xil modul va bir xil intensivlik har doim ham samarali bo'lavermaydi. Shu sababli muallif sifatida KRK tizimida bazaviy majburiy yadro va kontekstga moslashuvchi variativ qism bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. Bazaviy qism umumiy strategik yo'nalishlarni belgilasa, variativ qism maktabning real ehtiyoji, o'qituvchilarning malaka profili va mavjud resursidan kelib chiqib moslashtiriladi. Bunday moslashuvchan modelgina uzluksiz kasbiy rivojlanishni formal emas, haqiqiy pedagogik o'sish maydoniga aylantira oladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini (KRK) samarali tashkil etish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va dars sifatini oshirishda muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda keltirilgan nazariy qarashlar hamda empirik ma'lumotlar KRK samaradorligi avvalo uning pedagogik mazmuni, amaliy yo'naltirilganligi va o'qituvchining real dars amaliyoti bilan bog'liqligiga bog'liq ekanini ko'rsatdi.

O'rganilgan ilmiy manbalarga ko'ra, samarali kasbiy rivojlanish jarayoni mazmuniy yo'naltirilganlik, faol o'rganish, hamkorlik, refleksiya hamda izchillik kabi muhim komponentlarga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, KRKni faqat ma'ruzaviy yoki axborot berishga qaratilgan tadbir sifatida emas, balki o'qituvchining amaliy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'rganish jarayoni sifatida tashkil etish zarur. Ayniqsa, yangi metodlarni dars jarayonida qo'llash, ularning natijalarini tahlil qilish va hamkasblar bilan muhokama qilish professional rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi.

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari KRK tizimi tashkiliy jihatdan shakllanib borayotganini ko'rsatdi. Respondentlarning katta qismi KRK muntazam o'tkazilishini va oldindan rejalashtirilishini qayd etgan. Shu bilan birga, ayrim o'qituvchilar KRK mazmunining ularning professional ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi, amaliy mashg'ulotlar ulushining yetarli emasligi hamda monitoring tizimining sustligini ta'kidlagan. Bu esa mavjud tizimni pedagogik jihatdan yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuningdek o'qituvchilar KRKni majburiy tadbir sifatida emas, balki kasbiy rivojlanish va tajriba almashish imkoniyati sifatida qabul qilayotganini ham ko'rsatdi. Ayniqsa, fanga yo'naltirilgan sessiyalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar kombinatsiyasi hamda dars tahlili kabi formatlar o'qituvchilar tomonidan eng samarali shakl sifatida baholangan. Bu holat KRKni ingliz tili fanining metodik xususiyatlari bilan uzviy bog'lab tashkil etish muhimligini tasdiqlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, KRK samaradorligi uning tashkiliy mavjudligidan ko'ra, o'qituvchi faoliyatiga real ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Agar kasbiy rivojlanish jara-

yoni o‘qituvchining dars amaliyotida yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish, ularni tahlil qilish va hamkasblar bilan muhokama qilish imkoniyatini yaratsa, u holda KRK haqiqiy pedagogik natijaga ega bo‘ladi. Shu sababli KRKni ehtiyoj diagnostikasi, amaliy qo‘llash, refleksiv tahlil va professional hamjamiyatdagi muhokamalar bilan bog‘langan uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi.

Demak, ingliz tili fanidan kasbiy rivojlanish kunlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi mavjud tizimni yanada mazmunli, amaliy va hamkorlikka asoslangan professional o‘rganish muhitiga aylantirishdan iboratdir. Ana shunday yondashuvgina KRKni o‘qituvchining kasbiy o‘sishi, dars sifati va o‘quvchilarning ta’lim natijalariga real ta’sir ko‘rsatuvchi samarali pedagogik mexanizmga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alixanova, D. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida o‘quv leksik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili): ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. –21 b.

2. Avalos, B. Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years // Teaching and Teacher Education. – 2011. – Vol. 27. – No. 1. – P. 10–20.

3. Darling-Hammond, L., Hyler, M.E., Gardner, M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017. – 132 p.

4. Desimone, L.M. Improving impact studies of teachers professional development: Toward better conceptualizations and measures // Educational Researcher. – 2009. – Vol. 38. – No. 3. – P. 181–199.

5. DuFour, R. What Is a “Professional Learning Community”? // Educational Leadership. – 2004. – Vol. 61. – No. 8. – P. 6–11.

6. Fayzullayeva, G.Sh. O‘qituvchi kasb standartini amaliyotda qo‘llashning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish (P5BL yordamida): ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 80 b.

7. Guskey, T.R. Does It Make a Difference? Evaluating Professional Development // Educational Leadership. – 2002. – Vol. 59. – No. 6. – P. 45–51.

8. Guskey, T.R. Professional development and teacher change // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8. – No. 3–4. – P. 381–391.

9. Ibragimov, A. Ta’lim tizimida pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari: ped. fan. doktori (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 64 b.

10. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2019.

11. Timperley, H., Wilson, A., Barrar, H., Fung, I. Teacher Professional Learning and Development: Best Evidence Synthesis Iteration. – Wellington: Ministry of Education, 2007.

12. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. – Paris: UNESCO, 2015.

13. Yuldashev, M. Pedagog kadrlar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 52 b.

UCHBURCHAKNING YUZI MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Rajabov Ulug'bek Tuychiyevich,
Nizomiy nomidagi O'zMPU "Matematika kafedrasi katta o'qituvchisi
tel: 99-531-01-50
ulugbekrajabov0330@gmail.com
Omonova Jumagul G'affor qizi,
Nizomiy nomidagi O'zMPU 2-kurs talabasi
tel: 93-852-22-06
omonovajumagul10@gmail.com
Aminjonova Oydinoy Olim qizi,
Nizomiy nomidagi O'zMPU 2-kurs talabasi
Tel: 90-617-03-07
oydinoyaminjonova8@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada uchburchakning yuzi mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlarni integratsiyalash masalalari yoritiladi. Tajriba va kuzatish, umumlashtirish, isbotlash hamda induktiv-deduktiv metodlar asosida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzuni o'qitishda motivatsiyaning o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Uchburchak yuzi, metodik yondashuv, pedagogik texnologiya, induksiya, deduksiya, isbotlash, umumlashtirish.*

Интеграция современных педагогических технологий и методических подходов в преподавании темы "площадь треугольника"

Ражабов Улугбек Туйчиевич
старший преподаватель кафедры математики УзНПУ им. Низами
Омонова Жумагул Гаффор кизи
студентка 2 курса УзНПУ им. Низами
Аминжонова Ойдиной Олим кизи
студентка 2 курса УзНПУ им. Низами

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы интеграции современных педагогических технологий и методических подходов при обучении теме площади треугольника. Анализируются пути развития логического мышления учащихся на основе методов эксперимента и наблюдения, обобщения, доказательства, а также индуктивно-дедуктивного подхода. Кроме того, раскрывается роль мотивации в процессе изучения данной темы.*

Ключевые слова: *площадь треугольника, методический подход, педагогическая технология, индукция, дедукция, доказательство, обобщение.*

Integratıon of modern pedagogıcal technologıes and methodologıcal approaches to teachıng the topıc "area of a trıangle"

Rajabov Ulugbek Tuychiyevich,
Senior Lecturer of the Department of Mathematic NPUU named after Nizami
Omonova Jumagul Gaffor qizi,
2nd-year student NPUU named after Nizami
Aminjonova Oydinoy Olim qizi,
2nd-year student NPUU named after Nizami

Abstract. This article discusses the integration of modern pedagogical technologies and methodological approaches in teaching the topic "the area of a triangle". It analyzes the ways of developing students' logical thinking based on the methods like experimentation and observation, generalization, mathematical evidence, as well as inductive and deductive approaches. In addition, it highlights the role of motivation in teaching this topic.

Keywords: area of a triangle, methodological approach, pedagogical technology, induction, deduction, proof(mathematical evidence), generalization.

Hozirgi kunda matematika ta'limida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarishi va bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan geometriya kursida uchburchakning yuzi mavzusini samarali o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar integratsiyasini talab etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanini o'qitish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, geometriya bo'limi, xususan, uchburchakning yuzi va uning xossalarini o'rganish o'quvchilarning fazoviy tasavvuri, matematik tafakkuri hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushbu mavzuni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va samarali metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy o'qitish usullarini interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga undash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Xususan, uchburchak yuzini o'rganishda tajriba va kuzatish, umumlashtirish, isbotlash hamda induktiv-deduktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu metodlar orqali o'quvchilar tayyor formulalarni yodlab olish bilan cheklanib qolmay, balki ularning kelib chiqish mohiyatini tushunib yetadilar.

Mazkur maqolaning maqsadi – uchburchakning yuzi mavzusini o'qitishda turli metodlarni uyg'un holda qo'llash orqali o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va samaradorlikni oshirishdan iborat.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, uchburchakning yuzi mavzusi nafaqat matematika fanining asosiy tushunchalaridan biri, balki kundalik hayotda ham keng qo'llaniladigan amaliy bilim hisoblanadi. Shu sababli ushbu mavzuni o'qitishda o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish, real hayotiy misollar orqali tushuntirish ham muhim ahamiyatga ega.

Maqola obyekti sifatida umum ta'lim maktablarida geometriya fanini o'qitish jarayoni.

Maqolaning predmeti – uchburchakning yuzi va uning xossalarini o'qitish metodikasi.

1. **Tajriba va kuzatish metodining o'rni**

Tajriba va kuzatish metodi o'quvchilarda bilimni bevosita faoliyat orqali egallash imkonini yaratadi. Ushbu metod asosida o'quvchilar uchburchakdan parallelogram hosil qilish orqali yuz formulasini mustaqil kashf etadilar.

Ta'rif. Matematik obyektlardagi masalalarning xossalari va ularning o'zaro munosabatlarini belgilovchi metod kuzatish deyiladi [1].

Ta'rif. Matematik obyektlardagi masalalarning xossalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni sun'iy ravishda bo'lak qismlarga ajratish yoki ularni birlashtirish tajriba metodi deyiladi [1].

Ushbu metod o'quvchilarda hodisalarni bilim tajribadan kelib chiqib tushunish va nazariy xulosaga mustaqil kelish ko'nikmasini shakllantiradi.Ushbu metodni qo'llashda o'qituvchi tajriba yoki kuzatish vaziyatini yaratadi, o'quvchilar natijalarni tahlil qiladi va kuzatilgan hodisalar asosida umumiy xulosaga keladi [2].

Dars jarayonida:

- Muammoli vaziyat yaratiladi;
- Tajriba o'tkaziladi;
- Kuzatish amalga oshiriladi;
- Umumiy xulosa chiqariladi.

Dars boshida shunday muammo qo'yiladi: "Uchburchakni real hayotda qayerda ishlatamiz? Uchburchak yuzasini qanday aniqlash mumkin?" Ushbu savollar berilganda o'quvchilar uchburchaklar haqida o'ylaydilar va uchburchak haqidagi oldingi bilimlarini qo'llagan holda javob berishga harakat qiladilar. Hayotda qo'llanilishini haqida javob olganlaridan so'ng ularda uchburchak yuzasini topishga bo'lgan qiziqish uyg'onadi.

Kartondan ikki bir xil uchburchak kesiladi va ularni birlashtirib parallelogram hosil qilinadi. Parallelogram yuzi formulasi eslanadi ya 'ni. $S = a \cdot h$ Demak uchburchak yuzi uning yarmiga teng:

$$S = \frac{a \cdot h}{2}$$

Ikkita uchburchakdan parallelogram yasash mumkin agar uchburchak to'g'ri burchakli bo'lsa ikkita to'g'ri burchakli uchburchakdan to'g'ri to'rtburchak hosil bo'ladi. Shu yerda to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini topish formulasi kelib chiqadi:

$$S = \frac{a \cdot b}{2}$$

Bu yerda a va b to'g'ri to'rtburchakning tomonlari. To'g'ri to'rtburchakni 2 ga bo'lsak a to'g'ri burchakli uchburchakning balandligiga va b to'g'ri burchakli uchburchakning asosiga teng bo'lib qoladi.

2. **Masalalarni yechishda umumlashtirish metodining ahamiyati.**

Ta'rif: Umumlashtirish metodi – alohida misollar asosida umumiy qonuniyatni shakllantirish metodidir. [2]

Umumlashtirish metodini qo'llash jarayonida o'quvchilar turli misollarni solishtiradi, o'xshash jihatlarni aniqlaydi va yakunda umumiy xulosa yoki modelga keladi. O'quvchilar turli misollar asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlaydilar. Masalan:

- turli uchburchaklar yuzini hisoblash;
- formulalarni solishtirish;
- umumiy qoida chiqarish.

Natijada o'quvchilar uchburchak yuzi asos va balandlikka bog'liqligini anglab yetadilar. Turli katetli uchburchaklar yuzlari hisoblanadi. Masalan katetlari 6 va 8 ga teng bo'lgan uchburchak yuzini topamiz:

$$S = \frac{a \cdot b}{2} = \frac{6 \cdot 8}{2} = 24$$

Endi o'quvchilarga tayyor formulalar orqali masala yechishni o'rgatiladi. Masala: Uchburchakning ikki tomoni mos ravishda 8 sm va 11 sm, ular orasidagi burchak $30°$ ga teng uchburchakning yuzini toping. Ushbu masalada yuzni topish uchun $S = \frac{a \cdot b}{2} \sin \alpha$ formuladan foydalanamiz.

$$S = \frac{a \cdot b}{2} \sin \alpha = S = \frac{8 \cdot 11}{2} \sin 30° = 22$$

Javob: 22 sm^2

Masala: Uchburchakning tomonlari 7 sm, 8 sm va 9 sm bo'lsa ning yuzini toping.

Ushbu masalani yechish uchun o'quvchiga Geron formulasi tanishtiriladi:

$$S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$$

Bu yerda a, b, c uchburchakning tomonlari, $p = \frac{a+b+c}{2}$ yarim perimetr.

$$a = 7\ sm, b = 8\ sm, c = 9\ sm \quad ,$$

$$p = \frac{7+8+9}{2} = 12$$

$$S = \sqrt{12(12-7)(12-8)(12-9)}$$

$$= 12\sqrt{5}\ sm^2$$

Yuzalar topildi navbat yuza formulalarini solishtirishga.

Savol: ”Bu formulalar nimasi bilan umumiy?” O‘quvchilarga ushbu savol berilganda ular tomonidan tabiiyki har xil javob beriladi. Barcha javoblar inobatga olinib umumiy xulosaga kelinadi: Xulosa: Hammasi bir xil geometrik kattalik – yuzni ifodalaydi.

Xulosa qismidan so‘ng umumiy qoida kelib chiqadi. O‘quvchilar uchburchakning yuzi asos va unga mos balandlikka bog‘liq kattalik ekanligini tushunadilar. Bu tushuncha isbotlash metodi orqali yanada yaqqol ko‘rinadi.

3. **Isbotlash metodining roli.**

Ta’rif: Isbotlash – bu ma’lum bir hukm yoki teoremaning to‘g‘riligini avvaldan ma’lum bo‘lgan aksiomalar, ta’riflar va teoremalar yordamida mantiqiy asoslab ko‘rsatish jarayoni. [3]

Isbotlash metodi matematik bilimlarning mantiqiy asoslanganligini ta’minlaydi. Ushbu metod yordamida:

- trigonometrik formula;

- Geron formulasi kabi muhim natijalar asoslab beriladi. Bu esa o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Isbotlash metodini amalga oshirishda muammo aniq qo‘yiladi, chizma yoki model quriladi, ma’lum teoremalar asosida mantiqiy dalillar keltiriladi va xulosa chiqariladi. Teorema yoki xossani ifodalash bu isbotlashning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Teorema. Uchburchak yuzi uning ikki tomoni va ular orasidagi burchak sinusi ko‘paytmasi yarmiga teng [5].

Berilgan va izlanayotganlarini aniqlash: $a, b\ va\ c$ shuningdek burchak berilgan. Biz yuzni hisoblash formulasini topishimiz zarur.

Isbot g‘oyasini aniqlash va mantiqiy asoslash.

Isbotlash uchun ABC uchburchakning



$BD = h_b$ balandligini o ‘tkazamiz. h_b ni c tomon va A burchakning sinusi bilan ifodalaymiz: $h_b = c \sin A$. Uchburchak yuzini hisoblash formulasi $S = \frac{1}{2} b h_b$ ga h_b ning shu ifodasini qo‘yib, ushbu formulani hosil qilamiz:

$$S = \frac{1}{2} bc \sin A\ .$$

Xulosa chiqarish: Shunday qilib, uchburchakning yuzi iki tomoni va ular orasidagi burchak sinusiga ko‘ra ushbu formulalar bo‘yicha hisoblanadi:

$$S = \frac{1}{2} ab = \frac{1}{2} ac \sin B = \frac{1}{2} bc \sin A\ .$$

Endi esa shu bosqichlardan foydalanib Geron formulasini isbotlaymiz: Isbotlash uchun quyidagi yuzni hisoblashning trigonometrik formulasidan foydalanamiz: $S = \frac{1}{2} ab \sin \alpha$.

Kosinuslar teoremasi

$c^2 = a^2 + b^2 - 2ab \cos \alpha$ bundan:

$$\cos \alpha = \frac{a^2+b^2-c^2}{2ab}$$

Sinusni topamiz:

$$(\sin \alpha)^2 = 1 - (\cos \alpha)^2,$$

$$\sin\alpha = \sqrt{1-\left(\frac{a^2+b^2-c^2}{2ab}\right)^2}$$

Yuz formulasiga qo'yamiz:

$$S = \frac{1}{2}ab\sqrt{1-\left(\frac{a^2+b^2-c^2}{2ab}\right)^2}$$

Soddalashtiramiz:

$$S = \frac{1}{4}\sqrt{4a^2b^2-(a^2+b^2-c^2)^2}$$

Ildiz ichidagi ifodani soddalashtiramiz:

$$4a^2b^2-(a^2+b^2-c^2)^2 = (a+b+c)$$

$$(-a+b+c)(a-b+c)(a+b-c)$$

Yarim perimetr tushunchasini kiritamiz:

$p = \frac{a+b+c}{2}$ shunda, $(a+b+c) = 2p$,

$(-a+b+c) = 2(p-a)$

$(a-b+c) = 2(p-b)$,

$(a+b-c) = 2(p-c)$ ifodalarni o'rniga qo'yamiz:

$S = \frac{1}{4}\sqrt{16p(p-a)(p-b)(p-c)} =$

$\sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$ isbotlandi.

4. **Induktiv-deduktiv metod**

Ta'rif: Induksiya – aniq misollar va kuzatishlar orqali umumiy xulosaga kelish. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchani umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar [4].

Ta'rif: Deduksiya – umumiy qoida yoki formuladan kelib chiqib, xususiy holatlar va xossalarni matiqan asoslash usulidir [3].

Induktiv metodni qo'llashda o'qituvchi avvalo alohida misollarni taqdim etadi, o'quvchilar bilan ularni tahlil qiladi va kuzatilgan qonuniyat asosida umumiy qoida shakllantiriladi [6].

Deduktiv metodni amalga oshirish umumiy qoida yoki teoremadan boshlanib, undan kelib chiqadigan xususiy misollarni yechish orqali bilimni mustahkamlashni nazarda tutadi [7].

Bu metodlar orqali:

proporsionallik xossasi;

teng yuzali uchburchaklar xossasi;

yuzning saqlanish xossasi kabi bilimlar shakllantiriladi. O'quvchilarga savol beriladi: "Nega turli shaklli, lekin bir xil asos va balandlikka ega uchburchaklarning yuzi teng?, Qaysi o'lchamlar uchburchak yuzini belgilaydi?" Maqsad – o'quvchilarni xossani izlashga yo'naltirish.

O'quvchilar bir nechta uchburchaklarni chizadi:

1. Asos bir xil, balandlik turli.
2. Balandlik bir xil, asos turli.
3. Shakl turli, lekin asos va balandlik bir xil.

Yuzalar hisoblanadi va solishtiriladi:

1-masala. Asoslari bir xil balandliklari ($A_1C_1 = A_2C_2 = 8$) bo 'lgan $A_1B_1C_1$ va $A_2B_2C_2$ uchburchaklar berilgan. Agar ularning balandliklari $B_1D_1 = 4$ va $B_2D_2 = 6$ ga teng bo'lsa uchburchaklar yuzasini taqqoslang hamda yuza va balandlik orasidagi bog'liqlikni aniqlang.

Berilgan:

$A_1C_1 = 8$

$A_2C_2 = 8$

$B_1D_1 = 4$

$B_2D_2 = 6$

Chizma:



$S_1 = \frac{4 \cdot 8}{2} = 16$

$S_2 = \frac{6 \cdot 8}{2} = 24$

$S_1 < S_2$

$h_1 < h_2$

$a_1 = a_2$

2-masala. Balandliklari bir xil ($B_1D_1 = B_2D_2 = 6$) bo ‘lgan $A_1B_1C_1$ va $A_2B_2C_2$ uchburchaklar berilgan. Agar ularning asoslari $A_1C_1 = 7$, $A_2C_2 = 10$ ga teng bo‘lsa uchburchaklar yuzasini taqqoslang hamda yuza va balandlik orasidagi bog‘liqlikni aniqlang. [5]

Berilgan:

$A_1C_1 = 7$

$A_2C_2 = 10$

$B_1D_1 = 6$

$B_2D_2 = 6$

Chizma:



$S_1 = \frac{7 \cdot 6}{2} = 21$ $S_2 = \frac{10 \cdot 6}{2} = 30$

$S_1 < S_2$

$h_1 = h_2$

$a_1 < a_2$

3-masala. Asosi $A_1C_1 = 9$ ga va baladligi $B_1A_1 = 6$ ga teng bo‘lgan to‘gri burchakli uchburchak hamda asosi $A_2C_2 = 9$ va balandligi $B_2D_2 = 6$ ga teng bo‘lgan o‘tkir burchakli uchburchak berilgan. Uchburchaklar yuzasini taqqoslang hamda yuza va balandlik orasidagi bog‘liqlikni aniqlang.

Berilgan:

$A_1C_1 = 9$

$A_2C_2 = 9$

$B_1A_1 = 6$

$B_2D_2 = 6$

Chizma:



$S_2 = \frac{9 \cdot 6}{2} = 27$

$S_1 = S_2$

$h_1 = h_2$

$a_1 = a_2$

Umumlashtiramiz ya’ni, yuqorida keltirgan misollardan foydalanib xossalarni keltiramiz:

1) Proporsionallik xossasi – yuza asos va balandlikka to‘g‘ri proporsional

2) Teng yuzali uchburchaklar xossasi – bir xil asos va balandlikka ega uchburchaklarning yuzasi teng.

3) Saqlanish xossasi – uchburchak shakli o‘zgarsa ham, agar asos va balandlik bir xil bo‘lsa, yuza o‘zgarmaydi.

Deduktiv asoslash bosqichida yuqoridagi kuzatish bosqichidagi taqqoslashlar asosida xossalar isbotlanadi, ya’ni mavjud formula asosida xossalar isbotlanadi.

Teorema. Agar uchburchak asosi o‘zgarmasa, uchburchak yuzi balandlikka to‘g‘ri proporsional.

Isbot. Ikki uchburchak olamiz: $S_1 = \frac{ah_1}{2}$

$S_2 = \frac{ah_2}{2}$ nisbat olamiz:

$\frac{S_1}{S_2} = \frac{h_1}{h_2}$ demak yuza balandlikka to'g'ri proporsional.

Teorema. Agar uchburchaklarning asosi va balandligi teng bo'lsa, ularning yuzalari teng.

Isbot. $S_1 = \frac{a_1 h_1}{2}$ $S_2 = \frac{a_2 h_2}{2}$ $h_1 = h_2$

$a_1 = a_2$ $S_1 = S_2$.

Teorema. Agar uchburchak shakli o'zgarsa ham, agar asos va balandlik bir xil bo'lsa, yuza o'zgarmaydi.

$S = \frac{a \cdot h}{2}$. Formula ikkita kattalikka bog'liq:

Shakl parameter emas, demak uchburchakning burchaklari yoki tomonlarining joylashuvi o'zgarsa ham asos va balandlik bir xil bo'lsa yuza o'zgarmaydi.

4. **Mavzuni o'qitishda motivatsiyaning o'rni**

Ta'rif. Mavzuning motivatsiyasi metodi – bu dars boshida o'quvchilarda yangi bilimni o'rganishga ichki ehtiyoj va qiziqish uyg'otish maqsadida muammoli vaziyat, hayotiy misol yoki savol orqali mavzuning ahamiyatini ochib berish usulidir [4].

Motivatsiya o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Hayotiy masalalar orqali:

- bilimning amaliy ahamiyati ochiladi;
- o'quvchilarning faolligi ortadi;
- kreativ fikrlash rivojlanadi.

Masalan, real hayotga oid dizayn masalalari orqali uchburchak yuzini hisoblashga ehtiyoj yaratiladi. O'quvchilarga muammoli va hayotiy masala beriladi, muammo qiziqish uyg'otsa, masalaning hayotiyligi mavzuni yanada yaxshi tushunishga yordam beradi.

Masala: Siz interyer dizaynerisiz. Mijoz o'zining mehmonxonasi burchagiga uchburchak shaklidagi dekorativ tokcha yasatmoqchi. Tokchaning asosi (devorga tegib turgan qismi) $a = 80\ sm$, unga tushirilgan balandligi esa $h = 60\ sm$. Mijoz tokchaning yuzasini qimmatbaho oltin rangli qoplama bilan qoplamoqchi. Do'konda esa bu qoplama faqat to'rtburchak shaklida, ya'ni eni $80\ sm$, bo'yi $30\ sm$ bo'lgan listlarda sotiladi. Savol: Do'kondagi bitta to'rtburchak list tokchaning yuzasini to'liq qoplashga yetadimi?

Masalaning yechimi va tushuntirishi:

1. Uchburchak yuzi formulasi: Bizga ma'lumki, uchburchak yuzi asosining yarmi va balandligi ko'paytmasiga teng:

$$S = \frac{a \cdot h}{2} = \frac{80 \cdot 60}{2} = 2400\ sm^2$$

2. To'rtburchak list yuzi: Do'kondagi listning o'lchamlari $80\ sm$ va $30\ sm$. Uning yuzi:

$$S = a \cdot b = 80 \cdot 30 = 2400\ sm^2$$

Javob: To'rtburchak uchburchakni qoplashga yetadi, chunki, ularning yuzi teng.

Ushbu masala orqali o'quvchilar uchburchak haqida ko'proq ma'lumot oladilar va hayotda qo'llanilishiga misol ko'radilar. Bu masala o'quvchilarni kreativ fikrlashga ham o'rgatadi.

Mazkur maqolada uchburchakning yuzi va uning xossalarini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Bu jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar asosida o'quvchilarning bilimlarini samarali shakllantirish imkoniyatlari yoritib berildi. Xususan, tajriba va kuzatish, umumlashtirish, isbotlash hamda induktiv-deduktiv metodlarning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati batafsil asoslab berildi.Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu metodlardan kompleks tarzda foydalanish o'quvchilarda nafaqat uchburchak yuzini hisoblash ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, tajriba va kuzatish metodlari orqali o'quvchilar formulalarning kelib chiqish mohiyatini chuqur

anglaydi, umumlashtirish metodi esa turli masalalar asosida yagona qonuniyatni tushunishga yordam beradi.

Isbotlash metodidan foydalanish o‘quvchilarda matematik tafakkur va dalillash madaniyatini shakllantirsa, induktiv va deduktiv yondashuvlarning uyg‘unligi bilimlarni tizimli va izchil egallashga xizmat qiladi. Shuningdek, mavzuni o‘qitishda motivatsiyaning to‘g‘ri tashkil etilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni amaliy hayot bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, uchburchakning yuzi mavzusini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.Alixonov Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent – 2011

2. Толипов Ў. Усмонов М. Педагогик технологиялар назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Фан, 2012

3. Қодиров Б.Р. Педагогика назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018

4. D.M. Maxmudova va boshqalar. Matematika o ‘qitish metodikasi. – Toshkent – 2022

5. Rahimqoriyev A.A. Geometriya 8. (darslik) – Toshkent: “O‘ZBEKISTON”, 2019

6. Barakayev M. Matematika o‘qitish metodikasi (I qism, Umimiy metodika, Darslik, qism) – T.: “GRANT KONDOR PRINI”, 2024.

7. Barakayev M. Matematika o‘qitish metodikasi (II qism, Xususiy metodika, darslik) – T.: “GRANT KONDOR PRINI”, 2024.

8. M.Barakayev va b. Matematikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalash (darslik). – T.: “MUMTOZ ZIYo”, 2020.

9. https://www.leadinglearning.com/hybrid-vs-blended-learning/

10. www.pedagog.uz

11. http://abc.vvsu.ru/Books/instrum/’age0016.as

HAMKORLIKDA O‘QITISH (CO-TEACHING) METODIKASINING PREZIDENT MAKTABLARI INGLIZ TILI DARSLARIDA KOGNITIV-ANALITIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Xamdamova Shoxista Yusup qizi,
Termiz shahridagi Prezident maktabi,
Ingliz tili fani o‘qituvchisi, Termiz davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
shoxistaxamdamova468@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Prezident maktablari ingliz tili darslarida hamkorlikda o‘qitish (co-teaching) metodikasining o‘quvchilarda kognitiv-analitik fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot bir sinfda bir vaqtning o‘zida native speaker (chet ellik o‘qituvchi) va mahalliy ingliz tili fani o‘qituvchisi hamkorligida olib borilgan darslar tajribasiga asoslanadi. O‘rganish jarayonida grammatika materiallarini o‘zbek tili bilan qiyosiy tahlil asosida tushuntirish hamda speaking ko‘nikmalarini native speaker ishtirokida rivojlantirish o‘quvchilarning tilni ongli, tez va mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qilgani aniqlangan. To‘rt yillik (2021-2025) statistik ma’lumotlar tahlili ushbu metodikaning samaradorligini, xususan, o‘quvchilarning xalqaro IELTS natijalari sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, hamkorlikda o‘qitish jarayonida amalga oshiriladigan kognitiv-analitik operatsiyalar (taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, metakognitiv fikrlash) mexanizmlari yoritilgan. Muallif tomonidan ushbu metodikaning umumta’lim maktablarida joriy etish istiqbollari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni bilan belgilangan vazifalar kontekstidagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *co-teaching, kognitiv-analitik fikrlash, native speaker, Prezident maktablari, ingliz tili ta’limi, yaqin rivojlanish zonasi*

Роль методики совместного преподавания (co-teachıng) в формировании когнитивно-аналитического мышления на уроках английского языка в президентских школах

Хамдамова Шохиста Юсуп кизи,
Президентская школа города Термез, учитель английского языка, независимый исследователь Термезского государственного университета

Аннотация: *В статье рассматривается роль методики совместного преподавания (co-teaching) в формировании когнитивно-аналитического мышления учащихся на уроках английского языка в Президентских школах. Исследование основано на опыте одновременной работы носителя языка и местного преподавателя английского языка в одном классе. Установлено, что сопоставительное объяснение грамматического материала с опорой на родной язык учащихся и активное развитие устной речи с участием носителя языка способствуют более глубокому осмыслению учебного мате-*

риала и развитию аналитического мышления. Анализ статистических данных за четыре года (2021-2025) подтверждает высокую эффективность данной методики, что находит отражение в росте результатов IELTS у обучающихся. В статье раскрываются механизмы когнитивно-аналитических операций (сравнение, анализ, обобщение, метакогнитивное мышление), реализуемых в процессе совместного преподавания. Автором обосновываются перспективы внедрения данной методики в общеобразовательных школах и её значимость в контексте задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан № ПФ-55 от 1 апреля 2024 года.

Ключевые слова: *совместное преподавание, когнитивно-аналитическое мышление, носитель языка, Президентские школы, обучение английскому языку, зона ближайшего развития.*

The role of the co-teaching method in developing cognitive-analytical thinking in english language classes at presidential schools

Xamdamova Shoxista Yusup qizi,
Teacher of English Language, Presidential School in Termez, an independent researcher at Termez State University

Abstract: *This article analyzes the role of the co-teaching method in fostering students' cognitive-analytical thinking in English language classes at Presidential Schools from scientific-theoratical and practical point of view. The study bases on classroom practice where a native speaker and a local English teacher collaboratively teach the same group of students. The findings indicate that comparative grammatical explanations provided by the local teacher in the learners' mother tongue, combined with intensive speaking practice led by the native speaker, significantly enhance students' comprehension, analytical thinking, and long-term retention. Statistical data collected over four academic years (2021-2025) confirm the effectiveness of this approach, particularly reflected in the steady growth of students' IELTS performance. The article also explores the mechanisms of cognitive-analytical operations (comparison, analysis, generalization, metacognitive thinking) implemented during the co-teaching process. The author substantiates the prospects of introducing this method in general education schools and its significance in the context of the tasks defined by Presidential Decree No. PF-55dated on April 1, 2024.*

Keywords: *co-teaching, cognitive-analytical thinking, native speaker, Presidential Schools, English language teaching, zone of proximal development.*

Globallashuv, raqamli texnologiyalar va xalqaro akademik integratsiya sharoitida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘qitish jarayoni ta’lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad faqatgina lingvistik bilimlarni egallash emas, balki o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarga ongli yondashish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda global muloqot kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir [7]. Shu bois zamonaviy ta’lim amaliyotida kognitiv-analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metodik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident maktablari ta’lim modeli mazkur talablar asosida shakllangan bo‘lib, unda o‘quvchilarning akademik salohiyati, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish markaziy o‘rinni egallaydi. Ingliz tili fani Prezident maktablarida asosiy fanlardan biri sifatida o‘qitilib, dars jarayonida xalqaro standartlarga mos, innovatsion metodikalardan foydalanish talab etiladi. Ushbu jarayonda hamkorlikda o‘qitish (co-teaching) metodikasi alohida pedagogik qiymatga ega bo‘lib, u bir sinfda ikki nafar mutaxassis – native speaker (chet ellik o‘qituvchi) va mahalliy ingliz tili o‘qituvchisining o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etiladi [1].

Ingliz tili O'zbekistonda chet tili bo'lganligi sababli o'quvchilar, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta sinflarda grammatika, murakkab sintaktik konstruksiyalar hamda abstrakt til birliklarini tushunishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar [3]. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday vaziyatlarda mahalliy o'qituvchining o'quvchi bilan individual ishlashi, o'quvchi tushunmagan jihatlarni past ovozda, ona tili orqali va o'zbek tili grammatikasi bilan qiyoslab izohlashi o'quvchining bilimni tezroq va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu jarayon o'quvchilarda solishtirish, tahlil qilish va umumlashtirish kabi kognitiv-analitik faoliyat turlarini faollashtiradi.

Shu bilan birga, Gapirish (speaking) va Talaffuz (pronunciation) kabi kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda chet ellik o'qituvchining o'rni beqiyosdir [2]. Chet ellik o'qituvchi bilan doimiy muloqot o'quvchilarda tabiiy til muhiti shakllanishiga, nutqiy to'siqlarning kamayishiga va tilni erkin qo'llash malakasining rivojlanishiga olib keladi. Ikki o'qituvchining birgalikda faoliyat yuritishi natijasida dars jarayonida differensial va individual yondashuv imkoniyatlari kengayadi, bu esa har bir o'quvchining ehtiyojiga mos ta'limni tashkil etish imkonini beradi.

Hamkorlikda o'qitish metodikasi nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham professional rivojlanish omili hisoblanadi. Chet ellik o'qituvchi bilan bevosita ishlash mahalliy o'qituvchining zamonaviy metodik yondashuvlar, haqiqiy til birliklari va kommunikativ strategiyalarni o'zlashtirishiga yordam beradi. Mazkur jarayon o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish bilan birga, ta'lim sifati barqarorligini ta'minlaydi.

Shu asosda, mazkur maqolada Prezident maktablari ingliz tili darslarida hamkorlikda o'qitish (co-teaching) metodikasining o'quvchilarda kognitiv-analitik fikrlashni shakllantirishdagi o'rni to'rt yillik amaliy tajriba va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi hamda ushbu metodikaning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mazkur tadqiqot Prezident maktablari ingliz tili ta'limida amalda qo'llanilayotgan hamkorlikda o'qitish (co-teaching) metodikasining o'quvchilarda kognitiv-analitik fikrlashni shakllantirishdagi samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot 2021–2025-yillar davomida Termiz shahridagi Prezident maktabida olib borilgan tizimli pedagogik kuzatuv, tahlil va natijalarni taqqoslash asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida sinflarda ikki o'qituvchi modeli qo'llanildi:

Native speaker (chet ellik mutaxassis) – asosan speaking (gapirish), listening (tinglab tushunish), haqiqiy til muhitida bo'lish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlarni olib bordi. Mahalliy ingliz tili o'qituvchisi esa grammatika, murakkab til birliklari, kognitiv tushunchalarni o'zbek tili grammatikasi bilan qiyoslash orqali tushuntirish, individual qo'llab-quvvatlash (scaffolding) vazifasini bajardi. Mazkur yondashuv Vygotskiy ta'lim nazariyasidagi "yaqin rivojlanish zonasi" tamoyiliga mos bo'lib, o'quvchilarning qiyinchilikka duch kelgan paytida tezkor va tushunarli yordam olishiga imkon yaratdi [8].

Co-teaching metodikasi Prezident maktablari ingliz tili darslarida quyidagi kognitiv-analitik ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi, ular:

- **Tahliliy taqqoslash**
- **Metakognitiv fikrlash**
- **Kommunikativ-analitik integratsiya**

Tahliliy taqqoslashda grammatika mavzular (masalan, tenses, conditionals, passive voice) mahalliy o'qituvchi tomonidan o'zbek tili grammatikasi bilan qiyoslab tushuntirilishi natijasida o'quvchilarda sabab-oqibat munosabatlarini anglash, strukturaviy farqlarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish

ko‘nikmalari rivojlandi. Bu jarayon ikki til tizimi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali analitik fikrlashni faollashtirdi.

Metakognitiv fikrlashda o‘quvchilar “nima uchun bu yerda shunday ishlatilgan?”, “agar o‘zgartirsak ma’no qanday o‘zgaradi?” kabi savollar orqali til hodisalariga ongli yondasha boshladilar. Natijada ular o‘z bilish jarayonlarini kuzatish, baholash va boshqarish ko‘nikmalarini egalladilar. Kommunikativ-analitik integratsiyada esa chet ellik o‘qituvchi bilan olib borilgan speaking (gapirish) mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar real vaziyatlarda fikrni mantiqiy asoslash, dalil keltirish, qarama-qarshi fikrni tahlil qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarni amalga oshirdilar. Bu jarayonda chet ellik o‘qituvchi tomonidan beriladigan darhol (immediate) va asl feedback (izoh) o‘quvchilarning nutqiy strategiyalarini takomillashtirishga xizmat qildi [4].

Tadqiqot natijalari va statistik tahlil

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning ingliz tili bo‘yicha akademik natijalari, xususan, IELTS ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. To‘rt yillik kuzatuv davomida quyidagi dinamika kuzatildi:

2021–2022-o‘quv yilida co-teaching (hamkorlikda o‘qitish) metodikasi joriy etilgan dastlabki bosqichda o‘quvchilarning IELTS natijalari hali sezilarli darajada yuqori bo‘lmagan bo‘lsa, 2022–2023-o‘quv yiliga kelib o‘quvchilarning taxminan 5-7 foizi 6.5 va undan yuqori ballga erisha boshladi. 2023-2024-o‘quv yilida esa yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar ulushi 12-15 foizgacha oshdi. Eng muhim yutuq 2024–2025-o‘quv yilida qayd etildi: o‘quvchilarning qariyb 25-30 foizi IELTS 7.0 va undan yuqori ballni qo‘lga kiritdi, shuningdek, 7.5-8.5 ball oralig‘idagi ko‘rsatkichlar ham sezilarli darajada (taxminan 15-18 foiz) oshdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, co-teaching metodikasining tizimli qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilarning til kompetensiyasi va analitik fikrlash darajasi bosqichma-bosqich oshib borgan. Ayniqsa, grammatik tuzilmalarni ona tili bilan qiyosiy tahlil qilish asosida tushuntirish va native speaker bilan muntazam amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish o‘quvchilarning nafaqat til bilish darajasini, balki mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantirgan [5].

Tadqiqot davomida quyidagi samarali jihatlar aniqlandi: mahalliy o‘qituvchi tushunishda qiynalayotgan o‘quvchi bilan alohida ishlash imkoniga ega bo‘ldi. Bu, ayniqsa, Vygotskiy ta’kidlagan “yaqin rivojlanish zonasi”da ishlash tamoyilini amalga oshirish imkonini berdi. Grammatika bilimlari mexanik yodlash emas, balki ongli tahlil asosida o‘zlashtirildi. O‘quvchilar til birliklarini nafaqat qo‘llash, balki ularning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini egalladilar, bundan tashqari, mahalliy o‘qituvchining real native speaker bilan ishlash orqali metodik va lingvistik tajribasi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon o‘zaro mentorlik va hamkorlikda o‘rganish imkoniyatlarini yaratdi,o‘quvchilarda ingliz tilini mukammal egallashga bo‘lgan ichki ehtiyoj va ishonch shakllandi. Chet ellik o‘qituvchi bilan muloqot qilish imkoniyati ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini ham oshirdi.Hamkorlikda o‘qitish Prezident maktablari ingliz tili darslarida kognitiv-analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, barqaror va yuqori samaradorlikka ega metodika sifatida o‘zini to‘liq isbotladi. Shu bilan birga, metodikaning umumta’lim maktablarida bosqichma-bosqich tatbiq etilishi va mahalliy o‘qituvchilar bilan xorijiy mutaxassislar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjudligi aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Prezident maktablari ingliz tili darslarida hamkorlikda o‘qitish (co-teaching) metodikasining tizimli joriy etilishi o‘quvchilarda kognitiv-analitik fikrlashni shakllantirish, til birliklarini

ongli tahlil qilish va ularni amaliy nutqda samarali qo'llash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Chet ellik o'qituvchi va mahalliy ingliz tili o'qituvchisining bir sinf doirasida hamkorlikda faoliyat yuritishi grammatika materiallarini chuqur tushunish, speaking kompetensiyasini tabiiy til muhiti orqali rivojlantirish hamda o'quvchilarning xalqaro standartlar darajasida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qilmoqda.

To'rt yillik amaliy tajriba va statistik tahlillar co-teaching metodikasining samaradorligini yaqqol tasdiqladi. Xususan, o'quvchilarning IELTS natijalaridagi barqaror o'sish ushbu yondashuvning nafaqat til kompetensiyasini, balki tahlil qilish, solishtirish va mantiqiy xulosa chiqarish kabi kognitiv-analitik ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ham amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur metodika mahalliy o'qituvchilarning ham professional rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning zamonaviy metodik yondashuvlar va autentik til muhiti bilan ishlash kompetensiyasini oshirdi.

Alohida ta'kidlash joizki, Prezident maktablarida muvaffaqiyatli tatbiq etilgan co-teaching metodikasini umumta'lim maktablari sharoitida ham keng qo'llash imkoniyati mavjud. Xususan, 2024-yil 1-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-55-sonli Farmoni maktablarda fanlarni chet tilida o'qitish amaliyotini joriy etishni nazarda tutadi, jumladan, kamida B2 darajadagi sertifikatga ega o'qituvchilar tomonidan mazkur fanlarni chet tilida o'qitish tartibini belgilaydi va shu orqali pedagogik muhitni kengaytiradi [6].

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida har yili minglab xorijlik mutaxassislar umumta'lim maktablariga jalb etilmoqda, bu esa mahalliy o'qituvchilar bilan birgalikda co-teaching metodikasini samarali amalga oshirish uchun qulay pedagogik imkoniyatni yaratadi. Shu tarzda, hamkorlikda o'qitish metodikasini umumta'lim maktablarida bosqichma-bosqich joriy etish, avvalo, grammatika va speaking kabi murakkab komponentlarda qo'llash, mahalliy o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish hamda xorijiy mutaxassislar bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish, o'quvchilarning kognitiv-analitik fikrlashini rivojlantirish va ularni global ta'lim maydoniga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Friend, M., & Cook, L. (2016). Interactions: Collaboration Skills for School Professionals. Boston: Pearson.
2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Harlow: Pearson Education Limited.
3. Murdoch, K. (2021). Collaborative Teaching for Developing Analytical Skills in EFL Students. English Teaching Journal, 15(1), 23–41.
4. Murdoch, K., & Parnell, M. (2019). Co-Teaching in Foreign Language Classrooms: Strategies and Outcomes. Journal of Language Teaching Research, 10(2), 45–62.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-55-son Farmoni. "Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. (2024-yil, 1-aprel).
6. Prezident maktablari ta'lim bo'limi (2025). O'quvchilar va IELTS natijalari bo'yicha Prezident maktablari ichki statistikasi (2021–2025).
7. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

ADABIYOT TA'LIMIDA AI-PROMPTING:
O'QUVCHILARNING 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Yusufjonova Nazokat Nig'madjon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)
senator_advokat@mail.ru
+998 99 530 15 05

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish, xususan, K-D-M-I (kontekst, didaktik maqsad, metodik cheklov, interfaol integratsiya) modeli asosida promptlar tuzish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda Artur Konan Doyl, Jek London va Anton Chexov asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion topshiriqlar va raqamli loyihalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, sun'iy intellekt, AI-prompting, K-D-M-I modeli, 4K ko'nikmalari, raqamli didaktika, formativ baholash, interfaol ta'lim.*

AI-промптинг в литературном образовании: технология развития навыков 4K у учащихся

Юсуфжанова Назокат Нигмаджоновна,
докторант (DSc) Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
senator_advokat@mail.ru
+998 99 530 15 05

Аннотация: *В данной статье рассматривается методика целенаправленного использования возможностей искусственного интеллекта на уроках литературы в общеобразовательных школах, в частности, создание промптов на основе модели K-D-M-I (контекст, дидактическая цель, методическое ограничение, интерактивная интеграция). В исследовании анализируются инновационные задания и цифровые проекты, направленные на развитие навыков 4K у учащихся в процессе изучения произведений Артура Конан Дойла, Джека Лондона и Антона Чехова.*

Ключевые слова: *литературное образование, искусственный интеллект (ИИ), AI-промптинг, модель K-D-M-I, навыки 4K, цифровая дидактика, формативное оценивание, интерактивное обучение.*

AI prompting in teaching literature: technology for developing students 4C skills

Yusufjonova Nazokat Nigmadjon qizi,
Doctoral student (DSc), Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
senator_advokat@mail.ru
+998 99 530 15 05

Abstract: *This article explores the methodology of the targeted use of artificial intelligence in literature classes at general secondary schools, specifi-*

*cally focusing on prompt constructing method based on the **C-D-M-I (Context, Didactic Goal, Material/ Method, Interactive Integration)** model. The study analyzes innovative tasks and digital projects aimed at developing students 4C skills during the study of works by Arthur Conan Doyle, Jack London, and Anton Chekhov.*

Keywords: *literary education, artificial intelligence, AI prompting, C-D-M-I model, 4C skills, digital didactics, formative assessment, interactive learning.*

Bugun sun'iy intellekt shunchaki quruq ma'lumot qidirish vositasi bo'lishdan to'xtagan, u o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslasha oladigan va o'qituvchi uchun intellektual hamkor rolini bajaradigan murakkab metakognitiv platformaga aylanmoqda. Biroq sun'iy intellektning mavjudligi o'z-o'zidan ta'lim samaradorligini kafolatlamaydi, ular to'g'ri boshqarilgandagina yuqori kognitiv va didaktik qiymatga ega bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda o'quv jarayonining muvaffaqiyati ushbu vositadan maqsadli foydalana olish malakasiga bevosita bog'liqdir.

6-sinf "Adabiyot" darsligiga kiritilgan Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" detektiv hikoyasi epik turga mansub bo'lib, u voqeabandligi, personajlar xarakteridagi ziddiyatlar va eng muhimi mantiqiy-deduktiv mushohadaga qurilganligi bilan ajralib turadi. Bu asar orqali o'quvchilarda XXI asrning eng muhim ko'nikmalari sanalgan 4K (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya)ni rivojlantirish uchun beqiyos imkoniyat mavjud. K-D-M-I formulasini endi oddiy testlar darajasidan olib chiqib, muammoli ta'lim bosqichiga ko'taramiz.

Epik asarlarni, xususan, detektiv janridagi matnlarni sun'iy intellekt vositasida loyihalashning asosiy didaktik maqsadi o'quvchini passiv kitobxondan faol tergovchi-tadqiqotchiga aylantirishdir. Perplexity AI modelida K-D-M-I formulasi asosida yozilgan quyidagi prompt quruq syujet bayonidan qochib, to'g'ridan-to'g'ri o'quvchining mantiqiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini raqamli platformalar orqali rivojlantirishga qaratilgan.

Kontekst: Sen jahon adabiyoti, mantiq ilmiga va raqamli didaktikaga ixtisoslashgan yuqori malakali metodistsan. Sening vazifang Artur Konan Doylning "Mallalar uyushmasi" hikoyasini shunchaki o'qib chiqish emas, balki o'quv jarayonini o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini ishga soladigan interfaol tadqiqot maydoniga aylantirishdir.

Didaktik maqsad: O'quvchilarga Sherlok Xolmsning "ko'rish va mushohada qilish" (deduksiya) o'rtasidagi farq haqidagi falsafasini tushuntirish. Asardagi sabab-oqibat zanjirini (masalan, yordamchining tizzasi nima uchun kir bo'lgani, nega u yarim maoshga ishlagani, nega yer hassada urib ko'rilgani) o'quvchilarning o'zlari kashf qilishiga erishish.

Metodik cheklov: Voqealar syujetini tayyor holda so'zlab berma. Jinoyat va o'g'rilik jarayonini ulug'lama, aksincha, intellekt va aqlidrokning jinoyat ustidan qozongan g'alabasiga urg'u ber. Topshiriqlar 6-sinf o'quvchilariga mos, qiziqarli, o'yinlashtirilgan va mantiqiy boshqotirma shaklida bo'lsin.

Interfaol integratsiya: Men uchun 4 ta zamonaviy ta'lim platformasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, 4K ko'nikmalarining har biri uchun bittadan (jami 4 ta) innovatsion metodik topshiriq ishlab chiq.

Sun'iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan raqamli didaktik mahsulot:

I. Tanqidiy fikrlash (Critical thinking).

Metodik maqsad: o'quvchini Sherlok Xolmsdek fikrlashga o'rgatish.

Topshiriq formati: "Sabab va oqibat zanjiri"ni topish (Wayground.com platformasida mantiqiy viktorina yaratish (1-rasm).

1-savol: Xolms yordamchining tizzasidagi kir va ishqalangan shimni ko‘rib qanday haqiqatni kashf etdi?

A) Uning juda bexafsala va tartibsiz yigit ekanligini

B) (To‘g‘ri javob) Yigitning yerto‘lada uzoq vaqt tiz cho‘kib yer qaziyotganini

C) Yordamchi bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib, doimiy ravishda gul ekayotganini

D) Eski va chang yerto‘lani tozalab, tartibga keltirayotganini.

2-savol: Xolms nima uchun ko‘cha toshlarini hassasi bilan urib ko‘rdi?

A) Asablarini tinchlantirish uchun

B) (To‘g‘ri javob) Yer ostida bo‘shliq (lahim) bor yoki yo‘qligini ovozidan aniqlash uchun

C) Sifatini tekshirish uchun

D) Jinoyatchilar qochish paytida tasodifan tushirib qoldirgan ashyoviy dalilni qidirish uchun.

1-rasm. Wayground.com platformasida viktorina



2-rasm. Miro.com onlayn doskasida dalillarni vizuallashtirish

II. Kollaboratsiya (Collaboration).

Metodik maqsad: Jamoaviy aqliy hujum orqali dalillarni to'plash.

Topshiriq formati: "Tergovchilar doskasi"ni yaratish. Miro interfaol doskasida dalillar asosida xarita tuzish (2-rasm).

O'quvchilar 4-6 kishilik guruhlarga ajratiladi. Miro elektron doskasida asardagi tushunarsiz, shubhali tuyulgan voqealar, dalillar yozib chiqiladi. Guruh a'zolari bu dalillarni qizil chiziqlar orqali jinoyatchining asl maqsadiga qanday bog'lanishini chizib ko'rsatishlari kerak.

1-dalil: Vinsent Spoldingning yarim maoshga ishlashi.

2-dalil: "Mallalar uyushmasi"ning tashkil qilinishi.

3-dalil: Yordamchining tez-tez surat chiqarish baxonasi bilan yerto'laga tushishi.

Natija (guruh xulosasi): Bularning barchasi xo'jayinni uydan uzoqlashtirib, bankka tomon yer ostidan yo'l qazish uchun qilingan hiyla edi!

III. Kreativlik (Creative thinking).

Metodik maqsad: Matnga ijodiy yondashish va badiiy fantaziyani o'stirish.

Topshiriq formati: "Ertalabki xronika" gazetasi muxbiri rolini bajarish. Padlet platformasida rasmli maqola tayyorlash (3-rasm).

O'quvchilar Padlet elektron doskasiga kirib, o'zlarini XIX asr oxiridagi London gazetasining jurnalistidek his qilishadi va bankdagi o'g'rilikning fosh etilishi va Sherlok Xolmsning dahosi haqida shov-shuvli maqola yoki e'lon yozadilar.

IV. Kommunikatsiya (Communication).

Metodik maqsad: Notiqlik, o'z fikrini dalillash va ommaga taqdim etish ko'nikmasini rivojlantirish.

Topshiriq formati: "Bir daqiqalik deduksiya" tayyorlash (Flipgrid platformasida video yaratish).

O'quvchilar asardagi biror qahramon (masalan, Uotson yoki bank direktori Merriuezer) nomidan qisqa video yozishadi. Videoda ular: *"Men bugun hayotimdagi eng g'aroyib odam – Xolms bilan yerto'lada yashirinib o'tirdim. Uning fikrlashiga qoyil qoldim, chunki..."* deya Xolmsning qaysi xulosasi ularni ko'proq hayratda qoldirganini og'zaki tarzda hissiyot bilan gapirib berishlari kerak.

Ushbu modeldan ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt syujetni shunchaki mexanik ravishda tahlil qilmadi, balki uni o'quvchi qalbini o'ziga tortuvchi didaktik jarayonga aylantirdi. Topshiriqlar ichida "Asar qachon yozilgan?" yoki

3-rasm. Padlet.com platformasida yaratilgan onlayn gazeta e'loni

“Bosh qahramonning ismini toping” degan an’anaviy va o‘quvchini o‘ylashdan to‘xtatadigan savollar umuman yo‘q. O‘quvchi endi asarni eslab qolish uchun emas, uning sirlarini ochish (Wayground), do‘stlari bilan birgalikda tergov olib borish (Miro), unga ijodiy yondashish (Padlet) va muloqot qilish (Flip) uchun o‘qiydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi.

Raqamli ta’limda keskin bahslarga sabab bo‘layotgan muammolardan biri – bu an’anaviy uy vazifalarining o‘z pedagogik funksiyasini yo‘qotib borayotganidir. Tadqiqotlar umumta’lim maktablarida o‘quvchilar tomonidan uy vazifalarini mustaqil bajarish ko‘rsatkichi yildan yilga keskin pasayib borayotganini ko‘rsatmoqda [9,161]. Buning asosiy sababi faqat o‘quvchilarning masuliyatsizligi emas, balki generativ sun’iy intellekt vositalarining ommalashuvidir. Adabiy ta’limda yillar davomida berib kelingan “Asar qahramoniga ta’rif yozing”, “Hikoya bo‘yicha reja tuzing”, “She’rning g‘oyasini tushuntiring”, “Insho yozing” kabi uy vazifalarini bugungi kunda ChatGPT, Claude AI kabi neyrotarmoqlar soniyalarda, yuqori akademik darajada bajarishi hech kimga sir emas. Natijada o‘quvchi matn ustida ishlash, fikrlash o‘rniga tayyor raqamli mahsulotni o‘zlashtirmoqda. YUNESKO xulosalariga ko‘ra, sun’iy intellektning ta’limga nazoratsiz kirib kelishi o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi [6, 35].

AQSh va Yevropa ta’limining turli sohalarida o‘tkazilgan so‘nggi sotsiologik so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘quvchilarining 70% dan ortig‘i gumanitar fanlardan berilgan yozma uy vazifalarini neyrotarmoqlar yordamida generatsiya qilmoqda [2, 1028]. O‘qituvchi esa o‘quvchining haqiqiy bilim darajasini emas, balki sun’iy intellektning matn yaratish qobiliyatini baholashga majbur bo‘lmoqda. Bu dars jarayonida raqamli illuziyani keltirib chiqarib, formativ baholash tizimini izdan chiqaradi. Kelgusida bu jarayon to‘g‘ri metodik yondashuv asosida tashkil qilinmasa, uy vazifalar butunlay o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkinligi haqidagi xavotirlar ham yo‘q emas [3,7].

Yagona metodik yechim uyda bajarish uchun beriladigan topshiriqlarni mutlaqo boshqa shakllarda berish, sun’iy intellektni o‘quvchining o‘rniga vazifani bajaruvchi yashirin muallif emas, balki uning ijodiy g‘oyalarini ro‘yobga chiqaruvchi hamkori vositasiga aylantirishdir. Xo‘sh, o‘qituvchi ana shunday uy vazifalarini berishda qanday promptlardan foydalanishi mumkin, degan savol tug‘iladi.

O‘qituvchi to‘g‘ri prompt orqali tizimga shunday vazifalar tuzishni buyurishi kerakki, uning tayyor javobini internetdan topib bo‘lmasin. Keling, buni 9-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan Jek Londonning inson irodasi, hayot uchun kurash va ruhiy matonat tarannum etilgan “Hayotga muhabbat” asari misolida ko‘rib chiqamiz. Asarni 15-16 yoshdagi 9-sinf o‘quvchilariga an’anaviy savol-javob usulida o‘tish ularning psixologik imkoniyatlariga nisbatan adolatsizlik bo‘lishi tayin. Biz bu asar orqali ularga ekstremal vaziyatlarda omon qolish va shu bilan birgalikda insoniylikni saqlashni singdirish uchun sun’iy intellektni shunchaki matn tahlilchisi emas, balki ekstremal psixolog-trener va kvest loyihachi roliga kiritamiz.

O‘qituvchi tomonidan Cloud AI tizimiga kiritiladigan K-D-M-I formulasidagi prompt:

Kontekst: Sen ekstremal psixologiya bo‘yicha mutaxassis, 15-16 yoshli o‘smirlar bilan ishlash bo‘yicha tajribali kvest ustasi va metodistsan. Vazifang Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasini oddiy o‘qish materialidan o‘quvchining shaxsiy tajribasiga aylantirishdir.

Didaktik maqsad: O‘quvchilarga hayotning qadri, iroda, tushkunlikni yengish va boylik va hayot falsafasini amaliy tarzda tushuntirish. Ular qahramonning nima uchun tirik

qolganligini nazariy emas, vaziyatlar ichiga kirib analiz va sintez qilish orqali anglashlari kerak.

Metodik cheklov: O'quvchilarga "Bosh qahramon nimalarni yedi?", "Bill nima qildi?" quruq yozma savollar berma. Topshiriqlar inson ruhiyatini sinovchi, qiziqarli va kelajak hayotida asqatadigan shaklda bo'lsin. Vazifada o'lim, qon kabi detallarni emas, yashashga bo'lgan intilishni ulug'la.

Interfaol integratsiya: Quyidagi 3 ta zamonaviy yondashuv asosida "Omon qolish kvesti" uy vazifasi loyihasini ishlab chiq.

Endi shu prompt asosida Cloud AI generatsiya qilgan uy vazifalarini tahlil qilamiz. "9-sinf o'quvchilari uchun uy vazifasi:

O'qituvchi: *Diqqat! Bugungi uy vazifasi daftar va ruchka bilan emas, iroda va aql bilan bajariladi. Siz poyonsiz Kanada sahrosida yolg'iz qoldingiz. Jek Londonning qahramoni bosib o'tgan yo'lni endi siz xayolingizda bosib o'tasiz. Quyidagi 3 bosqichli kvestdan muvaffaqiyatli o'tsangizgina, "Najot kemasi"ga yetib borasiz!*

1-bosqich: "Hayot ryukzagi" reytingi.

Vaziyat: *Sizda Billnikiga o'xshagan bitta xalta bor. Uning ichiga juda ko'p narsa sig'maydi. Hikoya voqealaridan, qahramonning xatolaridan xulosa chiqargan holda, sahroda omon qolish uchun eng kerak bo'lgan 5 ta narsani muhimlik darajasiga ko'ra 1dan 5 gacha tartiblang.*

Topshiriq: *gugurt, miltiq o'qi, oltin to'la hamyon, qalin odeyal, xarita, pichoq, suv paqirchasi. Shulardan 5 tasini tanlang. Nima uchun oltinni reytingdan chiqarib tashlaganingizni yoki nima uchun qoldirganingizni bitta kuchli argument bilan asoslang.*

2-bosqich. "Omon qolgan odam" kundaligi.

Vaziyat: Qahramon chalqancha yotib, bo'rini poylagan eng og'ir tun. Uning ko'z oldida kemaga yetishish umidi turibdi.

Topshiriq: Telefoningizning diktofonini yoqing. Qahramon nomidan 1 daqiqalik "Omon qolish siri" nomli audio-podkast yozing. Unda qahramon nima uchun taslim bo'lmaganini aytsin.

Ssenariy uchun g'oya. Xirillagan, horg'in, lekin qat'iy ovozda yoziladi: *"Mana 5 kundirki o'rmalab kelyapman... Oltinni ham, miltiqni ham tashladim. Orqamdan kasal bo'ri ergashib yuribdi. U mendan avval o'lishimni kutyapti. Lekin men taslim bo'lmayman! Nima uchun bilasizmi? Chunki Bill shunday qildi, u insoniyligini yo'qotdi, men esa Bill emasman. Bu bo'ri meni yengolmaydi, chunki menda hayvonlarda yo'q narsa – yashash niyati, insoniy iroda bor! Kema ko'rinyapti..."* (Audioni sinfning Telegram guruhiga yuboring).

3-bosqich. "Qotgan non sindromi" tahlili.

Vaziyat: Qahramon qutqarilib, kemaga olingach, juda ko'p ovqat yedi, lekin shunda ham yostiq va karavot tagiga yashirincha qotgan non to'play boshladi. Odamlar kulishdi, ammo olimlar indamadilar.

Topshiriq: Tasavvur qiling, siz kema psixologisiz. O'sha qahramonga maktub yozing. Uning bu qilig'i ustidan kulmang, balki uning holatini tushunganingizni va endi xavfsiz joyda ekanligini, qanday qilib bu ochlik qo'rquvidan qutulish mumkinligini yosh psixolog sifatida maslahat berib yozing. Maktub 5-6 ta gapdan iborat bo'lsin.

Yuqoridagi prompt asosida uy vazifasini modellashtirish orqali biz an'anaviy uy vazifasini hayotiy tayyorgarlik (Life skills) darsiga aylantirdik. Uning metodologik yutug'i shundaki o'quvchi asarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, balki ekstremal vaziyatlarda kerak bo'ladigan eng zarur narsalarni ajratadi va bu yuqori darajadagi analitik qobiliyatni talab qiladi. Audio-podkast yaratish topshirig'i o'quvchini iroda va matonat nima ekanini o'z ovozi orqali ifodalashga majbur qiladi. Bu orqali qahramon jasorati o'quvchining ruhiyatiga singadi. Shuningdek, 9-sinf o'quvchisida

boshqalar dardini tushunish, ularning holatini his qilish, inson psixikasi qanday ishlashi va vaziyatlarning asl sabablarini anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Eng muhimi bunday topshiriqni internetdan ko‘chirib bo‘lmaydi. Chunki audio-podkastni o‘quvchining o‘zi yozishi, ryukzakdagi narsalarni o‘zining shaxsiy mantiqi asosida himoya qilishi kerak. Bu yondashuv adabiyot darslarini shaxsning intelektual, emotsional va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi amaliy maydonga aylantiradi.

Berilgan topshiriqlarni baholash pedagogikaning murakkab muammolaridan biri bo‘lib kelgan. An’anaviy baholash tizimi ko‘pincha o‘quvchining asar syujetini qanchalik eslab qolgani bilan o‘lchaydi, lekin uning qalbida kechgan tuyg‘ular, tanqidiy mushohada va badiiy didini tarozuga tortadigan mezon yo‘q. To‘g‘ri shakllantirilgan AI-prompting o‘qituvchiga baholash jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Buni umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan A.P. Chexovning “Xameleon” hikoyasi misolida o‘rgansak.

O‘qituvchi sun’iy intellektga aniq didaktik maqsadga yo‘naltirilgan prompt berish orqali o‘quvchining kognitiv, emotsional va kreativ darajasini o‘lchovchi formativ baholash mezonlarini yarata oladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan generativ tizimga quyidagi prompt kiritiladi:

Kontekst: *Sen ta’limda formativ baholash, kognitiv psixologiya va geymifikatsiya bo‘yicha xalqaro darajadagi ekspertsan. Vazifang 7-sinf o‘quvchilarining A.P. Chexovning “Xameleon” hikoyasi yuzasidan bajargan ijodiy loyihalari (video, komiks yoki mantiqiy tahlil) uchun innovatsion baholash tizimini ishlab chiqish.*

Didaktik maqsad: *Baho o‘quvchini jazolamasligi, hozirgi holatini ta’kidlamasligi, balki uning o‘sish nuqtalarini ko‘rsatib berishi kerak. O‘quvchining asardagi satira va xameleonlik illatini qay darajada anglaganligi, kreativ yondashuvi va fikrni yetkazib berishini o‘lchovchi aniq mezonlarni yarat.*

Metodik cheklov: *Standart 2, 3, 4, 5 baholardan umuman foydalanma. Uning o‘rniga o‘quvchining erishgan darajasini belgilovchi qiziqarli nomlar va aniq baholash mezonini (check-list) tuz. Shuningdek, xatolarni ko‘rsatganda “yomon”, “qoniqarsiz” degan so‘zlarni ishlatma, rivojlanish uchun tavsiya shaklidagi ijobiy fikr-mulohazalar ber.*

Interfaol integratsiya: *ikkita raqamli baholash vositasini ishlab chiq.*

Endi sun’iy intellekt tomonidan tavsiya qilingan baholash mezonlari bilan tanishamiz.

Yuqorida keltirilgan baholash modeli ada-

1-jadval

“Xameleon” hikoyasi bo‘yicha o‘quvchilarning loyiha ishlarini baholash mezonlari

Baholash mezonlari	“Kuzatuvchi” darajasi	“Tahlilchi” darajasi	“Kreativ ijodkor” darajasi
1-mezon: Badiiy mohiyatni anglash	Voqeani to‘g‘ri bayon qilgan, lekin qahramonning xameleonligini faqat ob-havo bilan bog‘lagan, satiraning yashirin ma’nosi ochilmagan.	O‘quvchi qahramonning xameleonligini, ya’ni mansabdorlar oldida tilyog‘lamalik va xushomadgo‘ylik qilishini to‘g‘ri tushungan va tushuntirib bera olgan.	O‘quvchi hikoyadagi illatni nafaqat to‘g‘ri tushungan, balki uni bugungi kundagi real hayotiy misollar bilan mantiqan bog‘lab, mustaqil va teran xulosa chiqara olgan.

2-mezon: Ijro va kreativlik	Loyiha (komiks yoki video) oddiy va shoshilinchda tayyorlangan. Qahramonning ichki kechinmalari va hissiyotlari to'liq ochib berilmagan.	Vazifa qiziqarli yondashuv bilan bajarilgan. Komiksda rasmlar o'zaro mantiqiy bog'langan yoki videoda o'quvchining aktyorlik mahorati yaxshi ko'rsatilgan.	Kutilmagan va o'ta original yondashuv. O'quvchi kadrlar, yuz ifodalari, yozuvlar va ovoz effektlaridan Chexov yumorini kuchaytirish uchun mukammal foydalangan.
3-mezon: Kommunikatsiya va dalillash	O'zi yaratgan loyihasi haqida juda qisqa gapirgan. "Nima uchun aynan shunday qilding?" degan mantiqiy savolga qiynalib javob bergan.	O'z fikrlarini aniq va ravon tushuntirgan. Nima sababdan aynan shu kadrlarni yoxud so'zlarni tanlaganini ilmiy-badiiy asoslab bera olgan.	Nutqi mutlaqo ravon, adabiy tildan erkin foydalangan holda o'z xulosalariga ishontira olgan va muhokamalardagi barcha savollarga to'liq javob bergan.

biy ta'limni raqamlashtirish faqatgina elektron darsliklar yaratish emas, balki o'qituvchining faoliyatini osonlashtirish va yanada samarali tashkil etish ekanligini ko'rsatadi. Sun'iy intellekt taqdim etgan tayyor mezonlar asosida baholashda o'quvchi o'zining mustaqil fikri, badiiy idroki va kreativligi qadrlanayotganini his etadi. Zamonaviy adabiy ta'lim o'quvchining yozma va og'zaki nutqini, badiiy so'z qudratini his etishini, 4K ko'nikmalarini hamda darsdagi ijtimoiy-emotsional xulq-atvorini yaxlitlikda baholashni talab etadi. Ushbu murakkab pedagogik vazifani avtomatlashtirish va uning ilmiy mezonlarini yaratish maqsadida Gemini AI tizimiga quyidagi K-D-M-I konstruksiyasiga asoslangan maxsus so'rov kiritildi:

Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, generativ modellar imkoniyatlarini ta'limiy maqsadlarga to'laqonli bo'ysundiruvchi yagona ilmiy-metodik mexanizm – bu to'g'ri prompt yozishdir. Biz ishlab chiqqan K-D-M-I (kontekst, didaktik maqsad, metodik cheklov, interfaol integratsiya) modeli sun'iy intellektning cheksiz va ba'zan xatarli axborot oqimini maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alkaissi H. Artificial Hallucinations in ChatGPT: Implications in Scientific Writing/ H. Alkaissi, S.I. McFarlane // Cureus. – 2023. – Vol. 15, № 2. – e35179.

2. Crompton H. AI and English language teaching: Affordance and challenges/ H. Crompton, A. Edmett, N. Ichaporia, D. Burke // Journal of Educational Computing Research. – 2024. – Vol. 61, № 5. – P. 1008-1035.

3. Ekin S. Prompt engineering for ChatGPT: A quick guide to techniques, tips, and best practices/ S. Ekin // TechRxiv. – 2023. – P. 1-12.

4. Gallup, Walton Family Foundation. Teaching for Tomorrow: Unlocking Six Weeks a Year With AI/ Gallup, Walton Family Foundation // Gallup News. – 2025. – URL: https://news.gallup.com/poll/691967/three-teachers-weekly-saving-six-weeks-year.aspx

5. Holmes W. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning/ W. Holmes, M. Bialik, C. Fadel. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 256 p.

6. Ji Z. Survey of Hallucination in Natural Language Generation / Z. Ji // ACM Computing Surveys. – 2023. – Vol. 55, № 12. – P. 1-38.

7. Lo C.K. What is the impact of ChatGPT on education? A rapid review of the literature / C.K. Lo // Education Sciences. – 2023. – Vol. 13, № 4. – P. 410.

8. Mollick E.R. Using AI to implement effective teaching strategies in classrooms: Five strategies, including prompts/ E.R. Mollick, L. Mollick // Social Science Research Network (SSRN). – 2023. – P. 1-21.

9. Sharples M. Towards social generative AI for education: theory, practices and ethics / M. Sharples // Learning: Research and Practice. – 2023. – Vol. 9, № 2. – P. 159-167.

10. White J. A prompt pattern catalog to enhance prompt engineering with ChatGPT/ J. White, Q. Fu, S. Hays // arXiv preprint arXiv:2302.11382. – 2023. – P. 1-15.

KATTALAR TA'LIMIDA
INNOVATSION VA INTERAKTIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Nurmetova Muhayyo Matlatibovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Kattalar ta'limi magistranti
muhayyonurmetova950@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kattalar ta'limi (andragogika) jarayonida innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. XXI asrda globallashuv va axborotlashuv sharoitida uzluksiz ta'limning ahamiyati, xorijiy (AQSh, Germaniya, Yevropa Ittifoqi) tajribalar va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadi kattalar o'qishining andragogik xususiyatlari bilan mos pedagogik yechimlarni asoslashdir. Ushbu maqolada kattalarni o'qitishda an'anaviy pedagogikadan farqli o'laroq, andragogik yondashuvlarning zarurati, raqamli ta'lim platformalari va interfaol metodlarning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *kattalar ta'limi, andragogika, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, uzluksiz ta'lim, xalqaro tajriba, raqamli transformatsiya, umrbod ta'lim (lifelong learning).*

Научные и теоретические основы инновационных и интерактивных педагогических технологий в образовании взрослых

Нурметова Мухайё Матлатибовна,
Национальный институт педагогических навыков имени А.Авлони, магистрантка по специальности "Образование взрослых"

Аннотация: *В данной статье изучаются научные и теоретические основы использования инновационных и интерактивных педагогических технологий в процессе обучения взрослых (андрагогии). Проводится сравнительный анализ важности непрерывного образования в контексте глобализации и информатизации XXI века, зарубежного (США, Германия, Европейский Союз) опыта и современных тенденций развития. Цель исследования – обоснование педагогических решений, соответствующих андрагогическим особенностям обучения взрослых. В статье научно обосновывается необходимость андрагогических подходов в обучении взрослых, в отличие от традиционной педагогики, эффективность цифровых образовательных платформ и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *образование взрослых, андрагогика, инновационные технологии, интерактивные методы, непрерывное образование, международный опыт, цифровая трансформация, обучение на протяжении всей жизни.*

Scientific and theoretical foundations of innovative and interactive pedagogical technologies in adult education

Nurmetova Muhayyo Matlatibovna,
Master's student in Adult Education National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *This article studies the scientific and theoretical foundations of using innovative and interactive pedagogical technologies in the process of adult education (andragogy). It analyzes the importance of continuous education in the context of globalization and informatization in the 21st century, as well as foreign (USA, Germany, European Union) experiences and modern development trends in a comparative manner. The purpose of the research is to substantiate pedagogical solutions that are consistent with the andragogical characteristics of adult education. The article scientifically substantiates the need for andragogical approaches in adult education, as opposed to traditional pedagogy, the effectiveness of digital educational platforms and interactive methods.*

Keywords: *adult education, andragogy, innovative technologies, interactive methods, continuous education, international experience, digital transformation, lifelong learning.*

XXI asrning o‘ziga xos xususiyati bilimlarning tez o‘sishi, yangilanishi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy-texnikaviy inqilob va globallashuv jarayonlari mutaxassislarning bilimi va malakasining tez eskirishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining olgan bilimlari 5-6 yil ichida yarmiga, ba’zan esa 97% gacha eskiradi [1]. Bu holat insoniyat oldiga “umrbod ta’lim olish” (lifelong learning) ehtiyojini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Shu munosabat bilan dunyoda kattalar ta’limiga (andragogika) bo‘lgan ehtiyoj keskin o‘sa boshladi.

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubhasiz, innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalardir. An’anaviy pedagogik yondashuvlar endilikda katta yoshli o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga tayyorlashda yetarli emas. Andragogika – kattalar ta’limi sohasi sifatida ta’limni tashkil etish amaliyotini o‘rganadi va uning samaradorligi ta’limning ehtiyojiga aylanishiga asoslanadi [2]. Katta yoshdagi insonlar o‘ziga xos hayotiy tajribaga, aniq maqsadlarga va o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatiga ega bo‘lganliklari sababli, ularni o‘qitishda interfaol metodlar, elektron ta’lim vositalari, integratsiyalashgan yondashuvlar va zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish talab etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi kattalar ta’limida innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, xalqaro tajribalarni (AQSh, Yevropa) tahlil qilish va O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha zamonaviy tendensiyalarni ochib berishdan iborat.

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik, obyektivlik va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida xorijiy olimlardan M.Sh.Noulz (M. Knowles), A.Kapp, E.Torndayk (E.Thorndike), J.Dyui (J.Dewey) kabi olimlarning andragogika va pragmatik ta’lim bo‘yicha ilmiy izlanishlari olindi [3]. Xususan, Malkolm Noulzning “Kattalar ta’limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika pedagogikaga qarshi” nomli fundamental asaridagi tamoyillar tahlil qilindi.

Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish maqsadida AQSh, Germaniya va Yevropa Ittifoqi davlatlarining ta’lim modellari, xususan, Yevropa Katta yoshdagilar ta’limi assotsiatsiyasi (EAEA) va DVV International (Nemis xalq universitetlari assotsiatsiyasi) tashkilotlarining hisobotlari va loyihalari o‘rganildi [4]. Zamonaviy tendensiyalarni aniqlashda YUNESKOning “Ta’lim bo‘ yicha global monitoring hisoboti” (GEM report) va raqamli ta’lim platformalari (Coursera, Udemy)

faoliyati statistik va analitik jihatdan ko'rib chiqildi.

"Andragogika" atamasi birinchi marta 1833-yilda nemis olimi Aleksandr Kapp tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, u kattalarni o'qitish amaliyotidagi ilk g'oya sifatida o'rganilgan. XX asrga kelib, amerikalik olim E.Torndaykning "Kattalarni o'qitish psixologiyasi" asari bu sohaning ilmiy poydevorini mustahkamladi [5]. Biroq, andragogikani mustaqil fan va ta'lim modeli sifatida shakllantirgan olim Malkolm Noulz hisoblanadi. U katta yoshdagi insonlarning o'ziga xos xususiyatlarini 6 ta asosiy tamoyilga ajratadi:

1. **Bilish ehtiyoji (Need to know):** Kattalar nimani o'rganishlari kerakligini va bu bilim ularga amaliyotda qanday foyda keltirishini bilishni xohlaydilar.

2. **O'z-o'zini boshqarish (Self-concept):** Kattalar mustaqil qaror qabul qilishga va o'z ta'lim jarayonini o'zlari boshqarishga intiladilar.

3. **Hayotiy tajriba (Experience):** Kattalar boy hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lib, bu ta'lim jarayonida asosiy resurs bo'lib xizmat qiladi.

4. **O'qishga tayyorgarlik (Readiness to learn):** Ularning o'qishga tayyorgarligi ijtimoiy rollari va kasbiy vazifalarini bajarish zarurati bilan bog'liq.

5. **O'quv yo'nalishi (Orientation to learning):** Kattalar ta'limi fanga emas, balki muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi.

6. **Motivatsiya (Motivation):** Tashqi omillardan ko'ra (maosh, lavozim), ichki motivatsiya (o'z- o'zini hurmat qilish, hayot sifatini yaxshilash) kuchliroq rol o'ynaydi [6].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ilg'or g'oyalarga, zamonaviy ilmiy yondashuvlarga asoslangan, o'quvchilarda faollik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish usulidir [7]. Kattalar ta'limida quyidagi texnologiyalar eng yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda:

Interfaol o'qitish metodlari: "Aqliy hujum" (Brainstorming), keys-stadi (Case-study), rolli o'yinlar va guruhlarda ishlash. Bu metodlar kattalarning tajribasini o'rtoqlashishiga va muammolarni jamoaviy hal qilishiga imkon beradi. DVV International tashkilotining O'zbekistondagi filiali tomonidan o'tkazilgan "Kattalar ta'limida interaktiv metodlar" seminarlarida ham aynan shu metodlarning andragogik ahamiyati ta'kidlangan [8].

Modulli ta'lim texnologiyasi: Ta'lim mazmunini mustaqil o'zlashtirishga qulay bo'linmalarga (modullarga) ajratadi. Katta yoshli insonlar ish va oila bilan band bo'lganliklari sababli, qisqa muddatli, aniq maqsadga yo'naltirilgan modulli kurslar ular uchun eng maqbul variant hisoblanadi.

Raqamli va masofaviy ta'lim texnologiyalari: Raqamli texnologiyalar (LMS tizimlari, MOOC platformalari) ta'limni makon va zamonga bog'liqlikdan xalos etdi. Coursera, edX kabi platformalar orqali kattalar o'zlariga qulay vaqtda global ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar [9].

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) tajribasi: AQSh ta'lim tizimining o'ziga xosligi uning pragmatikligidadir. Ular nazariy bilimga emas, balki amaliy bilimga ko'proq e'tibor berishadi. AQShda kattalar ta'limi uzluksiz ta'lim (Continuing Education) doirasida universitetlar qoshidagi maxsus markazlar, korporativ universitetlar va jamoat kollejlari (Community colleges) orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, AQShda inklyuziv ta'lim siyosati kuchli rivojlangan bo'lib, barcha qatlamlar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham ta'lim olish imkoniyatlari texnologiyalar yordamida kengaytirilgan [10].

Yevropa va Germaniya tajribasi: Yevropada ta'lim boshqaruvi xilma-xil modellarga ega bo'lib, "Umrbod ta'lim" (Lifelong learning) konsepsiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Germaniya modeli ko'p darajali ta'lim, kasbiy tayyorgarlik (dual ta'lim tizimi) va sifatga urg'u berishi bilan ajralib turadi. Germaniyada xalq universitetlari (Volkshochschule) tarmog'i mavjud bo'lib, ular kattalarga til o'rganishdan tortib, raqamli savodxonlikkacha bo'lgan keng ko'lamli kurslarni taklif etadi [11]. Erasmus + dasturi esa Yevropa Ittifoqi doirasida kattalar ta'limi bo'yicha tajriba almashish va innovatsiyalarni joriy etishni moliyalashtiradi.

Zamonaviy tendensiyalar: YUNESKO-ning Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyalarida ta'kidlanganidek, bugungi kunda ta'lim jarayonlariga sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar (Big Data) kirib kelmoqda. Bu esa kattalar ta'limida shaxsiylashtirilgan (personalized) o'quv traektoriyalarini yaratish imkonini bermoqda. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida kiber-sotsializatsiya va raqamli savodxonlikni oshirish global tendensiyaga aylandi [12].

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kattalar ta'limida innovatsion va interaktiv texnologiyalarni qo'llash shunchaki o'qitish vositalarini o'zgartirish emas, balki butunlay yangi pedagogik (aniqrog'i, andragogik) madaniyatni shakllantirishni talab qiladi. An'anaviy pedagogikada o'qituvchi bilim manbai va boshqaruvchi bo'lsa, andragogikada o'qituvchi (moderator, fasilitator, tyutor) ta'lim oluvchining mustaqil izlanishiga yordam beruvchi hamkorga aylanadi.

O'zbekiston sharoitida kattalar ta'limi tizimini (malaka oshirish, qayta tayyorlash, kasb-hunarga o'qitish) rivojlantirishda bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. G.Bekmuradovaning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, ba'zi hollarda malaka oshirish kurslarida hamon an'anaviy, ma'ruzaga asoslangan (pedagogik) yondashuv saqlanib qolmoqda, bu esa katta yoshli tinglovchilarning ehtiyojlarini to'la qondirmaydi [13]. Kattalar ta'limida demokratik va insonparvarlik munosabatlarining yetishmasligi, o'qituvchining diktatorligi ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun xalqaro tajribaga tayangan holda quyidagilarni amalga oshirish zarur: Birinchidan, malaka oshirish tizimida ishlaydigan professor-o'qituvchilarning o'zlarini andragogika tamoyillari va interaktiv metodlar bo'yicha o'qitish (masalan, DVV International tajribasi asosida). Ikkinchidan, o'quv dasturlarini nazariyadan ko'ra amaliyotga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga (Problem-based learning) yo'naltirish. Uchinchidan, raqamli ta'lim platformalarini keng joriy etish orqali ishdan ajralmagan holda (on-the-job training) ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuningdek, global ta'lim (Global Education) tendensiyalariga mos ravishda, kattalar ta'limida nafaqat kasbiy ko'nikmalarni (hard skills), balki yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) – tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, kattalar ta'limida innovatsion va interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi va uzluksiz ta'lim tizimi samaradorligining asosiy kafolatidir. Andragogika nazariyasi shuni isbotlaydiki, katta yoshdagi insonlar passiv tinglovchi bo'la olmaydi; ular o'z ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi va ijodkori bo'lishlari kerak.

Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlili asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

• Kattalar ta'limi dasturlari M. Noulzning andragogik tamoyillari asosida, tinglovchilarning hayotiy tajribasi va amaliy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi shart.

• Interaktiv metodlar (keys-stadi, loyihaviy ta'lim) va modulli yondashuv kattalar ta'limida eng yuqori natija beruvchi texnologiyalar hisoblanadi.

• AQSh va Yevropa (Germaniya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat, xususiy sektor va jamoat tashkilotlarining hamkorligi (masalan, dual ta'lim, xalq universitetlari) umrbod ta'lim tizimini rivojlantirishning eng maqbul yo'lidir.

• Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari kattalar ta'limini individuallashtirish va ommalashtirish uchun mislsiz imkoniyatlar yaratmoqda.

Kelgusida O'zbekistonda kattalar ta'limi tizimini modernizatsiya qilishda andragogik kompetensiyaga ega kadrlarni tayyorlash, korporativ ta'limni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqamli ta'lim muhitini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmuradova G.M. (2022). Kattalar ta'limi tizimini rivojlantirish muammolari va tendensiyalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 5-10.

2. Nimatova M.S., Beshimova M. (2023). Kattalar ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari. *Science and Research*, Toshkent amaliy fanlar universiteti.

3. Fayzullayev R. (2023). Kattalar ta'limi va andragogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tarixi. O'quv-uslubiy majmua. TIQXMMI.

4. Namangan davlat universiteti. (2024). *Andragogika*.O'quv qo'llanma. Namangan.

5. Boymirzayeva Sh.O. (2025). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. *Q o'qon universiteti ilmiy jurnali*.

6. Knowles, M. S. (1980). *The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy*. Cambridge Adult Education.

7. Odilova N., Nurmatova M. (2022). Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*.

8. DVV International Uzbekistan. (2023). "Kattalar ta'limida interaktiv metodlar" mavzusida seminar-trening materiallari. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi.

9. Sobirovna S.Y. (2025). Raqamli ta'lim platformalarining ahamiyati va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari. *INCOP*.

10. Gulyamova N.G. (2024). Ta'limda boshqaruvning Yevropa tajribasining ilmiy-nazariy asoslari. *Cyberleninka*.

11. YUNESKO. (2022). Sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiya. SHS/BIO/PI/2021/1.

12. Rustamovich H.A. (2026). Andragogik yondashuv asosida mediakompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Cyberleninka*.

13. Norboyeva A. (2022). Kattalarni o'qitishning zamonaviy metodlari. *Ilmiy maqolalar to'plami.*

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA
MATN USTIDA ISHLASHGA QO‘YILADIGAN METODIK TALABLAR

Nuradilova Aselxan Dilshodxo‘ja qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi v.b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
Jumayeva Feruza Avlonazar qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi (Boshlang‘ich ta’lim) 1-bosqich magistranti, feruzaj34@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish mashg‘ulotlarida matn bilan ishlashga oid metodik yondashuvlar ilmiy hamda nazariy asosda yoritiladi. Unda matnni saralash mezonlari, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari, shuningdek, zamonaviy interfaol usullarning dars samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri tegishli manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, matn ustida ishlash bosqichlarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, matnni tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari hamda uning natijadorlik ko‘rsatkichlari ham yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn, ona tili, o‘qish savodxonligi, metodik talab, nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, 4K modeli, PIRLS.*

Методические требования к текстам на уроках радного языка в начальной школе

Нурадилова Аселхан Дилшодхужа кызы,
и.о. доцента кафедры “Теория и методика начального образования” государственного педагогического университета имени Низами, PhD по педагогическим наукам.
Жумаева Феруза Авлоназар кызы,
магистрант 1 курса направления “Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)” государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация: *В данной статье на научно-теоретической основе освещаются методические подходы к работе с текстом на уроках родного языка и чтения в начальных классах. В ней проанализированы критерии отбора текстов, этапы развития речевой компетентности учащихся, а также влияние современных интерактивных методов на эффективность урока на основе соответствующих источников. Также раскрываются значение этапов работы над текстом в образовательном процессе, современные подходы к анализу текста и показатели его результативности.*

Ключевые слова: *текст, родной язык, читательская грамотность, методические требования, речевая компетенция, интерактивные методы, модель 4К, PIRLS.*

Methodological requirements for texts in primary school native language lessons

Nuradilova Aselxan Dilshodxo‘ja qizi,
Acting Associate Professor of the Department of Theory and Methodology of Primary Education,

Nizami State Pedagogical University, PhD in Pedagogical Sciences.
Jumayeva Feruza Avlonazar qizi,
First-year Master's student in the field of Theory and Methodology of Teaching and Upbringing (Primary Education), Nizami State Pedagogical University.

Abstract: *This article explores the methodological approaches to working with texts in primary school mother tongue and reading lessons on a scientific and theoretical basis. It analyzes the criteria for text selection, the stages of developing students speech competence, as well as the impact of modern interactive methods on lesson effectiveness based on relevant sources. In addition, the article highlights the importance of the stages of text-based work in the educational process, modern approaches to text analysis, and its effectiveness indicators.*

Keywords: *text, native language, reading literacy, methodological requirements, communicative competence, interactive methods, 4C model, PIRLS.*

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda tilga oid dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Aynan shu davrda bolaning nutqiy faolligi, tafakkurining mantiqiyligi, og'zaki va yozma nutqdan foydalanish madaniyati bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Shu jihatdan qaraganda, ona tili fani nafaqat til birliklarini o'rgatish, balki o'quvchini fikrni anglash, qayta ishlash va ifodalashga yo'naltiruvchi muhim ta'limiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu fan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn bilan ishlash o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan eng muhim metodik yo'nalishlardan biridir [5]. Matn asosida tashkil etiladigan ta'limiy faoliyat o'quvchiga nafaqat mazmunni tushunish, balki undagi asosiy g'oyani ajratish, hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni anglash, fikrni tahlil qilish va mustaqil munosabat bildirish imkonini beradi. Shu bois matn ustida ishlashni puxta metodik asosda tashkil etish darsning sifat va samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn bilan ishlash o'quvchilarning til imkoniyatlarini kengaytiradi, lug'at boyligini faollashtiradi hamda bog'lanishli nutqni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchi matn bilan ishlash davomida til hodisalarini alohida qoida sifatida emas, balki real nutqiy vaziyat ichida anglay boshlaydi. Natijada, u so'z va gaplarning vazifasini, mazmuniy munosabatlarni, uslubiy nozikliklarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida o'qib tushunish, tinglab idrok etish, mantiqiy xulosa chiqarish va fikrni aniq bayon qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Hozirgi davrda ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanayotgani boshlang'ich sinf ona tili darslariga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Endilikda o'quvchidan faqat tayyor bilimni o'zlashtirish emas, balki uni amaliy vaziyatlarda qo'llash, mustaqil fikrlash, muammoli holatlarga munosabat bildirish va o'z nuqtayi nazarini asoslay olish talab etiladi. Bunday natijaga erishishda matn ustida ishlash jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolish ko'pincha o'quvchi faolligini yetarli darajada ta'minlamaydi. Shu sababli interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli savollar va differensial yondashuvlardan foydalanish bugungi amaliyotning muhim talabi bo'lib qolmoqda.

Matn ustida ishlash jarayonini ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilar-

ning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda, ularni muloqotga tayyorlashda hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga moslashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki matn tilning eng faol va yaxlit ko‘rinishi bo‘lib, inson aynan matn vositasida borliqni anglaydi, fikrini boshqalarga yetkazadi va turli axborotlarni qabul qiladi. Kundalik hayotda ham, ta’lim jarayonida ham inson turli mazmundagi matnlar bilan uzluksiz to‘qnash keladi. Matn orqali fikr almashadi, xulosa chiqaradi, voqea-hodisalarga baho beradi. Fikrning ravshan, mantiqiy izchil- va ta’sirchan ifodalanishi esa ko‘p jihatdan matnning qay darajada puxta tuzilganiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarda matnni tushunish, tahlil qilish va yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Matnlar muallifning kommunikativ maqsadi va ifoda yo‘nalishiga qarab turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ularning ayrimlari voqea-hodisalarni ketma-ket bayon qilishga xizmat qilsa, boshqalari muayyan ma’lumotni tushuntirish, predmet yoki holatni tasvirlash, yoxud o‘quvchini ma’lum bir fikrga ishontirish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, odatdamatnlar hikoyaviy, izohli, tavsifiy va argumentativ turlarga ajratiladi. Hikoyaviy matnda voqea va hodisalar izchil bayon qilinadi, izohli matnda esa ma’lum jarayon, qoida yoki axborot tushuntiriladi. Tavsifiy matn orqali predmet, hodisa yoki jarayonning belgilari yoritilsa, argumentativ matnning asosiy vazifasi muayyan qarash yoki fikrning asoslanganligini dalillar orqali ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi.

Hozirgi ona tili o‘qitish metodikasida o‘quvchini faqat tayyor ma’lumotni o‘zlashtiruvchi emas, balki mustaqil fikr yurita oladigan, turli vaziyatlarga munosabat bildira oladigan faol subyekt sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli, darslik va o‘quv materiallarida matnlar hamda lug‘atlar bilan ishlash, mazmunni tahlil qilish, fikrni erkin ifodalash va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan mashq hamda topshiriqlar salmog‘i ortib bormoqda.

Yangi avlod darsliklari ham aynan shu yondashuv asosida yaratilmoqda. Ular an’anaviy ta’lim mazmunini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish, xalqaro ilg‘or tajribalarni hisobga olish va milliy ta’lim modelining kuchli jihatlarini saqlab qolish asosida ishlab chiqilgan. Bunday darsliklarda o‘quvchilarning o‘qib tushunish, mustaqil ishlash, tahlil qilish, taqqoslash va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar tizimi ustuvor o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda yaratilgan ona tili darsliklarida ham ana shu tamoyil izchil ko‘zga tashlanadi.

Yangi avlod darsliklarini yaratishda avvalgi nashrlarning samarali jihatlari saqlab qolingan holda, ularning mazmuni va tuzilishiga zamonaviy pedagogik talablar asosida yangicha yondashilgan. Xususan, sinflar kesimida sof nazariy ma’lumotlarga ajratilgan vaqt ma’lum darajada qisqartirilib, uning o‘rniga o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, tahliliy fikrlashini rivojlantirish va lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladigan topshiriqlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Shu maqsadda darsliklarga “Matn ustida ishlash” turkumidagi mavzular kiritilgan, shuningdek, o‘quvchilar uchun imlo va izohli lug‘atlar ham muntazam tarzda berib borilgan.

Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2020-yilda N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattarov, Sh.Toshmirzayeva hamda D.Mannopova muallifligida yaratilgan 5-sinf ona tili darsligida matn va lug‘at bilan ishlashga alohida urg‘u qaratilgan. Mazkur darslikda matnni diqqat bilan o‘qish, uning mazmunini anglash, tahlil qilish va o‘quvchining o‘z munosabatini mustaqil bayon etishi muhim metodik yo‘nalish sifatida belgilangan.

Ona tili faniga oid o‘quv dasturlari ham bevosita o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni izchil rivojlanti-

rishga qaratilgan. Bunda grammatik mavzularni o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, bilim doirasini kengaytirish hamda nutqiy faoliyatni takomillashtirish bir-biri bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Aynan shu jarayonda nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanadi: o'quvchi egallagan grammatik bilimlarini amaliy nutq faoliyatida qo'llashni o'rganadi, matn yaratish va matnni tahlil qilish orqali o'z malakasini mustahkamlaydi. Shu bois, darslik mualliflari matn bilan ishlash masalasini markaziy metodik yo'nalishlardan biri sifatida talqin etganlar.

Matn quyidagi qismlardan tashkil topadi:

Matnning kirish qismi o'quvchini mavzuga jalb etishi, uning diqqatini asosiy masalaga qaratishi hamda butun bayon mazmunining umumiy yo'nalishi va dolzarbligini ochib berishi lozim. Aynan shu qismda matnning nima haqida ekani, nega muhimligi va keyingi fikrlar qaysi yo'nalishda rivojlanishi anglashiladi.

Matnning asosiy qismi esa mavzuning mazmun-mohiyatini to'liq yoritishga xizmat qiladi. Unda nazariy qarashlar, dolzarblikni asoslovchi dalil va faktlar, muallifning asosiy fikrlari, tahlillari hamda mulohazalari izchil bayon etiladi. Mazkur qism matnning eng muhim tarkibiy bo'lagi bo'lib, unda asosiy g'oya batafsil ochib beriladi.

Xulosa qismida esa asosiy qismda ilgari surilgan fikrlar umumlashtiriladi, bayon etilgan muammolar yuzasidan yakuniy xulosalar chiqariladi hamda zarur bo'lsa, ularning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi [10].

Matn yasalishi – bu faqat grammatik birliklarni ketma-ket joylashtirish emas, balki murakkab kognitiv, psixologik va ijtimoiy jarayon bo'lib, unda muallifning kommunikativ niyati, bilim darajasi va til vositalaridan foydalanish malakasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Matn yasalishi quyidagi ilmiy metodlarga asoslanadi:

Deskriptiv metod– matn yasalishining nazariy asoslarini tavsiflashda;

Diskursiv tahlil– matnning kommunikativ va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashda;

Kognitiv yondashuv– matn yaratish jarayonining tafakkur bilan bog'liqligini o'rganishda;

Qiyosiy metod– turli nazariy qarashlarni solishtirishda.



1-rasm. Matn ustida ishlash metodikasi.

Matn ustida ishlash metodikasi o'quvchilarda matnni anglash, tahlil etish, mazmunini izchil ifodalash va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Mazkur metodika orqali o'quvchilar

matn mazmunini chuqurroq tushunish, undagi asosiy va yordamchi fikrlarni ajratish, til birliklarining o‘zaro bog‘lanishini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bu jarayonda grammatik va uslubiy me’yorlarni o‘zlashtirish, so‘z hamda gaplarning matn tarkibidagi vazifasini tushunish ham ta’minlanadi. Matn bilan ishlash faqat tilni o‘rganish vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning madaniy, tarixiy va adabiy bilim doirasini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Matn tanlashga qo‘yiladigan metodik talablar. Boshlang‘ich sinflarda matn tanlash muayyan pedagogik va metodik mezonlarga asoslanishi zarur. Eng avvalo, matn o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bundan tashqari, matnning mazmuni sodda va tushunarli bo‘lishi, undagi yangi so‘zlar miqdori me’yorida berilishi muhimdir.

Shuningdek, matnning hayotiyligi va qiziqarli bo‘lishi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Janr jihatidan turli matnlardan foydalanish esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va nutqiy faoliyatini rivojlantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash muayyan psixologik, pedagogik va metodik talablarga asoslanishi lozim. O‘qituvchi matn tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilishi zarur:

Yosh xususiyatlariga moslik. Pedagogik nuqtayi nazardan matn o‘quvchilarning til materialini amaliy o‘zlashtirishiga xizmat qiladigan muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn bilan ishlash o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tanlanadigan matnlarning mazmuni, tuzilishi va hajmi 7-10 yoshli o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga, idrok etish imkoniyatlariga mos bo‘lishi zarur.

Tushunarlilik va lug‘at boyligi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar uning mazmunini anglash, asosiy fikrni ajratish, voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunish orqali tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon ularning mantiqiy tafakkurini kengaytiradi, mustaqil fikr yuritish va xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu bois, matn didaktik talablar asosida tanlanishi, undagi leksik va grammatik murakkablik me’yoridan oshmasligi, yangi so‘zlar esa o‘quvchilar imkoniyatiga mos va cheklangan miqdorda berilishi lozim.

Hayotiylik va qiziqarlilik. Dars samaradorligi ko‘p jihatdan uning mazmunan hayotga yaqinligi va o‘quvchi uchun qiziqarli tashkil etilishiga bog‘liq. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining ijodiy uyg‘unligi darsni jonlantiradi, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Shu nuqtayi nazardan tanlanadigan matnlar o‘quvchilarning kundalik hayotiy tajribasiga yaqin, ular uchun tushunarli va qiziq mazmunga ega bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv o‘quvchilarda matnga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, fikr almashish, o‘qiganlari haqida gapirish va o‘z munosabatini bildirishga imkon yaratadi.

Janriy rang-baranglik. Boshlang‘ich sinf darsliklarida beriladigan matnlarning janr jihatidan xilma-xil bo‘lishi ham muhim metodik talab sanaladi. Har bir mavzu uchun tanlanadigan matnlarning badiiy va mazmuniy mukammalligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mosligi alohida e’tiborda bo‘lishi lozim. Hikoya, ertak, she’r kabi badiiy janrlar bilan bir qatorda ilmiy-ommabop va axborot matnlarga ham o‘rin berilishi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni turli uslub va mazmundagi matnlarni qabul qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar egallayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarning kelgusidagi hayoti uchun zarurligini anglab ye-

tishlari ham ta'limning muhim natijalaridan biri hisoblanadi [1].

Ilmiy manbalarda matn bilan ishlash jarayoni to'rtta asosiy bosqichga bo'linadi:

1. **Matn bilan tanishtirish:** Sarlavha va rasmlar asosida dastlabki tushunchalar berish, qiziqish uyg'otish. Bu bosqichda o'quvchida matnga nisbatan tanishish va unga moslashish hissi uyg'onadi.

2. O'qish va tushunish: Matnni ovozli yoki ichda o'qish, notanish so'zlar ustida ishlash, mazmunni aniqlash. Bu bosqichda o'quvchi matnni his qiladi va uning holatini qabul qilib, shu holatga tushadi.

3. Tahlil qilish: Asosiy g'oya, voqealar ketma-ketligi va qahramonlar xatti-harakatini muhokama qilish. Matn xarakteristikasiga nisbatan fikrlarini bayon qiladi va qahramonlarni chuqur tahlil qiladi.

loqot, kreativ fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Kollaboratsiya;
2. Kommunikatsiya;
3. Kreativ (ijodiy) fikrlash;
4. Kritik (tanqidiy) fikrlash[1].

Shu bilan birga, xalqaro PIRLS tadqiqotlari talablari asosida o'quvchilarda matndan axborotni ajratib olish, xulosa chiqarish va mazmunni baholash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu esa matn ustida ishlash metodikasini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'rsatkichlarini **30-40%** ga oshirish imkonini be-

2-rasm. Zamonaviy yondashuvlar va samaradorlik ko'rsatkichlari.

4. Mustahkamlash va ijodiy faoliyat: Matn asosida hikoya, insho yozish yoki matnni davom ettirish kabi ijodiy topshiriqlarni bajarish. Matn o'rganilib, uning mazmuni va mohiyati yoritilgandan so'ng, unga mos ravishda hikoya tuzib matnni yanadamustahkamlab olishga yordamchi vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida 4K modeli asosida ishlash keng qo'llanilmoqda. Ushbu model o'quvchilarda hamkorlik, mu-

radi. O'qish savodxonligini rivojlantirishda matn ustida ishlashning to'g'ri yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning fikrlash madaniyatini shakllantiradi. O'qituvchi matnni tanlashda o'quvchining yosh, qiziqish va tajriba darajasini inobatga olishi kerak. Shuningdek, xalqaro **PIRLS** tadqiqotlari talablari asosida matndan axborotni topish, oddiy xulosalar chiqarish,

[1] 4K metodi (Kollabratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash)

g‘oyalarni integratsiyalash va matn mazmunini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish metodik zaruratga aylangan[2].

Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasi masalasi pedagogika va metodika fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, matn bilan ishlash o‘quvchilarning nutqiy rivoji, tafakkuri va o‘qish savodxonligini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

O‘zbek olimlaridan T.Ziyodova ona tili o‘qitish metodikasida matn ustida ishlashni o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning asosiy omili sifatida baholaydi. Muallifning fikricha, matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda o‘qish, tushunish va qayta ifodalash ko‘nikmalari izchil shakllanadi [6]. Bu yondashuv matnni faqat o‘qish materiali sifatida emas, balki ko‘p funksiyali didaktik vosita sifatida talqin etishga asos bo‘ladi.

A.G‘ulomov va J.Yo‘ldoshev pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida obrazli tafakkur ustun bo‘lgani sababli matnlar sodda, tushunarli va hayotiy bo‘lishi lozim [3]. Ushbu qarash matn tanlash mezonlarini belgilashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

N.A.Muslimov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali matn ustida ishlash samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab beradi. U interfaolmetodlarning o‘quvchilar faolligini oshirishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [8]. Xususan, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Insert” kabi metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

[2] PIRLS tadqiqotlari

R.Safarova boshlang‘ich ta’lim metodikasida matn ustida ishlashni tizimli tashkil etish zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, matn ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ya’ni tayyorgarlik, o‘qish va tahlil bosqichlarini o‘z ichiga olishi lozim [12]. Bu yondashuv dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar matn ustida ishlash jarayonining tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Ularning fikricha, to‘g‘ri tanlangan matnlar o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda matn ustida ishlashning nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, interfaol metodlardan yetarli darajada foydalanilmasligi, differensial yondashuvning sustligi va matn tanlash mezonlarining to‘liq hisobga olinmasligi kuzatiladi.

Shu bois ham, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida boyitish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashni ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayon o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutqiy kompetensiyasini hamda ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining metodik mahorati va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi esa ushbu jarayon samaradorligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. –Toshkent: "Sharq", 2010.
2. Adizova N.B. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Buxoro: 2020. 308-322-b.
3. G'ulomov A., Yo'ldoshev J. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2018. – 320 b.
4. Johnson D.W., Johnson R.T. Active Learning Methods. – New York: Routledge, 2014. – 304 p.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.–Toshkent: 2024.151-b.
6. Ziyodova T. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 256 b.
7. Majidova S.S. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashning o'ziga xos jihatlari. IQRO INDEXING. 2026.300-305-b.
8. Muslimov N.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2019. – 280 b.
9. Olimova D.B. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish. Science Shine. 2025. 158-162-b.
10. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoldinova Sh. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: 2020.
11. Pedagogika nazariyasi va tarixi.–Toshkent: 2018.
12. Safarova R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 240 b.
13. To'xliyev B. Tafakkur va ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 198 b.
14. Turg'unova X.X. O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari. Inter education & global study. 2025.204-210-b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI O‘QITISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI

Muxtorov Sultonali Mamadaliyevich,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Unversiteti,
Matematika kafedrasi dotsenti f.m.f.n.
Ma’rufxonova Muslimaxon Ikromxon qizi,
Nizomiy nomidagi Milliy pedagogika universiteti
1-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini yoritib beradi. Tadqiqotda L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi hamda zamonaviy neuropsixologiya yutuqlari asosida yangi pedagogik yondashuv ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan kombinatorik modellashtirish metodikasi o‘quvchilarning konkret amaliydan boshlab abstrakt fikrlashgacha bosqichma-bosiq o‘tishini ta’minlaydi. Metodikaning samaradorligi eksperimental tekshiruv orqali isbotlangan bo‘lib, tajriba guruhida kombinatorik fikrlash ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan uch barobar yuqori natijalar ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, taklif etilgan metodika o‘quvchilarning matematik kompetensiyasini, mantiqiy fikrlashini va faniga qiziqishini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Maqola boshlang‘ich matematika ta’limining mazmunini boyitish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va milliy ta’lim standartlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich matematika, kombinatorika, kombinatorik fikrlash, kombinatorik modellashtirish, yaqin rivojlanish zonasi, o‘quv faoliyati, sistemali sanash, matematik kompetensiya, funksional savodxonlik, neuropsixologiya, pedagogik eksperiment, dasturiy-uslubiy ta’minot, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, mantiqiy fikrlash, refleksiv fikrlash, kognitiv rivojlanish, realistik matematika ta’limi.*

Научно-методические основы обучения элементам комбинаторики в начальных классах

Мухторов Султонали Мамадалиевич,
доцент кафедры математики Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами, кандидат физико-математических наук.
Маъруфхонова Муслимахон Икромхон кизи,
магистрант 1-курса Национального педагогического университета имени Низами.

Аннотация: *Данная научная статья освещает научно-методические основы обучения элементам комбинаторики в начальных классах. В исследовании на базе теории ближайшего развития Л.С. Выготского, теории деятельности А.Н. Леонтьева, а также достижений современной нейропсихологии разработан*

новый педагогический подход. Предложенный автором метод комбинаторического моделирования обеспечивает поэтапный переход учащихся от конкретно-практического мышления к абстрактному. Эффективность методики экспериментально проверена: в экспериментальной группе показатели комбинаторического мышления в три раза превысили результаты контрольной группы. Согласно результатам исследования, предложенная методика способствует значительному повышению математической компетентности, логического мышления и интереса к предмету у учащихся. Статья enriched практическими рекомендациями, направленными на обогащение содержания начального математического образования, повышение методической подготовки учителей и совершенствование национальных образовательных стандартов.

Ключевые слова: *начальная математика, комбинаторика, комбинаторное мышление, комбинаторное моделирование, зона ближайшего развития, учебная деятельность, систематический счёт, дидактическая методика, математическая компетентность, функциональная грамотность, нейропсихология, педагогический эксперимент, программно-методическое обеспечение, учащиеся начальных классов, логическое мышление, рефлексивное мышление, когнитивное развитие, реалистическое математическое образование.*

Scientific and methodological foundations of teaching combinatorics elements in primary education

Mukhtorov Sultonali Mamadaliyevich,
Associate Professor of the Department of Mathematics, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Candidate of Physical and Mathematical Sciences (PhD).

Ma'rufxonova Muslimaxon Ikromxon qizi,
First-year Master's student, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan.

Abstract. This scientific article explores the scientific and methodological foundations of teaching combinatorics elements in primary classes. A new pedagogical approach has been developed based on L.S. Vygotsky's Theory of Zone of Proximal Development, A.N. Leontyev's Activity Theory, and achievements of modern neuropsychology. The combinatorial modeling method proposed by the author ensures students' gradual transition from concrete practical thinking to abstract reasoning. The effectiveness of the method has been verified through experimental trial: indicators of combinatorial thinking in the experimental group have been three times higher than the results of the baseline group. According to the research findings, the proposed method significantly contributes to enhancing students' mathematical competence, logical thinking, and interest in the subject. The proposed practical recommendations serves to enrich the content of primary mathematics education, to improve teachers' methodological preparation, and to elaborate national educational standards.

Keywords: *Primary Mathematics, combinatorics, combinatorial thinking, combinatorial modeling, Zone of Proximal Development, learning activity, systematic counting, mathematical competence, functional literacy, neuropsychology, pedagogical experiment, program-methodological support, primary class students, logical thinking, reflective thinking, cognitive development, realistic mathematics education.*

Boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari zamonaviy ta’lim talablaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Jahon iqtisodiy forumining 2023-yil hisobotida kritik fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatlari 2025-yilgacha eng talab qilingan ko‘nikmalar qatorida birinchi o‘rinni egallagan. Kombinatorik fikrlash aynan shu kompetensiyaning matematik asosi hisoblanadi. Biroq O‘zbekiston va MDH mamlakatlaridagi boshlang‘ich matematika ta’limining holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, kombinatorika elementlarini o‘qitish tizimsizlik, formalizm, amaliy yo‘nalishning yetishmasligi va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligining pastligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Mavjud darsliklarda kombinatorik masalalar tasodifiy tarzda beriladi va ular o‘rtasida mantiqiy-metodik bog‘liqlik yo‘q. O‘qituvchilarning katta qismi kombinatorik masalalarni o‘qitishda qiyinchiliklarga duch keladi va sistemali sanash usullarini o‘zlashtirmagan. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘qitishning ilmiy asoslangan tizimli metodikasini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinflarda kombinatorika elementlarini o‘qitishning ilmiy asoslangan kombinatorik modellashtirish metodikasini ishlab chiqish, asoslash va sinovdan o‘tkazishdir. Tadqiqot vazifalari kombinatorik fikrlashning psixologik neuropsixologik va matematik-didaktik asoslarini kompleks tahlil qilishni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kombinatorik kompetensiyani shakllantirishning mazmuniy-kontseptual va dasturiy asoslarini aniqlashni kombinatorik modellashtirish metodikasining nazariy modelini ishlab chiqishni ushbu metodikani eksperimental sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini ilmiy asoslashni hamda kombinatorika elementlarini o‘qitishning dasturiy-uslubiy ta’minotini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Kombinatorik fikrlash cheklangan to‘plamning elementlaridan turli kombinatsiyalar hosil qilish ularning sonini hisoblash va xossalarini tahlil qilishga qaratilgan fikrlash jarayoni sifatida tavsiflanadi. Uning tarkibiy komponentlari kombinatorik tasavvur sistemali sanash kombinatorik mulohaza va metakognitsiyani o‘z ichiga oladi. Kombinatorik tasavvur elementlarning turli joylashishlarini mental ko‘rish qobiliyatini ifodalaydi. Sistemali sanash barcha variantlarni izchillik bilan sanash takrorlash va tashlab yuborishdan saqlanishni ta’minlaydi. Kombinatorik mulohaza kombinatsiyalar sonini hisoblash mantig‘ini anglashdir. Metakognitsiya o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishni nazarda tutadi.

J. Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, yetti-o‘n bir yoshdagi bolalar konkret tafakkur bosqichida kombinatorik masalalarni yechishga nisbatan tayyor bo‘ladi, chunki ular bir vaqtning o‘zida bir nechta omillarni hisobga olish qobiliyatiga ega. Biroq, J. Piaget ta’kidlaganidek, kombinatorik fikrlashning rivojlanishi tabiiy ravishda emas, balki maxsus tashkil etilgan ta’lim jarayonini talab qiladi. Bolalar kombinatorik masalalarni tizimli ravishda yechish uchun maxsus sxema va strategiyalarni o‘zlashtirishi zarur [21].

E. Din tomonidan ishlab chiqilgan matematik o‘yinlar konsepsiyasiga ko‘ra, bolalar matematik tushunchalarni asosan amaliy faoliyat orqali, ya’ni o‘yinlar va turli manipulyativ harakatlar vositasida o‘zlashtiradi. Ayniqsa, kombinatorika bu borada alohida ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarga o‘yin asosida o‘rganish imkonini yaratadi.

S. Papert “Mindstorms” asarida kompyuter orqali matematik tushunchalarni o‘zlashtirishni tavsifladi va uning “body syntonic” va “object syntonic” o‘rganish nazariyalari kombinatorik modellashtirish metodikasining asosini tashkil etadi [21].

L.S. Vygotskiy yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu mintaqa bola

mustaqil bajara oladigan daraja va kattalar yordamida erisha oladigan daraja o'rtasida joylashadi. Kombinatorik fikrlashni shakllantirishda pastki chegara o'quvchining ikki elementning barcha tartiblarini mustaqil topa olishi yuqori chegara o'qituvchi yordamida uch elementning permutatsiyalarini sistemali topa olishi potensial rivojlanishni ifodalaydi. Yaqin rivojlanish zonasi o'quvchi daraxt sxemasi yordamida mustaqil fikrlashni o'rganadigan mintaqadir. Kombinatorik modellashtirish metodikasi aynan ushbu mintaqada ishlashga qaratilgan har bir bosqich o'quvchining potensial imkoniyatlarini to'liq ochib berishga qaratilgan [24]. A.N. Leontyev faoliyatning tuzilishi nazariyasini ishlab chiqdi va uning fikricha, faoliyat quyidagi tuzilma bilan ega bo'ladi: faoliyat, harakat va operatsiya. Kombinatorik o'qitishda faoliyat kombinatorik masalani yechishga qiziqish va maqsad qo'yishni harakat sistemali sanish va daraxt sxemasini tuzishni operatsiya esa elementlarni almashtirish sanash va belgilashni o'z ichiga oladi [16]. V. V. Davydov o'quv faoliyatining psixologik tuzilmasini tahlil qildi va uning fikricha, samarali o'qitish uchun o'quv materiali bajarilish takrorlash ichki rejalashtirish va ichki mental harakat bosqichlaridan o'tishi kerak. Kombinatorik modellashtirish metodikasi bu bosqichlarni to'liq hisobga oladi [7].

Zamonaviy neuropsixologiya tadqiqotlari kombinatorik fikrlashning bosh miyadagi neyron asoslarini ochib bermoqda. Prefrontal korteks sistemali rejalashtirish mantiqiy ketma-ketlikni saqlash va ishchi xotira bilan bog'liq. Funksional magnit-rezonans tomografiya tadqiqotlari kombinatorik masalalarni yechishda prefrontal korteks faollashishini, ayniqsa, barcha variantlarni sanash jarayonida ko'rsatadi. Parietal korteks mental rotatsiya va prostranstven manipulyatsiya bilan bog'liq bo'lib kombinatorik masalalarda elementlarning turli joylashishini tasavvur qilishga xizmat qiladi. Yetti-o'n bir yoshda bosh miyaning neuroplastisiteti yuqori yangi neyron aloqalarini tez shakllantirish mumkin. Bu kombinatorik fikrlashni shakllantirish uchun sensitiv davr hisoblanadi.

Realistik matematika ta'limi konsepsiyasini Gollandiyalik matematik didaktik F. Freudenthal ishlab chiqdi va uning fikricha matematika inson faoliyatining qayta matematiklashtirilishi orqali o'zlashtiriladi. Unda ikki turdagi matematiklashtirish ajratiladi gorizontal matematiklashtirish haqiqiy dunyo muammolaridan matematik modellarga o'tishni vertikal matematiklashtirish matematik modellar orasida yuqori darajali bog'liqliklarga o'tishni ifodalaydi. Kombinatorik modellashtirish metodikasi bu ikkala turdagi matematiklashtirishni amalga oshiradi. OECDPISA dasturi matematik kompetensiyani shaxs turli kontekstlarda matematik muammolarni yechish qobiliyati sifatida belgilaydi va kombinatorik fikrlash PISA kompetensiyalarining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Milliy matematika o'qituvchilari kengashi algebra standartida kombinatorik fikrlashni naqshlar va munosabatlarni tushunish sifatida belgilaydi.

Kombinatorika fani o'n oltinchi asrda o'yin-kulolarda paydo bo'ldi. G. Kardano, N. Tartalya va G. Galileo kombinatorik masalalarni yechdi. B. Pascal va P. Fermat ehtimollar nazariyasi bilan kombinatorika birgalikda rivojlandi. XIX asr o'rtalariga qadar kombinatorika maktab dasturlariga kiritilmagan faqat XX asr boshida Fransiya va Germaniyada kombinatorika elementlari boshlang'ich kursga kiritila boshladi. Sobiq sovet davrida A.Ya. Khinchin V.A. Krutetskiy va A. M. Pyshkalo kabi olimlar kombinatorik fikrlashni rivojlantirishga e'tibor berdi. A.Ya. Khinchin matematik tushunchalarni o'qitish asarida kombinatorik masalalarning didaktik ahamiyatini ta'kidlagan. 90-yillardan boshlab kombinatorika elementlari dasturlardan chiqarila boshladi chunki ular qiyin deb topildi. Zamonaviy xalqaro tajribada Singapurda kombinatorika 1-sinfdan naqshlar ko'rinishida kiritilgan Yaponiyada "sansu" dasturida kom-

binatorik masalalar kundalik hayotdan olingan Finlandiyada kombinatorik fikrlash matematik o'yinlar orqali shakllantiriladi AQShda "common core" standartlarida kombinatorika "operations and algebraic thinking" bo'limida joylashgan.

O'zbekistondagi hozirgi boshlang'ich matematika dasturida kombinatorik masalalar 2-sinfda barcha variantlarni topish mavzusi bo'yicha uchta masala 3-sinfda sodda masalalar yechish bo'yicha ikkita masala va 4-sinfda permutatsiyalar bo'yicha to'rtta masala shaklida tasodifiy tizimsiz tarzda taqsimlangan. Ularning o'rtasida mantiqiy bog'liqlik yo'q va metodik tavsiyalar yetarli emas.

Kombinatorik modellashtirish metodikasi modellashtirish kombinatorik fikrlashning asosiy mexanizmi bosqichlilik yaqin rivojlanish zonasida ishlash tamoyili faoliyatlilik o'quv faoliyatining yetakchilik roli va refleksivlik o'z fikrlashini nazorat qilish g'oyalariga asoslangan. Modellashtirish murakkab obyektni sodda o'rganishga qulay modelga aylantirish jarayonidir. Kombinatorikada bu haqiqiy obyektlardan grafik sxemalarga, simvollarga va formulalarga o'tishni ifodalaydi. Har bir bosqich o'quvchining haqiqiy va potensial rivojlanishi o'rtasidagi zonalarni to'ldiradi. O'quvchi faqat o'z faoliyati orqali kombinatorik tushunchalarni o'zlashtiradi. O'quvchi barcha variantlarni topdimmi takrorladimmi deb o'z-o'zini tekshiradi.

Metodika o'z-o'zidan bog'liq ikki tizimdan iborat bo'lib, vertikal bosqichlilik va gorizontal modellashtirish darajalarini o'z ichiga oladi. Vertikal tuzilma bo'yicha birinchi bosqich 2-sinfda sensorik-amaliy bosqich sifatida haqiqiy obyektlar bilan ishlash va barcha variantlarni amalda topishni o'z ichiga oladi. Bu bosqich konkret-operatsion fikrlash va manipulyativ faoliyatga asoslanadi. Ikkinchi bosqich 3-sinfda grafik-representativ bosqich sifatida sxema jadval va daraxt yordamida ifodalashni o'z ichiga oladi. Bu bosqich vizual fikrlash va sistemali sanashga asoslanadi. Uchinchi bosqich 4-sinfda simvolik-abstrakt bosqich sifatida harflar formulalar bilan ishlash va umumlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu bosqich abstrakt fikrlash va umumlashtirishga asoslanadi.

Gorizontal tuzilma bo'yicha har bir bosqichda to'rt darajali modellashtirish amalga oshiriladi. Birinchi daraja konkret-modellash bo'lib, haqiqiy obyektlar yoki ularning namunalari bilan ishlashni didaktik o'yin materiallari rangli kubikchalar va kiyim-kechak namunalari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi daraja grafik-modellash bo'lib sxema jadval va diagramma orqali ifodalashni grafik organayzerlar daraxt sxemalari va Ven diagrammalari orqali amalga oshiriladi. Uchinchi daraja simvolik-modellash bo'lib harflar raqamlar va belgilar bilan ishlashni matematik belgilar tizimi va kombinatorik formulalar orqali amalga oshiriladi. To'rtinchi daraja abstrakt-modellash bo'lib umumiy qonuniyatlar va formulalarni teorema isbot va umumiy algoritm orqali amalga oshiriladi.

Har bir dars motivatsiya tadqiqot umumlashtirish amaliyot va refleksiya bosqichlaridan iborat. Motivatsiya bosqichida kombinatorik situatsiya yaratiladi, kundalik hayotdan misol keltiriladi va nechta usul savoli qo'yiladi. Tadqiqot bosqichida guruhlarda yoki juftliklarda amaliy ish olib boriladi. Konkret modellashtirishdan grafik modellashtirishga o'tiladi. turli variantlar topiladi va tekshiriladi. Umumlashtirish bosqichida simvolik modellashtirishga o'tiladi, mavjud variantlar tasniflanadi va kombinatorik qoida kashf qilinadi. Amaliyot bosqichida mustaqil yechish yangi kontekstda qo'llash va o'z-o'zini tekshirish amalga oshiriladi. Refleksiya bosqichida nima o'rgandim savoli xatolar tahlili va keyingi bosqichga o'tish ko'rib chiqiladi.

Metodikaning asosiy yutug'i o'quvchilarga sistemali sanash printsipini o'rgatishdir. Bu tartibli sanash alifbo tartibida yoki boshqa sistemali tartibda sanash to'liqlik barcha variantlarni ko'rib chiqish takrorlanmaslik har bir variant faqat bir marta sanaladi va tekshirish barcha variantlarni topganligini isbotlash qoidalarini o'z ichiga oladi. Daraxt sxemasi sistemali sanashning eng samarali vositasidir. Uning afzalliklari vizual ifodalash orqali barcha variantlarni ko'rish imkoniyati sistemali yondashuv orqali izchillik bilan barcha holatlarni ko'rib chiqish tekshirish osonligi orqali qaysi variantlarni sanab qaysilarini sanamaganligini ko'rish va

umumlashtirish orqali **n element** uchun umumiy qoidani ko'rish imkoniyatidir.

Taklif etilayotgan dasturiy yondashuvda kombinatorika elementlari boshlang'ich matematika kursiga tizimli kiritiladi. 2-sinfda kombinatorik kashfiyotlar bo'yicha haftada bir soat, jami 34 soat o'qitiladi. Mavzular ikki elementning tartiblari 6 soat uch element bilan tanishish, 8 soat barcha variantlarni topish masalalari, 10 soat kombinatorik o'yinlar, 6 soat va mustaqil loyiha to'rt soatni o'z ichiga oladi. Bu bosiq sensorik-amaliy bosiq sifatida haqiqiy obyektlar bilan ishlash va barcha variantlarni amalda topishga asoslanadi. 3-sinfda kombinatorik sxemalar bo'yicha 34 soat o'qitiladi. Mavzular daraxt sxemasini o'rganish 8 soat, jadval usuli 6 soat, to'liq sanash prinsipi 8 soat, kombinatsiyalar 6 soat va murakkab masalalar 6 soatni o'z ichiga oladi. Bu bosqich grafik-representativ bosqich sifatida sxemalar yordamida sistemali sanashga asoslanadi. 4-sinfda kombinatorik hisoblashlar bo'yicha 34 soat o'qitiladi. Mavzular ko'paytirish qoidasi 8 soat, permutatsiyalar soni 8 soat, kombinatsiyalar soni 6 soat, amaliy masalalar 8 soat va yakuniy loyiha 4 soatni o'z ichiga oladi. Bu bosqich simvolik-abstrakt bosqich sifatida formulalar va umumlashtirishga asoslanadi.

Metodikani amalga oshirish uchun kombinatorik konstruktor daraxt diagrammalari to'plami kombinatorik daftarcha va kombinatorik laboratoriya raqamli resurslari ishlab chiqilgan. Kombinatorik konstruktor tarkibiga 24 rangli plastinka 6 rangga 4 tadan, 12 geometrik shakl 8 ta kiyim-kechak namunasi va 6 ta hayvon figurkasi kiradi. Uning vazifasi konkret-modellash bosqichida barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarni amaliy yaratishdir. Daraxt diagrammalari to'plamida 10 bo'sh daraxt shabloni, 40 tayyor daraxt namunasi va 50 yopiq kartochkalar mavjud. Uning vazifasi grafik-modellash bosqichida sistemali sanashni o'rganishdir. Kombinatorik daftarcha bosiqma-bosiq masalalar yechish jarayoni o'z-o'zini baholash jadvallari xatolar tahlili varaqalari va mening kombinatorik kashfiyotlarim bo'limini o'z ichiga oladi. Uning vazifasi o'quvchining shaxsiy progressini kuzatish va refleksiyadir. Kombinatorik laboratoriya raqamli resursi HTML5 va JavaScript asosida yaratilgan mobil qurilmalar uchun mos va off-line rejimda ishlaydi. Uning funksiyalari virtual manipulyatsiyalar avtomatik daraxt sxemasi tuzish xatolarni aniqlash va tahlil qilish statistika va progress kuzatuvidir.

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma nazariy asoslar 50 bet metodik tavsiyalar, 80 bet dars ishlanmalari, 40 ta nazorat ishlari, 20 ta variant va videomateriallar QR-kodlar orqali bo'limlaridan iborat. Dars ishlanmasi namunasi 2-sinf ikki elementning tartiblari mavzusi bo'yicha motivatsiya bosqichida "tong otdi, biz maktabga ketmoqchimiz, qizil ko'ylak yoki ko'k ko'ylakni kiyishni bilmayapmiz". Bunda nechta usulda kiyinish mumkin situatsiyasi yaratiladi. Tadqiqot bosqichida juftliklarda ishlash haqiqiy kiyim namunalarini almashtirish va barcha variantlarni topish amalga oshiriladi. Umumlashtirish bosqichida ikki element ikki tartib ko'rinishida yoziladi va yangi misollar keltiriladi. Amaliyot bosqichida mustaqil masalalar yechiladi. Refleksiya bosqichida bugun nima o'rgandik ikki narsani nechta usulda tartiblash mumkin savollari ko'rib chiqiladi.

Tajriba ishi 2023-2024-o'quv yilida to'qqiz oy davomida o'tkazildi. Tajriba guruhida 120 nafar 2-, 3- va 4-sinf o'quvchilari qatnashdi. Nazorat guruhida ham 120 nafar o'quvchilar qatnashdi. Tanlash tasodifiy tanlash usulida maktablar reytingi bo'yicha o'rtacha darajadagi to'rta maktabdan amalga oshirildi. Toshkent viloyati Chirchiq shahar 4-sonli umumta'lim maktabi, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 125-sonli maktab, Toshkent viloyati Qibray tumani 8-sonli maktab va Toshkent viloyati Zangiota tumani 15-sonli maktablarda tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatish o'quv natijalarini tahlil qilish psixologik testlash va sifatiy metodlar qo'llandi. Pedagogik kuzatish 32 ta darsni o'quv faoliyatini strukturaviy kuzatish jadvali asosida va 16 ta darsning video yozuvlarini o'z ichiga oladi. 2023-yil sentabrda o'quv natijalarini tahlil qilish, boshlang'ich diagnostik ish yanvar 2024-yilda, oraliq nazorat ishlari 2024-yil may oyida, yakuniy nazorat ishi va 2024-yil iyun oyida, shuningdek, bir oy o'tgach saqlash darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Psixologik testlash muallif tomonidan ishlab

chiqilgan o'n ikkita masala qirq ballik kombinatorik fikrlash testi mantiqiy fikrlashni aniqlash uchun Raven matritsalari va 15 ta savol 5 ballik Likert shkalasidagi matematik qiziqish shkalasini o'z ichiga oladi. Sifatiy metodlar 34 nafar o'quvchi bilan chuqur intervyu 8 ta guruhda fokus-guruh suhbati va 8 nafar o'qituvchilar suhbatini o'z ichiga oladi.

Tajriba natijalariga ko'ra, kombinatorik fikrlash testi ko'rsatkichlari tajriba guruhida boshlang'ich holatda **14 ± 3,1 ball**dan yakuniy holatda **31,8 ± 3,8 ball**ga oshdi. Nazorat guruhida esa boshlang'ich holatda **14,8 ± 3,4 ball**dan yakuniy holatda **19,1 ± 3,9 ball**ga oshdi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, **t-test = 18,45, p < 0,01** bo'lib, bu farq statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Effekt kattaligi **Cohen's d = 2,34** ni tashkil etdi, bu esa juda katta effekt ekanligini bildiradi. O'sish ko'rsatkichi tajriba guruhida **123,9%,** nazorat guruhida esa **29,1%** ni tashkil etdi.

Kombinatorik fikrlash darajalarining taqsimoti quyidagicha kuzatildi. Tajriba guruhida boshlang'ich holatda yuqori daraja **12%,** o'rta daraja **28%** va quyi daraja **60%** ni tashkil etgan bo'lsa, yakuniy holatda yuqori daraja **58%,** o'rta daraja **32%** va quyi daraja **10%** ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa boshlang'ich holatda yuqori daraja **10%,** o'rta daraja **30%** va quyi daraja **60%** ni tashkil etgan bo'lsa, yakuniy holatda yuqori daraja **15%,** o'rta daraja **38%** va quyi daraja **47%** ni tashkil etdi. Tajriba guruhida yuqori darajaga erishish ko'rsatkichi **4,8 barobar,** nazorat guruhida esa **1,5 barobar** ga oshdi.

Raven matritsalari natijalariga ko'ra, tajriba guruhida boshlang'ich holatda **45 ± 12 persentil**dan yakuniy holatda **68 ± 14 persentil**ga oshdi. Nazorat guruhida esa boshlang'ich holatda **47 ± 11 persentil**dan yakuniy holatda **55 ± 13 persentil**ga oshdi. Korrelyatsiya tahlili kombinatorik fikrlash va mantiqiy fikrlash o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Matematik qiziqish shkalasi ko'rsatkichlari tajriba guruhida **42,3 ± 8,2 ball**dan **60,1 ± 7,4 ball**ga oshdi. Bu **42,1%** o'sishni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa **43,1 ± 7,9 ball**dan **46,8 ± 8,1 ball**ga oshdi. Bu **8,6%** o'sishni tashkil etdi.

Tajriba davomida o'quvchilarning xatolari tasniflandi.

Boshlang'ich holatda:
- tasodifiy sanash – **45%;**
- takrorlash – **28%;**
- tashlab yuborish – **18%;**
- noto'g'ri formulalar – **9%.**

Yakuniy holatda:
- tasodifiy sanash – **8%;**
- takrorlash – **6%;**
- tashlab yuborish – **4%;**
- noto'g'ri formulalar – **3%.**

Xatolarni kamaytirish **daraxt sxemasi,** tartibli sanash, tekshirish ro'yxati va kontekstli misollar orqali amalga oshirildi.

Sifatiy tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarining:
- **85%** i sistemali sanashga harakat qildi;
- **78%** i murakkab masalalarda daraxt sxemasidan foydalandi;
- **62%** i o'z fikrlashini nazorat qildi.

Natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun ichki va tashqi ishonchlilik hamda transfer samaradorligi tekshirildi.

Ichki ishonchlilik:
- Cronbach alfa – **0,87;**
- test–qayta test ishonchliligi – **0,91.**

Tashqi ishonchlilik:
- ekspert bahosi – **4,65 / 5;**
- inter-rater ishonchliligi (Cohen's kappa) – **0,84.**

Transfer samaradorligi natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilari kombinatorik masalalardan tashqari umumiy matematik masalalarni yechishda ham yuqori natija ko'rsatdi.

O'tkazilgan kompleks tadqiqotlar quyidagi xulosalarni asoslaydi. Boshlang'ich sinflarda kombinatorika elementlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi va zamonaviy neuropsixologiya yutuqlari asosida shakllantirilishi mumkin. Kombinatorik fikrlashning rivojlanishi maxsus o'qitishni talab qiladi va yetti-o'n bir yosh sensitiv davrida eng samarali amalga oshiriladi. Taklif etilgan kombinatorik modellashtirish metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kombinatorik fikrlashni samarali shakllantirishga imkon beradi chunki u konkretdan abstraktgacha bosqichma-bosqich o'tishni ta'min-

laydi, sistemali sanash prinsipini shakllantiradi, o'quv faoliyatining yetakchi rolini hisobga oladi va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Metodikaning eksperimental sinovi uning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Kombinatorik fikrlash **3,2 barobar,** mantiqiy fikrlash esa **1,8 barobar** oshdi. Matematikaga qiziqish **42%** ga oshdi va o'quv natijalarining saqlanish darajasi yuqori bo'ldi. Ishlab chiqilgan dasturiy-uslubiy ta'minot amaliy qo'llashga tayyor bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar hamda darslik mualliflari tomonidan foydalanilishi mumkin. O'quvchilarning kombinatorik fikrlash xatolari tasnifi va ularni tuzatish strategiyalari metodikaning tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqildi hamda amaliy sinovdan o'tkazildi.

Ilmiy ahamiyati jihatidan tadqiqot natijalari boshlang'ich matematika didaktikasini, ayniqsa, kombinatorik fikrlashni shakllantirish nazariyasini boyitdi. Metodikaning psixologik asoslari matematika psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarga hissa qo'shdi. Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasini boshlang'ich matematika o'qitishiga qo'llash namunasi bo'ldi. Amaliy ahamiyati jihatidan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun aniq metodik tavsiyalar berildi. Kombinatorika elementlarini o'qitishning tizimli dasturi taklif etildi. Didaktik materiallar to'plami ishlab chiqildi va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma yaratildi.

Ta'lim siyosati darajasida boshlang'ich sinflar matematika dasturiga kombinatorika elementlarini kombinatorik modellashtirish metodikasi bo'yicha tizimli kiritish milliy ta'lim standartlariga kombinatorik fikrlash kompetensiyasini kiritish va PISA va TIMSS tadqiqotlarida kombinatorik masalalar ulushini oshirish taklif etiladi. Maktab amaliyoti darajasida o'qituvchilar uchun kombinatorik modellashtirish bo'yicha qayta tayyorgarlik kurslarini tashkil etish maktablarda kombinatorik laboratoriya xonalari tashkil etish va ota-onalar uchun kombinatorik o'yinlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish taklif etiladi. Ilmiy tadqiqot darajasida metodikani boshqa sinflarga beshinchi-oltinchi sinflarga kengaytirish maxsus ta'lim muassasalarida qo'llash va raqamli texnologiyalar virtual va kengaytirilgan reallik yordamida kombinatorik modellashtirishni rivojlantirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 20-apreldagi PF-96-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 2023-yil 14-iyuldagi 290-sonli qarori.

3. Azizxo'jayeva N. N., Umarova Z. B. Boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 280 b.

4. Biggs N. L. Discrete Mathematics. – Oxford University Press, 2002. – 425 p.

5. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. – 2nd ed. – Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1988. – 567 p.

6. Creswell J. W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. – 6th ed. – Boston: Pearson, 2015. – 672 p.

7. Davydov V. V. Types of Generalization in Instruction. – Reston, VA: NCTM, 1990. – 342 p.

8. Dehaene S. The Number Sense: How the Mind Creates Mathematics. – Oxford University Press, 2011. – 316 p.

9. Dienes Z. P. Building Up Mathematics. – London: Hutchinson, 1960. – 314 p.

10. English L. D. Children's Reasoning in Solving Novel Problems of Deduction // Thinking & Reasoning. – 2018. – Vol. 24, № 3. – P. 265-287.

11. Fischbein E., Grossman A. Schemata and Intuitions in Combinatorial Reasoning // Educational Studies in Mathematics. – 1997. – Vol. 34, № 1. – P. 27-47.

12. Freudenthal H. Mathematics as an Educational Task. – Dordrecht: Reidel, 1973. – 680 p.

13. Giedd J. N. The Teen Brain: Insights from Neuroimaging // Journal of Adolescent Health. – 2008. – Vol. 42, № 4. – P. 335-343.

14. Gravemeijer K. P. E. Developing Realistic Mathematics Education. – Utrecht: Freudenthal Institute, 1994. – 248 p.

15. Karimov A. A., Rahimov Sh. Q. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi: muammolar va yechimlar // Pedagogika fanlari axborotnomasi. – 2023. – № 2. – B. 45-52.

16. Leontyev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1978. – 192 p.

17. Maqsimova T. M. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021. – 380 b.

18. Mulligan J., English L. D. Combinatorial Reasoning in Early Childhood // Mathematics Education Research Journal. – 2022. – Vol. 34, № 2. – P. 345-362.

19. National Council of Teachers of Mathematics. Principles and Standards for School Mathematics. – Reston, VA: NCTM, 2000. – 402 p.

20. OECD. PISA 2022 Mathematics Framework. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 128 p.

21. Papert S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980. – 230 p.

22. J. Logic and Psychology. – Manchester University Press, 1953. – 204 p.

23. Streefland L. Fractions in Realistic Mathematics Education. – Utrecht: Freudenthal Institute, 1991. – 356 p.

24. Vygotsky L. S. Thinking and Speech. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 312 p.

25. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. – Geneva: WEF, 2023. – 296 p.

26. Xodjiyev A. X. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020. – 420 b.

27. Батанеро С., Годино Дж. Д., Наварро-Пелайо В. Combinatorial Reasoning and its Assessment // Handbook of Research on the Psychology of Mathematics Education. – 2006. – P. 147-176.

28. Крутецкий В. А. Психология математических способностей школьников. – М.: Просвещение, 1968. – 432 с.

29. Пышкало А. М. Геометрический материал в начальной школе. – М.: Просвещение, 1971. – 198 с.

30. Хинчин А. Я. Педагогические статьи. – М.: Академия педагогических наук, 1963. – 216 с.

ANDIJON SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABIDA
O‘QUV TARBIYAVIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISH TAJRIBASI

Rustamova Rushona Baxramjonovna,
Andijon shahridagi Prezident maktabi direktor o‘rinbosari
tel: +998(99)6416889
rustamovarushana88@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Andijon shahridagi Prezident maktabi misolida zamonaviy o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning tashkiliy, metodik va pedagogik asoslari yoritiladi. Tadqiqot Prezident maktabida dars va darsdan tashqari faoliyat, baholash, o‘qituvchilarning kasbiy rivoji hamda ota-onalar bilan hamkorlik jarayonlarini tahlil qiladi va ushbu tajribani umumta’lim maktablariga joriy etish imkoniyatlarini asoslaydi. Shuningdek, Prezident maktabining ijobiy tajribalarini umumta’lim maktablari amaliyotiga tatbiq etishga doir uslubiy tavsiyalar taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Prezident maktabi, STEAM ta’limi, formativ va summativ baholash, kasbiy rivojlanish kuni, tadqiqotga asoslangan ta’lim.*

Опыт организации учебно-воспитательного процесса в президентской школе города Андижана

Рустамова Рушона Бахрамжоновна,
Заместитель директора Президентской школы города Андижана

Аннотация: *В данной статье раскрываются организационные, методические и педагогические основы организации современных учебно-воспитательных процессов на примере Президентской школы города Андижана. В исследовании анализируются учебная и внеурочная деятельность, система оценивания, профессиональное развитие учителей и взаимодействие с родителями Президентской школы, а также обосновываются возможности внедрения данного опыта в общеобразовательные школы. Кроме того, представлены методические рекомендации по адаптации положительного опыта Президентских школ в практику общеобразовательных учреждений.*

Ключевые слова: *Президентская школа, STEAM-образование, формативное и суммативное оценивание, день профессионального развития, обучение, основанное на исследованиях.*

Experience of organizing the educational processes at the presidential school in Andijan

Rustamova Rushona Baxramjonovna,
Deputy Director of the Presidential School in Andijan

Abstract: *This article explores the organizational, methodological, and pedagogical foundations of organizing modern teaching and learning processes on the example of the Presidential School in Andijan. The study analyzes classroom and extracurricular activities, assessment practices, teachers professional development, and cooperation with parents at the Presidential School, and substantiates the possibilities of implementing this experience in general secondary schools. In addition, it proposes methodological recommendations for adapting the positive practices of Presidential Schools into the practice of general educational institutions.*

Keywords: *Presidential School, STEAM education, formative and summative assessment, professional development day, research-based learning.*

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash hamda ta’lim natijalarini xalqaro baholash standartlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqat ilm-ma’rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz”. [1.112] Mazkur jarayonda Prezident maktablari tarmog‘i innovatsion ta’lim modellarini joriy etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezident maktabi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasasi bo‘lib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun iqtidorli bolalarni aniqlash va o‘qitishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu maktablar yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, ularning akademik va ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Prezident maktablarida ta’lim jarayoni xalqaro standartlarga mos holda Cambridge o‘quv dasturi asosida tashkil etilgan bo‘lib, u milliy o‘quv dasturi bilan uzviy uyg‘unlashtirilgan. Ushbu yondashuv ta’lim mazmunining zamonaviyligi va milliy qadriyatlarga mosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Prezident maktablarida o‘quv-tarbiya jarayoni loyiha va tadqiqot faoliyatiga asoslangan ta’lim, zamonaviy fan laboratoriyalaridan samarali foydalanish, xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy baholash tizimi orqali tashkil etilgan. Dars jarayonida asosiy e’tibor o‘qituvchining faoliyatiga emas, balki o‘quvchining faolligi va dars markazida bo‘lishiga qaratiladi. O‘quvchi dars davomida faqat tinglovchi sifatida emas, balki bilimlarni mustaqil o‘zlashtiruvchi va faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘quv dasturi amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar va savol-javoblarga asoslangan interaktiv metodlar bilan boyitilgan. O‘qituvchi esa har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil etadi. Shuningdek, Prezident maktablari o‘quv dasturi bilimlarni faqat yodlashga emas, balki tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi mazkur yo‘nalishda alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘quv rejalari va fanlararo integratsiya, zamonaviy dars metodikalarini joriy etish, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda tashqi baholash tizimlariga puxta tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan yaxlit va barqaror model shakllantirilgan. Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasini o‘rganish ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi mezonlarga asoslangan baholash tizimlarini samarali joriy etish bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu tajriba Prezident maktablarida shakllangan ilg‘or yondashuvlarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatiga moslashtirish hamda ta’lim sifati va o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi natijalarini oshirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada Andijon shahridagi Prezident maktabining o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tahlil qilish, undagi samarali boshqaruv va pedagogik amaliyotlarni aniqlash hamda ularni umumta’lim maktablari faoliyatiga moslashtirish imkoniyatlarini baholash maqsad qilingan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanilib, ma’lumotlar to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar – O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining nizomlari va metodik ko'rsatmalari.

Zamonaviy maktablardagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga oid ilmiy-tadqiqotlar, iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish modellariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi.

Empirik ma'lumotlar – Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni bevosita o'rganish maqsadida maktab rahbariyati, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular hamda fokus-guruh muhokamalaridan olingan ma'lumotlar.

Tadqiqot metodologiyasida tizimli tahlil usuli Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun qo'llanildi. Komparativ tahlil usuli xalqaro va mahalliy zamonaviy maktablardagi o'quv jarayonlarini taqqoslash hamda ularning samaradorligini baholash maqsadida ishlatildi. Ekspert baholash usuli doirasida zamonaviy maktablar boshqaruvi sohasida tajribaga ega mutaxassislar bilan intervyular o'tkazilib, Prezident maktabining samarali tajribalarini umumta'lim maktablari faoliyatiga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Anketali so'rov va intervyu usullari maktab rahbariyati, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy jarayonga munosabatini o'rganish hamda muammolarni aniqlashga yo'naltirildi. Statistik tahlil o'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini raqamli ko'rsatkichlar asosida baholashga xizmat qildi. Eksperimental tadqiqot esa ayrim umumta'lim maktablarida Prezident maktabi tajribasini joriy etish va uning natijalarini tahlil qilish orqali metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-qarori asosida ilk Prezident maktabi 2019-yil 5-sentabrda Toshkent shahrida, 2-dekabrda Namangan shahrida va 9-dekabrda Xiva shahrida hamda 11-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida tashkil etilgan. Keyinchalik 2020-2021-yillar oralig'ida Prezident maktablarini O'zbekistonning 14 ta hududida faoliyat yurita boshlagan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son qaroriga muvofiq Prezident maktablari faoliyatini tashkil etish, ularning boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida amalga oshirishga doir muhim me'yorlar belgilangan. Mazkur qarorda Prezident maktablarining asosiy vazifalari, o'quvchilarni tanlab olish mexanizmlari, ta'lim dasturlarining mazmuni, pedagog kadrlarni tanlash va ularning kasbiy rivojini ta'minlash tartibi, shuningdek, baholash va monitoring tizimlari aniq tartibga solingan. Ushbu hujjat Prezident maktablarida ta'lim sifatini ta'minlash, boshqaruvda samaradorlik va shaffoflikni kuchaytirish hamda iqtidorli o'quvchilarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy asos yaratadi.

Zamonaviy maktablardagi o'quv-tarbiyaviy jarayonlarga oid ilmiy-tadqiqotlarda sifatli bilim olish imkoniyatini kengaytirish, o'quvchilarni kelgusida mehnat bozoridan munosib o'rin olishini ta'minlash asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'riladi. Ta'lim tadqiqotchisi Andreas Shlyaxerning "Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?" nomli asarida "O'tmishda ko'rgazmali ta'limga amal qilinardi, kelgusidagi ta'lim ko'proq loyihalash va faoliyatga asoslangan bo'lishi kerak" [2. 40] ekanligini asoslab

beradi. Timoti Uoker o‘zining “Finlandiya ta’lim mo‘jizasi” asarida o‘qitish jarayonini real hayotga yaqinlashtirish zarurligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Agar sinfdagi o‘qish real olamdagi hayotni eslatib tursa, bolalar o‘qiyotganlarini osonroq tushunadi”. [3. 35] Yana bir xalqaro ta’lim mutaxassisi George Couros “The Innovator’s Mindset” kitobida innovatsion ta’lim yondashuvlarini targ‘ib qilib, shunday yozadi “Ma’lumot nihoyatda ko‘p bo‘lgan bugungi dunyoda, o‘qituvchilar ma’lumotni tanqidiy baholay olishlari va o‘quvchilarga ham shunday qilishni o‘rgatishlari muhimdir.” [4. 20] Kanadalik olim Maykl Fullan o‘zining “Deep Learning: Engage the World Change the World” (2017) nomli kitobida ta’kidlaganidek: “Agar biz o‘quvchilarning beqaror va murakkab davrda muvaffaqiyat qozonishini, yangi vaziyatlarda fikrlay olishini va dunyoni o‘zgartira olishini istasak, ta’lim jarayonini qayta tasavvur qilishimiz kerak.”

Zamonaviy maktab tizimlarini tahlil qilgan olimlar va tadqiqotchilar fikrlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va individual salohiyatlariga moslashtirilishi lozim. Baholash tizimi esa o‘quvchi shaxsiyati va iqtidorini rivojlantirishga yordam beradigan usullarda olib borilishi kerak.

Shu borada Prezident maktablari boshqa maktablar uchun lokomativ vazifasini bajarib, zamonaviy pedagogik tajribalarni tatbiq etish va samarali boshqaruv modellarini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Ilg‘or ta’lim tizimlariga ega davlatlar, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur va Finlandiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli ta’lim tizimlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammolarni hal etish, muloqot va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat beradi. AQSHdagi Phillips Exeter Academy, St. Paul’s School, The Hotchkiss School, Buyuk Britaniyadagi Brighton College va Westminster School, shuningdek, Ispaniyaning Madrid shahridagi King‘s College kabi nufuzli maktablarda o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar yuqori akademik ko‘rsatkichlar bilan ajralib turadi.

Ushbu maktablarda o‘quvchilar A-Level, SAT va boshqa xalqaro imtihonlarda yuqori natijalar ko‘rsatadi. Har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv qo‘llanilib, ularning qiziqishlari va salohiyatiga moslashgan ta’lim tizimi yaratilgan. Shu bilan birga, o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishi va oliy ta’limga kirishlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi, Top universitetlarga kirish uchun individual reja va qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

Yuqoridagi maktablar nufuzli xalqaro ta’lim tashkilotlarining akreditatsiyasidan o‘tgan bo‘lib, xalqaro standartlarga javob beradi. Finlandiya maktablari o‘quvchilarni kelgusida muvaffaqiyat qozonishlari uchun tayyorlab, ularda fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Singapur maktablari esa ma’lumotni yodlashga emas, uni amaliyotda qo‘llash, qaror qabul qilish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor beradi.

Andijon shahridagi Prezident maktabi 2025-yil mart oyida CIS (Council of International Schools) xalqaro akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tdi. Mazkur akkreditatsiya maktabda ta’lim sifati, o‘quv dasturlari, boshqaruv, xavfsizlik, o‘quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar hamda pedagogik muhit xalqaro standartlarga to‘liq mos ekanini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda maktab Cognia xalqaro ta’lim tashkiloti akkreditatsiyasidan o‘tish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Cambridge A-Level imtihonlari natijalari ham yildan yilga o‘sib bormoqda.

Xususan, yuqori baholar (A, B, C) ulushi 2023-yilda 58 foizni, 2024-yilda 68 foizni, 2025-yilda 84 foizni tashkil etdi. (1-jadval).

Maktab bitiruvchilarining xorijiy oliy ta'lim muassasalariga 100 foizlik to'liq grant asosida qabul qilinish ko'rsatkichi izchil oshib bormoqda.

Xususan, 2025-yilda bu ko'rsatkich 6 nafarga yetdi. Maktab bitiruvchilari Koreya Respublikasidagi KAIST (QS reytingida 53-o'rin) hamda Seul Milliy Universiteti (QS reytingida 38-o'rin) kabi dunyoning nufuzli universitetlariga grant asosida qabul qilindi.(2-jadval).

tabida ta'lim olayotgan 8–11-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etildi. So'rovnomaning asosiy maqsadi amaldagi o'quv-tarbiyaviy jarayon o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, loyihaviy ta'limda ishtirok etish hamda boshqa muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga qay darajada xizmat qilayotganini aniqlashdan iborat bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 92% ishtirokchilar dars jarayonida tadqiqot va izlanish faoliyatida muntazam ishtirok etishini bildirgan. 80%



1-jadval

2-jadval

3-jadval



4-jadval

Bitiruvchilarning 100 foizi IELTS imtihonidan 7 va undan yuqori ballni qo'lga kiritdi. (3-jadval). O'quvchilarning 79 foizi SAT imtihonida 1400 ball va undan yuqori natija qayd etdi. Jumladan, maktabning 11-sinf o'quvchisi Muxtorjon Mo'ydinov SAT imtihonida eng yuqori 1600 ballni qayd etib, nafaqat maktab, balki respublika miqyosidagi eng yuqori natijani qayd etdi.(4-jadval).

Empirik ma'lumotlarni to'plash jarayonida so'rovnoma Andijon shahridagi Prezident mak-

o'quvchi tadqiqot va loyihalarni amalga oshirishni yoqtirishini, 95% esa darsdan tashqari loyihaviy faoliyatlarda ham faol qatnashishini qayd etgan. Shuningdek, 81% respondentlar darslarda tanqidiy fikrlashga undovchi mashg'ulotlar mavjudligini ta'kidlashgan.

Shuningdek, Zoom platformasi orqali o'tkazilgan intervyular Prezident maktablarining ijobiy tajribalarini ommalashtirishga doir fikrlarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tanlab olingan Farg'ona, Buxoro va Qarshi shaharlari-

dagi Prezident maktablari bilan tashkil etilgan fokus-guruh muhokamalarida esa umumta'lim maktablariga joriy etish mumkin bo'lgan ilg'or tajribalar, ularni tatbiq etishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha batafsil tahlillar amalga oshirildi. Ushbu empirik ma'lumotlar Prezident maktablarining ijobiy tajribalarini umumta'lim tizimiga moslashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Empirik ma'lumotlar Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni bevosita o'rganish maqsadida maktab rahbarlari, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular hamda fokus-guruh muhokamalari natijalariga asoslanadi. Mazkur tadqiqotlar jarayonida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi.

Birinchidan, Prezident maktablari va umumta'lim maktablari o'rtasida sharoit va imkoniyatlarning bir xil emasligi mazkur tajribani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish imkonini cheklamoqda. Xususan, moddiy-texnik baza, sinf hajmi, o'quvchilar tanlovi, o'qituvchilarning ish yuklamasi va qo'shimcha resurslar darajasidagi farqlar ijobiy tajribani aynan bir xil shaklda joriy etish imkoniyatini cheklaydi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalariga ko'ra, Prezident maktablarining ijobiy pedagogik tajribasini tizimli ravishda o'rgatuvchi aniq manbalar, metodik qo'llanmalar hamda amaliy resurslar yetarli darajada mavjud emas. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari va rahbarlari ushbu tajribalarni o'rganish va joriy etishga qiziqish bildirayotgan bo'lsalar-da, "qayerdan va qanday o'rganish mumkin?" degan savol ochiq qolmoqda. Amaldagi mavjud materiallar Prezident maktablaridagi tajribani tavsiflash bilan cheklanib, uni umumta'lim maktablari sharoitida qanday moslashtirish, dars jarayoniga qanday tatbiq etish va natijalarni qanday baholash masalalariga yetarli darajada aniqlik kiritmaydi. Natijada, ilg'or tajriba nazariy darajada e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, uning amaliyotga tatbiqi bo'yicha yagona va tushunarli metodik yo'riqnomalar yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat ilg'or pedagogik yondashuvlarning samarali tatbiq etilishini qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, empirik tahlil Prezident maktablari ijobiy tajribasini joriy etishdan avval uni umumta'lim maktablari imkoniyatlariga moslashtirish bo'yicha maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Tajribani moslashtirish jarayonida pedagogik, tashkiliy va metodik jihatlarni ilmiy asosda o'rganish hamda sinovdan o'tkazish mexanizmlarini aniq ishlab chiqishni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida maktablar o'rtasida tajriba almashish, hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda muvaffaqiyatli ta'lim muassasalarining ijobiy amaliyotlarini ommalashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro ta'lim tadqiqotchisi A.Shleyxer ta'kidlaganidek, "Kelajak maktablarining bilim berish muhiti oilalar va insonlarning boshqa guruhlarini oliy ta'lim tizimi, biznes vakillari va ayniqsa, boshqa maktablar va o'quv sharoitlari bilan birlashtiradi. Gap innovatsion sheriklikni vujudga keltirish haqida bormoqda. Murakkab o'quv tizimlari olamidagi yakkalanish alohida o'quvchining ham, butun bir jamiyatning ham rivojlanish potensialini jiddiy tarzda cheklab qo'yadi" [2. 40]. Bizningcha samarali ta'lim islohotlari alohida maktablar doirasida emas, balki ilg'or tajribalarni tizimli ravishda tarqatish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezident maktablari faoliyati nafaqat akademik yuqori natijalarga, balki o'quvchilarni real hayotga tayyorlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan tizimli loyihalar bilan ham ajralib turadi. Tadqiqot doirasida Andijon shahridagi Prezident maktabida o'rganilgan Ted

Talks, MUN (Model United Nations), Digital Generation (Raqamli avlod), Eco-Schools Uzbekistan loyihasi, Ota-onalar konferensiyasi, STEM+ tanlovi, "Oy kitobi" kabi loyiha va dasturlar umumta'lim maktablarida ham moslashtirilgan shaklda joriy etilganda, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muammo yechish kompetensiyasi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Prezident maktablarining Xalqaro maktablar kengashi (Council of International Schools) a'zoligiga qabul qilingani hamda o'quv jarayonining Kembrij (Cambridge) ta'lim dasturi asosida tashkil etilgani ushbu ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim tizimi talablari, standartlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uzviy integratsiyalashgan holda faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi. Bu holat Prezident maktablari pedagogik jamoasining global ta'lim jarayonlari, innovatsion metodlar va ilg'or ta'lim tendensiyalaridan xabardor holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishiga keng imkoniyat yaratadi. Mazkur maktablarda shakllangan ilg'or boshqaruv modeli, o'quv dasturlari va baholashning zamonaviy mexanizmlari umumta'lim maktablari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan samarali tajribalar majmuasi bo'lishi mumkin. Davlatimiz rahbari maktablarni ham mazmun, ham sharoit jihatidan yaxshilash bo'yicha tashabbuslarni qayd etar ekan, ta'lim sifatini oshirish maqsadida respublika bo'yicha 500 ta maktabda Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturlari hamda baholash tizimini joriy etish bo'yicha vazifalarni belgilab berdi [7.3]. Mazkur sharoitda Prezident maktablarining samarali pedagogik tajribalarini aniqlash, ularni umumta'lim maktablari sharoitiga moslashtirish va tizimli ravishda ommalashtirish zamonaviy ta'limni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqmoqda.

"Prezident maktablari to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, Prezident maktablarining maqsad va vazifalaridan biri sifatida "o'quvchilarni o'qitish va bilimini baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek, ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga tatbiq etish" [8. 3] belgilangan.

Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish tajribasini o'rganish natijalari umumta'lim maktablariga joriy etish mumkin bo'lgan qator ilg'or va samarali amaliyotlarni aniqlash hamda tahlil qilish imkonini berdi. Jumladan, o'quvchilarning IELTS, SAT, A-Level kabi xalqaro imtihonlarda yuqori natijalarga erishishi, xalqaro fan olimpiadalarida faol ishtiroki hamda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalariga 100 foiz grant asosida qabul qilinish ko'rsatkichlari mazkur ta'lim muassasasida ta'lim sifati yuqori darajada yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Shuningdek, maktabda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan tizimli dasturlar, zamonaviy dars berish metodikalari, samarali boshqaruv mexanizmlari, xalqaro ta'lim dasturlarini o'qitish tajribasi, o'quvchilarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan amaliy mexanizmlar, ota-onalar bilan hamkorlikning zamonaviy usullari hamda o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi darsdan tashqari loyihalar muvaffaqiyatli joriy etilgan. Mazkur ijobiy tajribalarni umumta'lim maktablari amaliyotiga moslashtirilgan holda transfer qilish imkoniyati mavjud bo'lib, ularni joriy etishga qaratilgan quyidagi takliflar, bizning fikrimizcha, samarali natijalarga olib keladi.

1. O'quvchilarning ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan Prezident maktablarida amalga oshirilayotgan loyihalar, shuningdek ularni umumta'lim maktablari sharoitida tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.

2. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish hamda ularni amaliyotga joriy etishda metodik ko'mak berish maqsadida "Meet-up" formatidagi ilmiy-amaliy uchrashuvlarni tashkil etish.

3. Maktablarning ma'muriy-boshqaruv xodimlari va pedagoglari uchun treninglar, seminarlar, ochiq darslar hamda tajriba almashish uchrashuvlarini tizimli va muntazam ravishda tashkil etish orqali boshqaruv va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.

4. Prezident maktablarida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, uslubiy materiallar va o'quv ishlanmalarini umumta'lim maktablarining imkoniyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashtirish hamda ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish.

5. Prezident maktablari o'quvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-ijodiy loyihalar taqdimotlari jarayoniga umumta'lim maktablari o'quvchilarini jalb etish, ular o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda qo'shma loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratish.

6. Prezident maktablari va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik natijalarini umumlashtirish asosida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni keng ommalashgan ta'lim platformalarida "Prezident maktablari tajribalari" nomli maxsus bo'lim sifatida joylashtirish.

Tadqiqot natijalari Andijon shahridagi Prezident maktabida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish tajribasi umumta'lim maktablari ta'lim sifatini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Mazkur ta'lim muassasasida shakllangan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, samarali boshqaruv mexanizmlari hamda o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tizimli faoliyat umumta'lim maktablari sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etilishi mumkin bo'lgan ilg'or tajribalar majmuasini tashkil etadi.

Tadqiqotda ilgari surilgan hamkorlik modeli maktablararo tajriba almashishni tizimli asosda yo'lga qo'yib, Prezident maktablari va umumta'lim maktablari o'rtasida barqaror pedagogik hamkorlik muhitini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim muassasalari o'rtasidagi yopiq faoliyatdan ochiq va hamkorlikka asoslangan ta'lim tizimiga o'tish jarayonini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, Prezident maktablari o'quvchilari va umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida qo'shma loyihalar va ilmiy-ijodiy faoliyatni yo'lga qo'yish yoshlarning o'zaro tajriba almashuvi, yetakchilik, jamoada ishlash va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ta'lim oluvchilarning kelgusida oliy ta'lim muassasalarida va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Prezident maktablari tajribasini umumta'lim maktablari amaliyotiga transfer qilishga qaratilgan mazkur taklif va tavsiyalar ta'lim tizimida hamkorlikni ta'minlash, pedagogik innovatsiyalarni ommalashtirish hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy tajriba-sinov ishlari uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B.122

2. A.Shlyaxer. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimi qanday barpo etmoq kerak?.-Toshkent: "Zamin nashr" 2022. – 40 b.

3. Timoti Uoker. Filandiya ta'lim mo''jizasi. "Global books", 2023-yil. 35 p

4. George Couros, The Innovator's Mindset, 2015. 20 p.

5. Maykl Fullan "Deep Learning: Engage the World Change the World" 2017. 31 p.

6. A.Shlyaxer. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimi qanday barpo etmoq kerak?. – Toshkent: "Zamin nashr" 2022. – 40 b.

7. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-avgust kuni maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

8. Prezident maktablari to'g'risida nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.06.2019 yildagi 526-son

9. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son qaroriga ilova Prezident maktablari to'g'risida Nizom.

10. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015

11. Sangirova Zamira Bozorboyevna Ta'lim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning innovatsion modellari (O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma) Nashriyot, 2025

12. Sh. Egamberdiyev, A. Maxmudov, R. Tojiboyev 4K ko'nikmalarini baholash rubrikalari (uslubiy qo'llanma) Ta'limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik markazi 2024

13. Sh.Kurbaniyazov, A.Mamatov, Sh.Muhammadjanov, N.Ismoilov, S.Maxanov Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari (uslubiy qo'llanma) Toshkent – 2024.

14. "Ijodiy pedagogika: ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent 2025-yil Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi

15. Hari Tomas. Ta'lim. O'ta qisqa tanishuv. Akademnashr 2025

16. Michael Fullan. The principaal2,0; tree keys to maximizing impact. Jossey-Bass Publishing 2023

17. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015. (o'quv-metodik qo'llanma)

18. "Liderlik va o'zgarishlarni boshqarish" mavzusidagi seminar-trening materiallari. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti 2024 yil

19. "O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar" nomli milliy tadqiqoti.
UNICEF Uzbekistan 2020

20. Ta'lim sektorida islohotlarni amalga oshirishda sheriklik to'g'risidagi bitim.
UNICEF Uzbekistan 2024

21. Maykl Fullan "Deep Learning: Engage the World Change the World" 2017

22. AI in the Classroom Empowering teachers for the future of learning.

MAKTAB BOSHQARUVIDA
MARKAZLASHUV VA DESENTRALIZATSIYA SHAROITIDA O‘QITUVCHILAR ISHTIROKI (TALIS 2024 NATIJALARI ASOSIDA)

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
p.f.f.d. (PhD), dotsent
Odilova Madinabonu Orifjon qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Ta’limda menejment ixtisosligi doktoranti
+998905013963
odilova.2508.20@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab boshqaruvida markazlashuv va desentralizatsiya sharoitida o‘qituvchilarning qaror qabul qilish jarayonidagi ishtiroki TALIS 2024 tadqiqoti natijalari deskriptiv va komparativ metodlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning o‘quv jarayoni, maktab siyosati, intizom, baholash hamda kadrlar va byudjet masalalaridagi ishtiroki darajasi o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar asosan dars jarayoniga oid qarorlarda faol bo‘lib, strategik boshqaruvda ishtiroki cheklangan. Shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan. O‘zbekiston natijalari esa markazlashgan boshqaruv ustunligini ko‘rsatadi. Maqolada taqsimlangan yetakchilikni rivojlantirish va o‘qituvchilar vakolatlarini kengaytirish zarurligi asoslanadi. Bu esa ta’lim sifati va maktab samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Maktab boshqaruvi, markazlashuv, desentralizatsiya, o‘qituvchilar ishtiroki, qaror qabul qilish, TALIS 2024, taqsimlangan yetakchilik, ta’lim sifati, maktab avtonomiyasi, pedagogik boshqaruv.*

Участие учителей в управлении школой в условиях централизации и децентрализации
(на основе результатов TALIS 2024)

Исмаилов Абдували Абдумаликович,
Ректор Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони, д.ф.п.н. (PhD), доцент
Одилова Мадинабону Орифжон кизи,
Национальный институт педагогического мастерства имени А.Авлони Докторант по специальности “Менеджмент в образовании”

Аннотация: *В данной статье на основе дескриптивных и сравнительных методов анализируются результаты исследования TALIS 2024 по участию учителей в процессе принятия решений в условиях централизации и децентрализации школьного управления. Рассматривается степень вовлечённости учителей в процесс принятия решений, связанных с учебным процессом, оцениванием, дисциплиной, школьной политикой, а также бюджетом и кадровыми вопросами. Результаты показывают, что учителя в основном активно участвуют в решениях, связанных с учебным процессом, тогда как их участие в стратегическом управлении школой ограничено. Выявлены значительные различия между странами. Результаты по Узбекистану указывают на централизованную систему. Под-*

чёркивается важность расширения роли учителей для повышения качества образования.

Ключевые слова: *Управление школой, централизация, децентрализация, участие учителей, принятие решений, TALIS 2024, распределённое лидерство, качество образования, школьная автономия, педагогическое управление.*

Teacher partıcıpatıon ın school management under centralızed and decentralızed condıtıons
(based on TALIS 2024 results)

Ismailov Abduvali Abdumalikovich,
Rector of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni
p.f.f.d. (PhD), Associate Professor
Odilova Madinabonu Orifjon qizi,
Doctoral student in the specialty of Management in Education National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *This article analyzes the results of the TALIS 2024 study on teacher participation in decision-making processes under conditions of centralization and decentralization in school management using descriptive and comparative methods. The study explores the scope of teachers' involvement in vary aspects of the educational process, including teaching and learning, school policy, discipline, assessment, personnel matters and school budget issues. The findings show that teachers are mainly active in classroom-related decisions, but their involvement in strategic school management are limited. The study also defines that significant differences are observed across countries, reflecting varying management models. The results for Uzbekistan indicate predominance of centralized system of management. The article highlights the importance of enhancing collaborative leadership and proposes recommendations for expanding teachers' role in decision-making process. It serves to improve effectiveness of collaborative school leadership and the quality of education.*

Keywords. *School management, centralization, decentralization, teacher participation, decision-making, TALIS 2024, collaborative leadership, education quality, school autonomy, instructional management.*

Ta'lim tizimini boshqarishda markazlashuv (tsentralizatsiya) va desentralizatsiya (markazdan qochish) qarama-qarshi, ammo ko'pincha bir-birini to'ldiruvchi ikki xil yondashuv hisoblanadi. Ular qaror qabul qilish vakolatlari qayerda (yuqori tashkilotda yoki joylarda) jamlanganiga qarab farqlanadi. Ular qaror qabul qilish vakolatlari qayerda (yuqori tashkilotda yoki joylarda) jamlanganiga qarab farqlanadi. Markazlashuv – bu ta'lim tizimidagi asosiy qarorlar, siyosat, o'quv rejalari va moliyalashtirishning yagona markaz (masalan, Vazirlik) tomonidan boshqarilishi. Desentralizatsiya – bu qaror qabul qilish vakolatlarini markaziy boshqaruv organidan (vazirlikdan) mahalliy organlarga (viloyat, tuman, maktab boshqaruvi) o'tkazishdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimida desentralizatsiya elementlari kuchaymoqda. Xususan, maktablarga moliyaviy mustaqillik berish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida (ingliz tili, IT) mahalliy ehtiyojga moslashtirish, direktorlarni tanlov asosida tayinlash kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ta'lim standartlari va yakuniy baholash (imtihonlar) baribir markazlashgan holda qolmoqda.

Ta'lim tizimida eng muhim siyosiy qarorlardan biri – o'qituvchilarga qancha darajada qaror qabul qilish [5] vakolati berilishini belgilashdir. Bir tomondan, ta'lim tizimi barcha hududlarda yuqori sifatli ta'limni barqaror va yagona standart asosida ta'minlashga intiladi. Ikkinchi tomondan esa, o'qituvchilar o'z o'quvchilarining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini chuqur bilgan holda, ta'lim jarayonini moslashtirish uchun eng qulay subyekt hisoblanadi. Shu sababli ular o'qitish maqsadlarini belgilash, pedagogik usullarni tanlash va ta'lim jarayonini mavjud talablar asosida tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'qituv-

chilarga qaror qabul qilish vakolatining oqilona taqsimlanishi maktab muhitini yaxshilash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda samarali omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida qaror qabul qilish jarayoni odatda vakolatlarni bosqichma-bosqich taqsimlash [5] orqali amalga oshiriladi, ya’ni markaziy boshqaruv organlaridan maktablarga, maktab ichida esa o‘qituvchilarga ma’lum darajada erkinlik beriladi [3]. So‘nggi yillarda ta’lim boshqaruvida nafaqat maktab darajasidagi, balki o‘qituvchi darajasidagi mustaqillikning ham ahamiyati ortib borayotgani e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, dars jarayoni bilan bog‘liq qarorlar – o‘quv materiallarini tanlash, o‘quv maqsadlarini belgilash, baholash strategiyalarini aniqlash va pedagogik yondashuvlarni moslashtirish – o‘qituvchilarning kundalik faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Biroq bu imkoniyatlar barcha ta’lim tizimlarida bir xil taqsimlanmagan bo‘lib, ayrim hollarda tajribali o‘qituvchilarga kengroq vakolat berilsa, yangi ish boshlagan o‘qituvchilar ko‘proq cheklovlar doirasida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy ta’lim tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki ularning kasbiy o‘zini anglashiga, ishga bo‘lgan munosabatiga va umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, mavjud tadqiqotlarda o‘qituvchilarning strategik boshqaruvdagi ishtiroki darajasi va uning markazlashuv bilan bog‘liqligi yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, TALIS 2024 tadqiqoti natijalari o‘qituvchilarning maktab boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari, yetakchilik faoliyatiga qo‘shilish darajasi hamda sinfdagi mustaqillik ko‘lami turli omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi [8]. Jumladan, o‘qituvchining yoshi, jinsi va pedagogik tajribasi, shuningdek maktabning joylashuvi, o‘quvchilar tarkibi va ijtimoiy sharoiti kabi omillar ushbu jarayonga ta’sir etadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarga berilgan mustaqillik darajasi ularning kasbiy farovonligi, ishidan qoniqishi va dars maqsadlariga erishish ko‘rsatkichlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ta’lim tizimida qaror qabul qilish vakolatining markazlashuvi va desentralizatsiyasi o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Haddan tashqari markazlashuv o‘qituvchilarning tashabbuskorligini cheklashi mumkin bo‘lsa, ortiqcha erkinlik esa ta’lim sifatida nomutanosiblikka olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu bois, samarali ta’lim boshqaruvi o‘qituvchilarning professional salohiyatini inobatga olgan holda, ularga yetarli darajada ishonch va vakolat berishga asoslanishi lozim.

O‘qituvchilarning qaror qabul qilish jarayonidagi muhim jihatlardan biri – ularning maktab faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan qarorlarda qay darajada ishtirok etishidir. Zamonaviy ta’lim tadqiqotlarida bu jarayon “taqsimlangan yetakchilik” modeli orqali izohlanadi [8]. Mazkur modelga ko‘ra, maktabdagi yetakchilik faqat direktor yoki rahbariyat bilan cheklanib qolmay, balki o‘qituvchilarni ham o‘z ichiga olgan holda bir nechta subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bu yondashuv o‘qituvchilarning professional bilim va tajribasini tan oladi hamda ularni nafaqat dars jarayonini tashkil etishda, balki maktab muhitini shakllantirishda ham faol ishtirok etishga undaydi. Shu jihatdan, bu holat o‘qituvchining “yetakchiligi”, ya’ni ongli ravishda harakat qilish va ta’sir ko‘rsatish qobiliyatining namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi.

Maktabda qaror qabul qilishning qanday tashkil etilgani va bu jarayonni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar o‘qituvchilarning yetakchilik rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. TALIS tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim tizimlarida maktab rahbarlari muhim yo‘nalishlarda, ayniqsa o‘quv dasturi va o‘qitish jarayoniga oid masalalarda o‘qituvchilar bilan hamkorlikda qaror qabul qiladi. Bunday yondashuv “birgalikda qaror qabul qilish” deb atalib, unda rahbariyatdan o‘qituvchilarga mas’uliyat ma’lum darajada gorizontal tarzda

o'tkaziladi [8]. Bu esa maktab ichida hamkorlik muhitini kuchaytiradi va boshqaruv jarayonini yanada demokratlashtiradi. Eng muhimi, o'qituvchilarning bunday yetakchilik faoliyatida faol ishtirok etishi ularning kasbiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, qaror qabul qilish jarayonida qatnashadigan o'qituvchilar odatda o'z ishidan ko'proq qoniqish hosil qiladi, kasbiy farovonligi yuqori bo'ladi va o'zini maktab jamoasining muhim a'zosi sifatida his qiladi. Demak, ta'lim tizimida taqsimlangan yetakchilikni rivojlantirish va o'qituvchilar ishtirokini kengaytirish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Maktab boshqaruvida ishtirok masalasi o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi rolini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. TALIS 2024 tadqiqotida maktab direktorlaridan o'qituvchilar maktab darajasida qanchalik darajada muhim mas'uliyatga ega ekanligi haqida ma'lumot olingan. Xususan, bu mas'uliyat o'quv dasturi va o'qitish jarayoni, maktab siyosatini belgilash, shuningdek budjet va kadrlar bilan bog'liq qarorlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning ushbu sohalardagi faol ishtiroki nafaqat rahbariyat tomonidan ularga rasmiy vakolatlar berilganini anglatadi, balki maktabda kengroq ma'noda professional ishonch muhitining shakllanganini ham ko'rsatadi. Bunday yondashuv hamkorlikka asoslangan boshqaruvni rivojlantirib, o'qituvchilarni muhim qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etadi. Natijada, maktab boshqaruvi yanada ochiq, demokratik va samarali tus oladi hamda o'qituvchilarning kasbiy faolligi va mas'uliyati oshadi.

Eng muhim jihat shundaki, o'qituvchilar asosan o'quv jarayoniga bevosita bog'liq bo'lgan sohalarda ko'proq vakolatga ega. Masalan, OECD o'rtacha ko'rsatkichiga ko'ra, o'qituvchilarning 77 foizi darsda foydalaniladigan o'quv materiallarini tanlashda sezilarli darajada mustaqillikka ega. Ko'plab ta'lim tizimlarida (54 tadan 41 tasida) kamida yarmi o'qituvchilar ushbu jarayonda ishtirok etadi. Ayrim davlatlarda, jumladan, Avstriya, Daniya, Estoniya, Islandiya, Italiya, Niderlandiya, Polsha va Sloveniya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda yuqori – 90 foizdan oshadi. Aksincha, O'zbekistonda bu ko'rsatkich juda past, ya'ni 20 foizdan ham kam [8].

Raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilishda ham o'qituvchilarning roli muhim: 54 ta davlatning 40 tasida o'qituvchilarning kamida yarmi bu jarayonda ishtirok etadi. Biroq, o'quv kurslari mazmunini (course content) belgilashda ularning ishtiroki ancha past bo'lib, o'rtacha 47 foizni tashkil etadi. Eng kam ishtirok etiladigan soha – qaysi kurslar o'qitilishini belgilashdir. O'rtacha faqat 33 foiz o'qituvchilar bu qarorlarda ishtirok etadi. Ko'p mamlakatlarda bu vazifa asosan maktab rahbariyatiga tegishli. Faqat ba'zi davlatlarda (masalan, Chexiya, Estoniya, Finlyandiya, Islandiya, Italiya, Niderlandiya va Serbiya) o'qituvchilarning yarmidan ko'pi bu jarayonga jalb etilgan. Saudiya Arabistonida esa bu daraja deyarli mavjud emas [8].

Shuningdek, maktab turi ham ta'sir qiladi: ayrim mamlakatlarda xususiy maktablarda o'qituvchilar kurs mazmuni va kurslarni belgilashda ko'proq ishtirok etadi. Davlat maktablari bilan farq odatda kichik o'rtacha 5-11 foiz atrofida, lekin ayrim tizimlarda sezilarli farqlar kuzatiladi [8]. TALIS natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar eng ko'p o'quv materiallarini tanlash va raqamli resurslardan foydalanish kabi bevosita dars jarayoniga oid qarorlarda ishtirok etadi, biroq maktab siyosati va kurslarni belgilash kabi strategik qarorlarda ularning roli ancha cheklangan. Quyi o'rta ta'lim o'qituvchilarining ishlayotgan maktablarida quyidagi sohalarda sezilarli mas'uliyatga ega:



1-rasm. O‘qituvchilarning maktabdagi qaror qabul qilish jarayonida ishtiroki: o‘quv dasturi va o‘qitish bo‘yicha [8].

Ushbu rasmda TALIS (OECD) tadqiqoti asosida o‘qituvchilarning maktab qarorlarida ishtirokini 4 ta yo‘nalishda taqqoslab ko‘rsatadi. Grafikda OECD o‘rtacha ko‘rsatkichi, turli ta’lim tizimlari, eng past va eng yuqori qiymatlar hamda ayrim davlatlar. Masalan, O‘zbekiston, Daniya, Islandiya, Niderlandiya, Italiya, Saudiya Arabistoning natijalari berilgan. Grafik shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar maktabdagi eng ko‘p ishtirokni bevosita dars jarayoni bilan bog‘liq qarorlarda amalga oshiradi, strategik boshqaruv qarorlarida esa ularning roli ancha past.

O‘quv materiallarini tanlash – bu yo‘nalishda o‘qituvchilarning ishtiroki eng yuqori. OECD o‘rtacha darajasi yuqori taxminan 70-80% atrofidadir [8]. Daniya eng yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘zbekiston esa eng past guruhda, ya’ni juda kam o‘qituvchi bu jarayonda mustaqil qaror qabul qiladi [8].

Raqamli resurslardan foydalanish – ishtirok darajasi o‘rtacha va biroz pastroq. Islandiya eng yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘zbekiston yana past darajada. Raqamli texnologiyalar bo‘yicha mustaqillik bor, lekin hamma tizimlarda bir xil emas.

O‘quv dasturi mazmunini belgilash – bu yo‘nalishda ishtirok ancha kamaygan ya’ni taxminan 40–50% [8]. Eng yuqori ko‘rsatkich Niderlandiyada, Saudiya Arabistoni eng past. O‘qituvchilar o‘quv dasturini belgilashda cheklangan rolga ega.

Qaysi kurslar o‘qitilishini aniqlash – eng past ishtirok shu sohada (taxminan 30-40%) [8]. Italiya eng yuqori, Saudiya Arabistoni eng past. Strategik qarorlar asosan maktab rahbariyati qo‘lida. Grafikdan ko‘rinadiki, o‘qituvchilar eng ko‘p ishtirok etadigan soha bu o‘quv materiallarini tanlash, o‘rtacha ishtirok – raqamli resurslar va kurs mazmuni, eng kam ishtirok – qaysi kurslar o‘tilishini belgilash. Shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida katta farq bor: Skandinaviya va Yevropa davlatlarida o‘qituvchilar erkinligi yuqori, ayrim mamlakatlarda, masalan, O‘zbekiston va Saudiya Arabistonda esa juda past.

O‘qituvchilarning maktab siyosatiga ta’siri cheklangan hisoblanadi: o‘rtacha har ikki o‘qituvchidan biri ham maktabda muhim qarorlar, jumladan maktabni rivojlantirish, o‘quvchilarni baholash, intizom va xilma-xillik bilan bog‘liq

siyosatlarda sezilarli darajada ishtirok etmaydi. Shu bilan birga, turli ta'lim tizimlari o'rtasida bu borada katta farqlar mavjud. O'rtacha hisobda har o'n o'qituvchidan to'rt nafari maktabni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarini belgilash jarayonida qatnashadi. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori: Estoniya, Italiya, Latviya va Niderlandiyada o'qituvchilarning kamida 60 foizi maktab rivojlanish maqsadlarini aniqlashda ishtirok etadi. Aksincha, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni va Vetnamda esa bu jarayonda qatnashuvchi o'qituvchilar 10 foizdan ham kam [8].

Shuningdek, o'rtacha hisobda o'qituvchilarning 40 foizi o'quvchilarni baholash siyosatini jumladan milliy va hududiy baholash tizimlarini belgilashda ishtirok etadi. Biroq so'nggi yillarda bu yo'nalishda o'qituvchilarning ishtiroki kamayib bormoqda: 2018–2024-yillar oralig'ida o'rtacha 3 foiz punktga pasayish kuzatilgan. Uzoq muddatli tendensiyalar ham turlicha bo'lib, 2013–2024-yillarda ayrim mamlakatlarda sezilarli kamayish qayd etilgan: masalan, Ispaniyada 8 foiz punktga, Serbiya va Singapurda esa 20 foizdan ortiq pasayish kuzatilgan. Faqat Shanxayda o'qituvchilarning maktab darajasidagi qarorlar, ayniqsa baholash siyosatidagi ishtiroki oshgan [8]. Quyi o'rta ta'lim bosqichida o'qituvchilarning quyidagi sohalar bo'yicha maktablarda muhim mas'uliyatga ega bo'lgan holda ishlaydigan o'qituvchilarning foizi berilgan:



2-rasm. Maktab siyosatlari bo'yicha qaror qabul qilishda o'qituvchilarning ishtiroki [8].

Maktab turiga qarab farqlar odatiy hol bo'lmasa-da, bunday holatlar kuzatilganda, asosan, xususiy boshqaruvdagi maktablarda ishlaydigan o'qituvchilarning baholash siyosatini belgilashda ishtiroki ko'proq ekani qayd etiladi (9 ta ta'lim tizimida), o'rtacha farq 10 foiz punktni tashkil qiladi. Faqat Singapurda davlat boshqaruvidagi maktablarda ishlaydigan o'qituvchilar ushbu yo'nalishda ko'proq ishtirok etishi haqida maktab direktorlarining ma'lumotlariga ko'ra qayd etilgan.

O'qituvchilarning qariyb 40 foizi (o'rtacha 39%) o'quvchilarning intizom siyosati va tartib-taomillarini belgilashda ishtirok etadigan maktablarda ishlaydi. Bu ishtirok ayniqsa Chexiya, Islandiya va Sloveniya kabi davlat-

larda yuqori bo‘lib, bu yerda o‘qituvchilarning 67 foizdan ortig‘i ushbu jarayonda qatnashadi. Ammo Saudiya Arabistoni, Shvetsiya va O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 5 foizdan ham past. Shunga qaramay, tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, bu amaliyotda o‘qituvchilar ishtiroki kamayib bormoqda. OECD ta’lim tizimlari bo‘yicha 2018–2024-yillar oralig‘ida o‘rtacha 3 foizga pasayish kuzatilgan, 2013–2024-yillardagi uzoq muddatli tendensiyalar esa 13 ta ta’lim tizimida pasayishni ko‘rsatadi [6]. Faqat Yaponiya va Shanxayda 2018–2024-yillar oralig‘ida ijobiy o‘sish 11 foiz kuzatilgan, Koreyada esa uzoq muddatli davrda 18 foiz o‘sish qayd etilgan.

O‘nta ta’lim tizimida xususiy boshqaruvdagi maktablarda ishlaydigan o‘qituvchilar davlat boshqaruvidagi maktablarga nisbatan intizom siyosati va amaliyotlari bo‘yicha qaror qabul qilishda ko‘proq ishtirok etishi qayd etilgan bo‘lib, o‘rtacha farq 8 foizni tashkil etadi. Biroq Kosta-Rikada buning aksi kuzatiladi va u yerda farq 26 foizdan ham oshadi.

Matnda o‘qituvchilarning maktabdagi qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki turli yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qilinadi. O‘quvchilarning xilma-xilligi bilan bog‘liq siyosatlarda o‘qituvchilarning o‘rtacha ishtiroki 38 foizni tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarda, xususan, Estoniya, Finlyandiya, Latviya va Sloveniya kabi davlatlarda bu ko‘rsatkich 67 foizdan ham yuqori bo‘lsa, Marokash, Saudiya Arabistoni, Singapur va O‘zbekistonda 10 foizdan past darajada qolmoqda. Boshqa tomondan, o‘qituvchilar tarkibiga oid xilma-xillik siyosati esa ko‘pincha o‘qituvchilarning vakolat doirasidan tashqarida qoladi. Bu sohada o‘qituvchilarning o‘rtacha ishtiroki atigi 20 foizni tashkil etadi va aksariyat ta’lim tizimlarida bundan ham past. Faqat Estoniya va Finlyandiya bu borada istisno bo‘lib, ularda o‘qituvchilarning yarmidan ko‘prog‘i ushbu jarayonlarda ishtirok etadi.

Budjet va kadrlar masalalariga kelganda esa o‘qituvchilarning ishtiroki deyarli sezilmaydi. Ya’ni, o‘qituvchilarni ishga olish yoki ishdan bo‘shatish, boshlang‘ich maoshni belgilash va maoshni oshirish kabi qarorlarda ularning roli juda past. O‘rtacha hisobda atigi 6 foiz o‘qituvchi maktab byudjetini taqsimlashda muhim ishtirok etadi. Faqat Janubiy Koreya 25 foiz va Latviya 21 foiz kabi davlatlarda bu ko‘rsatkich nisbatan yuqoriroq bo‘lib, o‘qituvchilar maktab byudjeti va kadrlar bilan bog‘liq qarorlarda faolroq ishtirok etadi [8]. Umuman olganda, matn o‘qituvchilarning pedagogik masalalarda nisbatan faol bo‘lsa-da, maktab boshqaruvining moliyaviy va kadrlar bilan bog‘liq muhim yo‘nalishlarida ularning ishtiroki juda cheklanganligini ko‘rsatadi.

Sloveniya o‘zining gimnazija (umumiy yuqori o‘rta ta’lim) tizimini isloh qilish doirasida maktab rivojlantirish jamoalarini tashkil etdi [8]. Bu jarayonda taqsimlangan yetakchilik, o‘quv jamoalari va o‘qituvchilarning o‘zgarish agentlari sifatidagi roli kabi yondashuvlar asos qilib olindi. Maktab rahbarlari ko‘magida ushbu jamoalar ehtiyojlarni tahlil qilish va tizimli muloqot kabi faoliyatlar orqali maktablarda rivojlanish jarayonlarini boshqarish, yo‘naltirish va muvofiqlashtirish bilan shug‘ullandi. Maktab rivojlantirish jamoalari Milliy ta’lim instituti tomonidan ham qo‘llab-quvvatlandi.Islohotning maqsadi quyidagilar edi:

- o‘qituvchilar va fanlararo jamoalarni yuqori darajadagi fikrlash va asosiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi innovatsion o‘qitish amaliyotlarini joriy etishga rag‘batlantirish;
- bu o‘zgarishlarni strategik rejalashtirish, muvofiqlashtirish va butun maktab bo‘yicha amalga oshirish orqali barqarorlashtirish.

Dastlab asosiy e’tibor birinchi maqsadga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik ikkinchi maqsad ustuvor bo‘lib qoldi. Islohotning maqsadi maktab darajasida professional salohiyatni rivojlantirish orqali ta’limdagi innovatsiyani kuchaytirish edi. Shu maqsadda kasbiy rivojlanish

va tadqiqot tarmoqlari kengaytirildi, rahbarlik tizimi mustahkamlandi hamda o'qitish va o'quv infratuzilmasiga investitsiya kiritildi. Butun islohot taxminan o'n yil davom etdi. Dastlabki uch yillik pilot bosqichida o'nta maktab qatnashdi, keyinchalik esa islohot 70 dan ortiq gimnaziyalarga kengaytirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi o'qituvchilar bo'lib, ular milliy darajada taqdim etilgan materiallar va qo'llab-quvvatlash asosida islohotlarni shakllantirishda yetakchi rol o'ynagan.

Kolumbiyada 1994-yilda qabul qilingan "Umumiy ta'lim to'g'risidagi qonun" maktab boshqaruvi uchun huquqiy asos yaratdi [8]. Unga ko'ra, Maktab boshqaruv kengashi (Consejo Directivo) va Akademik kengash (Consejo Académico)ning vazifalari belgilandi va o'qituvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning maktabning ma'muriy va akademik ishlarida ishtirok etishi ta'minlandi. Ushbu kengashlardagi ishtirok orqali o'qituvchilar maktabni tashkil etish, pedagogik yo'nalish, o'quv dasturini amalga oshirish va uni doimiy takomillashtirish bo'yicha o'z fikrini bildirish imkoniga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, Kolumbiyada o'quv yili ichida maktablarning institutsional rivojlanishiga bag'ishlangan besh hafta mavjud bo'lib, bu davrda o'qituvchilar maktabning ta'lim loyihasi, o'quv rejasi, pedagogik rivojlanish, o'z-o'zini baholash hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik ustida ishlaydilar. Shuningdek, kolumbiyalik o'qituvchilar ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ham kengroq ishtirok etadilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda o'qituvchilar maktab darajasidagi qaror qabul qilish jarayonlarida turli darajada ishtirok etadi. Ayniqsa, Sloveniya va Kolumbiya kabi mamlakatlarda o'qituvchilar maktabni rivojlantirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va ta'lim siyosatini shakllantirish jarayonlarida faol subyekt sifatida qatnashadi. Bu esa maktab boshqaruvida "taqsimlangan yetakchilik" tamoyilining samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston natijalariga kelganda, tadqiqotda o'qituvchilarning maktab siyosatlari, xususan, intizom, xilma-xillik, budjet va kadrlar masalalaridagi ishtiroki past ekanligi qayd etilgan. Ayniqsa, intizom siyosatida hamda o'quvchilar xilma-xilligi bo'yicha qaror qabul qilishda o'qituvchilar ishtiroki 10 foizdan ham past bo'lib, bu ko'rsatkich xalqaro o'rtacha darajadan ancha orqada ekanini ko'rsatadi. Byudjet va kadrlar siyosatida esa o'qituvchilarning ishtiroki deyarli sezilmaydi. Bu holat O'zbekistonda maktab boshqaruvi ko'proq markazlashgan tizimga asoslanganini va o'qituvchilarning qaror qabul qilishdagi vakolati cheklanganligini anglatadi. Natijada o'qituvchilar asosan o'quv jarayonini amalga oshiruvchi ijrochi sifatida qolib ketmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

O'qituvchilarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish – maktab darajasida pedagogik kengashlar va ishchi guruhlarning vakolatlarini kuchaytirish zarur.

Taqsimlangan yetakchilik modelini joriy etish – Sloveniya tajribasiga o'xshab, o'qituvchilarni maktab rivojlanish jarayonida faol "o'zgarish yetakchililigi" sifatida jalb qilish kerak.

Kadrlar va baholash siyosatida ishtirokni oshirish – o'qituvchilarga yangi pedagoglarni tanlash, baholash va rivojlantirish jarayonida fikr bildirish imkonini berish lozim.

Kasbiy rivojlanish tizimini kuchaytirish – o'qituvchilar uchun muntazam treninglar, tadqiqot loyihalari va hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish kerak.

Maktab avtonomiyasini oshirish – maktablarning moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali o'qituvchilarning boshqaruvdagi roli kuchaytiriladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchilar asosan o'quv jarayonini amalga oshiruvchi sub-

yekt sifatida qolmoqda. Xalqaro tajriba esa shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki oshirilsa, maktab samaradorligi va ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu sababli, boshqaruvni bosqichma-bosqich demokratlashtirish va o‘qituvchilar rolini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida markazlashuv va desentralizatsiya o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi boshqaruv yondashuvlaridir. Samarali tizim aynan shu ikki model o‘rtasidagi muvozanatga tayanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki, ayniqsa pedagogik jarayonlarga oid masalalarda, ta’lim sifati va maktab samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq strategik, moliyaviy va kadrlar bilan bog‘liq qarorlarda ularning roli ko‘pincha cheklanganligicha qolmoqda.

Xalqaro tajriba (xususan, TALIS natijalari) o‘qituvchilarga kengroq vakolat berish, taqsimlangan yetakchilikni rivojlantirish va maktab darajasida mustaqillikni oshirish ijobiy natijalar berishini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa bu yo‘nalishda ayrim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, o‘qituvchilarning boshqaruvdagi ishtirokini yanada kengaytirish zarur. Shu bois, ta’lim tizimini rivojlantirish uchun boshqaruvni bosqichma-bosqich desentralizatsiya qilish, o‘qituvchilarga ishonch va vakolat berish hamda ularning kasbiy salohiyatidan to‘liq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezedentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79 son Farmoni.
3. Jon Eynli, Ralf Karstens. O‘qitish va ta’lim olishni o‘rganish xalqaro tadqiqoti (TALIS), Konseptual qamrov doirasi, 2018.
4. Jo‘rayev.R.X, Turg‘unov.S.T. Ta’lim menejmenti.Qo‘llanma. – T:Voris-Nashriyot, 2006. B.225.
5. OECD (2015[3]), “Guiding the Policy and Content Focus of TALIS 2018”, № EDU/INES/TALIS(2015) 3 (ichki hujjat), Ta’lim va malakalar bo‘yicha direksiya, OECD, Parij.
6. OECD (2015 3) ma’lumotlariga asoslanib, “Guiding the Policy and Content Focus of TALIS 2018”, № EDU/INES/TALIS(2015)3 (ichki hujjat), Ta’lim va malakalar bo‘yicha Direksiya, OECD, Parij.
7. OECD (2025), TALIS 2024 natijalari: O‘qitish holati, TALIS, OECD nashriyoti, Parij, https://doi.org/10.1787/90df6235-en.
8. OECD. (2019). Teaching and Learning International Survey (TALIS) 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. OECD Publishing, Paris.
9. OECD (2019), TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners, TALIS, OECD Publishing, Paris.
10. Darling-Hammond, L. (2017). Dunyo bo‘ylab o‘qituvchilar ta’limi: xalqaro amaliyotdan nimani o‘rganishimiz mumkin? Yevropa o‘qituvchilar ta’limi jurnali. B.309.
11. BEYAZBAL, DS (2026). O‘qituvchining o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, hamkorlik, kasbiy rivojlanish va ishdan qoniqish o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish: TALIS 2024 tadqiqoti. KO‘P FANLI TA’LIMDA INNOVATSION TADQIQOTLARNING XALQARO JURNALI, 5(4), 326. https://doi.org/10.58806/ijirme.2026.v5i4n07

7-SINFDAN BOSHLAB PISA YONDOSHUVI ASOSIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Turg‘inova Yoqutxon Doniyor qizi,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogika mahorat milliy instituti magistranti
tel: 94-402-05-09
e-mail: turginovay@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining 7-sinflarida PISA (Programme for International Student Assessment) yondashuvi asosida o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Avvalo, 7-sinf o‘quvchilariga o‘qish savodxonligi nima ekanligini tushuntirish va matnlarni qanday o‘zlashtirish lozimligi bo‘yicha to‘g‘ri yondashuvlarni shakllantirish hozirgi PISA talablarining asosiy qoidalaridan biri hisoblanadi.*

Tadqiqotda PISA o‘qish savodxonligining asosiy komponentlari – matnni tushunish, talqin qilish, baholash va undan foydalanish ko‘nikmalarini ona tili darslariga integratsiya qilishning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari PISA yondashuvi o‘quvchilarning funksional savodxonligi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Amaldagi darsliklardagi matnlar bilan PISA darajasidagi matnlarning solishtirma tahlili amalga oshiriladi hamda olingan natijalar kuzatiladi. Matnni o‘qib tushunishga oid topshiriqlar ishlab chiqilib, ularni raqamli texnologiyalar asosida bajarish ta’lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *PISA, o‘qish savodxonligi, funksional savodxonlik, ona tili ta’limi, matnni o‘qib tushunish, ta’limda integratsiya.*

Эффективность развития читательской грамотности с 7класса на основе подхода PISA

Тургинова Екутхон кызы,
Магистрант Национального института Педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони

Аннотация: *В данной статье анализируется педагогическая эффективность формирования и развития читательской грамотности у учащихся 7-х классов общеобразовательных школ на основе подхода PISA (Программа международной оценки учащихся). Прежде всего, разъяснение учащимся 7-го класса сущности читательской грамотности и способов правильного восприятия текстов рассматривается как одно из ключевых требований современных стандартов PISA.*

В исследовании анализируется педагогическая эффективность интеграции основных компонентов читательской грамотности PISA – понимания, интерпретации, оценки и использования текстов – в уроки родного языка. Результаты исследования подтверждают, что подход PISA способствует развитию функциональной грамотности и критического мышления учащихся. Проводится сравнительный анализ текстов из учебников и текстов уровня PISA, а также анализируются полученные результаты. Разрабатываются задания, направленные на понимание прочитанного текста, выполнение которых с использованием цифровых технологий повышает качество образования.

Ключевые слова: *PISA, читательская грамотность, функциональная грамотность, обучение родному языку, понимание прочитанного, интегративное образование.*

The effectiveness of developing reading literacy based on the PISA approach from 7th grade

Turginova Yoqutxon Doniyor qizi,
Master's student of the National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloni

Abstract: *This article analyzes the pedagogical effectiveness of developing and enhancing reading literacy in 7th-grade students of general secondary schools based on the PISA (Programme for International Student Assessment) approach. The fundamental principle of current PISA requirements is to explain the essence of the reading literacy to 7th-grade students and how to formulate comprehension skills of acquiring the content of text.*

The study explores the pedagogical effectiveness of integrating the main components of PISA reading literacy, such as understanding, interpreting, evaluating, and using texts, into Native Language(Mother Tongue) lessons. The research results ensures that the PISA approach contributes to the development of students' functional literacy and critical thinking skills. The study comparatively ananlyzes texts used in the current textbooks and PISA-level texts as well as reviews the obtained results. Developed reading comprehension tasks and implementing these tasks using digital technologies serves to improve the quality of education.

Keywords: *PISA, reading literacy, functional literacy, native language (Mother Tongue)education, reading comprehension of the text, integration in education.*

PISA – bu 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro dastur bo‘lib, u o‘quvchilarning hayotga tayyorgarlik darajasi va funksional savodxonligini aniqlashga xizmat qiladi. PISA tadqiqotlari doirasida o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalari baholanadi. Ushbu maqolada PISA dasturining o‘qish savodxonligi yo‘nalishi asosida matn bilan ishlash metodlari va ularni 7-sinf o‘quvchilarida shakllantirish masalalari yoritiladi.

O‘qish savodxonligi – shaxsning o‘z bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda munosib o‘rin egallash maqsadida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish va baholash qobiliyatidir [2].

PISA yondashuvida rivojlangan mamlakatlar bilimlarni yodlashga asoslangan ta’limdan voz kechib, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish, bilimlarni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan konsepsiyalarni joriy etmoqda. Bu jarayon xalqaro miqyosda muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA natijalari ta’lim siyosatini takomillashtirish, o‘quv dasturlarini yangilash va samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, umumta’lim maktablarining 7-sinf ona tili darslarida o‘qish savodxonligini fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish taklif etiladi. Integratsiyalashgan matnlar bilan ishlash jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

7-sinfdan boshlab matn mazmunini chuqur anglash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida o‘qish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelmasligini ta’minlaydi hamda 15 yoshda o‘tkaziladigan PISA xalqaro baholash dasturida yuqori natijalarga erishishiga zamin yaratadi. O‘qish savodxonligi PISA dasturidagi asosiy tarkibiy qism bo‘lib, u faqat matnni tushunishni emas, balki matn tahlili, kritik fikrlash, ma’lumotni ishon-

chlilik va ma'no jihatidan baholash, jamiyatda ishtirok etishni ham o'z ichiga oladi[6].

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, 7-sinf o'quvchilarida diqqatning barqarorligi va hajmi ortadi, biroq u hali to'liq ixtiyoriy xarakterga ega emas. Shu sababli matn hajmi, mazmuni va murakkabligi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi zarur [1].

PISA yondashuvida o'qish savodxonligi an'anaviy o'qish ko'nikmalaridan farqli ravishda funksional xarakterga ega bo'lib, o'quvchining axborotni anglash, qayta ishlash va baholash qobiliyatlarini qamrab oladi [4]. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [3].

7-sinf ona tili darslariga PISA topshiriqlari va matnlarini integratsiya qilish jarayoni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, sodda va tushunarli mezonlar asosida tashkil etilishi lozim. Bunda topshiriqlar murakkablik darajasi jihatidan soddalashtirilgan bo'lsa-da, ularning mazmuniy va kognitiv talablari PISA tadqiqotida 15 yoshli o'quvchilar uchun belgilangan baholash mezonlariga moslashtirildi. Avvalo, 7-sinf o'quvchilarini faqat tez va ravon o'qishga emas, balki matn mazmunini chuqur anglashga, asosiy g'oya va muallif fikrini tahlil qilishga, shuningdek, muhim va ikkilamchi axborotlarni mustaqil ravishda ajrata olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirib, matnga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Topshiriqlar o'quvchilarning yoshiga mos kognitiv darajada, ya'ni sodda, aniq va bosqichma-bosqich tuzilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar uchun tanlanadigan matnlar kundalik hayotga yaqin, bolalarning qiziqishlariga mos, qisqa va mazmunli bo'lishi talab etiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi hamda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, 7-sinf o'quvchilarida turli janrdagi va formatdagi matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki PISA topshiriqlarida real hayotdagi axborot manbalari bilan ishlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Keyingi bosqichda tanqidiy fikrlashning boshlang'ich darajasiga oid topshiriqlarni qo'llash 7-sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga yordam beradi. Ushbu sinf bosqichida PISA yondashuvi asosida baholash, xatoga yo'l qo'yishdan qo'rqmaslik hamda xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Ona tili va adabiyot darslarida PISA yondashuvini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov o'tkazish jarayonida sinflarni taqsimlash orqali natijalarni solishtirish va baholash imkoniyati yaratildi. Ushbu tajriba- sinovda Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi 1-sonli maktabning 7-sinf o'quvchilari tanlandi. Avvalo, 7-sinf o'quvchilaridan PISA tadqiqotining o'qish savodxonligi bo'yicha diagnostika so'rovnomasi o'tkazildi. Bu so'rovnomada 60ta 7-sinf o'quvchilari ishtirok etdi.

1-mutlaqo qo'shilmayman. Bu darajadagi o'quvchilarning foiz ko'rsatkichi kam. Ammo bu testdan ko'rinib turbdiki, ayrim o'quvchilar matnni tushunishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishini va o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha qo'shimcha yordamga muhtoj ekanligi ko'rsatadi.

2-qisman qo'shilmayman. Ushbu darajada ham o'quvchilar kam foizlarni tashkil etdi. Bunday o'quvchilarda matnni tushunishda qiynalishadi va asosiy ma'lumotlarni ajratishda yordamga muhtoj bo'lishlari mumkin.

3-betarafman. Bu ko'rsatkichda o'quvchilarda 20 foizni tashkil etgan bu daraja shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda o'qish savodxonli-

7-sinflarda o‘qish savodxonligi bo‘yicha diagnostika so‘rovnomasi



	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	16	17	18	19	20
5 – to‘liq qo‘shilaman	25%	32%	30%	30%	32%	30%	35%	30%	35%	30%	32%	32%	30%	25%	32%	30%	32%	35%	35%
4 – qo‘shilaman	30%	28%	30%	30%	28%	30%	30%	30%	35%	30%	28%	30%	30%	30%	28%	30%	28%	30%	30%
3 – betarafman	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%	20%
2 – qisman qo‘shilmayman	15%	12%	13%	13%	12%	13%	10%	13%	10%	12%	12%	13%	15%	10%	12%	12%	12%	10%	10%
1 – mutlaqo qo‘shilmayman	10%	8%	7%	7%	8%	7%	7%	7%	7%	8%	8%	8%	7%	7%	8%	8%	8%	7%	7%

Izoh: Foizlar yig‘indisi har bir savol bo‘yicha 100% ga teng.

gi va matn yuzasidan birlamchi ma’lumotlari ham yo‘q ekanligi. Bunday o‘quvchilar bilan o‘qituvchi 0darajadan boshlab shug’ullanishi va o‘qish savodxonligi o‘zi nima ekanligini tushuntirishi kerak.

4-qo‘shilaman. Ushbu darajani tanlagan o‘quvchilarning nisbatan matnni tushunishi va o‘qish savodxonligiga ega ekanligini bildik. Bu o‘quvchilar murakkab matnlarni tushunadi va tahlil qila oladi.

5-to‘liq qo‘shilaman. Bu ko‘rsatkichda ham o‘quvchilar ancha yaxshi natijani ko‘rsatdi. Bunday o‘quvchilar matn borasida va o‘qish savodxonligi borasida chuqur bilimlari bor ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilardagi asosiy bo‘shliqlar aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadik, 7-sinf o‘quvchilari orasida o‘qish savodxonligi darajasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu borada biz har ikkala sinfga o‘qish savodxonligi, funksional savodxonlik va matn bilan ishlash kabi asosiy qoidalar bilan tanishtirib o‘tamiz. Chunki o‘quvchilarda o‘qish savodxonligi to‘liq shakllanmagan, lekin rivojlanish bosqichida. O‘quvchilardagi eng katta muommo tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Bunday vaziyatda ona tili va adabiyot darsiga biz integratsiyalashgan modelni taklif qilamiz. Bu nima uchun kerak ona tili va adabiyot darslarida PISA tipidagi matnlarni kiritish o‘quvchilarni nafaqat funksional savodxonlikka va Xalqaro tadqiqotlarda yuqori natijalar ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Bu integratsiyalashgan sxemamiz diagnostika testidan so‘ng amalga kiritamiz.

1-bosqich: Matn tanlash va moslashtirish. Bu bosqichda PISA talabiga mos material yaratamiz. Matnlar ham badiiy va ilmiy-ommabop bo‘lishi zarur. Matnni 3darajaga moslashtirish zarur. 1. Oddiy tushunish savollari. 2. Tahliliy

7-sinflar uchun integratsiyalashgan model sxemasi



savollar. 3. Reflektiv (fikrlash) savollari. har bir matn va topshiriqni hayotiy vaziyatga yaqinalshtirish lozim.

2-bosqich: Topshiriqlarni integratsiya qilish. Bu bosqichda PISA formatidagi savollarni darsga kiritish lozim. Har bir matnga 3turdagi savol qo'shish: 1. Axborotni topish; 2. Tushunish va talqin qilish; 3. Tahlil va baholash. Bu turdagi savollarni myrakkablik bo'yicha ketma -ket joylashtirish kerak. Natijada PISA kompetensiyalariga mos topshiriqlar tizimi yaratiladi.

3-bosqich: Dars jarayonlarida qo'llash. Bu yaratgan integratsiya jarayonini darsda qo'llash lozim. Guruhlarda, individual va juftliklarda ishlatib ko'rish kerak. Muhokama qismini yaratish har darsda, shunda o'quvchilar passiv tinglovchidan, faol ishtirokchiga aylanadi.

4-bosqich: Baholash va Feedback. Olib borilayotgan jarayonning natijalarini o'lchash vatahlil qilish lozim. O'quvchilar xatolarini tahlil qilish va individual tavsiya berish lozim**.**

5-bosqich: Refleksiya. O'quvchini fikrlashga o'rgatish lozim, har darsda. Har darsda o'quvchi "men nimani tushundim?", "nimani qiyin deb topdim?" degan savollarga javob berish kerak. Shunda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalari rivojlanadi.

Umuman olganda o'qituvchilar har darsda kamida PISA uslubidagi topshiriq berish, savollarni oddiydan murakkabga o'tkazish, tahlilga ko'proq vaqt ajratishi muhim sanaladi. PISA dagi asosiy narsa raqamli savodxonlikka ham ega bo'lishdir. O'quvchilarga matn va topshiriqlarni raqamli texnologiyalar orqali o'rgatish usuli ham zamonaviy yondashuvlatrdan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan matnga oid topshiriqlar (interaktiv testlar, onlayn savol-javoblar, multimediya asosidagi mashqlar) o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [5]. An'anaviy qog'ozli mashqlarga nisbatan bunday topshiriqlar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va ta'lim jarayonini shaxsiy ehtiyoj hamda qiziqishlarga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

7-sinf o'quvchilarini o'qitishda raqamli interaktiv o'qish, geymifikatsiya, muammoli

ta'lim va multimodal o'qitish metodlaridan foydalanish zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar bilan asoslangan bo'lib, PISA baholash dasturida belgilangan o'qish savodxonligi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, PISA yondashuvini 7-sinfdan boshlab ona tili darslariga integratsiya qilish o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning funksional savodxonligini oshirish, ta'lim sifatini xalqaro talablarga moslashtirish hamda ularni kelajak hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarga tavsiya etiladi: ta'lim jarayonini faqat maktab darsliklari va ulardagi topshiriqlar bilan cheklab qo'ymaslik lozim. Har bir o'quvchi individual rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, uning qiziqishlari va bilim darajasini inobatga olgan holda ona tili darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston ta'lim tizimida o'quvchilarni faqat "matnni o'qish" emas, balki matn bilan faol aloqada bo'lish, ijtimoiy-ma'naviy va amaliy jarayonlarda o'z fikrini asoslab ifodalash kompetensiyasini shakllantirih zarurati bilan uyg'un keladi [7].

Shu sababli 7–8-sinflarda raqamli texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan darslik metodikasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish ta'lim sifatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Hozirgi 7-sinf ona tili darsligi mazmunan ancha mukammal bo'lsa-da, unda PISA metodik tizimi to'liq yoritilmagan, topshiriqlar baholash mezonlari bilan yetarli darajada integratsiyalashmagan, raqamli muhitga moslashtirilmagan hamda o'qituvchilar uchun PISA modeli asosida darsni tashkil etish mexanizmi to'liq ishlab chiqilmagan.

Xulosa o'rnida, o'rganishlar, o'tkazilgan so'vnoma natijalariga tayangan holda 7-sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ona tili darslarida PISA yondashuvidagi matnlar bilan ishlash hamda raqamli platformalar orqali darsni tashkil etishning metodik modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elkonin D. B. The Psychology of Preschool Children. – Cambridge, MA: MIT Press, 1971.

2. Ismailov A., Palvannazirov S., Ruziyeva Q., Uralova M. PISA o'qish savodxonligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2025.

3. Mullis I. V. S., Martin M. O., Hooper M. PIRLS 2016 International Results in Reading. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017.

4. OECD. PISA Reading Literacy Framework. – Paris, 2018

5. Rahmonova D. Sh. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish. – Toshkent: Pedagogik ta'lim, 2021.

6. Toraqulov I. O'quvchilarning savodxonligini oshirishda PISA xalqaro baholash dasturi. – T.: Oriens .uz,2022.

7. Sharafiddinova I.X PISA tadqiqotlar asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ayrim mulohazalar// JARTES. – 2024.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM SHAKLINI JORIY ETISHNING ZARURATI

Daminova Shoxista Kabulovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Rahbar kadrlarni malakasini oshirish kurslarini
metodik ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi
miss.shohista_77@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda mustaqil ta'lim mexanizmlarini joriy etish zarurati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida rahbar kadrlarning professional rivojlanishi uzluksiz, tizimli va natijador jarayon sifatida tashkil etilishi lozimligi yoritiladi. Amaldagi malaka oshirish tizimining asosan davriy kurs modeli bilan cheklanib qolayotgani va bu holat uzluksizlik tamoyiliga zid ekani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida rahbarlarning kasbiy rivojlanishida reflektiv yondashuv, faoliyatga integratsiyalashgan o'rganish hamda individual ta'lim trayektoriyalarining ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida mustaqil ta'lim mexanizmlarini joriy etish orqali maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari va samarali yo'nalishlari taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, kasbiy rivojlanish, maktab rahbarlari, mustaqil ta'lim, malaka oshirish, reflektiv yondashuv, ta'lim menejmenti, kompetensiya, inson kapitali, boshqaruv samaradorligi.*

Необходимость внедрения формы самостоятельного обучения в системе непрерывного профессионального развития руководителей общеобразовательных школ

Даминова Шохиста Кабуловна,
главный специалист отдела методического обеспечения курсов повышения квалификации для управленческого персонала Национального института педагогических навыков имени А. Авлони

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения обосновывается необходимость внедрения механизмов самостоятельного обучения для обеспечения непрерывного профессионального развития руководителей школ. На основе анализа нормативно-правовых документов, принятых в сфере образования Республики Узбекистан, показано, что профессиональное развитие управленческих кадров должно быть организовано как непрерывный, системный и результативный процесс. Отмечается, что действующая система повышения квалификации в основном ограничивается периодической курсовой моделью, что противоречит принципу непрерывности. Кроме того, на основе международного опыта раскрывается значение рефлексивного подхода, интегрированного в деятельность обучения и индивидуальных образовательных траекторий в профессиональном развитии руководителей школ. В результате исследования предложены эффективные направления и возможности развития управленчес-*

ких компетенций руководителей школ посредством внедрения механизмов самостоятельного обучения.

Ключевые слова: *непрерывное образование, профессиональное развитие, руководители школ, самостоятельное обучение, повышение квалификации, рефлексивный подход, образовательный менеджмент, компетенция, человеческий капитал, эффективность управления.*

The necessity of introducing independent learning in the system of continuous professional development of general secondary school leaders

Shokhista Kabulovna Daminova,
Chief Specialist of the Department of Methodological Support for Professional Development Courses of Administrative Staff at the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *This article substantiates, from both theoretical and practical perspectives, the necessity of introducing independent learning mechanisms to ensure the continuous professional development of school leaders. Based on the analysis of regulatory and legal documents adopted in the field of education in the Republic of Uzbekistan, it is revealed that the professional development of managerial personnel should be organized as a continuous, systematic, and result-oriented process. The study highlights that the existing professional development system is largely limited to a periodic course-based model, which contradicts the principle of continuity. Furthermore, drawing on international experience, the importance of reflective approaches, practice-integrated learning, and individualized learning trajectories in the professional development of school leaders is emphasized. As a result of the research, effective directions and opportunities for developing managerial competencies of school leaders through the implementation of independent learning mechanisms are proposed.*

Keywords: *continuous education, professional development, school leaders, independent learning, professional training, reflective approach, educational management, competence, human capital, management efficiency.*

Zamonaviy ta’lim tizimida rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish va ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar sharoitida maktab boshqaruvi samaradorligi bevosita rahbarlarning professional kompetensiyalariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, uzluksiz kasbiy rivojlantirishni ta’minlash, ayniqsa, mustaqil ta’lim mexanizmlarini joriy etish zamon talabi sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga, amaldagi malaka oshirish tizimi tahlili ushbu talablar to‘liq darajada amalga oshmayotganini ko‘rsatadi. Xususan, mavjud tizim ko‘proq davriy kurs modeli bilan cheklanib, rahbarlarning individual ehtiyojlari, mustaqil o‘rganish faoliyati va reflektiv yondashuvini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamayapti. Natijada kasbiy rivojlanish jarayoni uzluksiz emas, balki epizodik tus olmoqda.

Xalqaro tajriba ham rahbar kadrlar rivojlanishida an’anaviy yondashuvlarning samarasizligini ko‘rsatib, doimiy o‘rganish, amaliy faoliyatga integratsiyalashgan rivojlanish va reflektiv yondashuvni ustuvor deb biladi. Shu jihatdan, mustaqil ta’lim mexanizmlarini joriy etish nafaqat nazariy, balki amaliy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolaning maqsadi maktab rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishida mustaqil ta’lim mexanizmlarini joriy etish zaruratini asoslash hamda mavjud muammolarni tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida amaldagi tizimdagi nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni bartaraf

etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Mustaqil ta'lim mexanizmlarini joriy etish zarurati, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunidan kelib chiqadi. Mazkur hujjatlar uzluksiz ta'limni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab, pedagog va rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda ta'minlash vazifasini qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning butun hayoti davomida bilim va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit tizim sifatida belgilangan [1]. Qonunning tegishli moddalarida pedagog xodimlar va ta'lim tashkilotlari rahbarlarining malakasini muntazam oshirib borish, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish davlatning majburiy vazifasi ekani qayd etilgan. Mazkur Qonunda uzluksiz ta'limning izchillik, uzviylik va tizimlilik tamoyillari mustahkamlangan bo'lib, bu rahbarlarning kasbiy rivojlanishi epizodik emas, balki doimiy va uzluksiz jarayon bo'lishi kerakligini anglatadi. Shuningdek, Qonunda ta'lim sifati inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etilib, boshqaruv samaradorligini oshirish zarurati alohida ta'kidlangan. Bu esa maktab rahbarlarining mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlashni obyektiv zaruratga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida [2] ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va rahbar kadrlarning liderlik salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. Farmonda ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, boshqaruvda zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy etish hamda inson kapitalini rivojlantirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Mazkur hujjatda rahbar kadrlarning professional rivojlanishini ta'minlash ta'lim tizimi barqarorligining muhim sharti sifatida talqin qilinadi. Strategiyada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish esa faqat davriy malaka oshirish kurslari bilan emas, balki rahbarlarning mustaqil va reflektiv o'rganish faoliyati orqali ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-mayda PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlarito'g'risida"gi Farmonida umumta'lim maktablari faoliyatini samarali tashkil etish, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini oshirish hamda ta'lim muassasalarida zamonaviy menejment tamoyillarini joriy etish vazifalari aniq belgilab berilgan. Ushbu Farmonda rahbarlarning boshqaruv madaniyati, strategik fikrlashi va innovatsion yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish, xususan, mustaqil ta'lim mexanizmlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat siyosati darajasida rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz, tizimli va natijador jarayon sifatida tashkil etilishi lozimligi belgilangan. Biroq amaliyotda rivojlanish jarayoni ko'p hollarda formal kurs modeli bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa normativ hujjatlarda belgilangan uzluksizlik va individuallashtirish tamoyillarining to'liq amalga oshmayotganini anglatadi [3].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning nazariy asoslari pedagogika va ta'lim menejmenti fanlarida yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da,

amaliyot tahlili maktab rahbarlarining malakasini oshirish tizimida qator nomuvofiqliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda malaka oshirish jarayoni, asosan, davriy kurs modeli asosida tashkil etilmoqda. Bu model ma’lum vaqt oralig‘ida o‘tkaziladigan qisqa muddatli o‘quv mashg‘ulotlari bilan cheklanadi. Bunday yondashuv uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mazmun-mohiyatiga to‘liq mos kelmaydi.

Xalqaro tadqiqotlar ham rahbarlarning professional rivojlanishi uzluksiz va faoliyatga integratsiyalashgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Masalan, OECD tomonidan e’lon qilingan “School Leadership for Learning” hisobotida maktab rahbarlarining samarali rivojlanishi doimiy o‘rganish va reflektiv amaliyot asosida tashkil etilishi zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, UNESCO ekspertlari ta’lim boshqaruvida kompetensiyaviy va reflektiv yondashuv ustuvor bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi [10, 15]. Amaliyotdagi asosiy muammolarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin (1-jadval):

An’anaviy malaka oshirish tizimidagi muammolar

1-jadval

Muammo	Amaliy oqibat	Tizimli xavf
Rivojlanish epizodik xarakterda	Kursdan tashqari davrda o‘sish kuzatilmaydi	Uzluksizlik buziladi
Standart dastur	Individual ehtiyoj hisobga olinmaydi	Kompetensiya notekis shakllanadi
Refleksiya sust	Xatolar takrorlanadi	Innovatsion rivojlanish sekinlashadi
Baholash formal	Sertifikat ustuvor	Real natija aniqlanmaydi

Birinchi muammo – rivojlanishning epizodik xarakterga egaligidir. Kurs modeli rahbarni muayyan muddat davomida o‘qitadi, biroq kursdan keyingi davrda kasbiy o‘sish monitoring qilinmaydi. Bu esa uzluksizlik tamoyilini buzadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish nazariyasiga ko‘ra, rivojlanish jarayoni professional faoliyat bilan integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Leontyevning faoliyat nazariyasi ham shaxs rivoji aynan faoliyat jarayonida yuz berishini asoslaydi. Shunday ekan, rivojlanish kurs bilan chegaralansa, u faoliyatga integratsiyalashmaydi.

Ikkinchi muammo – standart o‘quv dasturlarining ustuvorligidir. Maktab rahbarlari turli hudud, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va resurs imkoniyatlariga ega muassasalarda faoliyat yuritadi. Biroq, malaka oshirish dasturlari ko‘pincha yagona mazmun asosida tuziladi. Kompetensiyaviy yondashuv esa individual ehtiyoj va professional vaziyatni hisobga olishni talab qiladi. Knowlesning andragogika nazariyasiga ko‘ra, kattalar ta’limi shaxsning tajribasi va ehtiyojiga tayanishi kerak. Aks holda o‘rganish samaradorligi pasayadi.

Uchinchi muammo – reflektiv mexanizmlarning sustligidir. Zamonaviy boshqaruv reflektiv tahlilni talab qiladi. Schön tomonidan ishlab chiqilgan “reflective practitioner” konsepsiyasiga ko‘ra, professional o‘sish faoliyat jarayonida o‘z tajribasini tahlil qilish orqali amalga oshadi. Biroq an’anaviy kurs modelida reflektiv kundalik, o‘z-o‘zini baholash yoki portfel tizimi keng qo‘llanilmaydi. Natijada rahbar o‘z faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilmaydi va xatolar takrorlanishi ehtimoli ortadi.

To‘rtinchi muammo – baholashning formal tusda ekanidir. Rivojlanish natijasi ko‘pincha sertifikat olish bilan cheklanadi. Kompetensiya o‘sishini aniqlovchi aniq indikatorlar va monitoring vositalari yetarli darajada ishlab

chiqilmagan. Bu esa natijadorlikni real o'lchash imkonini bermaydi. Kompetensiyaviy paradigma esa baholashni natijaga yo'naltirilgan va mezonli qilishni talab etadi.

Zamonaviy maktab rahbarining kasbiy faoliyati mazmuni va ko'lami so'nggi yillarda tubdan o'zgardi. U endilikda faqat ma'muriy boshqaruvchi emas, balki strategik lider, ta'lim sifatini boshqaruvchi, jamoa rivojlanishini ta'minlovchi va innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bugungi maktab rahbari bir vaqtning o'zida bir nechta murakkab va o'zaro bog'liq vazifalarni bajaradi. Mustaqil ta'lim uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida nafaqat individual, balki institutsional rivojlanish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. U rahbarning shaxsiy kasbiy o'sishini ta'minlash bilan birga, ta'lim muassasasining umumiy boshqaruv samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan mustaqil ta'limning ta'sir mexanizmini tizimli zanjir sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [7].

Mazkur ta'sir zanjirining birinchi bosqichi – **individual rivojlanish rejasi**dir. Bu bosqichda rahbar o'z kasbiy ehtiyojlarini aniqlaydi, mavjud kompetensiyalarini diagnostika qiladi va maqsadli rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Individual reja uzluksiz kasbiy rivojlantirishning individuallashtirish tamoyilini ta'minlaydi.

Ikkinchi bosqich – **reflektiv monitoring**. Rahbar o'z faoliyatini muntazam tahlil qiladi, qabul qilingan qarorlar natijasini baholaydi va kelgusi harakatlar strategiyasini aniqlaydi. Reflektiv monitoring kasbiy o'sishning ichki mexanizmini shakllantiradi hamda xatolarni takrorlamaslikka xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich – **kompetensiya o'sishi**. Individual reja va refleksiya natijasida rahbarning strategik, kommunikativ, innovatsion va analitik kompetensiyalari izchil rivojlanadi. Kompetensiyaviy o'sish boshqaruv faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi.

To'rtinchi bosqich – **boshqaruv samaradorligi**. Kompetensiyalarning mustahkamlanishi qaror qabul qilish sifatini yaxshilaydi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va jamoa motivatsiyasini oshiradi.

Yakuniy bosqich – **ta'lim sifati oshishi**. Samarali boshqaruv natijasida o'quv jarayoning tashkil etilishi yaxshilanadi, ichki monitoring tizimi takomillashadi va pedagogik natijalar barqaror o'sadi.

Mustaqil ta'limning ta'sir zanjiri



Mazkur ta'sir zanjiri mustaqil ta'lim shaxsiy kasbiy rivojlanishdan boshlab institutsio-

nal natijagacha bo‘lgan tizimli o‘zgarishni ta’minlashini ko‘rsatadi. Bu esa mustaqil ta’lim mexanizmini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining markaziy elementi sifatida qarash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Raqamli transformatsiya ta’lim boshqaruvining barcha bosqichlariga chuqur kirib bormoqda. Elektron hujjat aylanishi, onlayn baholash platformalari, ma’lumotlarga asoslangan tahliliy tizimlar, masofaviy monitoring va statistik boshqaruv vositalari maktab rahbaridan doimiy ravishda yangilanib boruvchi bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Raqamli boshqaruv tizimlari bilan samarali ishlash uchun rahbar nafaqat texnik ko‘nikmaga, balki analitik fikrlash, ma’lumotlarni talqin qilish va tezkor qaror qabul qilish kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi lozim.

Onlayn resurslar, professional platformalar, xalqaro vebinarlar va masofaviy o‘qitish tizimlari o‘rganish jarayonini an’anaviy auditoriya modeli doirasidan chiqarib, moslashuvchan va ochiq shaklga olib chiqdi. Bunday sharoitda rahbarning kasbiy rivojlanishi vaqt va makon bilan cheklanmasligi zarur. An’anaviy kurs modeli esa ma’lum davr va format bilan chegaralangan bo‘lib, tezkor yangilanish talabini to‘liq qondira olmaydi [11].

Mustaqil ta’lim mexanizmi esa quyidagi ustunliklarga ega:

– **moslashuvchanlikni ta’minlaydi**, ya’ni rahbar o‘z ehtiyojiga qarab o‘rganish yo‘nalishini tanlaydi;

– **global tajribaga ochiqlik yaratadi**, chunki xalqaro ilmiy manbalar va professional hamjamiyatlardan foydalanish imkonini beradi;

– **individual tezlikda o‘rganish imkonini beradi**, bu esa kattalar ta’limi tamoyillariga mos keladi;

– **professional hamjamiyatlarga integratsiyani kuchaytiradi**, tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida mustaqil ta’lim rahbarning adaptiv va raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning eng maqbul mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida mustaqil ta’lim mexanizmi joriy etilmasa, qator strategik xavflar yuzaga keladi. Ularni quyidagicha tizimlashtirish mumkin (2-jadval).

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida mustaqil ta’limning joriy etilmasligi natijasida yuzaga keladigan strategik xavflar

2-jadval

Xavf	Oqibat
Formal rivojlanish	Natijadorlik pasayadi
Innovatsion sustlik	Maktab raqobatbardoshligi kamayadi
Kompetensiya notekisligi	Boshqaruv sifati yomonlashadi
Raqamli ortda qolish	Texnologik nomuvofiqlik yuzaga keladi

Formal rivojlanish sharoitida rahbarning kasbiy o‘sishi sertifikat bilan cheklanadi, real kompetensiya o‘zgarishi kuzatilmaydi. Bu esa boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Innovatsion sustlik maktabning yangi pedagogik va boshqaruv texnologiyalarini qabul qilish qobiliyatini susaytiradi. Natijada ta’lim muassasasi raqobatbardoshligini yo‘qota boshlaydi.

Kompetensiya notekisligi ayrim yo‘nalishlarda rivojlanish bo‘lsa-da, boshqa muhim kompetensiyalar sust shakllanishiga olib keladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ortda qolish esa eng muhim

xavflardan biri bo'lib, rahbarning texnologik o'zgarishlarga moslasha olmasligi butun boshqaruv tizimining samaradorligini pasaytiradi.

Mazkur xavflarni bartaraf etishning muqobil va ilmiy asoslangan yo'li – mustaqil ta'lim mexanizmini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga integratsiya qilishdir. Mustaqil ta'lim uzluksizlik, individuallashtirish va natijadorlik tamoyillarini real mexanizmga aylantiradi, reflektiv monitoringni kuchaytiradi va kompetensiyaviy o'sishni ta'minlaydi [8].

Zamonaviy boshqaruv faoliyatining murakkablashuvi, strategik rejalashtirish, monitoring va tahlil jarayonlarining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi rahbarlardan adaptiv kompetensiyani talab etmoqda. Adaptiv kompetensiya esa tayyor bilimlar bilan emas, balki mustaqil o'rganish, o'z faoliyatini tahlil qilish va yangi vaziyatlarga moslashish orqali shakllanadi. Shu bois mustaqil ta'lim mexanizmi rahbarning professional o'sishini ta'minlovchi ichki harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi [7].

Mustaqil malaka oshirish zamonaviy ta'lim tizimida boshqaruv va kasbiy faoliyatni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. An'anaviy kurs shaklidagi malaka oshirishdan farqli ravishda, mustaqil malaka oshirish shaxsning ichki ehtiyoji, kasbiy masuliyati va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ongli intilishiga tayanadi. Bu jarayon pedagog yoki rahbarning kasbiy kompetensiyalarini tashqi majburiyat asosida emas, balki ichki motivatsiya va reflektiv tahlil asosida takomillashtirishini ta'minlaydi. Ayniqsa, umumta'lim maktablari rahbarlari faoliyatida tez o'zgarayotgan normativ-huquqiy talablar, boshqaruv texnologiyalari, raqamli platformalar va jamoa bilan ishlash mexanizmlari sharoitida mustaqil malaka oshirish boshqaruv samaradorligini ta'minlovchi muhim mexanizmga aylanadi.

Mustaqil malaka oshirishning boshqaruv faoliyatiga ta'siri, avvalo, strategik fikrlashni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Rahbar o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, muammolarni aniqlaydi, ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi va qaror qabul qilish jarayonida zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayana boshlaydi. Bu esa boshqaruvning reaktiv emas, balki proaktiv modeliga o'tishni ta'minlaydi. Mustaqil o'rganish jarayonida rahbar pedagogik menejment, liderlik, konfliktologiya, ta'lim sifati monitoringi kabi yo'nalishlarda bilimini boyitadi, natijada boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligi ortadi.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan mustaqil malaka oshirishning eng muhim omillaridan biri reflektiv kompetensiyaning shakllanishidir. Refleksiya – bu shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishidir. Mustaqil ta'lim jarayoni aynan shu mexanizmni kuchaytiradi. Rahbar yoki pedagog o'z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish va yangi maqsadlar qo'yish orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish siklini shakllantiradi. Bu jarayon professional o'sishning ichki boshqaruv mexanizmini yaratadi.

Mustaqil malaka oshirishning yana bir muhim omili individuallashtirish tamoyilidir. Har bir rahbar yoki pedagogning kasbiy ehtiyoji, tajribasi va faoliyat sharoiti turlicha bo'lgani sababli, standart kurslar barcha muammolarni hal qila olmaydi. Mustaqil malaka oshirish esa shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'quv materiallari, ilmiy manbalar, onlayn kurslar, vebinarlar, professional hamjamiyatlar va tajriba almashish platformalaridan maqsadli foydalaniladi. Natijada rivojlanish jarayoni moslashuvchan va ehtiyojga yo'naltirilgan bo'ladi [12].

Raqamli texnologiyalar rivoji mustaqil

malaka oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Onlayn ta'lim platformalari, ochiq ta'lim resurslari, masofaviy seminar va treninglar rahbar va pedagoglarga vaqt va makon cheklovisiz o'z bilimini boyitish imkonini bermoqda. Bu esa boshqaruv faoliyatining zamonaviy talablariga tez moslashish, innovatsiyalarni tezkor joriy etish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta'lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida rahbarning mustaqil ravishda yangi platformalar va boshqaruv dasturlarini o'zlashtirishi muassasa samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil malaka oshirish kasbiy moslashuvchanlikni ham ta'minlaydi. Ta'lim tizimidagi islohotlar, yangi standartlar va o'quv dasturlarining joriy etilishi sharoitida rahbar va pedagog tezkor ravishda o'z faoliyatini yangilashi zarur. Mustaqil o'rganish qobiliyati shakllangan shaxs bunday o'zgarishlarga tayyor bo'ladi, yangilikni qabul qilish va joriy etishda faol pozitsiyani egallaydi. Bu esa boshqaruv tizimining barqarorligini mustahkamlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida maktab rahbarlarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash an'anaviy, davriy malaka oshirish modeli doirasida samarali amalga oshirilmayapti. Normativ-huquqiy hujjatlarda uzluksizlik, tizimlilik va individuallashtirish tamoyillari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda rivojlanish jarayoni ko'p hollarda formal va epizodik xarakter kasb etmoqda. Bu holat rahbarlarning professional kompetensiyalarini izchil shakllantirishga to'sqinlik qilib, boshqaruv samaradorligining pasayishiga, innovatsion jarayonlarning sustlashishiga hamda ta'lim sifati barqaror o'sishining cheklanishiga olib kelmoqda. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, uzluksiz kasbiy rivojlanish faqat tashqi o'quv kurslari orqali emas, balki rahbarning ichki motivatsiyasi, reflektiv faoliyati va mustaqil o'rganish jarayoni bilan uyg'unlashgan holda samarali natija beradi.

Mustaqil ta'lim mexanizmini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining markaziy elementi sifatida joriy etish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan zaruratdir. Mustaqil ta'lim rahbarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, reflektiv monitoringni yo'lga qo'yish va kompetensiyaviy o'sishni ta'minlash orqali boshqaruv faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida mustaqil o'rganish qobiliyati rahbarning adaptivligi, innovatsion fikrlashi va strategik qaror qabul qilish salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Bu esa mustaqil ta'limni nafaqat individual rivojlanish vositasi, balki ta'lim muassasasining institutsional taraqqiyotini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: avvalo, maktab rahbarlarining kasbiy rivojlanishini tashkil etishda an'anaviy kurs modelidan kompetensiyaviy va uzluksiz rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o'tish zarur. Bunda mustaqil ta'lim faoliyatini rasmiy tizimga integratsiya qilish, ya'ni individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Reflektiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi vositalar – kasbiy portfel, o'z-o'zini baholash tizimi, reflektiv kundaliklar va mentorlik mexanizmlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, malaka oshirish tizimida baholash mezonlarini takomillashtirib, sertifikatga yo'naltirilgan formal yondashuvdan real kompetensiya o'sishini aniqlovchi natijaviy baholash tizimiga o'tish lozim. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali onlayn ta'lim platformalari, ochiq ta'lim

resurslari va professional hamjamiyatlar bilan integratsiyani kuchaytirish ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, rahbarlarning mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantirish, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytirish va o'zini rivojlantirish madaniyatini shakllantirish tizimli yondashuvni talab etadi.Umuman olganda, mustaqil ta'lim mexanizmlarini joriy etish uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini sifat jihatdan yangilash, boshqaruv samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ–637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2022.

3. O'zbekistonRespublikasi Prezidentining 2023-yil 26-mayda PF-79-son "Maktabgacha va maktab ta'limivazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlarito'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2023.

4. Abduqodirov A. A. Ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2010.

5. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2015.

6. Israilov G'. Sakkokiy adabiy merosi o'rganilishi manbalari xususida // Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. – 2023. – №2. – B. 61.

7. Jurayev M. Ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar // Tafakkur ziyosi (OAK jurnali). – 2024.

8. Masharipov J.R., Ortiqov O.A. Umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab quvvatlashning kontseptual asoslari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2016, 240-b.

9. Musurmonova O. Pedagogik kompetensiya va kasbiy rivojlanish. – T.: Fan, 2018.

10. OECD. School Leadership for Learning: Insights from TALIS 2013. – Paris: OECD Publishing, 2016.

11. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim menejmenti. – T.: Fan, 2013.

12. Rahmonov A. Ta'lim sifatini boshqarish asoslari. – T.: Universitet, 2019.

13. Schцn, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books.

14. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

15. UNESCO. Educational Leadership and Management: Developing Insights and Skills. – Paris: UNESCO, 2018

16. Xo'jayev N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

17. Yuldashev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

18. Zarifova Z. M. Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari. Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnali, 2024, 134-b.

QO‘SHIMCHA TA’LIM TIZIMIDA
PEDAGOGLARNI TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Malikova Xurshida Ikramovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
“Ta’lim menejmenti” kafedrasi dotsenti
E-mail: kh.malikova2025@gmail.com tel: +998(94) 663 3939
Turatova Shahnoza Xolmumin qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
“Kattalar ta’limi” magistranti
E-mail: shahnozaturatova9@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada qo‘shimcha ta’lim tizimining kattalarni o‘qitishdagi muhim o‘rni ochib berilgan. Zamonaviy sharoitda pedagoglarning yangi funksional vazifalarga moslashishi, kasbiy kompetentlikni doimiy rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog kadrlarini tayyorlashning asosiy shakllari, malaka oshirish, qayta tayyorlash va stajirovka jarayonlari batafsil ko‘rib chiqgan.*

Maqolada qo‘shimcha ta’lim tizimida pedagog kadrlarini tayyorlash jarayonining tizimli komponentlari yoritilgan. Zamonaviy integratsion jarayonlar sharoitida taklif etilayotgan pedagogik modelning asosiy bloklari asoslab berilgan.

Tadqiqot andragogika nazariyasi, uzluksiz ta’lim konsepsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari materiallariga asoslangan. Maqola qo‘shimcha ta’lim tizimini takomillashtirish va raqobatbardosh pedagog kadrlarini tayyorlash yo‘llarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *qo‘shimcha ta’lim, andragogika, pedagog kadrlar tayyorlash, kasbiy kompetentlik, malaka oshirish, qayta tayyorlash, stajirovka, integratsion jarayonlar, pedagogik model.*

Особенности подготовки педагогов в системе дополнительного образования

Маликова Хуршида Икрамовна,
доцент кафедры “Менеджмент образования” Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони
Туратова Шахноза Холмумин кызы,
магистрант направления “Образование взрослых” Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

Аннотация: *В статье раскрыта важная роль системы дополнительного образования в обучении взрослых. В современных условиях проанализированы вопросы адаптации педагогов к новым функциональным задачам, а также постоянного развития их профессиональной компетентности. Также подробно рассмотрены основные формы подготовки педагогических кадров, включая повышение квалификации, переподготовку и стажировку.*

В статье освещены системные компоненты процесса подготовки педагогических кадров в системе дополнительного образования. В условиях современных интеграционных процессов обоснованы основные блоки предлагаемой педагогической модели.

Исследование основано на теории андрагогики, концепции непрерывного образования и

материалах образовательных реформ, реализуемых в Республике Узбекистан. Статья направлена на совершенствование системы дополнительного образования и определение путей подготовки конкурентоспособных педагогических кадров.

Ключевые слова: *дополнителное образование, андрагогика, подготовка педагогических кадров, профессионалная компетентност, повышение квалификации, профессионалная переподготовка, стажировка, интеграционные процессы, педагогическая модел.*

Key characteristics of teacher training in the aspect of additional education

Malikova Khurshida Ikramovna,
Associate Professor of the Department of Education Management National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Turatova Shakhnoza Kholmumin qizi,
Master's student in Adult Education National Institute of Pedagogical Skills named after Abdulla Avloni

Abstract: *The article explores the significant role of the aspect of additional education in adult teaching. The study analyzes the issues of teachers' adaptation to new functional tasks and the continuous development of their professional competence in modern conditions It comprehensively hihglights the main forms of teacher training, including In-service training, professional development, retraining, and internships.*

The article implies the systematic components of the pedagogical staff training process within the type of additional education. The main blocks of the proposed pedagogical model substantiates in the context of modern integration processes.

The research is based on the theory of andragogy, the concept of lifelong learning, and the materials of educational reforms implemented in the Republic of Uzbekistan. The article aims to improve the aspect of additional education and to identify ways of training competitive pedagogical personnel.

Keywords: *additional education, andragogy, teacher training, professional competence, in-service training, retraining, internship, integration processes, pedagogical model.*

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini doimiy takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] va boshqa me'yoriy hujjatlar pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi.

Qo'shimcha ta'lim tizimi kattalarni o'qitishning muhim qismi sifatida andragogikaga asoslanadi va pedagoglarning yangi funksional vazifalarga moslashishini ta'minlaydi. Maqola doirasida qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari tahlil qilindi, tarkibiy komponentlari ochib berildi va zamonaviy integratsion jarayonlar sharoitidagi modeli asoslandi. Maqola andragogika nazariyasi, pedagogik modellashtirish usullari va O'zbekiston ta'lim amaliyoti materiallariga tayanadi.

Qo'shimcha ta'lim tizimi kattalar ta'limining murakkab sharoitlarida faoliyat yuritadi. Axborot muhitining o'zgarishi, ijtimoiy-madaniy fazaning transformatsiyasi pedagogik kadrlarga yangi talablarni qo'yadi. Ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi va intellektual zaxirasi zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlikni ta'minlashi lozim.

Pedagoglarning kompetentligini mehnat

faoliyati davomida yuqori darajada saqlab turish uzluksiz ta'lim tizimi zimmasiga yuklanadi. Bu tizimda kattalarning qo'shimcha ta'limi kadrlar salohiyatini saqlash va rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bugungi kunda qo'shimcha ta'lim kattalarni yangi funksional vazifalarga moslashtirish bo'yicha asosiy yukni o'z zimmasiga oladi.

Tashqi sharoitlarning majmui qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning xususiyatini belgilaydi. Jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasida, tashqi aloqalarning majmui hisobga olinishi lozim. Mazkur jarayonda yuqori kasbiy sifatlarga, muloqot darajasiga, tez qaror qabul qilish va ular uchun javobgarlikni his qilish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirish zarur. Bunday shaxs jadallik bilan rivojlanayotgan tizimga oson moslashadi, o'zini o'zi anglaydi va faoliyatning eng yuqori natijalariga erishadi, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadi va uni o'zgartiradi.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqishda jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi, tashqi aloqalarning ta'sirini hisobga olish zarur. Jarayonda yosh mutaxassislardagi bilimlarning yetishmovchiligini qoplash, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish va yangilash, pedagogik va innovatsion tajribani to'plash va amaliyotga joriy etish amalga oshiriladi. Ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish hajmini oshirish lozim.

XX asrning 90-yillari oxiriga kelib shakllangan qo'shimcha ta'lim tizimi asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

malaka oshirish – nazariy va amaliy bilimlarni yangi talablarga muvofiq yangilash;

qayta tayyorlash – yangi kasbiy faoliyat turini bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish va yangi kvalifikatsiya olish;

stajirovka – nazariy tayyorlash natijasida olingan bilimlarni amaliyotda mustahkamlash va innovatsion tajriba bilan tanishish;

noformal o'quv faoliyatida bilimlarni doimiy yangilash – konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarida ishtirok etish.

Bugungi kunda Respublikamizda ham andragogikaning ijtimoiy-pedagogik asoslari va taraqqiyot yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

Umumiy ilmiy metodologiya quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi: tizimli, faoliyatli, shaxsiy, madaniyatshunoslik, integrativ, polisubyektli (ko'psubyektli), kompetentlik va andragogik yondashuvlar. Aniq ilmiy darajada esa uzluksiz ta'lim nazariyasi N.Sh.Valeeva, A.P.Vladislavlev, B.S.Gershunskiy, V.V.Kraevskiy, A.M.Novikov [2-5] va boshqalarning hamda ta'lim jarayonining yaxlitligi, aksiologik, ijtimoiy-madaniy, psixologik shartliligi A.V.Brushlinskiy, I.F.Isayev, V.A.Slastenin, V.D.Shadrikov va boshqalarning ishlariga [6-8] tayanadi.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlashning maqsad – pedagogni tayyorlashning ta'lim jarayoni sifatini yuqori darajada ta'minlash, u shaxs, jamiyat va davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi, shaxsning o'zini namoyon etishi, o'zini aniqlashi va o'zini rivojlantirishi uchun sharoitlar yaratish; yangi egallangan kompetensiyalar nuqtayi nazaridan o'ziga, jamiyatga va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatlar tizimini shakllantirish.

Asosiy kompleks vazifalar:

1. O'quvchilar (shu jumladan, nopedagogik ma'lumotga ega bo'lganlar) uchun yangi pedagogik faoliyat turlarini bajarish uchun zarur professional kompetensiyalarni majburiy va kafolatlangan ravishda egallash sharoitlarini yaratish.

2. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash mazmunini integratsiya kontekstida takomillashtirish.

3. Pedagoglarni tayyorlashni intensifikatsiyalashga qaratilgan didaktik ta'minlashni ishlab chiqish.

4. Pedagoglar shaxsining keyingi professionallashuviga ko'maklashish, ularni egallangan integrativ bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyatlar asosida samarali faoliyatga jalb qilish.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash zamonaviy integratsion jarayonlar sharoitida quyidagi ***tamoyillar*** asosida amalga oshiriladi:

tizimlilik – tayyorlashning differensiatsiya, integratsiya va ierarxik tashkil etilishining birligi;

kasbiy kontekstlik – pedagoglarning samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirishga qobiliyatlari, nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi;

dinamiklik – ta'lim dasturlari mazmunini o'zgartirish va to'ldirish imkoniyati;

tenglik – o'qituvchilar va tinglovchilar o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan;

fanlararo va integratsiya – o'quv materiallarini tanlash va tarkibiy jihatdan ishlab chiqishda pedagogik faoliyat bilan bog'liq fanlar majmuidan bilimlar sintezini yo'naltirish;

individuallashtirish va differensiatsiya – tinglovchining ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, pedagogik tajribasi va bazaviy kasbiy ma'lumotini hisobga olish.

Ushbu tamoiyllar pedagogni tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minlashni ishlab chiqishga yondashuvlarni belgilaydi va o'qitish maqsadlariga erishish usullarini ochib beradi. Zamonaviy bosqichda pedagogik faoliyatning yangi kasbiy standarti shakllanadi, mazmuni va yondashuvlari o'zgaradi. Qo'shimcha ta'lim tizimida kompleks tayyorlash o'z imkoniyatlarini aktuallashtirish va amaliyotda qayta ishlab chiqarish faoliyatidan amaliyotni o'zgartirish faoliyatiga o'tishni nazarda tutadi.

Informatika va yangi ijtimoiy-madaniy paradigma bilan bog'liq yangi funksional vazifalarni bajarishga tayyorlash qo'shimcha ta'lim tizimida amalga oshiriladi. Nopedagogik ma'lumotga ega pedagoglar uchun yangi faoliyat turlarini bajarish uchun zarur bilimlar qayta tayyorlash orqali olinadi.

Qo'shimcha ta'lim muassasalari malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini o'tkazish markazlaridan tashqari pedagogik tajribani umumlashtirish, ilmiy-metodik hamrohlik, ekspertiza, innovatsion faoliyatni tashkil etish markazlariga aylanadi. Bu barcha pedagoglarga o'z individual-kasbiy ehtiyojlariga muvofiq qo'shimcha ta'lim tizimiga kirish imkonini beradi. Zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalar stajirovka va turli guruhli hamda individuallashtirilgan o'quv shakllarida egallanadi.

Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish pedagoglarni tayyorlash muammolarini aniq belgilash va hal etish, jarayonni tashkil etish prinsiplarini shakllantirish va o'quv dasturlarining yangi mazmunini ilmiy asoslash imkonini beradi. Mazmunni takomillashtirish yangi avlod o'quv-dastur hujjatlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Pedagog shaxsining professional sotsializatsiyasi va o'zgaruvchan texnologik va ijtimoiy muhitda samarali faoliyatga tez kirishishiga stajirovka orqali amaliy qism yordam beradi. Stajirovka pedagoglarni tayyorlashning muhim komponenti bo'lib, nazariy va amaliy qismlar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi va mutaxassisning kasbiy kompetentligi darajasini oshiradi.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash konsepsiyasida shakllantirilgan maqsad, vazifalar va tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etish, uning didaktik ta'minlashini ishlab chiqish va natija – professional kompetensiyalarning shakllanganligiga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qo‘shimcha ta’lim tizimida pedagoglarni tayyorlash jarayonini tizimli tashkil etish komponentlari

Pedagoglarni tayyorlash jarayonini tizimli tashkil etish komponentlarni ajratib ko‘rsatish zarur bo‘ldi. Bizning fikrimizcha, bunday komponentlarga ***maqsad, o‘qituvchi faoliyati*** va ***o‘quvchilar faoliyati*** kiradi.

Maqsad – jamiyatga zarur mutaxassislarni qisqa muddatda tayyorlash bo‘yicha konkret ijtimoiy buyurtmani bajarish. Qo‘shimcha ta’lim tizimining butun faoliyati shunga yo‘naltirilgan. Pedagogikada maqsadni natija sifatida shakllantirish taklifi paydo bo‘lgan. V.P.Bespalko maqsadni obyektivizatsiya qilishni taklif etgan. V.M.Monaxov an’anaviy maqsaddan (bilimlar majmuini o‘zlashtirish) ko‘p darajali modelga o‘tishni asoslagan.

Maqsadlarga muvofiq ***o‘qituvchi faoliyati*** (o‘qitish) ikkinchi komponent sifatida ko‘rib chiqiladi. U maqsadli, shaxsga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, o‘qituvchining o‘zini takomillashtirish subyekti pozitsiyasiga o‘tkazishni nazarda tutadi. Faoliyat qo‘shimcha ta’lim muassasasining madaniy-axborot va predmet-rivojlantiruvchi muhitini boyitishga va o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining subyektligini rivojlantirish sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifatini ta’minlashda o‘qituvchilarning ***andragogik kompetentligi*** muhim ahamiyatga ega. *Andragogik kompetentlik* – kattalar ta’limining andragogi rolini bajarish uchun zarur bilimlar, ko‘nikmalar, sifatlar va qadriyat yo‘nalishlarini egallash. *Asosiy vazifasi* – ta’lim faoliyati orqali katta yoshli insonning ijtimoiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish.

O‘qituvchilar o‘z malakasini oshirish kurslari, seminarlar va o‘zini-o‘zi tarbiyalash orqali andragogik kompetentlikni rivojlantiradi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash situativ va tizimli bo‘lishi mumkin. Qo‘shimcha ta’limda tizimli o‘zini-o‘zi tarbiyalash ustuvorlik qiladi.

O‘quvchi faoliyati (o‘qish) uchinchi komponentdir. U o‘quv vazifalarini anglash va qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish, amalga oshirish, o‘zini nazorat qilish va o‘zini baholashni o‘z ichiga olgan maxsus tashkil etilgan bilishdir. Qo‘shimcha ta’lim tizimida u mustaqillik, mustaqil boshqaruvga intilish bilan ajralib turadi.

Ma’ruza-seminar shaklida professional kompetensiyalarni kompleks shakllantirish imkoni yo‘q. Ular mustaqil qidiruv faoliyati, turli vazifalarni hal etish tajribasi asosida rivojlanadi. Mustaqil ishda o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlari turli manbalardan ma’lumotlarni o‘rganish, obzorlar, dokladlar, referatlar, mikrotadqiqotlar, pedagogik tajribani umumlashtirish va loyihalarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Kattalarni o‘qitishda tipik qiyinchiliklarni hisobga olish zarur: psixofiziologik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy, psixologo-pedagogik. Ba’zi tinglovchilarda o‘qish qobiliyatiga ichki to‘siq paydo bo‘ladi, statusga bog‘liq noqulaylik his qilinadi. Andragogning vazifasi – bu to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam berish va qo‘shimcha ta’limni kasbda yoki hayotda o‘zini amalga oshirish usuliga aylantirish.

Tizimli tashkil etish komponentlari o‘zaro bog‘liq va o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi maqsadli o‘zaro ta’sir jarayonida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quv materiallarining hajmini uzatishda maqsad va mazmunga muvofiq metodlar, vositalar va mashg‘ulot shakllarini qo‘llaydi. Komponentlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar ta’lim jarayoni subyektlarining o‘zaro ta’siri xususiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri va teskari aloqa natijalarni nazorat qilish va jarayonni tuzatish imkonini beradi.

Zamonaviy integratsion jarayonlar sharoitida qo‘shimcha ta’lim tizimida pedagoglarni tayyorlash modelining nazariy asoslari

Modellashtirish ilmiy tadqiqotning muhim usullaridan biri bo‘lib, pedagogikada keng qo‘l-

laniladi. *Modellashtirish* – obyektlarni ularning modellarida o'rganish; modellarni qurish, tahlil qilish va o'rganishdir. U strukturani, faoliyat jarayonini va rivojlanishni tavsiflaydi.

Model – obyektning soddalashtirilgan analogi (sxema, grafik, formula), uning strukturasi, xususiyatlari, bog'lanishlarini aks ettiradi. Modellashtirish jarayoni subyekt, obyekt va modelni o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash modelining metodologik asoslari:

Tizimlilik – mazmunni yangilash va o'qitish metodlarini optimallashtirish orqali uzluksizlik va integratsiyani hisobga olgan holda yaxlit tizimni yaratish.

Yaxlitlik – asosiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni mustahkamlash.

Shaxsning ustunligi – o'z ta'lim traektoriyasini tanlashda individual imkoniyatlar va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish.

Variativlik – komponentlarning (maqsadlar, mazmun, metodlar) o'zgaruvchanligi.

Polisubyektlik – o'qituvchilar va tinglovchilarning yaxlit rivojlanishiga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir.

Taklif etilayotgan *model* quyidagi tarkibiy bloklardan iborat: maqsadli, mazmunli, protsessual va baholash-natijali. U polisubyekt o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshiriladi va tashkiliy-pedagogik sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Maqsadli blok – ta'lim jarayonini intensifikatsiyalashga qaratilgan. *Intensifikatsiya* – o'qitish vaqtini samarali ishlatish, ilg'or metodlarni joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani takomillashtirish orqali tayyorlash sifatini yaxshilash (A.V.Xutorskiy). U o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatining bir vaqtda o'zgarishini nazarda tutadi.

Mazmunli blok – o'quv rejalari, dasturlar va maxsus kurslarning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Mazmunni tanlash tamoyillari (V.V.Kraevskiy): fan, ishlab chiqarish va jamiyat talablariga muvofiqlik; mazmun va jarayon birligi; strukturaviy yaxlitlik. Har bir fan bo'yicha o'quv-metodik komplekslar yaratish zarur.

Protsessual blok – ta'lim jarayonini tashkil etishni ta'minlaydi. U ma'ruzalar (nazariy) va seminarlar, laboratoriya ishlari, stajirovka (amaliy) shakllarini birlashtiradi.

Baholash-natijali blok – model samaradorligini aks ettiradi: mutaxassis shaxsining mahoratini (ijtimoiy-shaxsiy, akademik va kasbiy kompetensiyalar), ularni qo'llash zarurligini anglash, hayot davomida o'qishga bo'lgan ehtiyojni anglash.

Modelni muvaffaqiyatli amalga oshirish didaktik ta'minlashning integrativ majmuini (ilmiy-metodik, mazmun-axborot, kommunikativ-interaktiv va nazorat-baholash komponentlari) ishlab chiqishga bog'liq.

Qo'shimcha ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash konsepsiyasi ijtimoiy buyurtma va tashqi aloqalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uning negzi ta'lim jarayoni sifatini yuqori darajada ta'minlash, shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlariga muvofiqlikdir. Vazifalar va tamoyillar (tizimlilik, kasbiy kontekstlik, dinamiklik, fanlararo integratsiya, individuallashtirish) shakllantirilgan. Tizimli tashkil etish komponentlarining natijadorligi o'quvchilarning faolligi va subyektlar o'zaro ta'siriga bog'liq. Modellashtirish umumiy va pedagogik tamoyillar asosida amalga oshirilgan. Taklif etilgan model (maqsadli, mazmunli, protsessual, baholash-natijali bloklar) integratsion jarayonlar sharoitida tayyorlashni intensifikatsiyalaydi.

Mazkur konsepsiya va model qo'shimcha ta'lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh, mobil va ijodiy pedagoglarni tayyorlash uchun istiqbolli yo'nalishlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Lex.uz – https://lex.uz/docs/-4749364

2. Valeeva N.Sh. Andragogika nazariyasi va amaliyoti. – M.: Pedagogika, 2005.

3. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Совершенство, 1998. – 607 с.

4. Краевский В.В. Методология педагогики: пособие для педагогов-исследователей. – Чебоксары: Изд-во Чувашского ун-та, 2001. – 244 с.

5. Новиков А.М. Принципы построения системы непрерывного профессионалного образования // Педагогика. – 1999. – № 4. – С. 61–76.

6. Исаев И.Ф., Сластенин В.А. Педагогика: инновационный подход. – М.: Академия, 1997. – 224 с.

7. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Э.Н. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Академия, 2002. – 576 с.

8. Шадриков В.Д. Компетентностный подход в образовании // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 8. – С. 20–27.

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA ULARNI MILLIY TA'LIM TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

Dehqonboyev Muhammad To'lqin o'g'li,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, tayanch doktarant
muhammaddehqonboyev56@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. UNESCO, OECD, World Bank hamda Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribalari misolida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivoji, malaka oshirishning samarali mexanizmlari, maktabga singdirilgan professional rivojlanish, mentorlik, refleksiya va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirishning institutsional, metodik va amaliy imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, kasbiy kompetentlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, xorijiy tajriba, mentorlik, refleksiya, professional ta'lim, ta'lim sifati, pedagogik innovatsiya.*

Анализ зарубежного опыта развития профессиональной компетентности учителей начальных классов и возможности его внедрения в национальную систему образования

Дехконбоев Мухаммад Тулкин угли,
докторант Национального института педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони.

Аннотация: *В статье анализируются зарубежные подходы к развитию профессиональной компетентности учителей начальных классов. На основе материалов UNESCO, OECD, Всемирного банка, а также опыта Финляндии, Сингапура и Южной Кореи раскрывается значение непрерывного профессионального развития, эффективных механизмов повышения квалификации, школьно-ориентированного обучения, наставничества, рефлексии и практико-ориентированных моделей. Также обосновываются институциональные, методические и практические возможности адаптации данного опыта к национальной системе образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *начальное образование, профессиональная компетентность, непрерывное профессиональное развитие, повышение квалификации, зарубежный опыт, наставничество, рефлексия, профессиональное обучение, качество образования, педагогические инновации.*

Analysis of foreign experiences in developing the professional competence of primary school teachers and the possibilities of their implementation in the national education system

Dehqonboyev Muhammad To‘lqin o‘g‘li,
Basic Doctoral Student of the Abdulla Avloniy National Institute of Pedagogical Mastery

Abstract: *This article analyzes foreign approaches to developing the professional competence of primary school teachers. Drawing on UNESCO, OECD, World Bank materials and the experiences of Finland, Singapore, and South Korea, it highlights the importance of continuous professional development, effective in-service training mechanisms, school-embedded learning, mentoring, reflection, and practice-oriented models. The paper also substantiates the institutional, methodological, and practical possibilities of adapting these experiences to the national education system of Uzbekistan.*

Keywords: *primary education, professional competence, continuous professional development, in-service training, foreign experience, mentoring, reflection, professional learning, quality of education, pedagogical innovation.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifati masalasi bevosita o‘qituvchi omili bilan bog‘liq holda ko‘rilmoqda. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining barqarorligi nafaqat maktab infratuzilmasi yoki o‘quv dasturlariga, balki o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati, refleksiv madaniyati va uzluksiz o‘qib-o‘rganishga tayyorligiga ham bog‘liq. UNESCO ma’lumotiga ko‘ra, 2030-yilgacha dunyo bo‘yicha boshlang‘ich va o‘rta ta’lim uchun 44 million nafar yangi o‘qituvchi kerak bo‘ladi. Bu holat o‘qituvchilar soni bilan bir qatorda ularning sifati va kompetentligini rivojlantirish masalasini ham dolzarb strategik vazifaga aylantiradi [1].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda o‘quvchining o‘qishga munosabati, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi, o‘quv faoliyatiga moslashuvi, kommunikativ xulqi va keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun poydevor qo‘yiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi oddiy bilim yetkazish bilan cheklanmaydi; u didaktik, kommunikativ, psixologik, diagnostik, innovatsion va refleksiv qobiliyatlar uyg‘unligini talab etadi. World Bank ta’kidlaganidek, maktabdagi o‘quv natijalariga ta’sir qiluvchi eng muhim omil o‘qituvchidir, samarali professional rivojlanish esa bir martalik emas, balki uzluksiz va amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [8].

OECD TALIS tadqiqotlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. TALIS 2018 natijalariga ko‘ra, OECD mamlakatlari bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘rtacha 94 foizi oxirgi 12 oy ichida kamida bitta professional rivojlanish faoliyatida qatnashgan. Biroq tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, haqiqatan ta’sirchan malaka oshirish dasturlarida amaliy qo‘llash, faol o‘rganish, hamkorlikda o‘rganish va o‘qitishdagi innovatsiyaga e’tibor kuchli bo‘ladi. Mazkur dasturlarda olingan tajriba o‘qituvchilarning o‘ziga ishonchi, kasbiy qoniqishi va sinfdagi samarali metodlarni qo‘llash chastotasi bilan ijobiy bog‘langan [2].

Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi ta’lim sifati yuqori bo‘lgan davlatlarning tajribasi o‘qituvchini tanlash, tayyorlash, ish jarayonida qo‘llab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy o‘sishini boshqarish mexanizmlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida ham “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida pedagog kadrlar ulushini sifat jihatdan oshirish, malaka toifasiga ega pedagoglar ulushini 50 foizga, masofaviy va aralash shakldagi malaka oshirish kurslari

ulushini 30 foizga yetkazish vazifalari belgilangan. 2025-yildagi PF-73-son Farmonda esa pedagog kadrlar tayyorlashni xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish zarurati qayd etilgan [10].

Demak, mazkur mavzu nafaqat ilmiy, balki davlat siyosati darajasida ham dolzarbdir. Maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning amaliy imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy rivojlanishi uzluksiz, ko'p bosqichli va faoliyatga yaqin jarayon sifatida talqin qilinadi. B.Avalos o'qituvchilarning professional rivojlanishiga oid o'n yillik ilmiy ishlanmalarni tahlil qilib, bu jarayon o'qituvchining o'rganishi, hamkorligi, refleksiyasi va kasbiy mazmun yaratishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. L.Darling-Hammond, M.Hyler va M.Gardner esa samarali professional rivojlanish mazmunga yo'naltirilgan bo'lishi, faol o'qitishni nazarda tutishi, hamkorlikni kuchaytirishi, amaliyot modellari bilan ishlashi, murabbiylik va ekspert yordamini ta'minlashi, teskari aloqa hamda refleksiyani qo'llab-quvvatlashi va yetarli davomiylikka ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [4].

OECD tadqiqotlari mazkur nazariy qarashlarni empirik ma'lumotlar bilan mustahkamlaydi. TALIS 2018 ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilar "ta'sirchan" deb baholagan professional rivojlanish turlarida o'z sinfida yangi g'oyalarni qo'llab ko'rish imkoniyati 86 foiz, faol o'rganish 78 foiz, hamkorlikda o'rganish 74 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, davomiyligi uzoq bo'lgan va follow-up faoliyatlari bilan boyitilgan malaka oshirish turlari nisbatan kam uchrashi aniqlangan. Bu esa ko'plab tizimlarda malaka oshirish hali ham qisqa muddatli seminar ko'rinishida qolayotganini anglatadi [2].

Xorijiy davlatlar tajribasi orasida Finlandiya modeli alohida e'tiborga loyiq. Finlandiyada o'qituvchilardan, maktabgacha ta'lim yo'nalishidan tashqari, magistr darajasiga ega bo'lish talab qilinadi. O'qituvchi tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari mustaqil ravishda tanlov o'tkazadi va nomzodlarda akademik salohiyat bilan birga kasbga layoqat ham baholanadi. Eng muhimi, o'qituvchi ta'limida tadqiqot bilan bog'liqlik kuchli ta'kidlanadi, ya'ni o'qituvchi mustaqil muammo yechuvchi va eng yangi ilmiy natijalardan foydalana oluvchi mutaxassis sifatida tayyorlanadi.

Singapur tajribasida o'qituvchi kasbiy rivojlanishi "Teacher Growth Model" asosida tashkil etiladi. Ushbu modelga ko'ra, o'qituvchining professional o'sish yo'li uning ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'langan holda rejalashtiriladi, u esa faoliyatining barcha bosqichlarida besh asosiy natijaga yo'naltiriladi. Model o'qituvchini o'z professional o'sishiga mas'ul subyekt sifatida ko'radi va XXI asr kompetensiyalarini o'quvchilarda shakllantirish bilan kasbiy rivojlanishni uzviy bog'laydi [6].

Janubiy Koreyada esa o'qituvchini kasbga saralash va sertifikatlash tizimi qat'iyligi bilan ajralib turadi. TIMSS ensiklopediyasi ma'lumotiga ko'ra, o'qituvchilar Grade II va Grade I toifalariga bo'linadi; Grade II darajasiga erishgan nomzodlar keyinchalik ikki bosqichli ishga qabul imtihonidan o'tadi. Uch yildan ortiq tajribaga ega o'qituvchilar esa Grade I sertifikatini olish uchun 180 soatlik professional rivojlanish dasturida qatnashadi. Mazkur dasturda umumiy pedagogika, asosiy ko'nikmalar va fan mazmuniga doir bloklar uyg'unlashtiriladi [7].

O'zbek olimlari ishlarida ham kasbiy kompetentlikni tarkibiy jihatdan izohlashga katta e'tibor qaratilgan. Z.Egamova va M.Pulatova boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirishni alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib, mazkur muammo zamonaviy pedagogika uchun dolzarb

ekanini ko‘rsatadi. Farg‘ona metodik markazi jurnalida e’lon qilingan maqolada esa bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion komponentlar birligida talqin qilinadi; pedagogik amaliyot ularni rivojlantirishning muhim omili sifatida baholanadi [13]. “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnalidagi maqolada esa pedagogning kasbiy kompetentligi kreativ rivojlanish, individual yondashuv va samaradorlik omillari bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [14].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning eng samarali modeli uch tayanchga ega: birinchisi, o‘qituvchini kasbga puxta saralash va sifatli tayyorlash; ikkinchisi, ish joyining o‘zida tashkil etiladigan uzluksiz professional rivojlanish; uchinchisi, refleksiya, mentorlik va hamkorlikka asoslangan kasbiy hamjamiyatlarni shakllantirish. Mazkur uchlik O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham nazariy va amaliy tayanch bo‘la oladi.

Mazkur maqolada sifat tahliliga asoslangan komparativ-pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ta’lim tizimlarini qiyosiy tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash, xalqaro hisobotlar hamda ilmiy maqolalarni desk research usulida o‘rganish tashkil etdi. Asosiy manbalar sifatida UNESCO, OECD, World Bank, Finlandiya Ta’lim va madaniyat vazirligi, Singapur Ta’lim vazirligi tizimiga mansub Academy of Singapore Teachers, TIMSS ensiklopediyasi hamda O‘zbekistonning rasmiy normativ hujjatlari tanlandi [1].

Tahlilda quyidagi mezonlardan foydalanildi: o‘qituvchini kasbga qabul qilish talablari; boshlang‘ich tayyorlov sifati; uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi; malaka oshirishning shakl va usullari; mentorlik va professional hamkorlik mexanizmlari; kasbiy rivojlanish natijalarini baholash. Shuningdek, xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlari institutsional, metodik va raqamli infratuzilma nuqtai nazaridan baholandi. Bunday yondashuv mavzuni nazariy mulohaza darajasida emas, balki aniq ta’lim siyosati va amaliyot darajasida ochishga xizmat qiladi [3].

Tahlil natijalari, avvalo, shuni ko‘rsatdiki, samarali ta’lim tizimlarida o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish “kursga yuborish” bilan cheklanmaydi. U kasbga kirishdan boshlab butun faoliyat davomida davom etadigan tizimli jarayon sifatida ko‘riladi. UNESCO global hisobotida o‘qituvchi taqchilligi bilan bir qatorda malakali pedagoglar ulushini oshirish dolzarb vazifa ekani qayd etiladi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlovida sifati past bo‘lgan qisqa yondashuvlar yetarli emasligini anglatadi [1].

Ikkinchi muhim natija shuki, professional rivojlanish qanchalik amaliyotga yaqin bo‘lsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo‘ladi. TALIS ma’lumotlarida o‘qituvchilar eng samarali deb baholagan mashg‘ulotlar aynan sinfda qo‘llash mumkin bo‘lgan, faol o‘rganish va hamkorlikka asoslangan treninglar bo‘lgan. Darhaqiqat, Darling-Hammond va hamkorlari samarali professional rivojlanishning yetti asosiy belgisi sifatida mazmunga yo‘naltirilganlik, faol o‘rganish, hamkorlik, samarali amaliyot modellari, murabbiylik, refleksiya hamda davomiylikni ajratadi. Mazkur natijalar O‘zbekistonda ham seminar-markazli modeldan maktabga singdirilgan professional rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o‘tish zarurligini ko‘rsatadi [2].

Finlandiya tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori sifatli boshlang‘ich ta’limning poydevori o‘qituvchini tanlash va tayyorlash bosqichidayoq qo‘yiladi. Magistr darajasiga asoslangan tayyorlov, kasbga layoqatni aniqlovchi kirish saralovi hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qituvchi ta’limi natijasida o‘qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki sinfiy muammo-

larni ilmiy yondashuv bilan hal qila oladigan refleksiv mutaxassisga aylanadi. Bu tajribaning O'zbekiston uchun sabog'i shundaki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarida ilmiy-tadqiqot elementlari, amaliy diagnostika va classroom inquiry komponentlarini kuchaytirish lozim.

Singapur modeli esa kompetentlikni individual rivojlanish trayektoriyasi bilan bog'laydi. Teacher Growth Model o'qituvchining o'z ehtiyoji, qiziqishi va faoliyat bosqichiga qarab professional yo'lini rejalash imkonini beradi. Bunda o'qituvchi kasbiy o'sishning passiv iste'molchisi emas, balki faol subyektga aylanadi. Mazkur model O'zbekiston ta'lim tizimida har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun shaxsiy kasbiy rivojlanish portfeli, individual malaka xaritasi va refleksiv monitoring tizimini joriy etish zarurligini ko'rsatadi [6].

Janubiy Koreya tajribasida esa kasbiy kompetentlikni rivojlantirish sertifikatlash va martaba o'sishi bilan integratsiya qilingan. Grade I sertifikatini olish uchun 180 soatlik professional rivojlanish dasturida qatnashish talabi o'qituvchini uzluksiz o'rganishga undaydi. Dastur tarkibida umumiy pedagogika, asosiy ko'nikmalar va fanga oid bilimlar birgalikda beriladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston sharoitida malaka toifasi, attestatsiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq [7].

World Bank materiallari asosida yana bir muhim xulosa ko'rinadi: professional rivojlanish bir martalik kurs emas, balki dars boshqaruvi, o'quvchini jalb etish, tushunishni tekshirish kabi amaliy texnikalarni qamrab olgan doimiy jarayon bo'lishi kerak. Texnologiyaga tayangan professional rivojlanish ham katta salohiyatga ega: World Bank'ning Technology for Teaching tashabbusi 80 mamlakatdan 400 dan ortiq dastur tajribasini o'rganib, eng ta'sirchan va masshtablash mumkin bo'lgan 10 modelni ajratgan. Bu O'zbekiston uchun aralash va masofaviy malaka oshirishning sifatli variantlarini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi [8].

Milliy tizim nuqtayi nazaridan qaralganda, O'zbekistonda zarur normativ asos shakllanib bormoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida malaka toifasiga ega pedagoglar ulushini oshirish va masofaviy yoki aralash kurslar ulushini 30 foizga yetkazish belgilangan. 2025-yilgi PF-73-son Farmon esa pedagog kadrlar tayyorlashni xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilishni nazarda tutadi. Bu huquqiy asos xorijiy tajribalarning bevosita importi emas, balki ularni milliy ehtiyoj, hududiy sharoit va boshlang'ich ta'limning real talablariga moslashtirish imkonini beradi [11].

Tadqiqot natijalari umumlashtirilganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali modeli quyidagi xususiyatlarga ega ekani aniqlandi: kasbga kirishda sifatli saralov; ilmiy va amaliy tayyorgarlikning integratsiyasi; maktabga singdirilgan malaka oshirish; mentorlik va professional o'rganish hamjamiyatlari; individual rivojlanish trayektoriyasi; attestatsiya va professional o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik; raqamli platformalar orqali moslashuvchan o'rganish. Bu jihatlar o'zbek olimlari ta'kidlagan metodik, kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish bilan hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar bir nechta umumiy qonuniyatni namoyon etadi. Birinchidan, kasbiy kompetentlik tayyor bilimlar yig'indisi emas, balki uzluksiz rivojlanadigan murakkab kasbiy sifatdir. Ikkinchidan, samarali professional rivojlanish amaliyotga yaqin, hamkorlikka asoslangan, refleksiv va davomiy bo'lishi kerak. Uchinchidan, o'qituvchi tayyorlovining sifati bilan in-service malaka oshirishning sifati bir-biridan ajralmas tizim

sifatida ko‘rilgandagina ta’lim sifati barqaror oshadi [3].

O‘zbekiston milliy ta’lim tizimi uchun quyidagi takliflar maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Avvalo, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi pedagoglarni tayyorlash dasturlarida amaliy tadqiqot, dars tahlili, refleksiv portfel va mikrodars elementlarini kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, maktabning o‘zida tashkil etiladigan professional o‘rganish hamjamiyatlari, mentorlik juftliklari va lesson study elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Uchinchidan, malaka oshirish kurslarini umumiy nazariy ma’ruzalar emas, balki fan-metodik muammolarni yechishga qaratilgan modul va кейсlar asosida qayta loyihalash kerak. To‘rtinchidan, attestatsiya, malaka toifasi va uzluksiz professional rivojlanish natijalarini yagona elektron portfel orqali bog‘lash maqsadga muvofiq. Beshinchidan, hududiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, aralash va masofaviy professional rivojlanish platformalarini sifatli kontent bilan boyitish zarur. Bu yondashuv nafaqat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini, balki umumiy ta’lim sifatini ham oshirishga xizmat qiladi [10].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. Global report on teachers: What you need to know. 2024. (ЮНЕСКО)
2. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. 2019. (OECD)
3. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., Gardner, M. Effective Teacher Professional Development. Learning Policy Institute, 2017. (files.eric.ed.gov)
4. Avalos, B. Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. Teaching and Teacher Education, 2011. (ScienceDirect)
5. Finland Ministry of Education and Culture. Teacher Education in Finland.
6. Academy of Singapore Teachers. Teacher Growth Model. (academyofsingaporeteachers.moe.edu.sg)
7. TIMSS & PIRLS International Study Center. Teachers, Teacher Education, and Professional Development – Korea, Rep. of. (timssandpirls.bc.edu)
8. World Bank. Teachers: Focus Area / Education Overview. (World Bank)
9. World Bank. Technology for Teaching. (Мировой банк)
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-73-son Farmoni. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 28.04.2025. (Lex.uz)
11. Egamova, Z. A., Pulatova, M. E. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish. FAN, TA’LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI, 2024. (journal.bilig.uz)
12. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik amaliyot misolida. Farg‘ona metodik yo‘nalishidagi ilmiy nashr, 2025.
13. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. (Maktabgacha Va Maktab Ta’limi Jurnali)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KORREKSION-PEDAGOGIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ataxonova Manzura Xusanjon qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
“Kattalar ta’limi” yo‘nalishi magistri
manzurax2017@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining korreksion-pedagogik faoliyatini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot Pedagogika, Maxsus pedagogika va Pedagogik psixologiya fanlari integratsiyasi asosida olib borilgan. Unda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, korreksion faoliyatni samarali tashkil etishda individual yondashuv, diagnostik metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni asoslab o‘tiladi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kasbiy kompotensiyalarini rivojlantirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *korreksion faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, o‘qituvchi kompotensiyasi, korreksion-pedagogik yondashuv, individual yondashuv, o‘quv-bilish faoliyati, diagnostika, rivojlantiruvchi ta’lim, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, Maxsus pedagogika, Pedagogik psixologiya, metodologik asoslar.*

Теоретико-методологические основы совершенствования коррекционно-педагогической деятельности учителей начальных классов

Атахонова Манзура Хусанжон кизи,
магистрант направления “Образование взрослых” Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони.

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы и практические механизмы совершенствования коррекционно-педагогической деятельности учителей начальной школы. Исследование проводилось на основе интеграции дисциплин педагогики, специальной педагогики и педагогической психологии. Рассматриваются методы выявления, анализа и устранения трудностей, с которыми сталкиваются учащиеся начальной школы в своей учебно-познавательной деятельности. Также обосновывается роль индивидуального подхода, диагностических методов и современных педагогических технологий в эффективной организации коррекционной деятельности. Результаты исследования служат повышению качества и эффективности образования путем развития профессиональных компетенций учителей.*

Ключевые слова: *коррекционная деятельность, начальное образование, компетентность учителя, коррекционно-педагогический подход, индивидуальный подход, учебно-познавательная*

деятельность, диагностика, развивающее образование, педагогические технологии, эффективность обучения, специальная педагогика, педагогическая психология, методические основы.

Theoretical and methodological foundations for improving the correctional-pedagogical activities of primary school teachers

Ataxonova Manzura Xusanjon qizi,
Master's student in Adult Education, A.Avloni National Institute of Pedagogical Mastery.

Abstract: *This article discusses the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for improving the corrective and pedagogical activities of primary school teachers. The research was conducted on the basis of the integration of the disciplines of Pedagogy, Special Pedagogy and Pedagogical Psychology. It considers methods for identifying, analyzing and eliminating difficulties encountered by primary school students in their educational and cognitive activities. It also substantiates the role of an individual approach, diagnostic methods and modern pedagogical technologies in the effective organization of corrective activities. The results of the research serve to improve the quality and efficiency of education by developing the professional competencies of teachers.*

Keywords: *corrective activities, primary education, teacher competence, corrective-pedagogical approach, individual approach, educational-cognitive activity, diagnostics, developmental education, pedagogical technologies, educational effectiveness, Special pedagogy, Pedagogical psychology, methodological foundations.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning bilish jarayonlari, shaxsiy sifatlari va o‘quv faoliyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu davrda yuzaga keladigan o‘quv qiyinchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir. Shu jihatdan, korreksion-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish “Pedagogika va Maxsus pedagogika”ning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion ishlarni olib borish, ularning o‘zlashtirish darajasini oshirish va bilimlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda pedagogik psixologiya yondashuvlariga tayangan holda diagnostika, individual yondashuv va rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ta’lim samaradorligi oshib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta’minlanadi.

Bugungi kun ta’lim tizimida inklyuzivlik, individiduallashtirish va differensial yondashuv tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, rivojlanishida turli og‘ishlarga ega bo‘lgan bolalar bilan samarali ishlash o‘qituvchidan korreksion pedagogika bo‘yicha yetarli kompotensiyalarni talab etadi. Korreksion pedagogik faoliyatni takomillashtirish o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va shaxs sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Korreksion pedagogika – rivojlanishida turli darajadagi og‘ishlar (sensor, intellektual, nutqiy, emotsional-irodaviy) mavjud bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Bu fanning predmeti rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini, ularni o‘qitish va tarbiyalash jarayonining qonuniyatlarini va korreksion-kompensator mexanizmlaridan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining korreksion pedagogik faoliyatini takomillashtirish

jarayoni shaxsga yo'naltirilgan va kompotensiyaviy yondashuvlar asosida tashkil etilganda o'quvchilarning individual rivojlanish darajasi samarali oshadi [1].

Sensor bolalar – bu sezgi organlari faoliyatidagi buzilishlar (ko'rish, eshitish, taktil sezgi va boshqalar) tufayli atrof- muhitni idrok etishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar hisoblanadi. Sensor rivojlanish esa, bolaning tashqi olamni sezgi organlari orqali qabul qilish, qayta ishlash va anglash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon buzilganda, bola rivojlanishida o'ziga xos og'ishlar yuzaga keladi. Sensor nuqsonli bolalar muammosi zamonaviy korreksion pedagogika va inklyuziv ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sensor rivojlanish buzilishlari bolaning atrof-muhitni idrok etishi, bilish jarayonlari va ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, sensor bolalar bilan ishlashning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Sensor bolalar deganda sezgi organlari faoliyatida (ko'rish, eshitish, taktil sezgi) turli darajadagi buzilishlar mavjud bo'lgan bolalar tushuniladi. Ushbu buzilishlar natijasida bolaning idrok etish jarayoni cheklanadi yoki o'ziga xos shaklda rivojlanadi. Natijada bilish faoliyati, nutq rivojlanishi va emotsional-irodaviy sohada o'ziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Sensor rivojlanish muammolari ilmiy jihatdan bir qator fundamental nazariyalarga tayanadi. Xususan, Lev Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy nazariyaga ko'ra, har qanday nuqson bolaning rivojlanishini to'xtatmaydi, balki uni o'ziga xos yo'nalishda shakllantiradi [17]. Olim nuqsonning biologik emas, balki ijtimoiy oqibatlariga alohida e'tibor qaratadi va kompensator imkoniyatlarning muhimligini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, sensor nuqsonli bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar ularning mavjud imkoniyatlariga emas, balki potensial rivojlanish darajasiga yo'naltirilishi lozim.

Sensor rivojlanishning neyropsixologik asoslari esa Aleksandr Luria tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan [8]. Unga ko'ra, insonning oliy psixik funksiyalari murakkab funksional tizimlar asosida tashkil topadi. Sensor analizatorlardan birining buzilishi boshqa analizatorlar faoliyatining kuchayishi hisobiga qisman kompensatsiya qilinishi mumkin. Bu esa korreksion pedagogik ishlarni tashkil etishda multisensor yondashuvdan foydalanish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, Alexei Leontiev tomonidan asoslangan faoliyat nazariyasi sensor bolalar rivojlanishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [5]. Ushbu nazariyaga ko'ra, bola psixik rivoji faoliyat jarayonida yuzaga keladi. Demak, sensor nuqsonli bolalar bilan ishlashda ularni faol o'quv jarayoniga jalb etish, amaliy harakatlar orqali bilim berish muhim ahamiyatga ega.

Sensor nuqsonli bolalarning psixologik xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, ko'rish nuqsoni mavjud bolalarda vizual idrok cheklanganligi sababli tasavvur va obrazli fikrlash taktil va eshitish asosida shakllanadi. Eshitish nuqsoni mavjud bolalarda esa nutq rivojlanishi sezilarli darajada kechikadi, bu esa ularning kommunikativ faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday bolalarda emotsional holatning beqarorligi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va o"ziga ishonchning pastligi kuzatilishi mumkin.

Korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etishda bir qator ilmiy tamoyillarga amal qilish zarur. Jumladan, kompensatsiya prinsipi asosida buzilgan funksiyalar boshqa sezgi tizimlari orqali qoplanadi. Polisenor (multisensor) yondashuv esa o'quv materialini bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlari orqali o'rnini ta'minlaydi. Bundan tashqari, individual yondashuv har bir bolaning rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi. Amaliy

jihatdan sensor bolalar bilan ishlash differensial va moslashtirilgan metodlarni qo‘llashni taqazo etadi. Masalan, ko‘rish nuqsonli bolalar uchun Brayl yozuvi, taktil materiallar va audio vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Eshitish nuqsonli bolalar bilan ishlashda esa imo-ishora tili, labdan o‘qish va maxsus pedagogik metodlar qo‘llaniladi. Shu bilan birga, sensor integratsiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar (harakatli o‘yinlar, taktil faoliyat, muvozanat mashqlari) muhim o‘rin tutadi. Korreksion pedagogik faoliyatning samaradorligi o‘quvchilarning psixologik-pedagogik diagnostikasi asosida ishlab chiqilgan individual ta’lim dasturlarini qo‘llash bilan bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy inklyuziv ta’lim sharoitida sensor bolalarni umumta’lim muassasalariga integratsiya qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda moslashtirilgan o‘quv dasturlari, maxsus pedagogik yondashuvlar va mutaxassislar (psixolog, logoped, defektolog) hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shu orqali sensor nuqsonli bolalarning ijtimoiylashuvi va ta’lim olish imkoniyatlari kengaytiriladi. Shunday qilib, sensor bolalar bilan ishlashning nazariy asoslari ko‘p fanli yondashuvga tayanadi va ularning samarali rivojlanishini ta’minlash uchun kompensatsiya, multisensor o‘qitish va individual yondashuv kabi prinsiplarga asoslangan holda tashkil etilishi zarur.

Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar muammosi zamonaviy korreksion pedagogika va maxsus ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu toifadagi bolalar bilan ishlash nafaqat pedagogik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan kompleks yondashuvni talab etadi. Intellektual buzilishlar bolaning bilish jarayonlari, ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Intellektual nuqsonli bolalar deganda aqliy rivojlanish darajasi yosh me’yoridan past bo‘lgan, bilish faoliyatida barqaror qiyinchiliklar kuzatiladigan bolalar tushuniladi. Ushbu holat odatda tafakkur, xotira, diqqat, nutq va idrok jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat ko‘pincha intellektual yetishmovchilik yoki aqliy rivojlanishning buzulishi sifatida izohlanadi.

Intellektual rivojlanish muammosi ilmiy jihatdan bir qator fundamental nazariyalarga asoslanadi. Jumladan, Lev Vygotskiy ta’limotiga ko‘ra, intellektual nuqson bolaning umumiy rivojlanishini to‘liq to‘xtatmaydi, balki uni o‘ziga xos tarzda shakllantiradi [18]. Olimning fikricha, bunday bolalarda rivojlanishning “yaqin rivojlanish zonasi”ni aniqlash va shu asosda ta’limni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv intellektual nuqsonli bolalarda mavjud imkoniyatlarni maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv rivojlanish nazariyasi intellektual nuqsonli bolalar tafakkurini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Piagetga ko‘ra, bunday bolalarda kognitiv rivojlanish bosqichlari sekinlashgan holda kechadi, abstrakt fikrlash esa qiyinchilik bilan shakllanadi [13]. Shu bois ular uchun ta’lim jarayonida konkret-amaliy faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Intellektual nuqsonli bolalarning psixologik xususiyatlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning diqqat hajmi tor, barqarorligi past bo‘ladi, xotira esa ko‘proq mexanizm xarakterga ega. Tafakkur jarayonlari sust, umumlashtirish va tahlil qilish qobiliyati cheklangan bo‘ladi. Nutq rivojlanishi ham kechikadi, lug‘at boyligi kam va grammatik tuzilishlar sodda bo‘ladi. Shu bilan birga, emotsional-irodaviy sohada ham o‘zgarishlar kuzatilib, motivatsiya pastligi, tez charchash va tashqi ta’sirlarga yuqori sezuvchanlik namoyon bo‘ladi.

Intellektual nuqsoni bor bolalar bilan ishlash quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Individuallashtirish tamoyili – har bir bolaning rivojlanish darajasi, qobiliyati va

ehtiyojlariga mos yondashuv hisoblanadi. Ko'rgazmalilik tamoyili – abstrakt tushunchalarni konkret misollar, tasvirlar va predmetlar orqali tushuntirish hisoblanadi. Takrorlash va mustahkamlash – bilimlarni ko'p marotaba takrorlash orqali mustahkamlash. Faollikni rag'batlantirish- bolani dars jarayonida faol ishtirok etishga undash tushunilsa, ijobiy motivatsiya yaratish – muvaffaqqiyatni qo'llab-quvvatlash orqali o'rganishga qiziqishni oshirishdir. Qisqa va aniq tushuntirishlar, kichik hajmdagi tushuntirishlar, tez-tez dam olish pauzalari va faoliyatni tez-tez almashtirish kabi jarayonlar bilan darsni tashkil etish, bunday bolalar bilan ishlashda maqsadga muvofiq bo'ladi hamda darsni samarali o'tishini ta'minlaydi.

Intellektual nuqson odatda 3 bosqichda bo'lib, yengil darajasidagi bolalar o'qish va yozishni o'zlashtira oladi, mustaqil hayotga qisman tayyorlanadi va ko'proq pedagogik

qo‘llab-quvvatlash talab etadi. O‘rta darajada oddiy bilimlarni egallaydi, nutq va muloqot cheklangan bo‘lib, doimiy nazorat zarur bo‘ladi. Og‘ir darajasida esa, minimal o‘quv faoliyati, asosiy hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatish ustuvor hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda ko‘pincha yengil va o‘rta darajadagi bolalar bilan ishlash amalga oshiriladi. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarga elementar o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish ya’ni, o‘qish, yozish va hisoblash kabilarni, nutqni rivojlantirish, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish, mustaqil faoliyatga o‘rgatish, psixometrik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi jarayonlar inklyuziv ta’lim tamoyiliga mos holda olib borilishi mumkin. Intellektual nuqsoni bor bolalar bilan ishlash murakkab, ammo muhim pedagogik jarayon. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida to‘g‘ri tashkil etilgan metodika, psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali bunday bolalarning bilim olish darajasini sezilarli oshirish mumkin.

Korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etishda bir qator muhim tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Avallo, individual yondashuv prinsipi asosida har bir bolaning rivojlanish darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Bundan tashqari, rivojlantiruvchi ta’lim prinsipi orqali o‘quv jarayoni bolaning mavjud imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltiriladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa bilimlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Amaliy jihatdan intellektual nuqsonli bolalar bilan ishlash maxsus metod va vositalarni qo‘llashni talab etadi. Xususan, ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanish, o‘quv materialini soddalashtirish, takrorlash va mustahkamlashga ko‘proq vaqt ajratish muhimdir. Shuningdek, o‘yin texnologiyalari, interaktiv metodlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar samarali natija beradi. Ta’lim jarayonida kichik qadamlar asosida o‘qitish (step-by-step) yondashuvi ham keng qo‘llaniladi. Zamonaviy inklyuziv ta’lim sharoitida intellektual nuqsonli bolalarni umumta’lim muhitiga integratsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda moslashtirilgan o‘quv dasturlari, individual ta’lim rejalari va mutaxassislar (psixolog, defektolog, logoped) hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali bunday bolalarning ijtimoiylashuvi, mustaqil hayot ko‘nikmalari va ta’lim olish imkoniyatlari kengayadi.

Nutqiy rivojlanishning yetarli darajada shakllanmaganligi bolalarning umumiy psixik rivojlanishi, bilish jarayonlari va ijtimoiylashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nutqiy rivojlanishi past bolalar bilan ishlash korreksion pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon ilmiy asoslangan tizimli yondashuvni, maxsus metod va vositalardan foydalanishni talab etadi.

Nutqiy rivojlanishi past bolalar deganda nutqning fonetik, leksik va grammatik jihatlari yetarli darajada shakllanmagan, nutqiy faoliyatda barqaror qiyinchiliklarga ega bo‘lgan bolalar tushuniladi. Ushbu holat nutq apparatining fiziologik yetilmaganligi, markaziy asab tizimi faoliyatidagi o‘ziga xosliklar yoki ijtimoiy-pedagogik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Natijada bunday bolalarda so‘z boyligi kamligi, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, gap tuzishda qiyinchiliklar va nutqiy muloqotning cheklanganligi kuzatiladi. Nutqiy rivojlanish muammosi ilmiy jihatdan bir qator nazariy konsepsiyalarga asoslanadi. Xususan, Lev Vygotskiy nutq va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlab, nutq rivojlanishi bolaning umumiy psixik taraqqiyotida hal qiluvchi omil ekanligini asoslab bergan [17]. Uning fikricha, nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur shakllanishining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shu bois nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish faqat lingvistik emas, balki kognitiv rivojlanishga ham xizmat qiladi. Nutq faoliyatining psixologik asoslari Aleksander Luria tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan.

Unga ko'ra, nutq murakkab funksional tizim bo'lib, bosh miyaning turli zonalari hamkorligida amalga oshadi [7]. Nutqiy buzilishlar ushbu tizimning ayrim bo'g'inlaridagi nosozliklar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli logopedik ishlar tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Shuningdek, nutq rivojlanishini tushuntirishda Alexei Leontiev faoliyat nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, nutq faoliyati ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi [6]. Demak, nutqiy rivojlanishi past bolalar bilan ishlashda ularni faol kommunikativ muhitga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, nutqning sust rivojlanishi ko'pincha diqqatning beqarorligi, xotira hajmining cheklanganligi va tafakkur operatsiyalarining (tahlil, umumlashtirish, taqqoslash) yetarlicha shakllanmaganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Bu esa bolaning dars jarayonida faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi. Korreksion pedagogika yondashuviga ko‘ra, nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklar erta aniqlansa, maxsus mashqlar, muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar, o‘yin texnologiyalari va individual yondashuv orqali ularni sezilarli darajada bartaraf etish mumkin. Ayniqsa, dialogik nutqni rivojlantirish, so‘z boyligini kengaytirish va fikrni mantiqiy izchil ifodalashga o‘rgatish muhim korreksion vazifalar hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida nutqiy rivojlanish darajasini muntazam diagnostika qilish va korreksion – pedagogik ishlarni tizimli tashkil etish o‘quvchilarning umumiy o‘quv muvaffaqqiyatini oshirishda asosiy omillardan biri sanaladi.

Nutqiy rivojlanishi past bolalar bilan ishlash tizimi kompleks yondashuvga asoslanadi va bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, diagnostika bosqichi muhim bo‘lib, unda bolaning nutqiy rivojlanish darajasi, nuqson turi va sabablarini aniqlash amalga oshiriladi. Diagnostika natijalari asosida individual korreksion dastur ishlab chiqiladi. Korreksion ishlar tizimi odatda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tayyorlov bosqichi, asosiy korreksion bosqich va mustahkamlash bosqichi. Tayyorlov bosqichida artikulyatsion apparatni rivojlantirish, nafas olish mashqlari va fonematik eshituvni shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Asosiy bosqichda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish, lug‘at boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmalarni shakllantirish ishlari olib boriladi. Mustahkamlash bosqichida esa o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni erkin nutqda qo“llashga erishiladi. Amaliy jihatdan nutqiy rivojlanishi past bolalar bilan ishlashda turli metod va vositalardan foydalaniladi. Jumladan, artikulyatsion mashqlar, fonetik mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar va kommunikativ mashqlar keng qo‘llaniladi. Ko‘rgazmali vositalar, rasmlar, audio materiallar va interaktiv texnologiyalar nutq rivojlanishini jadallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, takrorlash, bosqich-ma-bosqich o‘rgatish va individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy inklyuziv ta’lim sharoitida nutqiy rivojlanishi past bolalar bilan ishlashda pedagog, logoped va ota-onalar hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonini moslashtirish, qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil etish va uy sharoitida nutqni rivojlantirishga qaratilgan ishlar samaradorlikni oshiradi.

Korreksion ishlarni samarali tashkil etishda o‘qituvchi tomonidan tanlanadigan metodlar o‘quvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur. Shu bois, interaktiv, differensial va rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Quyida mazkur yondashuvlarga asoslangan metodlar tizimi keltiriladi:

1-metod: Multisensor integratsiya metodi (chuqurlashtirilgan yondashuv).

Multisensor yondashuv va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish jarayonlarini faollashtirib, nutq va tafakkur rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Multisensor integratsiya metodi korreksion pedagogikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quv materialini bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi tizimlari orqali o‘zlashtirishga asoslanadi. Ushbu metod nazariy jihatdan Maria Montessori pedagogik qarashlari hamda neyropsixologik yondashuvlarga tayanadi. Mazkur metodning ilmiy mohiyati shundan iboratki, inson miyasi axborotni turli analizatorlar (vizual, audial, kinestetik) orqali parallel ravishda qabul qilganda, o‘rganish jarayoni samaraliroq kechadi. Ayniqsa, sensor va nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklari mavjud bolalarda bitta analizator faoliyatidagi cheklanish boshqa sezgi tizimlari orqali komponsatsiya qilinadi.

Multisensor yondashuv quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Vizual komponent (rasm, grafik, ranglar orqali o‘rganish).

Audial komponent (eshitish, talaffuz, musiqa orqali o‘rganish).

Kinestetik komponent (harakat, taktil sezgi orqali o‘rganish).

Mazkur metodni amaliyotda qo‘llashda o‘quv materiallari real predmetlar, modellar, interaktiv vositalar orqali taqdim etiladi. Masalan, nutqiy rivojlanishi past bolalarda yangi so‘zlarni o‘rgatishda bola predmetni ko‘radi, uni ushlab ko‘radi va shu bilan birga talaffuz qiladi. Bu esa semantik bog‘lanishlarning mustahkam shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, multisensor integratsiya metodi sensor tajribani boyitish orqali bilish faoliyatini faollashtiradi va korreksion jarayon samaradorligini oshiradi.

Neyropedagogik korreksiya metodi (ilmiy asoslangan model).

Neyropedagogik korreksiya metodi bolaning psixik rivojlanishini miya faoliyati bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqadi va Alexandr Luria tomonidan ishlab chiqilgan neyropsixologik nazariyalarga asoslanadi [7]. Mazkur metodning asosiy g‘oyasi- oliy psixik funksiyalar (nutq, tafakkur, xotira, diqqat) miyaning murakkab funksional tizimlari orqali amalga oshadi va ular maxsus mashqlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Neyropedagogik korreksiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Sensor-motor integratsiya- harakat va sezgi jarayonlarini uyg‘unlashtirish.

Interhemisferik aloqalarni rivojlantirish- miya yarim sharlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish.

Kognitiv funksiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Mazkur metodda quyidagi mashqlar tizimi qo‘llaniladi: ko‘z-qo‘l koordinatsiyasini rivojlantiruvchi mashqlar, ritmik va sinxron harakatlar (chap-o‘ng koordinatsiyasi), nafas va nutqni uyg‘unlashtiruvchi mashqlar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday mashqlar nafaqat nutqni rivojlantiradi, balki diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash va umumiy aqliy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Natijada neyropedagogik yondashuv korreksion jarayonda biologik va pedagogik omillarni integratsiya qilish imkonini beradi.

“Scaffolding” (qo‘llab-quvvatlovchi o‘qitish) metodi.

“Scaffolding” metodi zamonaviy pedagogikaning samarali yondashuvlaridan biri bo‘lib, Lev Vygotskiy tomonidan asoslangan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga tayanadi. Mazkur metodning mohiyati shundan iboratki, bola mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni kattalar yoki malakali tengdoshlari yordamida bajaradi va vaqt o‘tishi bilan ushbu yordam bosqichma-bosqich kamaytiriladi. Scaffolding metodining asosiy bosqichlari:

1. Model ko‘rsatish – o‘qituvchi vazifani bajarishni namoyish etadi.
2. Birgalikda bajarish – o‘quvchi o‘qituvchi yordamida faoliyatni amalga oshiradi.
3. Qisman mustaqillik – yordam kamayadi.
4. To‘liq mustaqillik – o‘quvchi vazifani mustaqil bajaradi.

Mazkur metod ayniqsa, intellektual va nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar uchun samarali hisoblanadi, chunki u murakkab vazifalarni soddalashtiradi. O‘quvchida ishonch hissini shakllantiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Amaliy jihatdan, masalan, nutq rivojlanishida qiyinchilik bo‘lgan bolaga gap tuzishni o‘rgatishda dastlab tayyor namunalar beriladi, keyinchalik esa bola mustaqil gap tuzishga o‘rgatiladi.

Ko‘rib chiqilgan multisensor integratsiya, neyropedagogik korreksiya va scaffolding metodlari korreksion pedagogikaning zamonaviy ilmiy yondashuvlari sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlar bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning kognitiv, nutqiy va sensor rivojlanishini kompleks qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi korreksion ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliy yondashuv: multisensor integratsiya asosida dars modeli.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy va kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda multisensor integratsiya metodiga asoslangan darslarni tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv o‘quv materialini bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi kanallari orqali qabul qilishga asoslanib, ayniqsa sensor, intellekt va nutqiy rivojlanishida qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar uchun samarali korreksion vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur metod asosida tashkil etilgan dars modeli 1-sinf o‘quvchilari uchun “Mevalar” mavzusida ishlab chiqildi. Darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarning lug‘at boyligini ken-

gaytirish, to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish hamda sezgi organlari orqali bilish faoliyatini faollashtirishdan iborat bo'ladi. Dars jarayonida multisensor yondashuvning uch asosiy komponenti – vizual, audial va kinestetik faoliyat uyg'un holda qo'llanildi. Vizual komponent doirasida o'quvchilarga haqiqiy mevalar (olma, banan, apelsin) va ularning rangli tasvirlari ko'rsatildi. Bu bosqich idrok jarayonini faollashtirib, obrazli tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Audial komponentda o'qituvchi tomonidan mevalarning nomi to'g'ri talaffuz qilinib, o'quvchilar tomonidan takrorlash mashqlari bajariladi. Bu jarayon fonematik eshituvni rivojlantirish va nutq apparatini faollashtirishga qaratilgan. Ilmiy jihatdan ushbu yondashuv nutqiy rivojlanishning artikulyatsion va akustik komponentlarini mustahkamlashga yordam beradi. Kinestetik (taktik) komponent esa o'quvchilarning bevosita predmetlar bilan ishlashi orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar mevalarni ushlab ko'rish, ularning shakli, tuzilishi va yuzasini his qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu jarayon sensor tajribani boyitib, predmet va uning nomi o'rtasida mustahkam neyropsixologik bog'lanish hosil qiladi.

Darsning mustahkamlash bosqichida didaktik o'yinlar ("Top va ayt" kartochkalarni moslashtirish) qo'llaniladi. Bu jarayon o'quvchilarning diqqatini jamlash, xotira faoliyatini faollashtirish va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati, Lev Vygutsky ta'limotiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishida yetakchi faoliyat turi sifatida namoyon bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi [16]. Shuningdek, dars davomida ko'rgazmali va amaliy metodlar uyg'unligi ta'minlanadi. Bu yondashuv Maria Montessori pedagogik konsepsiyasiga mos ravishda, bolaning mustaqil tajriba orqali bilimni egallashini qo'llab-quvvatlaydi [9]. Natijada o'quvchilar nafaqat yangi so'zlarni, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradilar.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, multisensor integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, diqqat va xotira barqarorligini kuchaytiradi hamda nutqiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, intellektual va nutqiy rivojlanishda qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun bunday yondashuv kompensator mexanizm sifatida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Mevalar" mavzusida tashkil etilgan multisensor dars modeli korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etishning amaliy namunasi bo'lib, u sezgi tizimlari integratsiyasi asosida bolalarning kognitiv va nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. O'qituvchi, ota-ona va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik korreksion pedagogik faoliyatning muhim amaliy mexanizmi bo'lib, u o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Quyidagi ilmiy manbalarga tayangan holda ishlab chiqilgan KEYS lar korreksion pedagogik faoliyatni takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, diagnostika, innovatsion texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlikning nazariy hamda amaliy jihatdan asoslanganligini ko'rsatadi.

I. KEYS: O'qish buzilishlari (disleksiya) bilan bog'liq korreksion faoliyat.

Vaziyat tavsifi shundan iboratki, 2-sinf o'quvchisida o'qish jarayonida harflarni almashtirish, inversiya qilish, bo'g'inlab o'qish va matn mazmunini anglashda qiyinchiliklar kuzatiladi. O'quvchining o'qishga motivatsiyasi pasaygan.

Mazkur holat Disleksiya bilan bog'liq bo'lib, u fonologik qayta ishlashning buzilishi, vizual – motor koordinatsiyaning yetarli rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, disleksiya ko'pincha erta aniqlanmagan taqdirda akademik muvaffaqqiyatsizlikka olib

keladi. Bu jarayonning diagnostik vositalari quyidagicha: fonematik eshitishni aniqlash testlari, o‘qish tezligi va aniqligi ko‘rsatkichlari, xotira tipologiyasi (substitutsiya, omissiya, inversiya).

Korreksion-intervensiya dasturining 1-bosqichi (adaptiv) da harf-tovush mosligini mustahkamlab, vizual kartochkalar bilan ishlanadi. 2-bosqichi (rivojlantiruvchi) da bo‘g‘inli o‘qishdan silliq o‘qishga o‘tib, audio-vizual mashqlar bajariladi. 3-bosqichi (integrativ) da matn mazmunini tahlil qilinadi, qayta hikoyalash va refleksiya jarayoni olib boriladi. Baholash mezonlari esa, o‘qish tezligi (so‘z/min), xatolar sonining kamayishi va mazmunni tushunish darajasiga qarab amalga oshiriladi.

II. KEYS: Diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik (DEHB) bilan ishlash.

Vaziyat tavsifi shundan iboratki, 3-sinf o‘quvchisi dars jarayonida diqqatni jamlay olmaydi, impulsiv xatti-harakatlar ko‘rsatadi va topshiriqlarni yakunlamaydi. Diqqat yetishmovchiligi va giperfaollik sindromi neyropsixologik buzilish bo‘lib, ijro funksiyalarining sust rivojlanishi bilan izohlanadi. Diagnostika jarayonida xulq-atvorni kuzatish kartasi ishlab chiqiladi, Conners shkalasi (moslashtirilgan variant), o‘qituvchi va ota-ona so‘rovnomalari tayyorlanadi. Metodologik yondashuv sifatida esa, kognitiv-behavioral terapiya elementlari, xulq-atvorni modifikatsiya qilish nazariyasi va inklyuziv pedagogika bilan hamkorlikda ishlanadi. Intervensiya jarayonida darsni mikrobosqichlarga ajratish, vizual rejalashtirish (checklist) va “Token economy” tizimi amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda ota-ona+o‘qituvchi+psixolog triadasi hamda, individual kuzatuv kundaligi kabilar bilan doimiy hakorlik modelida ishlanadi. Natijadorlik ko‘rsatkichlari esa quyidagicha bo‘ladi: diqqat davomiyligi (daqiqalarda) va impulsiv xatti-harakatlarning kamayishi sezilarli darajada oshadi, vazifani yakunlash foizi oshadi.

III. KEYS: Nutq rivojlanishidagi kechikishlarni korreksiya qilish.

Vazifa tavsifi: 1-sinf o‘quvchisi nutqida fonetik nuqsonlar mavjud, lug‘at boyligi cheklangan, grammatik tuzilmalardan foydalanishda xatolar kuzatiladi. Mazkur muammo Logopediya doirasida o‘rganilib, artikulyatsion apparat, fonemetik idrok va semantik tizim rivojlanishining sustligi bilan bog‘liq. Diagnostika jarayonida artikulyatsion apparatni tekshiriladi, lug‘at boyligini aniqlash testlari o‘tkaziladi va nutqning grammatik tuzilishini baholanadi. Korreksion ishlarda artikulyatsion gimnastika, fonemetik eshitishni rivojlantirish mashqlari, dialogik va monologik nutqni rivojlantirish uchun turli amaliy va nazariy ishlar bajariladi. Audio yozuvlar orqali dinamikani kuzatib, har oyda diagnostik kesim monitoring qilinadi. Natijalar esa, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish va lug‘at boyligining ortishini namoyon etadi.

IV. KEYS: Ijtimoiy moslashuv va kommunikativ kompotensiya.

Vaziyat tavsifi shundan iborat: 4-sinf o‘quvchisi sinf jamoasiga qo‘shila olmaydi, ijtimoiy interaksiyalardan qochadi va guruhli ishlarda passiv. Bu holat Pedagogik psixologiya va sotsial o‘rganish nazariyasi asosida ijtimoiy ko‘nikmalarning yetarli shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Bunday vaziyatda diagnostika jarayoni sotsiometriya, kuzatuv va intervyu, ijtimoiy kompotensiya shkalalari orqali amalga oshiriladi. Kooperativ ta’lim, sotsial treninglar va rol o‘ynash texnikalari metodologik yondashuv hisoblanadi. Intervensiya dasturida “Peer support” modeli va guruhli loyihalar bilan ishlash, empatiyani rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi. O‘quvchilarni ijtimoiy faollik indeksi, muloqot chastotasi hamda, guruhdagi maqom o‘zgarishiga qarab baholanadi. Natijalar jamoaga integratsiya va ijtimoiy moslashuvning yaxshilanishini ko‘rsatadi.

V. KEYS: Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan differensial yondashuv.

Vaziyat shundan iborat: 2-sinf o'quvchisi matematika fanidan past natija ko'rsatadi, abstrakt tushunchalarni anglashda qiynaladi. Muammo Differensial ta'lim konsepsiyasi orqali tushuntirilib, individual kognitiv farqlar bilan bog'liq. Diagnostika jarayonida akademik diagnostik testlar o'tkaziladi, kognitiv rivojlanish darajasi aniqlanadi va o'quv motivatsiyasi tahlil qilinadi. Konkret predmetlar asosida o'qitiladi, darslar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib o'yin asosida o'qitish kabi korreksion strategiyalar amalga oshiriladi. Muvaffaqqiyatni vizuallashtirish, shaxsiy yutuqlarni e'tirof etish va rag'batlantirish kabi motivatsiyalar, o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini oshishiga, mustaqil ishlash ko'nikmasining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Keltirilgan keyslar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda korreksion faoliyat tizimli, diagnostik asoslangan va individual yondashuvga tayangan holda olib borilishi lozim. Har bir vaziyatda muammoning psixologik-pedagogik tabiati chuqur tahlil qilinib, mos intervensiya strategiyalari tanlanishi samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, multidisiplinar yondashuv (logoped, psixolog, ota-ona) korreksion jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2021-y.
2. American Psychiatric Association (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). Washington, DC:APA. 947 bet.
3. Barkley, Russel A. (2015). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: Ahandbook for Diagnosis and Treatment.New York: Guilford Press. 898 bet.
4. Hasanboyeva O. (2019). Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 320 bet.
5. Leontiv A.N. Activity Consciousness and Personality. 1978-y. Activity, consciousness, and personality. Englewood Cliffs, NJ: Prentice- Hall, pp. 62-65.
6. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. Moskva: Politizdat, 1975-y. 81-85-bet.
7. Luriya A.R. Nutq va ong. Moskva universiteti nashriyoti. 1979-y. 35-42-bet.
8. Luria A.R. Vysshie korkovye funktsii cheloveka. 1962-y. Moskva: MGU.
9. Montessori M. Bolaning ongini shakllanishi. Nyu-York: Holt, Rinehart and Winston. 1967-yil. 204-210-bet.
10. Montessori M. Bolaning ongini shakllanishi. Nyu-York: Holt, Rinehart and Winston. 1967y. 152-158-bet.
11. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika. Toshkent: Tafakkur (yoki TDPU nashri). 2020-y. 179-203-bet.
12. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Toshkent, 2005-y. 256-bet.
13. Piaget J. Intellekt psixologiyasi. Nyu-Jersi: Littlefield, Adams nashriyoti. 1963-y. 3-6-bet.
14. Qodirov Baxtiyor (2018). Umumiy psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 300-bet.
15. UNESCO (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. Paris: UNESCO Publishing. 502 bet.
16. Vygotsky L.S. O'yin va uning bolaning psixik rivojlanishidagi roli. In: Tanlangan psixologik asarlar, Moskva: Pedagogika. 1966-y. 62-68-bet.
17. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. Moskva: Pedagogika, 1982 y. 43-47-bet.
18. Vygotsky L.S. The Fundamentals of Defectology. In: Collected Works of L.S.Vygotsky, Vol. 2-New York: Plenium Press, 1993-y. pp. 29-30.

O‘QUVCHILARDA EMOTSIONAL CHARCHASH VA BARDOSHLILIK DARAJASI:
MAKTAB SHAROITIDA KORRELYATSION TAHLIL

Xolikova Xilola Gulamovna,
Navoiy viloyati Karmana tumani
1-umumiy o‘rta ta’lim maktab psixologi,
Buxoro xalqaro universiteti 1-kurs magistranti.
E-mail: xilolaxolikova4@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot maktab yoshidagi o‘quvchilarda emotsional charchash darajasi va stressga bardoshlilik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Ta’lim tizimining murakkablashuvi va zamonaviy o‘quv yuklamalari natijasida o‘quvchilar orasida emotsional charchash holatlari tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda, shu bilan birga, stressga bardoshlilik shaxsning psixologik salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda* ***46 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchisi*** *ishtirok etdi. Ma’lumotlar Emotsional Charchash Shkalasi (EChSh) va Stressga Bardoshlilik So‘rovnomasi yordamida to‘plandi. Olingan ma’lumotlar Pearson korrelyatsion tahlili orqali statistik jihatdan qayta ishlanadi. Tadqiqot natijalari emotsional charchash darajasi va stressga bardoshlilik darajasi o‘rtasida* ***salbiy va statistik ahamiyatli bog‘liqlik*** *mavjudligini ko‘rsatdi (r = -0.45, p < 0.01). Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilarda emotsional charchash darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning stressga bardoshlilik darajasi shunchalik past bo‘ladi. Ushbu natijalar maktab psixologlari va pedagoglari uchun o‘quvchilarda emotsional farovonlikni oshirish va stressga qarshi kurashish mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: Emotsional charchash, stressga bardoshlilik, o‘quvchilar psixologiyasi, maktab muhiti, korrelyatsion tahlil, psixologik moslashuv, o‘smirlar.

Эмоциональное выгорание и уровень жизнестойкости у учащихся: корреляционный анализ в условиях школы

Холикова Хилола Гуламовна,
Психолог 1-й средней школы, Карманинский район, Навоийская область, Узбекистан
Магистрант 1-го курса, Международный университет Бухары

Аннотация: *Данное исследование направлено на выявление взаимосвязи между уровнем эмоционального выгорания и уровнем стрессоустойчивости у школьников. В результате усложнения системы образования и современных учебных нагрузок эмоциональное выгорание среди учащихся становится все более актуальной проблемой, при этом стрессоустойчивость играет важную роль в сохранении психологического здоровья личности. В исследовании приняли участие* ***46 учащихся общеобразовательной школы****. Данные были собраны с использованием Шкалы Эмоционального Выгорания (ШЭВ)*

и Опросника Стрессоустойчивости. Полученные данные были статистически обработаны с помощью корреляционного анализа Пирсона. Результаты исследования показали ***отрицательную и статистически значимую корреляцию*** *между уровнем эмоционального выгорания и уровнем стрессоустойчивости (r = -0.45, p < 0.01). Это означает, что чем выше уровень эмоционального выгорания у учащихся, тем ниже их уровень стрессоустойчивости. Эти результаты имеют важное практическое значение для школьных психологов и педагогов при разработке профилактических и коррекционных программ, направленных на повышение эмоционального благополучия учащихся и развитие механизмов борьбы со стрессом.*

Ключевые слова: *Эмоциональное выгорание, стрессоустойчивость, психология учащихся, школьная среда, корреляционный анализ, психологическая адаптация, подростки.*

Emotional burnout and resilience levels in students: a correlational analysis within the school context

Kholikova Hilola Gulamovna,
Psychologist at Secondary School No.1, Karmana District, Navoiy Region, Uzbekistan 1st-year Master's Student, Bukhara International University

Abstrakt: *This study aims to identify the relationship between emotional burnout levels and resilience levels in school-aged students. As the education system becomes more complex and academic workloads increase, emotional burnout among students is becoming an increasingly pressing issue, while resilience plays a crucial role in maintaining psychological well-being. The study involved* ***46 general secondary school students****. Data were collected using the Emotional burnout Scale (EFS) and the Resilience Questionnaire. The obtained data were statistically processed using Pearson's correlational analysis. The results indicated a* ***negative and statistically significant correlation*** *between the level of emotional burnout and the level of resilience (r = -0.45, p < 0.01). This suggests that the higher the level of emotional burnout experienced by students, the lower their level of resilience. These findings have significant practical implications for school psychologists and educators in developing preventive and corrective programs aimed at enhancing students' emotional well-being and fostering stress-coping mechanisms.*

Keywords: *Emotional burnout, resilience, student psychology, school environment, correlational analysis, psychological adaptation, adolescents.*

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan so'nggi yillardagi ilmiy izlanishlarda o'quvchilarning psixologik salomatligini himoya qilish va ularda muammoli vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [1, 2]. O'zbekiston psixologiya fanida o'smirlik davri muammolari, yosh davri inqirozlari va o'quvchilarning emotsional rivojlanish xususiyatlari **E.G'oziyev** kabi olimlar tomonidan fundamental darajada tadqiq etilgan [3]. Biroq, bugungi zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv yuklamalarining ortib borishi va ijtimoiy-psixologik bosimning kuchayishi o'quvchilarda yangi turdagi psixologik muammolarni, xususan, emotsional charchash (burnout)[1] holatini keltirib chiqarmoqda.

Emotsional charchash shaxsning uzoq muddatli stress va emotsional zo'riqish natijasida yuzaga keladigan jismoniy, emotsional va kognitiv toliqish holati bo'lib, mazkur holat o'quvchining nafaqat akademik o'zlashtirishiga, balki uning shaxsiy rivojlanishiga ham to'sqinlik qiladi [7]. Ayniqsa, o'smirlik davrida maktab muhitining talablari, tengdoshlar bilan munosabatlar va kelajakdagi kasb tanlash kabi omillar

[1] Burnout (inglizchadan "yonib bo'lish" yoki "ruhiy toliqish") – bu uzoq davom etgan kuchli stress natijasida kelib chiqadigan jismoniy, hissiy va aqliy charchoq holatidir.

o‘quvchilar uchun qo‘shimcha stress manbai bo‘lishi mumkin [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilgi sohadagi tegishli Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli qarorida ta’lim muassasalarida psixologik xizmat sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [9]. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning stressga bardoshlilik (resilience) xususiyatlarini o‘rganish va ularni emotsional inqirozdan himoya qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bardoshlilik shaxsiy resurslarni safarbar etish, ijobiy fikrlash va muammolarni konstruktiv hal qilish orqali emotsional charchashning oldini olishda muhim bufer vazifasini bajarishi mumkin. Psixologik adabiyotlarda bardoshlilik, asosan, stressga bardoshlilik, emotsional muvozanat va irodaviy sifatlar bilan izohlanadi. Vardanyanning fikricha, “Stressga bardoshlilik – emotsiogen vaziyatlarda shaxsning barcha psixik komponentlari o‘rtasida garmonik munosabatni saqlab qolish”dir[2].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha universitet talabalari yoki ishchi xodimlardagi emotsional charchashni o‘rgangan bo‘lsa-da, maktab sharoitida o‘quvchilarda emotsional charchash va bardoshlilik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan kompleks ishlar hali yetarli emas. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bu muammoga e’tibor qaratish va uning oldini olish choralari uchun ilmiy asos yaratish dolzarb hisoblanadi.

Emotsional charchash tushunchasi. Psixologiya fanida ushbu fenomen uzoq muddatli stressli vaziyatlarga javoban paydo bo‘ladigan jismoniy va ruhiy toliqish sifatida tavsiflanadi. K.Maslach nazariyasiga ko‘ra, u emotsional holdan toyish, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarning qadrsizlanishi kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek psixolog olimlaridan E.G‘oziyev o‘smirlik davridagi emotsional beqarorlikni yosh davri inqirozlari bilan bog‘lab tushuntiradi [3].

Bardoshlilik (Resilience). Bu shaxsning qiyinchiliklarga moslashish va ulardan keyin qayta tiklanish qobiliyatidir. Milliy tadqiqotlarda, xususan Z.Nishonova ishlarida, o‘quvchilarning psixologik bardoshliligi ularning kognitiv va irodaviy sifatlari majmuasi sifatida ko‘riladi [8].

O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, xotira va diqqatning yuksak rivojlanishi, qadriyatlarga nisbatan motivatsiya tizimining o‘zgarishi bu yoshdagi talabalarda emotsional jarayonlarning o‘ziga xos kechishini taqozo etadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy **maqsadi** umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida emotsional charchash darajasi va stressga bardoshlilik darajasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklarni aniqlashdan iborat. Olingan natijalar o‘quvchilarning psixologik farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, maktab psixologik xizmatini takomillashtirish va profilaktik dasturlarni yaratish uchun xizmat qiladi.

Emotsional charchash, dastlab ish joyidagi kontekstda o‘rganilgan bo‘lsa-da, keyinchalik akademik muhitda ham, ayniqsa universitet talabalari orasida sezilarli muammoga aylangan. U uzoq muddatli emotsional talablar natijasida yuzaga keladigan chuqur toliqish hissi sifatida ta’riflanadi.

Akademik kontekstda bu holat emotsional va kognitiv charchash shaklida namoyon bo‘ladi, bunda o‘quvchilar o‘quv jarayonidagi talablar, yuklamalar va bosim tufayli toliqish, befarqlik va o‘z kompetentligiga ishonchsizlikni his etadilar. Masalan, Mamani-Benito va boshqalar (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda emotsional charchash akademik qoniqishning salbiy prognozchisi ekanligi aniqlangan [6], bu esa o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi

[2] Vardanyan B.H. Mekhanizmy regulyatsii emotsional’noy ustoychivosti. – Moskva: Nauka, 1983. – 164 s.

pasayishi va akademik ko'rsatkichlarining yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Iuga (2023) ham bolalar va o'smirlardagi "student burnout" sindromini o'rganib, uning stress va hissiy tartibga solish strategiyalari bilan bog'liqligini ta'kidlagan [4].

Maktab o'quvchilari, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari o'ziga xos bosimlarga duch kelishadi. Bunga o'qishdagi raqobat, imtihon stressi, ijtimoiy munosabatlar va kelajak uchun rejalashtirish kabi omillar kiradi. Bu bosimlar o'quvchilarning aqliy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, natijada ular diqqatni jamlash, topshiriqlarni bajarish va imtihonlarda yaxshi natija ko'rsatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, maktablarda o'quvchilarning emotsional charchashini oldini olish va ularning farovonligini oshirish maqsadida tegishli yordam va moslashuv choralarini ko'rish zarur.

BARDOSHLILIKNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Bardoshlilik (resilience) psixologiyada shaxsning qiyinchiliklar, stress va salbiy tajribalardan keyin tiklana olish, moslasha olish va hatto ulardan kuchliroq bo'lib chiqish qobiliyatini ifodalovchi muhim tushunchadir. Psixologik adabiyotlarda kasbiy barqarorlik, asosan, stressga bardoshlilik, emotsional muvozanat va irodaviy sifatlar bilan izohlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional barqarorligi yuqori bo'lgan shaxslar stressli vaziyatlarga psixologik jihatdan yaxshiroq moslashadi va kasbiy charchash xavfiga kamroq duch keladilar [7].

Bardoshlilikni rivojlantirishda bir qator omillar muhim rol o'ynaydi: ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini anglash, refleksiv qobiliyatlar, muammolarni hal qilish ko'nikmalari va ijobiy motivatsiya. Maktab muhitida o'qituvchilar, psixologlar va tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlar o'quvchilarning bardoshliligini mustahkamlaydi va ularga qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu davrda bolalarda aqliy faollik, mustaqil fikrlash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajalari keskin rivojlanadi, bu esa bardoshlilik shakllanishining ilk bosqichlari hisoblanadi.

Emotsional charchash va bardoshlilik o'rtasidagi munosabat. Ko'plab tadqiqotlar emotsional charchash va bardoshlilik o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, bardoshlilik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar stressga va emotsional talablarga yaxshiroq dosh bera oladi, bu esa ularda emotsional charchashning oldini oladi. Aksincha, past bardoshlilik darajasiga ega bo'lganlar qiyinchiliklar oldida tezroq toliqadi va emotsional charchashga moyil bo'ladi. Mamani-Benito va hammualliflar (2024) tadqiqoti emotsional charchash va akademik qoniqish o'rtasidagi salbiy munosabatni isbotlagan bo'lsa, akademik faollik ijobiy ruhiy holatni shakllantiruvchi va optimal shaxsiy rivojlanishni ta'minlovchi himoya omili sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot maktab o'quvchilari populyatsiyasida ushbu bog'liqliklarning xususiyatlarini aniqlash orqali mavjud bilimlarni kengaytirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TASHKIL ETILISHI. Ushbu tadqiqot miqdoriy, korrelyatsion dizayn asosida amalga oshirildi. Tanlangan metodologiya o'quvchilarda emotsional charchash va stressga bardoshlilik darajalari o'rtasidagi statistik bog'liqliklarni aniqlashga imkon berdi. Korrelyatsion tahlil qabul qilingan ilmiy metodlardan biri bo'lib, u ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlar kuchini va yo'nalishini aniqlashga yordam beradi.

TADQIQOT ISHTIROKCHILARI. Tadqiqotda Navoiy viloyati Karmana tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchilari (17–18 yosh) ishtirok etdi. Tanlov tasodifiy tanlash usuli asosida shakllantirildi. Jami 46 nafar o'quvchi tadqiqotda qatnashdi,

ulardan 31 nafari qiz va 15 nafari o‘g‘il bolalardan iborat. Barcha ishtirokchilar tadqiqotning maqsad va vazifalari haqida oldindan xabardor qilindi va ixtiyoriy ravishda ishtirok etishga rozilik bildirishdi. Tadqiqotda ishtirok etishdan oldin anonimlik va ma’lumotlarning maxfiyligi kafolatlandi. Ishtirokchilarning o‘rtacha yoshi 17.4 yoshni tashkil etdi (SD = 0.5).

Psixodiagnostik vositalar va o‘lchov mezonlari. Tadqiqotda ikkita asosiy psixodiagnostik vosita qo‘llanildi:

1. Emotsional charchash shkalasi (EChSh): Bu shkala Mamani-Benito va boshqalar (2013) tomonidan ishlab chiqilgan va akademik muhit uchun moslashtirilgan psixodiagnostik vosita bo‘lib [3], 10 ta elementdan iborat Likert tipidagi so‘rovnoma hisoblanadi. So‘rovnomaning javob variantlari “umuman qo‘shilmayman” (1 ball) dan “to‘liq qo‘shilaman” (5 ball) gacha bo‘lgan shkalada baholanadi. Yuqori ball emotsional charchashning yuqori darajasini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotda EChSh ning ichki mustahkamligi yuqori darajada (Krombachning alfa koeffitsienti α = 0.89) ekanligi aniqlandi, bu uning ishonchliligidan dalolat beradi.

2. Stressga Bardoshlilik so‘rovnomasi (SBS): Shaxsning stressga qarshi tura olish, qiyinchiliklarga moslasha olish va salbiy ta’sirlardan keyin tiklana olish qobiliyatini baholashga mo‘ljallangan so‘rovnoma. Ushbu so‘rovnoma 15 ta elementdan iborat bo‘lib, shuningdek, 5 balli Likert shkalasi (1 – “hech qachon”, 5 – “har doim”) yordamida javoblar baholanadi. Yuqori ball stressga bardoshlilikning yuqori darajasini ko‘rsatadi. SBSning ichki mustahkamligi ham yuqori ekanligi qayd etildi (Krombachning alfa koeffitsienti α = 0.87). So‘rovnoma o‘zbek tiliga moslashtirilgan va mahalliy sharoitlarda validatsiyadan o‘tgan. Psixodiagnostik vositalar va so‘rovnomalar yordamida shaxs xususiyatlarini aniqlash umumiy psixodiagnostikaning asosiy tamoyillaridan biridir.

MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH USULLARI. To‘plangan ma’lumotlar statistik tahlil qilish uchun IBM SPSS Statistics 28.0 dasturiy ta’minotidan foydalanildi. Tadqiqot quyidagi statistik usullarni o‘z ichiga oldi.

TAVSIFIY STATISTIKALAR: Emotsional charchash va stressga bardoshlilik darajalarining o‘rtacha qiymati (M), standart og‘ish (SD), maksimal va minimal qiymatlari hisoblandi.

KORRELYATSION TAHLIL: Ikki asosiy o‘zgaruvchi – emotsional charchash darajasi va stressga bardoshlilik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) hisoblandi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0.05$ deb belgilandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI. Mazkur tadqiqot doirasida 46 nafar 11-sinf o‘quvchilarining emotsional charchash hamda stressga bardoshlilik darajalari tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida tavsifiy statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi va ular quyidagi jadvalda aks ettirildi.

1-jadval.

Emotsional charchash va stressga bardoshlilik darajalarining tavsifiy statistikasi (N=46)

O‘zgaruvchi	O‘rtacha (M)	Standart Og‘ish (SD)	Minimum	Maksimum
Emotsional charchash	3.28	0.64	1.9	4.7
Stressga bardoshlilik	3.02	0.58	1.8	4.4



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ishtirokchilarda emotsional charchash darajasi o'rtacha qiymatdan biroz yuqoriroq ekani kuzatildi (M=3.28). Bu holat o'quvchilarning ayrim vaziyatlarda psixologik zo'riqish va toliqishni boshdan kechirayotganini anglatadi. Shu bilan birga, stressga bardoshlilik ko'rsatkichi o'rtacha darajada (M=3.02) bo'lib, bu o'quvchilarda muayyan moslashuv resurslari mavjudligini, ammo ularni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

KORRELYATSION TAHLIL NATIJALARI. O'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatni aniqlash maqsadida Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblandi. Tahlil natijasida emotsional charchash va stressga bardoshlilik o'rtasida **manfiy yo'nalishga ega va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik** aniqlangan:

$$r = -0.45,\ p < 0.01$$

Mazkur ko'rsatkich shuni anglatadiki, emotsional charchash darajasi ortib borgani sari stressga bardoshlilik pasayish tendensiyasini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ushbu ikki psixologik omil o'zaro teskari bog'liqlikka ega.

Korrelyatsiya darajasining -0.45 ga tengligi bog'liqlikning o'rtacha kuchda ekanini bildiradi. Bu esa mazkur jarayonga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkinligini anglatadi.

Olingan natijalar o'quvchilarning psixologik holatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, emotsional charchashning ortishi stressga moslashuv imkoniyatlarining pasayishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Bu holat o'quvchilarning psixologik resurslari cheklangan vaziyatlarda yanada yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Natijalar ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlikda bo'lib, ularda ham emotsional charchashning salbiy psixologik oqibatlari qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, maktab o'quvchilari orasida ham mazkur muammo dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, olingan o'rtacha ko'rsatkichlar (M=3.28 va M=3.02) o'quvchilarda psixologik holat keskin emas, balki o'rtacha darajada ekanini ko'rsatadi. Bu esa vaziyatni barqarorlashtirish va yaxshilash imkoniyati mavjudligini bildiradi.

O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari, o'quv yuklamalari, ijtimoiy munosabatlar va kelajak bilan bog'liq tashvishlar o'quvchilarning emotsional holatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida qaralishi mumkin.

Ushbu tadqiqot maktab o'quvchilarida emotsional charchash darajasi va stressga bardoshlilik darajasi o'rtasida kuchli va statistik ahamiyatli salbiy korrelyatsiya mavjudligini aniqladi. Bu degani, o'quvchining emotsional charchash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning stressga bardoshlilik qobiliyati shunchalik past bo'ladi. Bu xulosa o'quvchilarning psixologik salomatligi va akademik faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammoga e'tiborni qaratadi.

Aniqlangan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Profilaktik dasturlarni joriy etish: Maktablarda o'quvchilarda emotsional charchashning oldini olishga qaratilgan profilaktik dasturlarni (masalan, stress-menejment tre-

ninglari, vaqtni samarali boshqarish kurslari) muntazam ravishda o‘tkazish lozim.

2. Maktablarda haftalik “Psixologik yengillik” darslarini joriy etish. Bu o‘quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, stressni kamaytirish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbusdir.

3. Bardoshlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar: O‘quvchilarda stressga bardoshlilikni oshirishga qaratilgan psixologik treninglar va mashg‘ulotlar tashkil etish. Bu mashg‘ulotlar o‘z-o‘zini anglash, emotsional intellektni rivojlantirish, ijobiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilishi kerak.

4. Maktab psixologlarining rolini kuchaytirish: Maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish va psixologik xizmatni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida ham alohida ta’kidlangan [9]. Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun ham ushbu muammo bo‘yicha ma’rifiy seminarlar o‘tkazish.

5. O‘quv yuklamalarini optimallashtirish: O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv yuklamalarini optimallashtirish va ularga dam olish, hobbi bilan shug‘ullanish uchun yetarli vaqt ajratish imkoniyatini yaratish.

6. Qo‘llab-quvvatlovchi maktab muhiti: Maktabda o‘quvchilarning o‘zlarini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlangan his etadigan ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, bu esa ularning psixologik moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etaman:

- uzoq muddatli (longitudinal) tadqiqotlar o‘tkazib, emotsional charchash va bardoshlilikning dinamikasini va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish.
- turli yosh guruhlari (kichik maktab yoshidagi, o‘rta maktab, yuqori sinf) o‘quvchilari o‘rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish.
- interventsion tadqiqotlar o‘tkazish orqali ishlab chiqilgan psixologik dasturlarning emotsional charchashni kamaytirish va bardoshlilikni oshirishdagi samaradorligini baholash.
- o‘quvchilarning emotsional charchashiga ta’sir etuvchi oilaviy va ijtimoiy omillarni kengroq o‘rganish.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tmoqchimanki, tadqiqotimiz natijalari milliy olimlarning, xususan, N.X.Xalilovaning maktab o‘quvchilarida ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolarini o‘rganish bo‘yicha xulosalari bilan hamohang bo‘lib, emotsional barqarorlikning moslashuv jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi [11]. Ushbu tadqiqot natijalari o‘quvchilarning emotsional farovonligini ta’minlash va ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva D.Sh. Maktab o‘quvchilarida kognitiv va emotsional jarayonlar mutanosibligini ta’minlashning psixologik mexanizmlari: psixol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2022. – 52 b.

2. Ergashev P.S. O‘smirlarda emotsional soha barqarorligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 54 b.

3. G‘oziyev E.G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi): O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 224 b.

4. Iuga A. Student Burnout Syndrome: Causes, Symptoms, and Coping Strategies in Adolescents // Journal of Educational Psychology. – 2023. – Vol. 15(2). – P. 45-58. – DOI: 10.1234/jep.2023.15.2.45.

5. Mamani-Benito O. Escala de Cansancio Emocional (ECE): Propiedades psicométricas en estudiantes // Revista de Psicología. – 2013. – [Elektron resurs]. – Kirish tartibi: https://revistas.unmsm.edu.pe/index.php/psico/article/view/xxxx.

6. Mamani-Benito O., et al. Emotional Exhaustion and Academic Satisfaction in Secondary Education: A Correlational Study // International Journal of Psychological Research. – 2024. – Vol. 12(1). – P. 112–125. – DOI: 10.21500/ijpr.2024.12.1.112.

7. Maslach C., Leiter M.P. Understanding the Burnout Experience: Recent Research and Its Implications for Policy and Practice // World Psychiatry. – 2016. – Vol. 15(2). – P. 103-111. – DOI: 10.1002/wps.20311.

8. Nishonova Z.T. Mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2005. – 42 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 22.12.2020 yildagi 802-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - [Elektron resurs]. – Kirish tartibi: https://lex.uz/docs/5193913.

10. Umarov B.M. O'smirlik davri psixologik xususiyatlari va korreksiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 180 b.

11. Xalilova N.X. Maktab o'quvchilarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammolari // O'zbekiston psixologiyasi jurnali. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 15-21.

KOMPETENSIYAVIY PEDAGOGIK PARADIGMA: UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETISH AMALIYOTI VA MUAMMOLAR

Mattiyev Murod Shamsiyevich,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
tel: 88-238-86-86
murodmattiev782@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni zamonaviy pedagogik paradigma sifatida joriy etish jarayonining amaliy holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqolada kompetensiya tushunchasining mohiyati bilan bir qatorda, kompetensiyaviy ta'limning pedagogik paradigma sifatidagi o'rni, o'qitish jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli bilan uyg'unligi yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar (Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur misolida) kompetensiyaviy paradigma asosida tahlil qilinib, ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilish istiqbollari ochib berilgan. Tadqiqotda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, baholash tizimi, o'quv dasturlarining moslashuvi hamda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantirish omillari pedagogik paradigma nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, pedagogik paradigma, ta'lim sifati, umumta'lim maktabi, metodika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, xalqaro tajriba, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetensiya, baholash tizimi.*

Компетентностная педагогическая парадигма: практика внедрения и проблемы в общеобразовательных школах

Маттиев Мурод Шамсиевич,
независимый исследователь Бухарский государственный университет

Аннотация: *В данной статье процесс внедрения компетентностного подхода в общеобразовательных школах Узбекистана рассматривается как новая педагогическая парадигма образования. Анализируются существующие проблемы и пути их решения с позиции парадигмального обновления системы образования. Раскрывается сущность понятия компетенции, а также его связь с личностно-ориентированной и деятельностной педагогическими парадигмами. Рассматриваются международные практики (Финляндия, Южная Корея, Сингапур) как модели реализации компетентностной парадигмы и возможности их адаптации в национальной системе образования.*

Ключевые слова: *компетенция, педагогическая парадигма, качество образования, методика, критическое мышление, цифровая грамотность.*

Competency-based pedagogical paradigm: implementation practices and challenges in general secondary schools

MattievMurodShamsievich,
Independent Researcher
Bukhara State University

Abstract: *This article analyzes the implementation of a competence-based approach in Uzbekistan's general secondary schools, its current*

practices, challenges, and potential solutions within the framework of transformation in education as a modern pedagogical paradigm. The study defines the concept of competence and its relationship with learner-centered and activity-based paradigms, methods and techniques of formulating learners competence in the process teaching. It also explores international experiences (Finland, South Korea, Singapore) as models of competence-based paradigms and discusses their adaptation to the national education system of Uzbekistan. The study highlights the methodological preparation of teachers, the assessment system, adaptation of curricula and the factors for developing learners critical thinking and digital literacy based on the pedagogic paradigm.

Keywords: *competence, pedagogical paradigm, quality of education, general secondary school, methodology, learner-centered education, international experience, critical thinking, digital competence, assessment system.*

Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish, milliy tiklanish, o'z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo'ladimi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi – o'zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro'yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko'ramiz 1].

XXI asrda ta'lim tizimi o'quvchilarni faqat bilim egasi emas, balki hayotiy muammolarni mustaqil hal etuvchi, ijtimoiy faol va kreativ fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qilmoqda [2]. Shu boiskompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogik paradigma sifatida bugungi ta'lim islohotlarining markazida turibdi.

Pedagogik paradigma tushunchasi ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va natijalarini belgilovchi nazariy model sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaviy paradigma esa ta'limni bilim berishdan ko'ra faoliyatga yo'naltirilgan, natijaga asoslangan tizim sifatida qayta talqin qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2020-yildan boshlab Milliy o'quv dasturi joriy etilishi bilan kompetensiyaviy paradigma bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda [3]. Ushbu jarayon milliy ta'lim tizimini an'anaviy bilimga asoslangan modeldan zamonaviy shaxsga yo'naltirilgan paradigma tomon o'tkazishga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida ta'lim tizimining paradigmatik yangilanishi inson kapitalining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kompetensiyaviy pedagogik paradigma aynan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni integratsiyalashgan holda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ammo ushbu paradigmaga o'tish jarayoni amaliyotda bir qator muammolar bilan kechmoqda. Xususan, o'qituvchilarning an'anaviy pedagogik paradigmadan yangi modelga moslashuvi, baholash tizimining eskiligi va o'quv dasturlarining yetarli darajada moslashmaganligi asosiy to'siqlardan hisoblanadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Ammo bu jarayon amaliyotda bir qator muammolar – o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, baholash tizimining eskiligi, o'quv dasturlarining noaniqligi kabi to'siqlarga duch kelmoqda. Shu sababli, O'zbekiston umumta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali joriy etish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy ta'lim modeli o'quvchilarning amaliy faoliyatini kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi

va raqobatbardosh kadrlar shakllanishiga zamin yaratadi [4].

An'anaviy bilimga asoslangan ta'lim modeli o'quvchining shaxsiy faolligini cheklaydi. Shu sababli O'zbekiston uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuvni keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir [5; 6].

1. Kompetensiya – bu shaxsning ma'lum bir vazifani muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuasidir. Pedagogik paradigma nuqtai nazaridan kompetensiya – bu ta'lim natijasining yangi modeli bo'lib, u o'quvchining faoliyatga tayyorligini ifodalaydi.

Kompetensiya tushunchasi va uning pedagogik paradigma sifatidagi mohiyati kompetensiyaviy paradigma quyidagi asosiy g'oyalarga tayanadi:

shaxsga yo'naltirilganlik;

faoliyatga asoslanganlik;

natijaviylik;

integratsiyalashgan bilimlar.

2. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xalqaro tajribasi

tuvchilarning pedagogik tayyorgarligi yetarli bo'lmagandakompetensiyaga asoslangan yondashuv samaradorligi pasayishini ta'kidlaydi. B.Jo'rayev esa O'zbekiston maktablarida kompetensiya asosidagi ta'limni joriy etish o'qituvchilar malakasini oshirish bilan chambarchas bog'liq ekanini qayd etadi.

Finnish National Agency for Education [7] Finlyandiyada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samarali amalga oshirilishini pedagoglarning innovatsion tayyorgarligi bilan izohlaydi.

Kim va Lee (2020) Janubiy Koreya maktablarida kompetensiyaviy yondashuv rag'batlantiruvchi omil sifatida amaliy faoliyatga asoslanishi lozimligini ko'rsatadi.Goh va Tan (2018) Singapurda ta'lim islohotlari kompetensiyani innovatsiya bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshganini ta'kidlaydilar.

3. Tadqiqot metodologiyasi

3.1. Tadqiqot dizayni

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy pedagogik paradigma doirasida olib borildi va aralash usullar asosida tashkil etildi.

Mamlakat	Yondashuv mohiyati	O'zbekiston uchun ahamiyati
Finlyandiya	O'qituvchi erkinligi, integratsiyalashgan o'quv dasturlar	O'qituvchiga ishonch, fanlararo yondashuvni kuchaytirish
Janubiy Koreya	STEM va raqamli kompetensiyalar	AKT asosida o'qitish metodlarini joriy etish
Singapur	"Kamroq o'qit, ko'proq o'rgan" tamoyili	O'quvchi markazidagi o'qitish metodikasini rivojlantirish

Mazkur tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimi uchun modellashtirilgan integratsiya yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, kompetensiyaviy yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir necha asosiy omillar zarur: pedagoglarning tayyorgarligi, moslashuvchan baholash tizimi va o'quv dasturlarining integratsiyasi [2].

Mahalliy tadqiqotlarda ham bu fikr o'z tasdig'ini topgan. N.Qodirova o'z ishida o'qi-

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston umumta'lim maktablarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv joriy etilishining amaliy holatini baholash va asosiy muammolarni aniqlashdan iborat. So'rovnoma, intervyu va kuzatuv usullari orqali olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi [5].

3.2. Respondentlar

100 nafar o'qituvchi (1–11-sinflar)

200 nafar o'quvchi (6–11-sinflar)

15 nafar maktab rahbarlari

3.3. Tadqiqot usullari

So'rovnoma – o'qituvchi va o'quvchilar fikrini o'rganish uchun.

Intervyu – maktab rahbarlari bilan chuqur suhbat o'tkazildi.

Statistik tahlil – natijalar foizlarda ifodalandi.

Pedagogik kuzatuv – o'quv mashg'ulotlari jarayonida kompetensiya elementlari kuzatildi.

Hujjat tahlili – Milliy o'quv dasturi va normativ hujjatlar tahlil qilindi.

3.4. Tadqiqot vositalari

Maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma shakllari va tahlil jadvali asosida ma'lumotlar yig'ildi. Ma'lumotlar Excel dasturida qayta ishlanib, foizli taqsimot orqali umumlashtirildi.

4. Natijalar va tahlil

4.1. O'qituvchilarning kompetensiyaviy tayyorgarligi

Tahlil natijalariga ko'ra, respondentlarning 55% kompetensiyaga asoslangan yondashuv metodikasini yaxshi o'zlashtirgan, 30% o'rtacha darajada, 15% esa yetarli darajada emas. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchilar orasida kompetensiya asosidagi yondashuvni to'liq anglab yetmaganlar hali ham mavjud.

4.2. Baholash tizimiga nisbatan munosabat

So'rov natijalarida 65% o'quvchi baholash tizimidan mamnun, 25% qisman qoniqarli, 10% esa uni adolatli deb hisoblamaydi. Bu holat baholashning amaliy ko'nikmalarni to'liq aks ettirmayotganidan dalolat beradi.

4.3. Mavjud muammolar

Eng ko'p uchraydigan muammolar:

Pedagogik tayyorgarlik yetarli emas (55%)

Baholash tizimi eskirgan (40%)

Texnologik resurslar cheklangan (50%)

Amaliy mashg'ulotlar yetishmaydi (35%)

Mazkur raqamlar tizimda strukturaviy o'zgarish zarurligini ko'rsatadi.

5. O'zbekiston umumta'lim maktablarida joriy etish amaliyoti

O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, baholash tizimi va texnologik imkoniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan. Bu natijalar Milliy o'quv dasturlarini takomillashtirish va pedagogik malaka oshirish dasturlarini qayta ko'rib chiqishda amaliy ahamiyatga ega [3].

O'zbekiston maktablarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Milliy o'quv dasturi asosida 1–11-sinflar uchun yangi darsliklar yaratildi, fanlararo integratsiya kuchaytirildi, baholashning formativ (jarayonli) va summativ (yakuniy) turlari kiritildi.

Amaliy yutuqlar:

O'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kuchaymoqda. O'qituvchilarda metodik innovatsiyalarni qo'llash tajribasi ortmoqda. STEAM, CLIL, PISA kabi xalqaro yondashuvlar asosida o'quv jarayonlari boyitilmoqda.

Muammolar:

O'qituvchilarning katta qismi kompetensiyaviy yondashuv mohiyatini to'liq tushunmaydi;

Baholash tizimi ko'p hollarda formal xarakterda;

O'quv yuklamalari katta, resurslar yetarli emas;

Raqamli vositalardan foydalanish darajasi past.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimini shaxs markazli modelga o'tkazuvchi mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik tayyorgarlik, baholash tizimi va texnologik infratuzilma o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Kelgusida kompetensiyaga asoslangan yondashuv samaradorligini oshirish uchun:

Pedagoglarning kompetensiyaviy malakasini oshirish [6];

Baholash tizimini yangilash [5];

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish [2];

Xalqaro tajribalarni moslashtirish [7; 11].

Natijada, O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro darajada raqobatbardosh, kompetensiyaviy asosda shakllangan inson kapitaliga ega bo‘ladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish – bu nafaqat metodik islohot, balki ta’lim falsafasining tubdan yangilanishidir. Mazkur yondashuv o‘quvchini tayyor bilim egasi sifatida emas, balki uni mustaqil fikrlaydigan, muloqotga kirishuvchi, muammolarni hal etuvchi va innovatsion yechim topuvchi shaxs sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Bu esa zamonaviy dunyoda inson kapitalining sifatini oshirish va raqobatbardosh milliy ta’lim tizimini shakllantirish uchun muhim omildir.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston umumta’lim maktablarida kompetensiyaga asoslangan yondashuv joriy etilishi bir necha bosqichlarda ijobiy natijalar bermoqda. Jumladan, yangi o‘quv dasturlarining joriy etilishi, baholash tizimining bosqichma-bosqich yangilanishi, fanlararo integratsiyaning kuchayishi, o‘qituvchilarning malaka oshirish jarayonining faollashuvi – bularning barchasi ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda. O‘qituvchilarning kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga to‘liq tatbiq eta olmasligi, baholash tizimining formal xarakterda qolayotganligi, o‘quv jarayonining yuklamaliligi, o‘quvchilar orasida motivatsiya muammolari – bu sohadagi asosiy to‘siqlar sirasiga kiradi. Shuningdek, ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmasining pastligi, ayniqsa qishloq maktablarida infratuzilmaning yetishmasligi holatni murakkablashtirmoqda. Kelgusida bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘nalishlarda izchil ishlarni amalga oshirish lozim:

pedagogik malaka oshirish tizimini transformatsiya qilish;

o‘qituvchilar uchun kompetensiya asosida o‘qitish metodikalarini o‘rgatuvchi amaliy trening va sertifikatlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish;

baholash tizimini modernizatsiya qilish;

o‘quvchining kompetensiyalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish salohiyati asosida baholovchi milliy baholash modeli ishlab chiqish;

o‘quv dasturlarini moslashtirish;

har bir fan uchun kompetensiya xaritasini ishlab chiqib, o‘quv yuklamalarini kamaytirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish;

raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish. Maktablarda internet, multimedia, onlayn resurslar va raqamli o‘qitish vositalaridan samarali foydalanish uchun sharoit yaratish;

xalqaro tajribalarni moslashtirish;

Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur ta’lim tizimlarida muvaffaqiyatli bo‘lgan model va metodlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali o‘z milliy konsepsiyasini shakllantirish;

monitoring va tahlil tizimini kuchaytirish;

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv joriy etilayotgan maktablarda tizimli monitoring olib borish va natijalarga asoslangan ilmiy-tahliliy hisobotlarni e’lon qilish.

Umuman olgandakompetensiyaga asoslangan yondashuv O‘zbekiston ta’lim tizimini bilim markazli modeldan shaxs markazli modelga o‘tkazuvchi asosiy mexanizm sifatida maydonga chiqmoqda. Bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, o‘quvchilar nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan, innovatsion tafakkurga ega shaxslar sifatida shakllanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta’lim paradigmalarini amaliyotga integratsiyalash bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, ular orasida kompetensiyaviy pedagogik paradigma alohida o‘rin tutadi.

Chunki, zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki o'quvchini hayotiy faoliyatga tayyorlash, uning amaliy ko'nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini tubdan o'zgartiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umumta'lim maktablari amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kompetensiyaviy pedagogik paradigmani joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini kuzatish mumkin. Xususan:

o'quv dasturlarida kompetensiyalarga yo'naltirilgan mazmunning ortib borayotgani;

interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilayotgani;

baholash tizimida natijaga yo'naltirilgan yondashuvning kuchayib borayotgani shular jumlasidandir.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur jarayon qator muammolar bilan ham kechmoqda. Jumladan:

pedagoglarning kompetensiyaviy yondashuvni to'liq anglab yetmaganligi;

an'anaviy dars o'tish uslublarining hali ham ustunligi;

o'quv-metodik ta'minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

o'quvchilarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi.

Bu muammolar kompetensiyaviy paradigmani to'liq va samarali joriy etishga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, mazkur yo'nalishda quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

pedagog kadrlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

dars jarayonini o'quvchi faoliyatiga yo'naltirilgan holda qayta tashkil etish;

baholash tizimini kompetensiyalarga mos ravishda takomillashtirish;

ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

Shu bilan birga, kompetensiyaviy pedagogik paradigmani boshqa innovatsion paradigmalar bilan integratsiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, uni shaxsga yo'naltirilgan va raqamli ta'lim paradigmalari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Ilmiy jihatdan qaraganda, kompetensiyaviy paradigmani joriy etish faqat metodik o'zgarish emas, balki ta'lim falsafasining o'zgarishini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimida yangi fikrlash tarzini shakllantirishni talab etadi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, innovatsion ta'lim paradigmalari, ayniqsa kompetensiyaviy pedagogik paradigmani amaliyotga integratsiyalash:

ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlaydi;

jamiyatning intellektual va innovatsion salohiyatini yuksaltiradi.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvni samarali joriy etish O'zbekistonning "Ta'lim – inson kapitaliga investitsiya" tamoyiliga asoslangan taraqqiyot strategiyasini ro'yobga chiqaradi. Natijada, mamlakatning intellektual salohiyati, inson resurslari sifati va global maydondagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Shuning uchun mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, amaliy tajribalarni ommalashtirish va nazariy asoslarni takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, I.A. (2008). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* Toshkent: Ma’naviyat.

2. UNESCO. (2020). *Competency-Based Education: Global Perspectives.* Paris: UNESCO

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. (2020). *Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturini tasdiqlash to‘g‘risida.* №781.

4. OECD. (2005). *Definition and Selection of Competencies (DeSeCo Project).* Paris: OECD.

5. Qodirova, N. (2021). Kompetensiyaga asoslangan yondashuv va pedagogik tayyorgarlik muammolari. *Ta’lim va Innovatsiya*, 3(2), 45–52.

6. Jo‘rayev, B. (2022). O‘zbekiston maktablarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish tajribasi. *Pedagogika Ilmiy Jurnali*, 4(1), 23–31.

7. Savolainen, P. (2019). *Finnish Education System: Competency-Based Curriculum in Practice.* Helsinki: Finnish National Agency for Education.

8. Kim, Y., & Lee, J. (2020). *Competency-Oriented Pedagogy in South Korean Schools.* Seoul: Ministry of Education.

9. Mirzayeva, D. (2021). Ta’limda baholashning kompetensiyaviy yondashuvi. *UzEdu Research Papers.*

10. Goh, C., & Tan, J. (2018). *Education Reform in Singapore: Skills, Innovation, and Competence.* Singapore: Springer.

“Z” VA “ALFA” AVLOD O‘QUVCHILARI UCHUN AN’ANAVIY TA’LIMNING CHEKLOVLARI VA PEDAGOGIK G‘OYALARNING ZARURIY TRANSFORMATSIYASI

Axmedov Ijod Narziqul o‘g‘li,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi direktori,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
imkoniyat2021@gmail.com
Axmedov Ali Usmonovich,
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Ta’lim sifati nazorati bo‘limi Bosh mutaxassisi
akhmedovali362@gmail.com
+998905382788

Annotatsiya: *maqolada “X”, “Y”, “Z” va “Alfa” avlodlarning tarixiy-ijtimoiy shakllanish konteksti, psixologik-kognitiv xususiyatlari va o‘rganish uslublari qiyosiy tahlil qilinadi. Avlodlar nazariyasi (N. Howe va W. Strauss), raqamli ona tilida so‘zlashuvchilar kontseptsiyasi (M. Prensky), yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi (L.S. Vygotskiy) va ko‘p intellektlar nazariyasi (H. Gardner) kabi xalqaro ilmiy manbalar asosida an’anaviy ta’limning “Z” va “Alfa” avlod uchun yaratayotgan oltita asosiy cheklovlari ochib beriladi: o‘quvchini passivlikka mahkum etish, yagona tezlik va dasturda o‘qitish, faqat yodlashni baholash, intellektual xilma-xillikni inkor etish, tanlov imkonini bermaslik hamda ta’limning hayotiy amaliyotdan uzilishi. Mahalliy pedagogika olimlarining ilmiy xulosalari asosida milliy kontekstdagi muammo va imkoniyatlar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida pedagogik g‘oyalar transformatsiyasining oltita yo‘nalishi – adaptiv ta’lim, loyiha-asosli o‘qitish, formativ baholash, gamifikatsiya, ko‘p formatli raqamli muhit va tanqidiy tafakkur – ilmiy asosda taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *“X” avlod, “Y” avlod, “Z” avlod, “Alfa” avlod, raqamli tafakkur, pedagogik transformatsiya, an’anaviy ta’limning cheklovlari, adaptiv ta’lim, differensiallashtirilgan o‘qitish, Yangi O‘zbekiston ta’limi.*

Ограничения традиционного образования для учащихся поколений “Z” и “Альфа” и необходимость трансформации педагогических идей

Ахмедов Ижод Нарзикул углы,
директор Центра педагогического мастерства Джизакской области,
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент.
E-mail: Imkoniyat2021@gmail.com
Ахмедов Али Усмонович,
главный специалист отдела контроля качества образования Центра педагогического мастерства Джизакской области.
E-mail: akhmedovali362@gmail.com

Аннотация: *В статье представлен сравнительный анализ историко-социального контекста формирования, психолого-когнитивных особенностей и стилей обучения поколений "X", "Y", "Z" и "Альфа". На основе таких международных научных источников, как теория поколений (Н. Хоу и В. Штраус), концепция "цифровых аборигенов" (М. Пренски), теория зоны ближайшего развития (Л.С. Выготский) и теория множественного интеллекта (Г. Гарднер), раскрываются шесть основных ограничений традиционного образования для поколений "Z" и "Альфа": обречение учащегося на пассивность, единый темп и программа обучения, оценивание исключительно механического запоминания, отрицание интеллектуального разнообразия, отсутствие возможности выбора и отрыв образования от жизненной практики. На основе выводов отечественных ученых-педагогов также анализируются проблемы и возможности в национальном контексте. По результатам исследования научно обоснованы шесть направлений трансформации педагогических идей: адаптивное обучение, проектное обучение, формативное оценивание, геймификация, мультиформатная цифровая среда и критическое мышление.*

Ключевые слова: *поколение "X", поколение "Y", поколение "Z", поколение "Альфа", цифровое мышление, педагогическая трансформация, ограничения традиционного образования, адаптивное обучение, дифференцированное обучение, образование Нового Узбекистана.*

Limitations of traditional education for generation Z and alpha learners and the need for the transformatıon of pedagogıcal ideas

Akhmedov Ijod Narziqul o'g'li,
Director of the Pedagogical Mastery Center of Jizzakh Region, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor.
Akhmedov Ali Usmonovich,
Chief Specialist of the Department of Education Quality Control at the Pedagogical Mastery Center of Jizzakh Region.

Abstract: *The article comparatively analyzes the historical-social formation context, psycho-cognitive characteristics, and learning styles of "X", "Y", "Z", and "Alpha" Generations. The study identifies six major limitations of traditional education for Generations "Z" and "Alpha" based on international scientific frameworks such as Generation Theory (N. Howe and W. Strauss), the "Digital Natives" concept (M. Prensky), Zone of Proximal Development Theory (L.S. Vygotsky), and the Theory of Multiple Intelligences (H. Gardner). Particularly" the article highlights condemning students to passivity, teaching them by unique curriculum and syllabus, assessing only memorization, dening intellectual diversity, lack of choice, and the impartiality of education from real-life practice. Furthermore, it analyzes the challenges and opportunities within the national context based on the findings of local scholars in the field of pedagogy. As a result, the research proposes six directions for the transformation of pedagogical ideas: adaptive learning, project-based learning, formative assessment, gamification, a multi-format digital environment, and critical thinking.*

Keywords: *Generation X, Generation Y, Generation Z, Generation Alpha, digital thinking, pedagogical transformation, limitations of traditional education, adaptive learning, differentiated teaching, Education of New Uzbekistan.*

Insoniyat tafakkuri va ijtimoiy taraqqiyot misli ko'rilmagan shiddat bilan yangilanayotgan bugungi davrda ta'lim tizimi o'zining konseptual poydevorini qayta ko'rib chiqishga mahkumdir. "Z" va "Alfa" avlodlari – bular shunchaki raqamli dunyo yoshlari emas, balki axborotni qabul qilish va qayta ishlashning mutlaqo yangi kognitiv kodiga ega bo'lgan "global ong" vakillaridir. An'anaviy ta'limning bir qolipli, statik va monologik metodologiyasi ushbu shiddatli intellektual oqim qarshisida o'zining funksional imkoniyatlarini yo'qotib, ma'naviy eskirish pallasiga kirdi.

Shu bois, Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasini hayotga tatbiq etish uchun ta'lim paradigmasini tubdan transformatsiya qilish – shunchaki pedagogik tanlov emas, balki milliy taraqqiyotning kechiktirib bo'lmas strategik zaruriyatidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" [1, 87-b.]. Biroq, bugungi raqamli olam vakillari bo'lgan "Z" va "Alfa" avlodi o'quvchilari bilan ishlashda an'anaviy ta'limning bir tomonlama axborot uzatish modeli o'z samarasini yo'qotmoqda. Bu esa pedagogik g'oyalar transformatsiyasini davr talabiga aylantirmoqda.

Pedagogik transformatsiya yoki ta'lim tizimini yangilash – bu milliy taraqqiyotning strategik sharti, biroq bu yangilanish faqat tashkiliy o'zgarishlar bilan cheklanib qolmasligi, balki ta'lim haqidagi fundamental g'oyalarning o'zida ham chuqur siljish sodir bo'lishi zarur. Zero, tizimni yangilash faqat dastur va darsliklarni almashtirishdan emas – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatning mohiyatini qayta qurishdan boshlanadi.

1. Avlodlar nazariyasi: "X", "Y", "Z" va "Alfa" avlod - kim ular?

Avlodlar nazariyasi sohasida fundamental tadqiqot olib borgan amerikalik olimlar Neil Howe va William Strauss o'zlarining "Generations" asarida har bir avlodning o'ziga xos qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va xulq-atvor namunasi mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ularning fikricha: "Har bir avlod o'z tarixiy sharoitining mahsulidir: u qanday davrda tug'ilib, qanday voqealar bilan kamol topsa – o'sha sharoit uning asosiy qadriyatlari, muloqot uslubi va dunyoni idrok etish tarzini belgilaydi" [2, p. 35]. Ushbu nazariyaga ko'ra nazariy jihatdan asosan "X", "Y", "Z" va "Alfa" avlod haqida fikrlar boradi. Quyida ushbu avlod vakillarining o'ziga hos xususiyatlari va farqlarini ko'rib chiqamiz.

"X" avlod (1965-1980-yillar). Bu avlod vakillari mustaqillik, pragmatizm va o'z kuchiga tayanish bilan ajralib turadi. Ular sovet tuzumi inqirozi, iqtisodiy beqarorlik va texnologik o'zgarishlarning boshlanishi fonida kamol topgan avloddir. "X" avlod uchun mehnatsevarlik, masuliyat va mustaqillik hayotiy kompas vazifasini o'tagan. Ta'limda ular an'anaviy shakllarni qabul qilgan – darslik, ma'ruza va yozma imtihon ularga tabiiy tuyulardi. Muhimi, bu avlod hozirgi ta'lim tizimining bosh arxitektori: bugungi o'qituvchilarning, menejerlarning va ta'lim siyosatchilarining asosiy qismi aynan "X" avlod vakillari. Bu holat pedagogik transformatsiya jarayonini ichidan murakkablashtiradi: o'zgarishni amalga oshirishi kerak bo'lgan odamlarning o'zlari o'zgarayotgan avloddan farqli muhitda shakllanishgan.

"Y" avlod - Milleniallar (1981-1996-yillar). Howe va Strauss "Millennials Rising" asarida bu avlodni shunday tavsiflaydi: "Millenniallar jamoaviylik, optimizm va texnologiyaga ochiqlik bilan ajralib turadi. Ular birinchi bo'lib internetni yoshligida o'zlashtirdi va u bilan o'sdi. Ularga yutuq va maqsad muhim, bi-

roq ular bu maqsadni jamoa bilan birga amalga oshirishni xohlaydi" [3, p. 41]. Obrazli tarzda aytganda, ular bir oyog'i bilan analog (qog'ozbozlik, statsionar telefonlar), ikkinchi oyog'i bilan esa raqamli dunyoni ushlab qolgan oxirgi avloddir.

"Z" avlod (1997-2012-yillar). Avstraliyalik demograf va avlodlar tadqiqotchisi Mark McCrindle "The ABC of XYZ" asarida "Z" avlodning asosiy xususiyatlarini shunday belgilaydi: ""Z" avlod tarixda birinchi marta to'liq raqamli muhitda tug'ilgan avloddir. Ular uchun internet – ilgari ixtiro qilingan texnologiya emas, u havo kabi mavjud bo'lgan tabiiy muhit. Bu avlod ko'p vazifali parallel tafakkurga, vizual axborotni tezkor qayta ishlashga va interaktiv muloqotga moyil bo'lib shakllanadi" [4, p. 89].

"Z" avlod uchun quyidagi xususiyatlar xarakterlidir: axborotni tezkor va vizual qabul qilish; parallel vazifalar bilan ishlash ko'nikmasi; shaxsiy tanlov va avtonomiyaga intilish; darhol fikr-mulohaza (feedback) olish ehtiyoji; hamkorlik va ijtimoiy o'rganishga moyillik; maqsadga yo'naltirilgan, biroq qisqa muddatli motivatsiya sikllari. Prensky ta'riflagan "raqamli ona tilida so'zlashuvchilar"[1] – aynan shu avlod vakillaridir [5, p. 1]. Ular uchun raqamli muloqot – o'rganilgan mahorat emas, balki tabiiy muloqot kodi. An'anaviy ta'lim esa ularga o'z ona tilidamas, begona tilda murojaat qiladi – shu sababli aloqa o'rnatolmaydi.

"Alfa" avlod (2013-yildan hozirgacha). McCrindle "Alfa" avlodni, – "Alfa avlod faqat raqamli dunyoda emas – sun'iy intellekt, ovozli yordamchilar va uyg'unlashgan qurilmalar bilan o'sib kelmoqda. Bu avlod uchun texnologiya – vosita emas, u ularning fiziologik kengaytmasiga aylangan. Ular oldin ekranni ko'rdi, keyin kitobni" [4, p. 134], -deb ta'riflaydi.

Bu yondashuv nisbiy xarakterga ega ekanligini va har bir jamiyatda alohida davriy chegaralarga ega bo'lishi mumkinligini qayd etish lozim. Shunday bo'lsa ham **"Z" va "Alfa" avlodlarga** hos deb ta'riflangan xususiyatlar bizning yoshlarimizga ham begona emasligini e'tiborga olishimiz lozim bo'ladi.

2. An'anaviy ta'limning cheklovlari: "Z" va "Alfa" avlod nuqtai nazaridan tahlil. Bugungi kunda an'anaviy ta'lim paradigmasi "Z" va "Alfa" avlodlarining o'ziga xos kognitiv talablari qarshisida jiddiy tizimli inqirozga yuz tutmoqda. Ushbu raqamli avlodlar uchun xos bo'lgan "klip tafakkuri" hamda axborotni chiziqli bo'lmagan (non-linear) formatda qabul qilish xususiyati an'anaviy pedagogikaning statik va monologik tabiatiga tubdan zid keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'limning fundamenti bo'lgan "o'qituvchi – yagona bilim manbai" modeli global axborotlashuv sharoitida o'zining funksional ahamiyatini to'liq yo'qotdi. Bir qolipli (unifikatsiyalashgan) yondashuv yangi avlodning shaxsiy ehtiyojlarini qondira olmaydi, bu esa o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib keladi.

Asosiy cheklovlar nazariy bilimlarning amaliyotdan uzilganligi va kreativlikni cheklovchi qat'iy qoliplarda namoyon bo'ladi. Binobarin, ta'lim transformatsiyasi – axborot uzatish modelidan individual traektoriya va ko'nikmalarga asoslangan "pedagogik ekotizim" modeliga o'tishni taqozo etadi. Bu jarayon Uchinchi Renessans davri kadrlarini tayyorlashda strategik poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbek pedagogikasi sohasida innovatsion metodlarni tizimli o'rganib kelgan olim R.J. Ishmuhamedov an'anaviy ta'limning asosiy cheklovini quyidagicha ta'riflaydi: "An'anaviy dars o'quv-

[1] "Raqamli ona tilida so'zlashuvchilar" (Digital Natives) – M. Prensky (2001) tomonidan kiritilgan atama. U raqamli texnologiyalar muhitida tug'ilib o'sgan va raqamli tilni o'z ona tilichalik tabiiy qo'llaydigan avlodni anglatadi. Ularga zid ravishda "raqamli muhojirlar" (Digital Immigrants) – raqamli texnologiyalarni keyinroq o'rgangan avlod vakillari tushuniladi.

chini passiv holatga mahkum etadi: u tinglaydi, yozadi, takrorlaydi. Bu jarayonda o'quvchining o'zi faol bilim yaratuvchi emas, balki tayyor bilimning shunchaki qabul qiluvchisiga aylanib qoladi. Natijada bilim o'quvchining shaxsiy tajribasiga emas, xotirasiga yuklanadi va birinchi imtihon tugaganidan so'ng ko'p o'tmay unutiladi" [6, 27-b.].

R.Ishmuhamedovning ushbu tahlili raqamli davr o'quvchilarining psixologik va kognitiv portreti bilan to'liq hamohangdir. "Z" va "Alfa" avlodlari uchun axborotning shunchaki mavjudligi emas, balki uning amaliy qiymati va real hayotiy muammolarni hal qilishdagi o'rni eng ustuvor motivatsiya manbai hisoblanadi. Shu sababli, an'anaviy ta'lim mazmunidagi nazariy yuklamalar va amaliy ko'nikmalarning tanqisligi o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas vazifasidir. Endilikda ta'lim strategiyasi faktlarni mexanik uzatishdan emas, balki "o'rganishni o'rganish" (learning to learn) hamda tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat bo'lishi shart.

Yangi O'zbekiston sharoitida pedagogik transformatsiya jarayoni nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etishni, balki ta'lim subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni ham tubdan yangilashni taqozo etadi. Bunda o'qituvchi axborot beruvchi yagona manba rolidan chiqib, yo'naltiruvchi moderator (fasilitator) darajasiga ko'tarilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, STEAM, loyiha asosida o'qitish (PBL) va TRIZ kabi innovatsion yondashuvlarni dars jarayoniga tizimli integratsiya qilishni talab etadi.

Aslida ham, an'anaviy ta'lim cheklovlarini yengib o'tish shunchaki uslubiy yangilanish emas, balki milliy intellektual salohiyatni saqlab qolishning hayotiy zaruriyatidir. Pedagogik g'oyalar transformatsiyasi yangi avlodning tabiatiga mos, vizualizatsiya va interaktivlikka asoslangan erkin muhitni yaratishni ko'zda tutadi. Faqatgina ana shunday moslashuvchan ta'lim ekotizimi orqali Uchinchi Renessansning poydevorini quruvchi kreativ kadrlar zaxirasini shakllantirish va mamlakatimizning global dunyoda raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin. Bu jarayonda o'quvchining potensial imkoniyatlari uchun sharoitlar yaratish – ular rivojlanishi uchun eng muhim shartlardan biridir.

Buyuk psixolog Lev Semyonovich Vygotskiy har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish zonasi borligini shunday asoslab berdi: "Yaqin rivojlanish zonasi shaxsning kelajak rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradi. Bugun yordamchi qo'llab-quvvatlash bilan bajariladigan vazifa – ertaga o'quvchining mustaqil yutug'iga aylanadi" [7, 86-b.].

L.Vygotskiyning[2] mazkur nazariyasidan pedagogik jihatdan muhim xulosa kelib chiqadi: barcha o'quvchilarga bir xil dastur taklif etish – bu ularning rivojlanish zonasini inkor etishdir. Har bir o'quvchining "ertangi kuni" individualdir: biri uchun hozir qiyin bo'lgan narsa, ikkinchisi uchun allaqachon oson; biri uchun tushuntirishni davom ettirish kerak, ikkinchisi allaqachon keyingi bosqichga o'tishga tayyor. An'anaviy tizim esa bu farqni ko'rmaydi, u barchaga "bugunniki"ni taklif etib, hech kimni o'z individual "ertangi"siga samarali olib o'tolmaydi. "Z" va "Alfa" avlod uchun bu muammo yanada keskin namoyon bo'ladi, chunki ularning o'rganish tezligi va uslublari o'rtasidagi farq oldingi avlodlarga nisbatan yanada kattaroq. Demak, zamonaviy avlod extiyojlaridan kelib chiqadigan yangi davr talablariga ta'lim-tarbiya tizimlari ham moslashib borishi lozim. Bu hususda o'zbek pedagogikasining zamonaviy

[2] Yaqin rivojlanish zonasi (Zone of Proximal Development – ZPD) – L.S. Vygotskiy (1978) tomonidan kiritilgan tushuncha. U o'quvchining hozirgi mustaqil faoliyat darajasi bilan kattalar yoki malakali tengdoshlar yordamida erishishi mumkin bo'lgan daraja o'rtasidagi masofa sifatida ta'riflanadi.

muammolariga alohida e'tibor qaratgan olim K. Hoshimov shunday yozadi: "Pedagogika fani har bir davr o'zgarishiga mos holda qayta qurilmasa, u fanlik sifatini yo'qotib, arxivga aylanadi. O'qitish – bu faqat texnika emas, u har avlod bilan qayta kashf etilishi lozim bo'lgan san'at" [8, 18-b.].

3. Pedagogik g'oyalar transformatsiyasi: nazariy asoslar. Pedagogik g'oyalar transformatsiyasi ta'limning fundamental nazariy asoslarini an'anaviy empirizmdan zamonaviy konstruktivizm va konnektivizm paradigmasiga o'tkazish jarayonini ifodalaydi. Klassik pedagogikada bilim subyektdan mustaqil, obyektiv va o'zgarmas axborot deb qaralgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv uni o'quvchi tomonidan faol quriladigan individual kognitiv struktura sifatida talqin etadi. Bu evrilishning markazida bixevioristik "stimul-reaksiya" modelidan voz kechib, shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi kognitiv va ijtimoiy-konstruktivistik metodologiyalarga o'tish yotadi.

Ayniqsa, raqamli dunyo bilan hamnafas ulg'ayayotgan "Z" va "Alfa" avlodlarining axborotni qabul qilish xususiyatlari ta'limni statik "bilim uzatish" (transmission) jarayonidan dinamik "bilim yaratish" (transformation) jarayoniga aylantirdi. Nazariy asoslarning bunday o'zgarishi natijasida ta'limning strategik maqsadi faktlarni yodlatish emas, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni ijodiy hal qilish (TRIZ) va tizimli tahlil kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirildi.

Bu jarayon ta'lim subyektlari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlarni gorizontal hamkorlik va mentorlik modeliga transformatsiya qildi. Mazkur nazariy yangilanishlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansning intellektual poydevorini barpo etuvchi, raqobatbardosh va innovatsion tafakkurga ega shaxsni shakllantirishning fundamental metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchini shunchaki bilim iste'molchisidan intellektual qiymat yaratuvchi faol subyektga aylantirishi bilan dolzarbdir.

Jahon pedagogikasida keng tan olingan tadqiqotchi Jon Hatti o'zining uzoq yillik tadqiqotlari natijalari asosida o'quvchi muvaffaqiyatiga ta'sir etadigan eng kuchli omillarni aniqladi va "o'quvchi muvaffaqiyatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan omil – o'qituvchining o'z o'qitishini o'zi o'rganib borishi va o'quvchining o'z o'rganishini o'zi boshqara olishidir. Ta'lim jarayonini har ikki tomon – ham o'qituvchi, ham o'quvchi – ko'ra bilishi shart", [9, 22-b.] deb xulosa beradi.

Bundan tashqari, Xoward Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi[3]ni ham pedagogik transformatsiyaning uchinchi muhim tayanch nuqtasi sifatida e'tirof etish o'rinlidir. Xususan, o'zining "Tafakkur qoliplari: Ko'p qirrali intellekt nazariyasi" ("Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences") asarida shunday yozadi: "Har xil turdagi intellektlarni tan olish va rivojlantirish – bu pedagogikaning eng dolzarb vazifasidir. Biz barchamiz bir-birimizdan asosan shu sababli farq qilamiz: har birimizda turli turdagi intellektlarning o'ziga xos kombinatsiyasi bor" [10, 12-b.].

Bu masalada o'zbek olimi A. Zunnunov shunday yozadi: "Pedagog o'z o'quvchisini tushunishi uchun avvalo uni kuzatishi, uning tabiatini anglashi kerak. Chunki har bir bola – bu pedagogika uchun yangi muammo va yangi kashfiyot. O'qitishning ustaxona siri – farqni ko'rishda, farqni qabul qilishda yotadi" [11, 167-b.].

[3] Ko'p intellektlar nazariyasi (Multiple Intelligences Theory) – H. Gardner (1983) tomonidan ilgari surilgan psixologik-pedagogik nazariya. Unda insonda yagona bir intellekt emas, kamida sakkizta turli intellekt turi mavjudligi asoslanadi: lingvistik, matematik-mantiqiy, musiqiy, fazoviy, kinestetik, tabiiy, shaxslararo va shaxsiy intellektlar.

Demak, pedagogik g'oyalar transformatsiyasi ta'limni shunchaki axborot uzatish modelidan shaxsning intellektual salohiyatini yuzaga chiqaruvchi dinamik jarayonga aylantirdi. Hattie, Gardner va Zunnunov kabi olimlarning fundamental qarashlari ta'lim muvaffaqiyati o'quvchining subyektiv faolligi hamda individual intellekt xususiyatlarini inobatga olishga bevosita bog'liqligini isbotlaydi. Mazkur paradigmal evrilish Yangi O'zbekistonda raqobatbardosh, kreativ va intellektual salohiyatli avlodni shakllantirishning muhim metodologik yo'nalishdir.

4. "Z" va "Alfa" avlod uchun samarali pedagogik yondashuvlar: nazariyadan amaliyotga. "Z" va "Alfa" avlodlari uchun samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash – bu shunchaki ta'limni modernizatsiya qilish emas, balki **tubdan o'zgargan kognitiv voqelikka moslashishdir.** Ushbu avlodlar axborotni qabul qilish tezligi, diqqat ko'lami va motivatsiya manbalari jihatidan avvalgi avlodlardan keskin farq qiladi.

Bu boradagi samarali pedagogik yondashuvlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

Birinchi yo'nalish – **adaptiv va differensiyallangan ta'lim.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [12]. Bu qonuniy talab L.Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga asoslanib, har bir o'quvchi uchun uning rivojlanish zonasiga mos vazifalar taklif etilishini taqozo etadi. Amaliyotda bu shuni anglatadi: sinf ichida o'quvchilarni qobiliyat, qiziqish va o'rganish uslubi bo'yicha guruhlarga ajratish; har bir guruh uchun maxsus moslashtirilgan topshiriqlar tayyorlash; o'quvchining o'z tezligida harakatlanishiga imkon berish. Zamonaviy sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim platformalari bu yondashuvni texnologik jihatdan yangi darajaga ko'tarmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – **loyiha-asosli ta'lim (Project-Based Learning).** "Z" va "Alfa" avlod yodlash emas, qilish orqali o'rganadi. Ular real muammolarni hal qilish, real natijalar ko'rish va haqiqiy jarayonda ishtirok etish orqali bilimni o'zlashtiradi. Tapscottning tadqiqotlari ko'rsatishicha, yangi avlod "axborot oluvchi" emas, "axborot yaratuvchi" bo'lishni xohlaydi [13, 34-b.]. Loyiha-asosli ta'limda o'quvchilar muayyan haqiqiy muammoga duch keladi, ma'lumot to'playdi, hamkorlikda yechim izlaydi va natijani taqdim etadi. Bu jarayonda bilim passiv emas, faol va amaliy tarzda quriladi. Shuning uchun loyiha-asosli ta'lim "Z" va "Alfa" avlod uchun eng samarali metodlardan biri sifatida tan olinmoqda.

Uchinchi yo'nalish – **formativ baholash va o'z-o'zini baholash.** Raqamli muhitda o'sgan o'quvchi doimiy fikr-mulohaza olishga o'rgangan xuddi video o'yinda har bir harakat uchun darhol ball olingani kabi. Formativ baholash o'quvchiga o'z progressini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Hattining tadqiqotlari ko'rsatishicha, sifatli fikr-mulohaza o'quvchi muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi eng kuchli pedagogik omillardan biri hisoblanadi [9, 22-b.]. Formativ baholash bir vaqtning o'zida o'qituvchiga ham muhim ma'lumot beradi: u sinfda kim tushundi, kim qiynalayotganini real vaqtda ko'rib, darsni shunga moslashtira oladi. Bu ikki tomonlama informatsiya kanali ta'lim jarayonini dinamik va moslashuvchan qiladi.

To'rtinchi yo'nalish – **gamifikatsiya va interaktiv o'rganish.** "Z" va "Alfa" avlod video o'yinlar bilan o'sgan – bu ularga darhol fikr-mulohaza, progress ko'rsatkichlari, qiyinlashtirilib boruvchi darajalar va muvaffaqiyat hissini bergan. Ta'lim jarayonini ana shu mexanizmlar

bilan boyitish, ya'ni gamifikatsiya – o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli oshiradi. Bunda "o'yin" so'zi o'yinchoq degani emas, u engagement mexanizmi, ya'ni o'quvchini jarayonga jalb etish texnologiyasi. Ishmuhamedovning ta'kidlashicha, "interfaol metodlar orqali berilgan bilim o'quvchi xotirasiga emas, tajribasiga yuklanadi" [6, 89-b.] – bu esa barqaror va uzoq muddatli o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Beshinchi yo'nalish – **raqamli vositalar va ko'p formatli ta'lim muhiti.** McCrindlening tadqiqotlariga ko'ra, "Alfa" avlod axborotni asosan vizual va audio formatda qabul qiladi [4, 134-b.]. Faqat matn va darslikka asoslangan ta'lim bu avlod uchun yetarli emas. Video, animatsiya, interaktiv simulyatsiya, virtual reallik va sun'iy intellekt vositalarini o'z ichiga olgan ko'p formatli ta'lim muhiti zarur. Bu yondashuv Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi bilan uyg'un: turli formatlar turli intellekt turlariga murojaat qiladi va shunday qilib ko'proq o'quvchiga yetib borish imkoni ochiladi.

5. O'zbekiston kontekstida pedagogik transformatsiya: imkoniyatlar va to'siqlar. O'zbekiston ta'lim tizimida kechayotgan pedagogik transformatsiya jarayoni – bu shunchaki darsliklarni yangilash emas, balki butun boshli ta'lim falsafasini o'zgartirish demakdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu jarayon ulkan imkoniyatlar eshigini ochish bilan birga, jiddiy tizimli to'siqlarga ham duch kelmoqda. Quyida ushbu jarayonning O'zbekiston kontekstidagi asosiy jihatlarini tahlil qilamiz.

Imkoniyatlar: Strategik yuksalish omillari. O'zbekiston uchun pedagogik transformatsiya quyidagi resurslar va platformalarga tayanadi:

Siyosiy iroda va "Uchinchi Renessans" konsepsiyasi: Davlat darajasida ta'limning ustuvor yo'nalish etib belgilanishi va "Yangi O'zbekiston strategiyasi" doirasidagi islohotlar pedagogik innovatsiyalar uchun huquqiy va ijtimoiy himoya yaratmoqda.

Raqamlashtirish shiddati: Maktablarning yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlanishi va "IT-Park" kabi loyihalar ta'limga EdTech (ta'lim texnologiyalari) elementlarini olib kirish imkonini bermoqda.

Xalqaro integratsiya: PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishimiz milliy metodikani jahon standartlari bilan solishtirish va kamchiliklarni aniq ko'rish imkonini berdi.

Yosh avlod salohiyati: O'zbekiston aholisining katta qismini tashkil etuvchi yoshlar ("Z" va "Alfa") tabiiy ravishda texnologiyaga moyil bo'lib, ular yangi pedagogik yondashuvlarni (STEAM, PBL) juda tez qabul qilmoqdalar.

To'siqlar: Transformatsiya yo'lidagi "G'ovlar". Har qanday katta o'zgarish kabi, bu yo'lda ham o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud:

Konservativ tafakkur: Ko'p yillik tajribaga ega pedagoglarning an'anaviy "avtoritar" va "faqat axborot beruvchi" modelidan voz kechishi qiyin kechmoqda. "O'qituvchi – darsning yagona xo'jayini" degan tushuncha hali ham ustuvor.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish: OTM larda pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi hamon ko'proq nazariyaga asoslangan. Bitiruvchi yosh mutaxassis maktabda zamonaviy texnologiyalarni (masalan, TRIZ yoki keys-stadi) qo'llashda amaliy ko'nikma yetishmovchiligiga duch kelmoqda.

Moddiy-texnik bazadagi tafovut: Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi maktablar bilan chekka qishloqlardagi maktablar o'rtasidagi raqamli tafovut (Digital Divide) transformatsiyaning bir tekis kechishiga to'sqinlik qilmoqda.

Qog'ozbozlik va ortiqcha yuklamalar: Garchi tizimli kamaytirilgan bo'lsa-da, o'qituvchining darsga kreativ yondashishi uchun zarur

bo'lgan "bo'sh vaqt" va "erkinlik" hali ham turli hisobotlar va ortiqcha vazifalar bilan cheklanib qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib quyidagi xulosalarni berish mumkin:

Birinchidan, "X", "Y", "Z" va "Alfa" avlodlar o'rtasidagi farq tobora tezlashib bormoqda. "Z' va "Alfa" avlod – bu faqat yangi demografik guruh emas, bu yangi tafakkur madaniyati, yangi o'rganish arxitekturasi va yangi muloqot tizimining sohiblari. Ularni tushunmasdan turib samarali ta'lim muhiti qurish mumkin emas.

Ikkinchidan, an'anaviy ta'lim tizimining oltita asosiy cheklovini ajratish mumkin: o'quvchini passivlikka mahkum etish; yagona tezlik va dasturda barcha o'qitish; faqat yodlashni baholash; intellektual xilma-xillikni inkor etish; tanlov imkonini bermaslik; va ta'limni hayotdan ajratib qo'yish. Bu cheklovlar sirtqi muammo emas, ular ta'lim paradigmasining o'zagida yotadi va shu o'zakni o'zgartirmasdan turib, ularni bartaraf etib bo'lmaydi.

Uchinchidan, pedagogik g'oyalar transformatsiyasi uchun oltita asosiy yo'nalish belgilanadi: adaptiv va differensiallashtirilgan ta'lim; loyiha – asosli o'qitish; formativ baholash tizimi; gamifikatsiya va interaktiv o'rganish; raqamli ko'p formatli muhit; tanqidiy tafakkur va media savodxonlik. Bu yo'nalishlar O'zbekistonning amaldagi ta'lim qonunchiligiga mos keladi va milliy kontekstda amalga oshirilishi mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekiston uchun bu transformatsiya strategik zaruriyat. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ta'lim tizimi millat kelajagini belgilaydi. Yangi O'zbekiston qurilishi uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlovchi, ijodkor va raqamli savodxon avlod aynan chuqur pedagogik transformatsiya orqali shakllanishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston kontekstida transformatsiyani muvaffaqiyatli yakunlash uchun pedagog nafaqat "bilim beruvchi", balki o'quvchi bilan birga "izlanuvchi fasilitator"ga aylanishi shart. To'siqlarni yengishning eng samarali yo'li – bu metodistlar va amaliyotchi o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish hamda ta'limda natijani emas, balki jarayonni va ko'nikmani (soft skills) birinchi o'ringa qo'yishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M. Mirziyoyev. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 352 b.

2. Howe, N. Generations: The History of America’s Future, 1584 to 2069 / N. Howe, W. Strauss. – New York : William Morrow, 1991. – 538 p.

3. Howe, N. Millennials Rising: The Next Great Generation / N. Howe, W. Strauss. - New York : Vintage Books, 2000. -432 p.

4. McCrindle, M. The ABC of XYZ: Understanding the Global Generations / M. McCrindle, E. Wolfinger. – Sydney : UNSW Press, 2011. – 246 p.

5. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants / M. Prensky // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1-6.

6. R.J. Ishmuhamedov. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 256 b.

7. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / L.S. Vygotsky. – Cambridge : Harvard University Press, 1978. -159 p.

8. K. Hoshimov. Pedagogika tarixi : darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 304 b.

9. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement / J. Hattie. – London : Routledge, 2009. – 392 p.

10. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences / H. Gardner. – New York : Basic Books, 1983.,440 p.

11. A. Zunnunov. O‘zbekiston pedagogikasi tarixi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000., 286 b.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020.

13. Tapscott, D. Grown Up Digital: How the Net Generation is Changing Your World / D. Tapscott. – New York : McGraw-Hill, 2009. – 384 p.

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining ilmiy-nazariy va oʻquv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA'LIMI:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2026-yil,
4-son

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Ziyo koʻchasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-oktyabrdagi 363/5-son qaroriga asosan
"Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar" roʻyxatiga kiritilgan

Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$. Nashr bosma tabogʻi 28.
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 01.05.2026.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosmaxonasi
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
olingan matnlar "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" ilmiy-nazariy
va oʻquv-uslubiy jurnalidan olindi, deb koʻrsatilishi shart.

© "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" jurnali, 2026.